

**B.X.MADRIMOV**

# **MUSIQA O'QITISH TEXNOLOGIYALARI VA LOYIHALASH**



ISBN 978-9943-6571-6-8



9 789943 657168



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**B.X.MADRIMOV**

**MUSIQA O'QITISH  
TEXNOLOGIYALARI VA  
LOYIHALASH**

**(darslik)**

Bilim sohasi:	100000 - Gumanitar
Ta'lim sohasi :	110000 - Pedagogika
Ta'lim yo'nalishi:	5111100 - Musiqa ta'limi

**Buxoro  
“Durdona” nashriyoti  
2020**

**UO'K 373.5.016:78**

**74.268.53**

**M 14**

Madrimov, B.X.

Musiqa o'qitish texnologiyalari va loyihalash [Matn] : darslik /  
B.X.Madrimov. - Buxoro : "Sadridin Salim Buxoriy" Durdona  
nashriyoti, 2020. - 184 b.

**KBK 74.268.53**

**Mas'ul muharrir:**

**Rustam Abdullaev**, O'zbekiston Respublikasi Bastakorlar  
uyushmasi raisi, O'zR san'at arbobi, professor, kompozitor.

**Taqrizchilar:**

**Baxtiyor Mustafoyev** - pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

**Davron Ro'ziyev**- pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

**O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta  
maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 4-maydagi 285-sonli  
buyrug'iga asosan nashr etishga ruxsat berilgan. Guvohnoma  
285-105.**

**ISBN 978-9943-6571-6-8**

Mazkur bakalavr ta'lim standartlariga kiritilgan «Musiqqa o'qitish texnologiyalari va loyihalash» fanini o'zlashtirishda pedagogik texnologiyalarni musiqqa darslarida yangi, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, ijodiy jarayonni tashkil etish, umumta'lim maktablari musiqqa darslari ishlanmalari va darsdan tashqari musiqiy mashg'ulotlar ssenariyalari haqida so'z yuritilgan.

Musiqqa o'qitish texnologiyalari va loyihalash fani o'zi va o'rganuvchi uchun qulay bo'lgan yo'llarni, usul va uslublarni, o'qitish shakllari, metod va vaziyatlarni izlaydi, zamonaviy pedagogik texnologiyaga suyanib, o'quv jarayoni samaradorligini oshiradi. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatib, o'quv jarayonining yuqori sifat va samaradorligiga erishadi. Ta'limning samaradorligini oshirish, shaxsning ta'lim markazida bo'lishi va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlash uchun ta'lim muassalariga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan va o'z soxasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol usullarni biladigan. Ulardan o'quv va tarbiyaviy mashg'ulotlarni tashkil etishda foydalanish qoidalarini biladigan talabalar pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar bilan qurollantirish va olgan bilimlarini o'quv- tarbiyaviy mashg'ulotlarida qo'llash malakalarini uzluksiz oshirib borishni ko'zda tutadi.

Darslik uzluksiz ta'lim tizimining musiqiy ta'lim yo'nalishi, xususan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida va umumta'lim maktablarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilar va pedagogika oliy o'quv yurtlarning talabalari uchun mo'ljallangan.

Речь идет о внедрении на уроках музыки новых, современных технологий, организации творческого процесса, разработке уроков музыки в общеобразовательных школах и сценариях внеклассных музыкальных занятий по предмету «Технология и проектирование музыкального обучения», включенного в эти стандарты образования бакалавра.

Технологии музыкального обучения и проектирования ищут пути, методы и методы, формы обучения, методы и ситуации, которые удобны для самого ученика и студента, опираясь на современные педагогические технологии, повышают эффективность учебного процесса. Обучая студентов самостоятельному мышлению, они достигают высокого качества и эффективности учебного процесса. В целях повышения эффективности образования, обеспечения того, чтобы человек был в образовательном центре и

получил независимые знания молодежи, он хорошо подготовился к учебным заведениям и знал современные педагогические технологии и интерактивные методы в дополнение к прочному овладению знаниями в своей области. Студенты, знающие правила использования их в организации учебных и воспитательных занятий, должны постоянно повышать свою квалификацию, вооружать их педагогическими технологиями и интерактивными методами и применять полученные знания на учебно - воспитательных занятиях.

Учебник предназначен для учителей и студентов педагогических высших учебных заведений, работающих в средних общеобразовательных учреждениях и общеобразовательных школах, а также для направления музыкального образования системы непрерывного образования.

We are talking about the introduction of new, modern technologies in music lessons, the organization of the creative process, the development of music lessons in secondary schools and scenarios of extracurricular music lessons on the subject "Technology and design of music education", included in these standards of bachelor's education.

Music learning and design technologies are looking for ways, methods and techniques, forms of learning, methods and situations that are convenient for the student and the student, based on modern pedagogical technologies, increase the efficiency of the educational process. Teaching students independent thinking, they achieve high quality and efficiency of the educational process. In order to improve the effectiveness of education, to ensure that the person was in the educational center and received independent knowledge of young people, he was well prepared for educational institutions and knew modern pedagogical technologies and interactive methods in addition to a solid mastery of knowledge in their field. Students who know the rules of their use in the organization of training and educational activities should constantly improve their skills, equip them with pedagogical technologies and interactive methods and apply the knowledge gained in the educational classes.

The textbook is intended for teachers and students of pedagogical higher educational institutions working in secondary educational institutions and secondary schools, as well as for the direction of music education system of continuous education.

## MUNDARIJA

<b>Kirish .....</b>	<b>8</b>
<b>I bo‘lim. Musiqa o‘qitish texnologiyalari va loyihalash .....</b>	<b>10</b>
I.1. Musiqa madaniyati o‘qituvchisining musiqiy pedagogik mahorati .....	10
I.2. Musiqa madaniyati o‘qituvchisi pedagogik ijodkorligi va pedagogik texnologiya haqida tushuncha .....	20
<b>II bo‘lim. Musiqa madaniyati darslarini o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish muammolari va darsda muloqotni tashkil etish .....</b>	<b>35</b>
II.1. Musiqiy pedagogika metod va prinsiplari. ....	35
II.2. Muloqot jarayonini tashkil etish. Musiqiy muloqotni tashkil etish shakllari. ....	43
<b>III bo‘lim. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo‘llari. ....</b>	<b>50</b>
III.1. Innovatsion ta'limning nazariy ahamiyati.....	50
III. 2. Musiqa o‘qitish texnologiyalari va loyihalash. ....	75
III.3. Musiqiy ta'lim jarayonida zamonaviy interfaol metodlardan foydalanish.....	79
<b>IV bo‘lim. Musiqada ijodiy jarayonni tashkil etish muammolari.....</b>	<b>89</b>
IV.1. O‘quvchilarning musiqiy qobiliyatini rivojlantirishda tayyorgarliksiz she‘r, kuy, musiqali ohang ijod etish. ....	89
IV.2. Ta‘lim -tarbiya jarayonida foydalaniladigan o‘qitish metodlari - pedagogik texnologiyalar. ....	97
<b>V bob. Darsdan tashqari musiqiy mashg‘ulotlar va ssenariylar</b>	<b>105</b>
V.1. Umumta‘lim maktablarida darsdan tashqari musiqiy mashg‘ulotlar. “Stsenariy” texnologiyasi.....	105
V.2. Milliy musiqa (to‘garak) ansamblini tashkil etish usullari ....	142
<b>“Musiqa o‘qitish texnologiyalari va loyihalash” fanidan test savollari .....</b>	<b>168</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....</b>	<b>180</b>

## СОДЕРЖАНИЕ

<b>Введение .....</b>	<b>8</b>
<b>I глава. Технологии и проектирование музыкального обучения .....</b>	<b>10</b>
I.1. Музыкальное педагогическое мастерство учителя музыкальной культуры .....	10
I.2. Учитель музыкальной культуры-это понятие о педагогическом творчестве и педагогической технологии .....	20
<b>II глава. Проблемы подготовки к проведению уроков музыкальной культуры и организации общения на уроке ...</b>	<b>35</b>
II.1. Методы и принципы музыкальной педагогики. ....	35
II.2. Организация процесса общения. Формы организации музыкального общения.....	43
<b>III глава. Пути повышения эффективности обучения с использованием инновационных технологий. ....</b>	<b>50</b>
III.1. Теоретическое значение инновационного обучения.....	50
III. 2. Технологии и проектирование музыкального обучения. ....	75
III.3. Использование современных интерактивных методов в процессе музыкального образования. ....	79
<b>IV глава. Проблемы организации творческого процесса в музыке. ....</b>	<b>89</b>
IV.1. Творчество стихов, мелодий, музыкальных мелодий без подготовки к развитию музыкальных способностей учащихся. ....	89
IV.2. Методы обучения, используемые в образовательно-воспитательном процессе - педагогические технологии. ....	97
<b>V глава. Внеклассные музыкальные занятия и сценарии... </b>	<b>105</b>
V.1. Внеклассные музыкальные занятия в средних школах. Технология "сценария" .....	105
V.2. Методы организации национального музыкального (кружкового) ансамбля .....	142
<b>Тесты.....</b>	<b>168</b>
<b>Литература .....</b>	<b>180</b>

## CONTENT

<b>Introduction .....</b>	<b>8</b>
<b>I chapter. Technology and design of music education.....</b>	<b>10</b>
I.1. Musical pedagogical skills of the teacher of musical culture....	10
I.2. Teacher of musical culture is the concept of pedagogical creativity and pedagogical technology .....	20
<b>II chapter. Problems of training to teach musical culture and organizational communication in the classroom.....</b>	<b>35</b>
II.1. Methods and principles of music pedagogy. ....	35
II.2. Organization of communication process. Forms of organization of musical communication. ....	43
<b>III chapter. Ways to improve the effectiveness of training using innovative technologies. ....</b>	<b>50</b>
III.1. The theoretical value of innovative learning.....	50
III. 2. Technology and design of music education .....	75
III.3. The use of modern interactive methods in the process of music education.....	79
<b>IV chapter. Problems of the organization of the creative process in music. ....</b>	<b>89</b>
IV.1. Creativity of poems, melodies, musical melodies without preparation for the development of musical abilities of students. ...	89
IV.2. Teaching methods used in the educational process-pedagogical technologies. ....	97
<b>V chapter. Extra-curricular music lessons and scenarios.....</b>	<b>105</b>
V.1. Extracurricular music classes in secondary schools. Technology "scenario" .....	105
V.2. Methods of organization of the national musical (circle) ensemble .....	142
<b>Tests .....</b>	<b>168</b>
<b>Literature .....</b>	<b>180</b>



## KIRISH

Mazkur darslik 5111100 – Musiqa ta’limi yo’nalishi talabalari uchun mo’ljallangan bo’lib, unda bo’lg’usi musiqa madaniyati o’qituvchilari egallashi zarur bo’lgan bilim, malaka va ko’nikmalar minimumi belgilab berilgan. Darslik o’qituvchi o’quvchilarni faollashtiradigan, o’zi va o’rganuvchi uchun qulay bo’lgan yo’llarni usul va uslublarni o’qitish shakllari, metod va vaziyatlarni izlashni, pedagogik texnologiyaga suyanib o’quv jarayoni samaradorligini oshirishni, hisobga olib tuzilgan.

Darslikni o’qitishdan maqsad – amaliy faoliyatni o’zlashtirish jarayonida qo’shimcha ta’lim, uni o’zlashtirish jarayonida ilmiy amaliy faoliyatini Musiqa madaniyati o’qituvchisi, litsey, pedagogik kolleжда mahoratli o’qituvchini tasvirlab berish. Musiqa pedagogika muammosiga zamonaviy yondashish va uni yechishni chuqur va keng tasvirlash.

Darslikda musiqa o’qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalari ta’limining mazmuni, o’qituvchi va o’quvchilar musiqa o’qitish texnologiyalari va loyihalashga pedagogik ta’sir etish, musiqa ta’limida rivojlanuvchi ijodiy o’yinli va interaktiv uslublar, haqida asosiy ma’lumotlar berish. Musiqa ta’limi va tarbiyasi sohasidagi ilg’or tajribalarni umumlashtirish. Darsdan tashqari olib boriladigan tadbirlarni mustaqil tayyorlashni o’rganishga tayyorlash xususida fikr yuritilgan.

Musiqa o’qitish texnologiyalari va loyihalash fani o’zi va o’rganuvchi uchun qulay bo’lgan yo’llarni, usul va uslublarni, o’qitish shakllari, metod va vaziyatlarni izlaydi, zamonaviy pedagogik texnologiyaga suyanib, o’quv jarayoni samaradorligini oshiradi. O’quvchilarni mustaqil fikrlashga o’rgatib, o’quv jarayonining yuqori sifat va samaradorligiga erishadi. Ta’limning samaradorligini oshirish, shaxsning ta’lim markazida bo’lishi va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta’minlash uchun ta’lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko’rgan va o’z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol usullarni biladigan. Ulardan o’quv va tarbiyaviy mashg’ulotlarni tashkil etishda foydalanish qoidalarini biladigan talabalarni pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar bilan qurollantirish va olgan bilimlarini o’quv-

tarbiyaviy mashg'ulotlarida qo'llash malakalarini uzluksiz oshirib borishni ko'zda tutadi.

Davlat ta'lim standarti, o'quv dasturi, yangi avlod darsliklarini yaratilishi hamda madaniy rivojlanishni yuqori bosqichlarga ko'tarish, jahon hamjamiyati safidan munosib o'rin egallashga yo'naltirilgan ezgu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Yangi ta'lim standartlarini o'zlashtirish, mustaqil fikr yuritishga undash, yangi texnologiya asosida ish olib borish bevosita o'qituvchi faoliyatiga bog'liqdir. Ta'lim samaradorligini oshirish, davlat ta'lim standartlarining bajarilishini ta'minlash, ta'limning sifat ko'rsatkichini kafolatlashda zamonaviy pedagogik texnologiya hal qiluvchi omillardan hisoblanadi.

Darslikning asosiy maqsadi: - oliy o'quv yurti talabalariga umumta'lim maktablari musiqa darsi va darsdan tashqari musiqiy mashg'ulot ishlarida, o'quv jarayonida davlat ta'lim standartlarining bajarilishida ta'lim samaradorligini oshirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayonida qo'llash, o'quv mehnatini amalga oshirishda, o'qituvchi va o'quvchini izlanishga, o'z ustida ishlashga undaydi.

Ushbu darslikda musiqa o'qitish jarayonida musiqiy pedagogik mahorati tarkibi o'z ichiga oladigan badiiy musiqa, musiqiy san'at mazmunida shaxsni axloqiy estetik va tinglash madaniyatini shakllantirish, o'quvchilarni ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda o'yin holatini qo'llash, o'quvchilarni mustaqil tayyorlashda malaka ko'nikmalarni shakllantirish, pedagogik ijodkorlik, o'quv tarbiyaviy vazifalarni yechishda va musiqiy ta'limni o'rganishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish, musiqa darslarida musiqiy muloqot jarayonini tashkil etish, musiqa fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligi haqida suhbat, innovatsion pedagogik texnologiyalar yordamida musiqiy ta'lim samaradorligini oshirish, dars ishlanmalari va umumta'lim maktablarida darsdan tashqari musiqiy mashg'ulotlar ssenariyalari haqida uslubiy tavsiyalar berilgan.

**Muallif**

# **I BO‘LIM. MUSIQA O‘QITISH TEXNOLOGIYALARI VA LOYIHALASH**

## **I.1. Musiqa madaniyati o‘qituvchisining musiqiy pedagogik mahorati**

Zamonaviy o'qituvchi - kelajak bunyodkori, yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konsepsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ'ibotchisidir.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, “Ta'lim to'g'risida»gi “O'zbekiston Respublikasi Qonunlari asosida milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimida jahon miqyosidagi yutuqlarga tayanib yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirishda pedagog mahorati alohida o'rin tutadi.

Milliy dasturda ko'zda tutilgandek, zamonaviy axborot texnologiyalari va kompyuterlar mukammalashib, o'quv jarayoniga tatbiq etib borilyapti.

O'qituvchining pedagogik mahorati - o'quv jarayonining barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo'naltirish, talaba - o'quvchilarda dunyoqarash qobiliyatini shakllantirish, jamiyat uchun zarur bo'lgan faoliyatga moyillik uyg'otish asosiy vazifalardan hisoblaniladi.

Pedagogik maqsadning o'ziga xosligini quyidagilarda bilish mumkin:

Pedagogik faoliyatning maqsadi jamiyat tomonidan belgilanadi, ya'ni, pedagogik faoliyatning natijasi jamiyat manfaatlari bilan bog'liqdir. Uning mehnati yoshlar shaxsini har tomonlama kamol toptirishga yo'naltirilgan. Pedagogik faoliyat avlodning ijtimoiy uzviyligi (ketma-ketligi)ni ta'minlaydi. Bir avlod tajribasini, ikkinchi avlodga o'tkazadi, ijtimoiy tajriba orttirish uchun insondagi tabiiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqaradi.

Pedagog faoliyati doimo shaxs faoliyatini boshqarish bilan bog'liq. Bunda pedagogik maqsad o'quvchi maqsadiga aylanishi muhimdir! Pedagog o'z faoliyati maqsadini va unga erishish yo'llarini

aniq tasavvur qilishi hamda bu maqsadga erishish o'quvchilar uchun ham ahamiyatli ekanligini ularga anglata olishi zarur. Gyote ta'kidlaganidek: «Ishonch bilan gapir, ana shunda so'z ham, tinglovchilarni mahliyo qilish ham o'z-o'zidan kelaveradi».

Pedagogik ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi faoliyatini boshqarish shuning uchun ham murakkabki, pedagog maqsadi doimo o'quvchi kelajagi tomon yo'naltirilgan bo'ladi. Buni anglagan holda mohir pedagoglar o'z faoliyatining mantig`ini o'quvchilar ehtiyojlariga muvofiq holda loyihalaydilar. Hamkorlik pedagogikasining tub mohiyati ham ana shundan iborat.

Shunday qilib, pedagogik faoliyat maqsadining o'ziga xosligi o'qituvchidan quyidagilarni talab qiladi:

- jamiyatning ijtimoiy vazifalarini to'la anglab, o'z shaxsiga qabul qilishi. Jamiyat maqsadlarining «o'sib», uning pedagogik nuqtai nazariga aylanishi;

- muayyan harakat va vazifalarga ijodiy yondashishi;

- o'quvchilar qiziqishlarini e'tiborga olish, ularni pedagogik faoliyatning belgilangan maqsadlariga aylantirish.

Pedagogik faoliyatning o'ziga xosligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Inson o'zining alohida xususiyatlariga ega bo'lgan, ro'y berayotgan voqealarni idrok qila oladigan va ularga o'zicha baho beradigan takrorlanmaydigan faol mavjudotdir. Psixologiyada ta'kidlanganidek, har bir shaxs takrorlanmasdir. U pedagogik jarayonning o'z maqsadi, ishtiyoqi va shaxsiy xulqqa ega bo'lgan ishtirokchisi hamdir.

Pedagog doimo o'sib-o'zgarib boradigan inson bilan ishlaydi. Ularga yondashishda bir xil qolib, shakllanib qolgan hatti-harakatlardan foydalanish mumkin emas. Bu esa pedagogdan doimo ijodiy izlanib turishni talab qiladi.

O'quvchilarga pedagogdan tashqari, atrof-muhit, ota-ona, boshqa fan o'qituvchilari, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy hayot ham ta'sir etadi. Shuning uchun ham pedagog mehnati bir vaqtning o'zida jamiki ta'sirlarga va o'quvchilarning o'zida paydo bo'lgan fikrlarga tuzatishlar kiritib borishni nazarda tutadi.

O'quvchi shaxsiga doimo ijobiy-axloqiy ta'sir ko'rsata oladigan kishigina haqiqiy tarbiyachi hisoblanadi. Bunga erishish uchun

pedagog o'zining axloqiy sifatlarini doimo takomillashtirib borishi talab etiladi.

O'quvchilarni mehnat, muloqot, o'yin, o'qish kabi faoliyat turlarida ishtirok etishlari tarbiyaning asosiy vositasi hisoblanadi. Har bir mohir pedagog o'zining individual pedagogik tizimiga ega bo'lishi lozim. Bunda albatta mamlakatimizdagi ilm-fan, ta'lim, milliy-madaniy qadriyatlar, hamda musiqiy meros, musiqiy ijrochilik, xonandalikdagi qator yutuqlarimiz bilan o'quvchi-yoshlarni tanishtirib borish katta ahamiyat kasb etadi.

U o'quvchi-yoshlar psixologiyasini o'rganishi va har biriga nisbatan individual yondashishi, dars va mashg'ulot jarayonida ularning talab va istaklari qondirilishi uchun harakat qilishi, yaxshi ijodiy natijaga erishishga, har bir o'quvchi-yoshlarni safarbar eta olishi, bir so'z bilan aytganda, yoshlarning ma'naviy ehtiyojini qondirish uchun sharoit yaratishi lozim. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda undan yuqori badiiy did, yangilikni tez his qilish, hayot bilan hamnafas bo'lish, mohir tashkilotchilik qobiliyati talab qilinadi. Bosh vazifa - badiiy ijodiyot yoki san'atning biror tor yo'nalishi bo'yicha mutaxassislar tayyorlash emas, balki, har tomonlama komil insonni tarbiyalash uchun uni axloqiy pok, go'zallik va ezgulikni yaxshi his eta oladigan, o'z axloqi bilan boshqalarga o'rnak bo'la oladigan ma'naviy etuk insonlarni tarbiyalash ishiga ko'maklashishdir.

O'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash va unga puxta talim berish ishida o'quv-tarbiyaning yanada samaradorligini taminlash maqsadida cholg'u ijrochiligi malakalarini egallash uslubiyotining nazariyasi va unga xos bo'lgan o'rgatish "texnologiyasini" rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

O'quvchi-yoshlar talimida muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritishi, bilmaslikdan-bilishga, qo'lidan kelmaslikdan uddalay olishga, yani o'z kuch- g'ayratlarining ma'nosi va samarasini anglashga tomon siljish, yutuqlar quvonchini his etishni taminlovchi sharoitlarni yaratish, mehnatsevarlik, o'qishga havas va o'qish iqtidorini tarbiyalash asosiy vazifalardan biridir. Musiqa tufayli insonda oliyjanoblik, ulug'vorlik, go'zallik tashqi dunyodagina emas, balki uning o'zida ham mavjud ekanligi to'g'risidagi tasavvur yuzaga keladi. O'zbek xalqining bebaho, mumtoz, nodir musiqa asarlarini xalq cholg'ularida badiiy, yetuk ijro etishni rivojlantirish, hozirgi davrimizda yoshlarni musiqaga bo'lgan qiziqishini orttiradi.

Pedagogik mahorat haqida tushuncha:

“Pedagogik mahorat” bir kategoriya sifatida o‘zining ilmiy asoslariga ega. Jumladan:

- pedagogik mahorat kasbiy faoliyatdagi individuallikning yorqin sifatida tushuniladi.

- pedagogik mahorat kategoriyasi kasbiy faoliyat nuqtai nazardan kishining individualligini xarakterlaydi.

- mahorat talabalar tomonidan ularning sotsial yetuklikka erishish darajasiga qarab bosqichma-bosqich egallanadi. Sotsial yetuklik komponentlari, pedagogik mahorat komponentlari pedagogik mahorat komponenti bilan quyidagi nisbatda bo‘ladi. Bo‘lg‘usi pedagogning sotsial yetuklik komponentlariga quyidagilar kiradi:

Sotsial o‘z-o‘zini belgilash - o‘zining pedagogik qobiliyatlari va e‘tiqodini namoyon qilish;

Sotsial faollik - odamlar bilan ishlay olish va boshqalarni tarbiyalash tajribasini takomillashtirish;

Sotsial mas‘uliyat - o‘qituvchining bilimdonligiga aylanadigan bilimlar. Pedagogik mahorat komponentlari N.V. Kuzmina, V.A. Slastenin, I.A. Zazyun, V.I. Zagvyazinskiy, G.I. Xozyainov, T.F. Kuzina, A.I. Mashenko, N.P. Lebednik, T. Noyner, Yu.K. Babanskiy, N.V. Kuxarevlarning tadqiqotlarida o‘rganilgan. Ular pedagogik mahoratning asosiy yo‘nalishlarini muayyan mantiqiy izchillikda belgilab berdilar.

Pedagogik mahorat asoslariga: kasbiy pedagogik bilimlar, insonparvarlikka yo‘nalganlik, pedagogik texnika, kasbiy pedagogik faoliyatni amalga oshirish tajribasi, pedagogik shaxsga taalluqlidir.

Mahoratning shakllanish bosqichlariga: reproduktivlik (boshlang‘ich), ijodiylik, ijodiy-novatorlik kiradi.

Pedagogik mahorat darajalari o‘qituvchi ish darajasining davomi hisoblanadi:

- reproduktiv (o‘ta past);

- moslashuvchan (past);

- lokal (chegaralangan)-modellashtirish (o‘rtacha qoniqarli).

Bu daraja talabalar bilan bo‘ladigan o‘quv-tarbiya ishlarining ayrim yo‘nalishlarida yuqori sifati bilan xarakterlanadi:

Izchil modellashtirish (yuqori). Bu bosqichda, pedagog faoliyatining barcha turlarida yuqori sifatga erishiladi;

Izchil modellashtirish (oliy). Bunda faoliyatning barcha turlarida ijodiy munosabat paydo bo'ladi. O'quv tarbiya samaradorligini oshirish yo'llari izlanadi.

Musiqqa san'ati umumxalq san'atiga aylanib bolalar bog'chasi, musiqa maktablari, o'rta umummaktablar, o'quvchilar saroyi, madaniyat uylari, yoshlar ijodiy uylarida keng qo'llanib kelinmoqda.

Chet el klassik kompozitorlar hamda qardosh xalqlar kompozitorlari bilan bir qatorda O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlarining yuksak badiiy qiymatga ega bo'lgan asarlarini ijro etish uchun ham keng imkoniyatlar yaratildi.

Mohir o'qituvchi-ustoz shogirdlarini hayotdagi rang-barang hodisa va voqealarni sinchkovlik bilan kuzatadigan, tahlil qila oladigan, ilmiy tadqiqot ishiga qiziqadigan, bir umr o'zi o'qitgan fanning sehri bilan yashaydigan qilib tarbiyalaydi. Bunday mohir, mehribon ustozlarni shogirdlar bir umr eslaydilar.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek: "Fuqarolar endi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni ishtirokchisi emas, balki bunyodkori va tashkilotchisidir".

Pedagogika haqli ravishda tabiatning oliy mahsuli - insonning ma'naviy-amaliy shakllanishi, uning shaxs sifatida rivojlanishi, barkamol inson shakllanish qonuniyatlarini, mutaxassislik asoslarini o'rgatuvchi ustuvor fanlardan biriga aylandi.

Ma'lumki, didaktikaning predmetini o'rgatish, o'rganish hamda ta'lim mazmuni tashkil qiladi. Bunda ishtirok etayotgan uchta komponent bir - biri bilan uzviy aloqada bo'lib, ulardan birortasini e'tibordan chetda qoldirish mumkin emas.

Ishni o'rganish yoki o'rgatishdan boshlasak, tabiiy ravishda nimani (qaysi mazmundagi o'quv materialini) o'rganmoqchimiz yoki o'rgatmoqchimiz, degan savol tug'iladi.

O'rgatish ham, o'rganish ham, ularning ohirgi natijasi ham ta'lim mazmuniga bog'liq.

Har xil mazmundagi matnlarni o'ziga xos usullar bilan o'zlashtirish qabul qilinganligi uchun o'rgatishning qanday bo'lishi uning mazmunidan kelib chiqadi, bu esa o'rganishni tashkil etuvchi, ya'ni o'rgatuvchiga bog'liq.

Xulosa qilib aytganda, didaktik tafakkur bu - o'rganish, o'rgatish va ta'lim mazmunining doimiy aloqalari, munosabatlarini izlash, aniqlash demakdir.

O'qituvchi o'quvchilarni faollashtiradigan, o'zi va o'rganuvchi uchun qulay bo'lgan yo'llarni, usul va uslublarni, o'qitish shakllari, metod va vaziyatlarni izlaydi, zamonaviy pedagogik texnologiyaga suyanib, o'quv jarayoni samaradorligini oshiradi. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatib, o'quv jarayonining yuqori sifat va samaradorligiga erishadi.

Shu boisdan ham, pedagogik texnologiya, didaktik texnologiya, ta'lim texnologiyalariga o'quv jarayonidagi eng samarali vositalar deb qaralmoqda. Ulardan dunyo pedagogik amaliyotida keng foydalanilmoqda.

Hozirgi kundagi eng dolzarb masala va vazifa ta'lim standartlarini o'quv jarayoniga tatbiq etishdan iboratdir.

Agar bu vazifa amalga oshirilmas ekan, ta'lim - tarbiya sohasida sifat va samaradorlikka erishish, o'quv jarayonini takomillashtirish masalalari hal etilmay qoladi.

Ta'limni demokratlashtirish, individuallashtirish, mintaqaviy xususiyatlarni xisobga olish tamoyillari asosida barcha o'quv predmetlari qatori, jumladan, musiqa predmeti bo'yicha ham o'qitish kontseptsiyasi ishlab chiqildi. Musiqa madaniyati o'quv predmeti o'quvchilarning ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Musiqa madaniyati o'quv predmeti umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan barcha o'quv predmetlari, jumladan, adabiyot, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya, mehnat va boshqa fanlar bilan bog'lanadi. Barcha o'quv fanlari qatori musiqiy ta'limda ham DTS larning joriy etilishi milliy musiqiy meroslardan to'la qonli foydalanish imkonini beradi. Bular amaliy xalq kuy va qo'shiqlarida, xonanda va sozandalarning ijodiy faoliyatlarida, maqom, shashmaqom, dostonlar va bugungi zamonaviy musiqa asarlarida o'z aksini topdi. Musiqa san'atining bu kabi imkoniyatlari yangi avlodni tarbiyalashda, ularning barkamol bo'lib yetishlarida o'ziga xos va takrorlanmas manbaa bo'lib xizmat qiladi. Azaldan Sharq, jumladan, o'zbek musiqa ta'lim-tarbiyasi pedagogikasi va uning mukammal ustoz va shogird an'analari misolida takomillashib borgan. Davlat ta'lim standartlarida ommaviy xalq musiqa pedagogikasi, professional



musiqa ijodkorlari, musiqa ijrochilari (sozanda, xonandalar) katta ashulachilar, maqomchilar, dostonchilar tomonidan asarlarning elementar asoslarini o'rganish me'yorlashtirilgan. Musiqa ta'limida davlat ta'lim Standartlari asosida yangi ta'lim mazmuni o'quvchilarning musiqiy bilim va malakalari bilan birga ularda kuzatuvchanlik, xotirani mustahkamlash, obrazli tassavur qilish, ularda ijodkorlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, badiiy va musiqiy did kabi xislatlarni rivojlantirishni ta'minlaydi. Musiqa madaniyati ta'limining yangi mazmuni yosh avlodni milliy musiqiy merosimizga vorislik qila oladigan, umumbashariy, musiqa boyligini idrok eta oladigan madaniyatli inson darajasida voyaga etkazishni nazarda tutadi. Bunda o'quvchilar musiqa san'atini butun nafosati bilan o'rganishlari, ommaviy musiqa faoliyatlari: musiqani badiiy idrok etish, yakka va jamoa bo'lib qo'shiq kuylash, raqsga tushish va ijodkorlik malakalarini shakllantirish asosiy maqsad bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, o'quvchilar musiqiy iqtidorni rivojlantirish, musiqa san'atiga mehr va ishtiyoqni oshirish, musiqa san'atiga qiziquvchi o'quvchilarning o'sishlari uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratib berish, ularning badiiy ehtiyojlarini qondirish musiqiy ta'lim - tabiyaning asosiy vazifasini tashkil etadi. Shu bilan bir qatorda, jahon xalqlarining umuminsoniy musiqiy qadriyatlarini ham chuqur o'rganish, yosh avlodni xalqaro nufuzga moyillik bo'lgan madaniy durdonalardan baxramand bo'lishni ta'minlaydi.

Jamiyat taraqqiyoti hech qachon to'xtab qolmaydi, uning g'ildiragi doimo oldinga qarab aylanaveradi, bu tabiiy, tarixiy jarayondir. Shuning uchun ham musiqa madaniyati o'qituvchisi o'quvchilarni ma'naviy, badiiy va ahloqiy madaniyatini shakllantirishi, milliy g'ururi va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishi, ijodiy mahoratning, nafosatda, badiiy didni o'stirishi, fikr doirasini kengaytirishi mustaqillik va tashabbuskorlikni muntazam ravishda shakllantirib borish lozimdir. Biz bilamizki, pedagogik tarbiya haqidagi fan sifatida tarbiyaning mohiyatini tushunishini, uning qonunlarini ochib berishi va shu orqali inson manfaatlari tarbiya jarayoniga ta'sir etishini nazarda tutadi.

Musiqa madaniyati o'qituvchisining pedagogik mahoratlaridan eng avval, ta'lim-tarbiya sohasida orttirilgan tajribalarni o'rganishi lozim. Bu albatta, ko'pgina muammolarni hal etishda yaqindan yordam beradi.

Ilg'or o'qituvchilar tajribasi bilan bir qatorda oddiy o'qituvchilarning faoliyatlari ham o'rganib boriladi. Chunki tajribalarni o'rganish jarayondagi muammo: yutuq va kamchiliklar aniqlanadi. Bunda kuzatish, intervyu olish, anketalashtirish, o'quvchilarning yozma va ijodiy ishlari, pedagogik xujjatlarini o'rganish metodlardan foydalaniladi. Masalan: kuzatishda o'rganish lozim bo'lgan pedagogik hodisani ma'lum maqsadidan kelib chiqqan holda kuzatish bayonnomasini olib boradi. Bu jarayon aniq reja asosida olib borilishi kerak.

Suhbat esa fakt - dalillar to'plash yoki kuzatish davomida to'plangan materiallarga aniqlik kiritish maqsadida olib boriladi.

«Suhbat mustaqil yoki yordamchi metod sifatida qo'llaniladi».

Anketalashtirish material to'plash maqsadida amalga oshiriladi. Mahoratli o'qituvchi barcha o'quvchilarning maktab hujjatlarini o'rganishi lozim. Bunga o'quvchilarning shaxsiy hujjatlari, metodistning xabarlarini, kundaliklar, majlis bayonnomalaridan xabardor bo'lishi nazarda tutiladi. Shuningdek, darsdan tashqari musiqiy to'garak ishlarini ham olib boradi. Jumladan, qadimgi Gretsiyada musiqa yordamida donolikni, mardlikni tarbiyalashi mumkin deb hisoblangan. Haqiqatdan har bir san'at insonga ruhiy ta'sir ko'rsatadi. Musiqa ayniqsa emotsional ta'sir etishda katta kuchga ega. Shuning uchun ko'pgina davlatlarda musiqadan ko'p yo'nalishlar bo'yicha keng foydalaniladi.

Maktablar faoliyatining hozirgi nazariyasi va amaliyotida o'quv tarbiya jarayonining yangi yo'llarini amalga oshirish va uni olib borishning ko'plab variantlari mavjud. Har bir muallif hamda amaliyotchi pedagogik jarayonga o'zining individual ulushini qo'shadi. Lekin, ko'p yangi texnologiyalar o'z maqsadlari, mazmuni qo'llaniladigan metodlari va vositalari bo'yicha yetarlicha ko'p o'xshashliklarga ega, ularni shu umumiy belgilariga ko'ra tasnif qilinadi:

- asosiy rivojlantiruvchi omili bo'yicha;
- o'zlashtirish kontseptsiyasi bo'yicha;
- shaxsiy belgi sifatlariga ko'ra yo'nalganligi bo'yicha;
- mazmun xususiyatlari bo'yicha;
- boshqaruv turi bo'yicha;
- bolaga yondashuvi bo'yicha;
- ko'p qo'llaniladigan metodlar bo'yicha;

- ta'lim oluvchilar toifalari bo'yicha.

Yuqoridagi tasnif asosida misol sifatida hozirgi an'anaviy maktab ta'limini quyidagicha tasniflash mumkin:

- Qo'llanish darajasiga ko'ra: umumpedagogik;

- falsafiy asosi bo'yicha; majburlash pedagogikasi;

- (umumiy majburiy ta'lim);

- asosiy rivojlantiruvchi omili bo'yicha: asosiy e'tibor jamiyatning faol a'zolari bo'lgan barkamol insonlarni tarbiyalashga qaratilgan; shu bilan bir vaqtda shaxsning har tomonlama rivojlanishiga ham e'tibor qaratilgan holda;

- o'zlashtirish kontsepsiyasi bo'yicha; asostiativ - reflektor bo'lib, suggestiya (namuna, misol, o'rnak, ibrat ko'rsatish) ga tayangan holda.

- Shaxsiy belgi sifatlariga ko'ra yo'nalganligi bo'yicha; axborotli, ya'ni bilim, malaka, ko'nikmalarini shakllantirish va mustahkamlashga yo'naltirilgan;

- mazmun xususiyatlari bo'yicha: dunyoviy, texnokratik, umumta'lim mazmunida bo'lib, ta'lim - tarbiya jarayonida tashkil qilish va olib borishda didaktikaga markaziy o'rin beriladi;

- boshqaruv turi bo'yicha: an'anaviy-mumtoz (klassik) bo'lib, unga ta'limni texnika vositalari qo'shilgan;

- bolaga yondashuv bo'yicha: avtoritar;

- ko'p qo'llaniladigan metodlari bo'yicha tushuntirish-illyustratsiyalash;

- ta'lim oluvchilar toifalari bo'yicha ommaviy.

Shu bilan bir vaqtda, jamiyatning rivojlanishi alohida mamlakatlarda va umuman jahonda insonparvar falsafiy asosdagi yangi pedagogik texnologiyalarni yaratdi. Har bir darsning alohida xususiyati mavjud. Musiqa o'qituvchisining ham o'ziga xos sirlari bo'ladi. Musiqaga muhabbat, qiziqish bilan qarash, o'quvchi- bolalarga bor bilimlarini berishga intilish va ishga sidqidildan yondashish, insonning ish jarayonidagi hayoti bilan yashash maqsadga muvofiqdir. Tajribada pedagoglar musiqa fanini murakkabligini va o'qituvchi bilan sozandaning bog'liqligini ko'rsatib o'tganlar.

Musiqa o'qituvchisi o'quv va tarbiya ishlarini olib boradi. U faqatgina keng bilimga ega bo'lib qolmay, o'zining fanini ham yaxshi va chuqur bilishi lozimdir. Bolalarni musiqa san'ati bilan tarbiyalashda dunyoqarashi, fikrlashi, tushunchasi birinchi darajali ahamiyatga

egadir. Musiqa kishi hissiyotini, ayniqsa, emotsional estetik hissiyotini faol rivojlantiradi.

Musiqa o'qituvchisi yaxshi sozanda va yaxshi san'atkor bo'lishi lozimdir.

Musiqa cholg'usida yaxshi chalish, ijro eta olish, yaxshi ovozga ega bo'lishi, notaga qarab yaxshi ijro qilishi, bolalar qobiliyatini ajrata bilishi lozimdir. Musiqa o'qituvchisi musiqa asbobida yaxshi ijro etishi juda muhimligi quyidagida belgilanadi. Birinchidan: Jonli ijro etish - sinfdan kayfiyatni yaxshilaydi.

Ikkinchidan: Jamoa bo'lib (xor) ijro etayotganda hohlagan epizodni yoki (taktik) jumlaning qaytarish mumkin.

Uchinchidan: Musiqa asbobida ijro eta oladigan musiqa o'qituvchisi o'z tarbiyalanuvchilariga musiqani o'zi ijro etish naqadar qiziqarliligini va muhimligini amaliyotda ko'rsatib o'tadi.

Musiqa o'qituvchisi musiqa asbobini yaxshi ijro etishi bilan cheklanib qolmay yaxshi tovush, dirijyorlik jesti bilan, musiqa nazariyasini mukammal bilmog'i va ijod qilishi lozimdir. O'qituvchining shaxsiy namunasi va bilim darajasi musiqa fanining taqdirini hal qiladi.

O'qituvchi bulardan tashqari darslarni kuzatib borishi ham lozimdir. Doimiy kuzatishlar orqali o'qituvchi pedagogik mahoratini egallab boradi. U vaziyatni (situatsiyani) baholashga, o'quvchilarning ichki tuyg'ularini sezishga o'rganadi. Kuzatish 1-7 sinflar davomida amalga oshiriladi. Eng asosiysi: o'qituvchi asarni ijro etibgina qolmay, balki uning mazmuni bilan ham tanishtirishi lozim, buning uchun o'qituvchining nutqi ravon, qisqa, hamda tushunarli bo'lishi kerak.

Musiqa madaniyati darsida o'qituvchining mahorati har tomonlama yuksak darajada bo'lishi lozim. Uning asar haqidagi kirish so'zi va dars mavzusini tushuntirib berishi, o'quvchilarni ajoyib va sehrli san'at - musiqa olamiga olib kiradi. Va qiziqarli suhbat bilan bolalar diqqatini musiqa mavzulariga yo'naltirishi mumkin. O'qituvchining musiqa asari haqidagi hikoyasi qisqa, qiziqarli bo'lishi kerak va o'quvchilarni badiiy idrok etishga erishtirishi lozimdir.

Dars davomida o'qituvchi o'quvchilar bilan mulohaza usulini qo'llasa, musiqa haqida to'g'ri mulohaza yuritishga, aniq xulosalar chiqarishga yordam beradi. Suhbat jarayonida ko'proq o'quvchilar bahsga o'tadilar. Bu faoliyatida o'qituvchi rejissyor singari ularni boshqarib, to'g'ri xulosalarga erishtirilishi lozim.

## **I.2. Musiqa madaniyati o'qituvchisi pedagogik ijodkorligi va pedagogik texnologiya haqida tushuncha**

Pedagogik texnologiya hozirda barcha pedagogik kasblar hamda ta'lim - tarbiya jarayonini tashkil qilish, boshqarish, nazorat qilish bilan bog'liq kasblarning asosini tashkil qiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan barcha pedagoglar xabardor bo'lishlari zarur.

Ta'lim - tarbiya mazmuni, maqsad va vazifalari davrlar o'tishi bilan kengayib borishi natijasida uning shakl va usullari ham takomillashib bormoqda. Hozirda inson faoliyatining asosiy yo'nalishlari shu faoliyatdan ko'zda tutilgan maqsadlarni to'liq amalga oshirish imkoniyatini beruvchi yaxlit tizimga, ya'ni texnologiyalarga aylanib bormoqda. Xuddi shu kabi ta'lim - tarbiya sohasida ham so'ngi yillarda pedagogik texnologiya amal qila boshladi.

Pedagogik texnologiya tushunchasi XX asrda paydo bo'ldi va turli rivojlanish bosqichlaridan o'tib kelmoqda.

O'tgan asrning 50 - yillari o'rtasidan 60 - yillargacha «ta'lim texnologiyasi» atamasi qo'llanilib, bunda dasturlashtirilgan ta'lim nazarda tutilgan.

70 - yillarda «pedagogik texnologiya» atamasi qo'llanilib, u avvaldan loyihalashtirilgan va aniq belgilangan maqsadlarga erishishni kafolatlovchi o'quv jarayonini ifodalagan.

80 - yillarning boshidan pedagogik texnologiya deb ta'limning kompyuterli va axborot texnologiyalarni yaratishga aytilgan.

Pedagogik texnologiya ta'riflari:

«Pedagogik texnologiya - barkamol insonni shakillantirish faoliyati». Shu bilan birga, pedagogik texnologiyaning keng ko'llamli, serqirra tushuncha ekanligini hisobga olgan holda, uning quyidagi yana bir nechta ta'riflarini keltirishimiz mumkin: pedagogik texnologiya axborotlarini o'zlashtirish, ulardan amalda foydalanish, ulardagi yangi ma'no - mazmunlarni hamda axborotlar orasidagi turli bog'liqliklarni ochish orqali yangi axborotlar yaratishga o'rgatish jarayonidan iborat.

Pedagogik texnologiya - ta'lim metodlari, usullari, yo'llari hamda tarbiyaviy vositalar yig'indisi; u pedagogik jarayonning tashkiliy - uslubiy vositalari majmuidir.

Pedagogik texnologiya - bu o'z oldiga ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini o'quvchi, butun o'qitish va bilimlarni

o'zlashtirish jarayonini texnik resurslar va odamlarning o'zaro munosabatlarini hisobga olgan holda yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli metodidir.

Pedagogik texnologiya - ma'lumotlarni o'zlashtirish uchun qulay shakl va usulda uzatish hamda o'zlashtirish jarayonidan iborat.

Demak, pedagogik texnologiya insonga (ta'lim-tarbiya oluvchiga) oldindan belgilangan maqsad bo'yicha ta'sir o'tkazish faoliyatidan iborat.

Pedagogik texnologiya o'quvchini mustaqil o'qishga, bilim olishga, fikrlashga o'rgatishni kafolatlaydigan jarayondir.

Pedagogik texnologiya jarayonida o'qituvchi rahbarligida o'quvchi mustaqil ravishda bilim oladi, o'rganadi, o'zlashtiradi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublar dan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundankunga kuchayib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi.

Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchi-talabalarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Pedagogik texnologiyalarning turlari ko'p bo'lib, yo'nalish va maqsadlarga asosiy e'tibor qaratilgani bilan farq qiladi.

Pedagogik texnologiya jarayonlarini o'rganishning soddalashtirilgan tartibini quyidagicha tushunish mumkin:

Tushuntirish - axborotning ma'no - mazmunini, undan foydalanish tartibini turli vosita va usullarni qo'llab, tushuntiruvchining o'zi tushungan darajada boshqalarga yetkazish faoliyatidan iborat jarayon.

Tushunish - axborotning ma'no-mazmunini idrok qilish, undan ko'rsatilgan tartibda mustaqil foydalana olish.

O'rgatish - axborotdan foydalanish va turli harakatlarni bajarish ko'nikmalarini o'rgatuvchining o'zi o'rgangan darajada boshqalarni takrorlay olishini, turli vosita va usullarni qo'llab amalga oshirish faoliyatidan iborat jarayon.

O'rganish - axborotdan foydalanish va turli harakatlarni ko'rsatilgan tartibda mustaqil bajarish ko'nikmalarini egallash.

O'zlashtirish - tushunish, o'rganish orqali axborotning ma'no-mazmuni, undan foydalanish yoki harakatlarni bajarish tartibi to'g'risida bilim va ko'nikmalar hosil qilish.

O'zlashtirish shartli ravishda quyidagi uchta darajaga ajratiladi.

- 1) O'rgatilgan bilim, ko'nikmalarni to'g'ri takrorlash;
- 2) Ularni amalda, faoliyatda qo'llash, ulardan tegishli maqsadlarda foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish;
- 3) Ularni ijodiy tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish, xulosalar chiqarish asosida takomillashtirish faoliyatini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lish.

Shu bilan birga, pedagogik texnologiyalarning hammasida ham birdek qo'llaniladigan va ta'lim-tarbiya jarayonining tarixiy tarkib topishida va rivojlanib borishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan asosiy tarkibiy elementlar, so'zlash, ko'rsatish va mashqlar bajarishdan iborat bo'lib, ular o'zaro quyidagicha ketma- ketlikda va bog'liqlikda amal qiladi:

Pedagogik texnologiyalardagi asosiy tarkibiy elementlar

So'zlash

Ko'rsatish

Mashq

O'quvchi faoliyatidagi asosiy jarayonlar

Tinglash

Ko'rish

Mashq bajarish

O'qituvchi faoliyatidagi asosiy jarayonlar

### **Musiqqa madaniyati'' darslarining didaktik prinsiplari**

Musiqqa madaniyati mashg'ulotlari pedagogikaning didaktik nazariyasi va prinsiplari asosida tuziladi. Mazkur prinsiplar musiqqa rahbari hamda bola tomonidan bajariladigan barcha ta'lim asoslari-mashg'ulotlar mazmunining metodlari va mashg'ulotlarning tuzilishidagi asosiy talablar va uning yo'nalishlarini belgilab beradi. Mazkur prinsiplar asosan, o'quv materiallarini qo'llash, musiqqa mashg'ulotlari (darslari) mazmuni va rejasini tuzish jarayonida qo'llanadi. Yuqoridagi qayd etilgan umumdidaktik prinsiplari bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, musiqqa mashg'ulotlarini davlat ta'lim

standartiga muvofiq milliy xususiyatlarini asos qilib musiqa faoliyati izchilligini ta'minlaydi.

—Musiqqa madaniyati darslarining didaktik prinsiplari bir necha turdan iborat:

1. Musiqqa ta'limi va tarbiyasida tizimlilik, ilmiylik va davomiylik prinsipi.

Musiqqa ta'limi va tarbiyasida tizimlilik, ilmiylik va davomiylik prinsipi har bir mashg'ulotlarda o'zining tuzilishi va mazmuni bilan ilmiy asosda tashkil topishi lozim. Musiqqa haqidagi bilimlar doirasi, musiqa ta'limi va tarbiyasining asosiy omilidir. Unda insoniyat yaratgan musiqaga oid qoidalar, xulosalar, umumlashgan musiqiy tajribalar o'z aksini topgan. Ularni o'zlashtirish - musiqa amaliyoti yo'lida bilim va ko'nikmalar hosil qilish demakdir.

1) Mashg'ulotlar (darslar) jarayonida o'quv materiallarini bolalarning bilim tajribasiga mosligi, bolalar ovozi rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olish;

2) nota qonuniyatlarini to'g'ri o'rgatish, asoslarini bolalarning fikriy qobiliyatiga mos ravishda tahlil etish;

3) mashg'ulotlarining ilmiylik prinsiplarini tashkil etish;

Ilmiylikni, tizimliliksiz amalga oshirish qiyin. Mashg'ulot (dars)larning barcha o'quv faoliyatini hamda keyingi mashg'ulot (dars)larning o'zaro mantiqiy bog'lanishi tizimlilik asosini tashkil etadi. Kuylash va tinglash uchun asarlarni bilim va malaka darajasiga ko'tarib, soddadan murakkabga, noma'lumdan - ma'lumga qarab o'zlashtirib borish prinsiplari muayyan tartibga mos bo'lib, tizimlilik demakdir. Mashg'ulotlarning har bir faoliyati o'z navbatida, har bir mashg'ulot, darslarning mantiqiy davomi bo'lib, pedagogik maqsadlarni tobora amalga oshirishi davomiylik prinsipi demakdir.

Musiqqa darslarida musiqiy bilimlarni o'zlashtirish mukammal o'ylangan va asoslangan tizim bo'yicha o'tilishi o'ta muhim ahamiyatga ega. Beriladigan bilimlar soddadan murakkabga qarab yo'naltirilgan bo'lmog'i darkor. Ushbu prinsipning buzilishi bolalarning o'quv materialini o'zlashtirishlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi, ularning musiqa madaniyati mashg'ulot (dars)lariga bo'lgan qiziqishlarini so'ndiradi. Musiqiy bilimlarni tushuntirishda musiqa rahbari (o'qituvchisi), avvalo, o'tilgan mavzularga tayanmog'i lozim. Musiqqa savodi, jumladan, musiqiy bilimlarni o'zlashtirish



jarayonida beriladigan bilimlar aniq tizimga solingan bo‘lmog‘i kerak. Yangi tushuncha va bilimlar avval o‘zlashtirilgan bilimlarga asoslangan bo‘lishi, asta-sekin kengaytirilib va chuqurlashtirib borilishi lozim.

«...oddiydan murakkabga va chuqurroqqa qarab borgan holda o‘z didimizni mumtoz musiqaning eng yaxshi namunalari, zamonaviy kompozitorlarning eng yaxshi asarlari asosida tarbiyalashimiz kerak».

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Innovatsiya nima?
2. Texnologiya nima?
3. Pedagogik texnologiya tushunchasi qachon paydo bo‘ldi va uni rivojlanish bosqichlarini ayting.
4. Pedagogik texnologiya ta'riflarini ayting.
5. Musiqa madaniyati predmeti, uning ahamiyati va yangi avlodni tarbiyalab barkamollikka etishtirishdagi o' rni.
6. O'zlashtirish shartlarini sanang.

Amaliy mashg'ulotlar uchun namunalar.

5-sinf musiqa darslari mavzularida interfaol uslublardan foydalanish.

### **BOLALAR UCHUN OPERALAR**

Ushbu darsda «Blits» o'yin texnologiyasi qo'llaniladi.

O'zbek tilida bolalar uchun yozilgan «Yoriltosh», «Malikai ayyor», «Hayvonlar sultoni» operalaridir.

Shunday misollardan biri sifatida Avaz Mansurovning B.Isroil va F.Safarov librettosiga yozilgan - «Hayvonlar sultoni» operasining mazmunini o'qib beriladi. Talabalarga tarqatma materiallar tarqatiladi.

### **PROLOG**

O'rmon. Barcha hayvonlar to'planishib turadigan joy. Sho'x ohanglarda xirgoyi qilib o'tib ketayotgan quyonchalardan so'ng Ertakchi bobo paydo bo'ladi, u o'rmon tabiatini madh etadi. Shu o'rmonda yashaydigan jonzotlarni birma - bir tanishtiradi. Ular - Sher Sulton, Bo'ri, Quyon, Ayiq, Tulki - o'zlari haqida qo'shiqlar aytishadi. Ertakchi bobo tonglar otib, kunlar botib, bunda har kun hayot qaynashini, hech to'ymaslar - ochko'zlar faqat o'lja payida yurishlarini aytadi va bir kun bo'lib o'tgan voqeani tomosha qilishga taklif etadi

## VOQEA

Ikki och bo'rining jangi avjida. Tulki paydo bo'lib, bo'rilar talashayotgan o'limtik kiyikni olib qochmoqchi bo'ladi. Bo'rilar sezib qolib tulkini haydab yuborishadi va jangni davom ettirishadi. Tulki alamkashlik qilib hayvonlar sultoni - Sher Sultonni etaklab keladi. Sher Sulton ikkala bo'ri arzlarini tinglab, ajrim qiladi. Talashganlar tarqalishib, Sher Sulton pana joyda dam olishga yotadi.

O'ynab - quvnab quyunchalar kirib kelishadi. Ayyor tulki yana paydo bo'ladi. Quyonlardan biri «Men botirman! Bokschiman! Hattoki Sher Sultonni nakaut qilib qo'yaman!» deb, maqtanib qoladi. Tulki paytdan foydalanib, hayvonlar sultoniga o'xshatma qilayotgan quyonni Sher Sultonga ro'para qilib qo'yadi. Botirligi puchga chiqadi. Sher Sulton o'zining yengilmasligidan, salobatidan mamnun bo'ladi

Kutilmaganda o'rmonda to's - to'polon boshlanadi. Hamma hayvonlar o'zlarini yo'qotib quyishgan, ular Sher Sultonni ham pisand qilmay qolishdi, hukmdor hayron Hayvonlar tarqalgach, Sher Sulton panaga berkinadi. Baralla qo'shiq aytib, Odam kirib keladi. Sher Sulton ustiga to'r tashlaydi. Hayvonlar yordamida ham Sher to'rdan ozod bo'la olmaydi. U yengilganini bo'yniga olib, «Ne sharting bor!» deb so'raydi. Odam - do'stlik, tinchlik va baxtiyor hayotni taklif etadi.

Tansiq nisholda Tortiq nisholda

Oh, oh nisholda Qaymoq nisholda

Muzqaymoqdan zo'r

Mehmonga yuzim,

Xizmatda o'zim,

Tayyor nisholda

Mador nisholda

Mana yalab ko'r,

Oh oh nisholda Oppoq nisholda

Nazorat uchun savollar.

1.Musiqa o'qituvchisining xususiyati nimada?

2.Pedagogik texnologiya jarayonlarini o'rganishning soddalashtirilgan tartibini ayting.

3.Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat nimalarga ega bo'lishni ta'minlaydi.

4.Yangilik kiritishda qanday metodlardan foydalaniladi?

5.Texnologik xarita va uning ahamiyatini ifodalang.

6. Kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradigan texnologiyalarga tavsif:

Blits o'yin uslubini qo'llab Umumiy o'rta ta'lim maktabining 5-sinf musiqa madaniyati darslarining 4- chorak 7-dars, Bolalar uchun operalar mavzusi bo'yicha dars ishlanmasini tuzing

Yuqorida keltirilgan interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo'llab, 1-7 sinf musiqa madaniyati darslarining ayrimlariga dars ishlanmalari tuzing.

Ijodiy topshiriqlar

Harakat Darsning borishi.

I. Tashkiliy qism (3 daqiqa), o'quvchilar davomatini aniqlash, tashqi ko'rinishlarini, ish qurollari borligini tekshirish.

II. O'tgan dars mavzusini va yangi mavzu uchun zaruriy materiallarni takrorlash, (10 daqiqa).

O'tgan dars yuzasidan savol-javob o'tkazish, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llagan holda o'quvchilar bilimni nazorat qilish.

III. Yangi mavzu yuzasidan yo'l-yo'riqlar (50 daqiqa) ko'rsatish.

REJA:

Yakkanovozlik, jo'rnavozlik va jo'rsozlik. (2-sinfda musiqa darslari.)

Tinglash madaniyati.

O'quvchilarga yangi mavzularni tushuntirishdan avval o'tilgan mavzular mustahkamlanadi va yangi mavzuga bog'langan holda dars olib boriladi. Ushbu darsda «Bumerang texnologiyasi» qo'llaniladi.

Sinf o'quvchilariga savol beriladi.

Musiqachilar kimlar?

Sinf o'quvchilarining javobidan so'ng quyidagicha to'ldiriladi:

Bizni juda ko'p tovushlar qamrab olgan: uyda, ko'chada, bog'da, dalada. (Aslida haqiqiy atrof olamidagi musiqa narsa-hodisalarda mujassamlangan. Ijodkor ularni cholg'ular yordamida ifodalab o'rgatadi).

Haqiqiy musiqiy tovushlar musiqiy cholg'ularda ifodalanadi.

Shuningdek, xonandalar tovushlarida, xorda. Sozandalar, xonandalar ijro etganidagina tovushlar jaranglaydi. Endi shundan kelib chiqib bu jarayon xarakter xususiyatiga qarab yakkanovozlik, jo'rnavozlik va jo'rsozlikka bo'linadi. Qo'shiqlar bir ovozda ijro etilsa

yakkanovozlik deyiladi. Hamma birga ijro etsa «Jamo'a bo'lib kuylash», (ya'ni xor) deyiladi.

Tarqatma materiallar yordamida dars mavzusi tushuntiriladi, (o'quvchilar 3 ta guruhchalarga bo'linadilar.)

1. Guruhchalarga materiallar tarqatiladi.

1-topshiriq. Ushbu rasmda berilgan - Yakkanovozni, jo'rnavozni va jo'rsozni toping.

Yakkanavoz

Jo'rnavoz

Tanlangan javobni kartochkalarda tasvirlangan rasm yonidagi bo'sh katakchaga joylashtiring.

To'ldirilgan kartochkalar doskaga ilib qo'yiladi. (Har bir guruh kartochkalari alohida skoch yordamida ilinadi.)

Har bir guruhdan vakil chiqib mavzuni tushuntirib beradi.

Har bir kartochkalardagi guruh javoblari tahlil qilinadi va xulosa chiqariladi.

Tinglash madaniyati:

Siz hayotda juda ko'p musiqa tinglaysiz:

Radio-televideniya orqali, teatr va konsertlarda, kino lavhalarida, maktabda va uyda musiqa yangraydi. Xalq o'z hayotini qo'shiqda, musiqiy ohangda, raqsda ifoda etadi. Ko'p musiqalarni kompozitorlar yaratadilar.

Ular qo'shiqlar, kuylar, opera, baletlar, xor va orkestr uchun asarlardir.

Musiqa tinglashni bilish muhim vazifa. Buning uchun quyidagi qoidagalarga rioya etish juda zarur.

1. Musiqani diqqat tinchlikda tinglash.

2. To'g'ri va qulay o'tirish.

3. Shovqin qilmaslik, gaplashmaslik, do'stlariga musiqa tinglashga xalaqit bermaslik.

4. Musiqa to'xtaganida qalbingdagi musiqani tinglab va o'ylab ko'rish.

Musiqa sizda qanday taassurot qoldirdi.

Musiqa tinglaganda ko'z oldingizga nima keldi.

Kompozitor ushbu musiqa orqali nima demoqchi?

Musiqa qanday o'zgardi?

Kim uni ijro etdi (yakkaovozmi? Jo'rnavozlikmi? Jo'rsozlikmi? Orkestrmi?)

5. Diqqat bilan o'qituvchining savolini eshiting, o'z taasurotlaringiz xaqida gapirib bering, musiqa haqida fikr yuriting, asar xaqidagi suhbatda qatnashing.

6. Uyda musiqa tinglang.

IV. Yangi o'quv materiallarni mustahkamlash va o'quvchilar bilimni baholash.

Darsning borishi.

I. Tashkiliy qism. (3 daqiqa)

I. O'quvchilar davomatini aniqlash, tashqi ko'rinishlarini, ish qurollarini tashkil etishni tekshirish.

II. O'tgan dars mavzusini va yangi mavzu uchun zaruriy materiallarni takrorlash (10 daqiqa).

O'tgan dars yuzasidan savol-javob o'tkazish, yangi pedagogik texnologiyalarini qo'llagan holda o'quvchilar bilimni nazorat qilish.

III. Yangi mavzu yuzasidan yo'l-yo'riqlar (50 daqiqa) ko'rsatish.

REJA;

1. Musiqaning ifoda vositalari. (3-sinfda musiqa darslari).

2. Musiqadagi dinamik belgilar.

Darsning borishi

A) O'quvchilarda yangi mavzularni tushuntirishdan avval o'tilgan mavzular mustahkamlanadi va darsda yangi mavzu oldingi mavzularga bog'lab o'tiladi, ushbu darsda «Skarabey» texnologiyasi qo'llaniladi.

Musiqaning ifoda vositalari

Musiqaning mazmunini yoritishda turli ifoda vositalaridan foydalaniladi. Ifoda vositalariga sur'at, usul, tovush kabilar kiradi. Quyidagi uch misolda musiqaning ifoda vositalaridan biri bo'lgan sur'atning kuy kayfiyatiga qanday ta'sir etishini kuzating.

Quvnoq, o'rtacha va og'ir sur'atdagi asar parchalaridan o'quvchilarga tinglash uchun berilib o'qituvchi tomonidan tushuntiriladi Musiqaning dinamik belgilari.

Kompozitorlar biron - bir musiqa asarini yaratganlarida ularning ma'lum qismlarini kuchli yoki kuchsiz ijro qilinishini maxsus belgilar bilan ko'rsatadilar. Bu belgilar asarni yoqimli, jiloli eshitilishiga yordam beradi. Musiqada bu belgilar «Dinamik belgilar», deb ataladi.

f - (forte) - kuchli

mf - (messo forte) - kuchliroq

p - (piano) - kuchsiz

mp - (messo piano) - kuchsizroq

So'ngra tarqatma materiallar orqali yangi mavzu mustahkamlanadi. Sinf o'quvchilari 3 ta guruhga bo'linadilar. Guruhlarga kartochkalar aralashtirilib tarqatiladi va topshiriq tushuntiriladi.

Guruhdagi o'quvchilarning vazifasi: 1) Sur'ati, tovush jo'shqinligi, tovush jarangdorliklarini quyidagi rasmda ko'rsatilgandek mustaqil joylashtirish.

2) O'quvchilarga o'qituvchi tomonidan musiqiy asarlar (quvnoq, nafis, kuychang) tinglash uchun beriladi (audio yozuvda yoki ijro etiladi). Guruhlar shu musiqa mazmuniga mos ertak so'zlab berishlari kerak.

Sur'ati, Tez, O'rtacha, Og'ir, Tovush Jo'shqin, Quvnoq, yengil yorqin nafis, kuychan, tovush jarangdorligi.

Har bir guruhning joylashtirgan kartochkalari doskaga skoch yordamida ilib qo'yiladi. Har bir guruhdan vakil chiqib mavzuni va guruhlarning musiqaga mos ertak mazmunini tushuntirib beradilar. Guruh javoblari tahlil qilinib xulosa keltiriladi.

Darsni yakunlash uchun savollar:

1. Musiqa tinglashning ahamiyati nimada?
2. Darsda musiqa tinglash maqsadini aytib bering?
3. Musiqa tinglash bosqichlarini ayting?
4. O'quvchilarda tinglash madaniyatini qanday tushunish mumkin?

5 Asarning badiiy- g'oyaviy mazmuni orqali o'quvchilarga axloqiy - estetik tarbiya berishda o'qituvchi oldiga qanday vazifalar qo'yiladi?

6. Qaysi taniqli klassik musiqalar insonning his tuyg'ularini mujassamlantiradi.

### **Savol va topshiriqlar.**

1. O'quvchilarni musiqa darsiga bo'lgan qiziqishlarini qanday bosqichlarda amalga oshirish mumkin?

2. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar ijodini qanday shakllantirish mumkin?

3. O'quvchilarni ijodiy faoliyatiga tayyorlash bosqichlarini ayting.

4. Musiqa darslarida olib boriladigan ijodiy topshiriqlarga misollar keltiring.

5. O'quvchilar xotirasini faollashtirish uchun qanday metodlardan foydalanish mumkin?

6. O'quvchilarga yangi texnologiyalar bo'yicha topshiriqlar berilganda o'yin qoidalarini eslatish shartmi, uning ahamiyati nimada?

### **Ijodiy topshiriqlar**

Umumiy o'rta ta'lim maktabining 1-4 sinflar dasturidagi ijodiy jarayonni tashkil etuvchi fikrlarni ijroda ko'rsating.

Interfaol uslublar va pedagogic texnologiyalarni qollab 1-7 sinf musiqa madaniyati darslarida ijodiy jarayonni tashkil etish uchun ayrim mavzularga dars ishlanmalar tuzing.

Musiqa - san'at sifatida ijtimoiy ong formasidir. U kishining his tuyg'ularini ifodalash bilan birga, hayotni voqeyilik va davr in'ikosidir. Musiqa darsi jarayonining asosiy omillari sifatida quyidagilar mavjud: musiqani eshitib zavqlanish, qo'shiq ijro etish, musiqa savodiga doir xususiyatlarini anglab olish, raqsga tushish va musiqa sadolari ostida turli harakatlarni bajarish, chapak va cholg'u asboblari ijrosi, maqsadini idrok etib borishdan iborat. Ijro etib musiqaga jo'r bo'lish uchun belgilangan musiqa darsini yuqoridagi maqsadni amalga oshirishda eng avval o'quvchilarni tinglay olish madaniyatiga o'rgatish kerak. Musiqiy tarbiya vazifalarini bajarish, uni amalga oshirish uchun o'quvchilarni tinglashga o'rgatish kerak. Aksariyat ko'pgina odamlar jiddiy musiqani tinglashmaydi, chunki uni tushunishmaydi. Tushunish uchun esa tayyorgarlik talab etiladi. Agar tayyorgarlik ko'rilmasa bilim ham bo'lmaydi. Tinglashga o'rgatish qo'shiq ijro etishdan murakkabdir. (Masalan: simfonik musiqalar, opera va boshqalar).

O'quvchilarni musiqadagi yuksak badiiylik bilan tanishtirib borish lozim. Bunday asarlar o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi va musiqiy didini tarbiyalaydi. Ko'p sonli savodxon tinglovchilarni tarbiyalash uchun musiqa shaydolarini bolaligidan musiqani tushunishga va uni sevishga o'rgatish lozimdir. Musiqani sevish - bu musiqani doim tinglash demakdir. Musiqani tushunish - bu his etish, tahlil etish, bilish demakdir.

Avvalam bor, o'quvchilarni tinch va asarni boshidan oxirigacha tinglashga o'rgatishimiz kerak. O'qituvchi o'quvchilarga asarni tinglash jarayonida nimalarga etibor berish lozimligini aytib o'tishi

muhim. O'qituvchi tinglash davomida rahbarlik qilishi, eng muhimi tinglanayotgan asar o'quvchilar yoshiga mos va esda qoladigan bo'lishidadir.

O'qituvchi tinglanayotgan asar mazmuni orqali o'quvchilarga axloqiy-estetik tarbiya berishga ham jiddiy ahamiyat qaratishi lozim.

Musiqa tinglashga o'rgatishda o'qituvchi oldiga qo'yiladigan vazifalar:

-musiqa san'atiga havas uyg'otish, musiqa tinglash va amaliy vositalar orqali qiziqtirish, bolalarda musiqiy ehtiyojini kuchaytirish, o'quvchilarda (savol javob, suhbatlar orqali) badiiy taassurotlarni to'plab borish.

Buning uchun:

1. Tinglanayotgan asarni oddiy musiqiy pedagogik tahlil etish.

2. Tinglashda oddiy musiqa terminlarini va atamalarini qo'llab borish.

3. Kuyning oddiy tuzilishi, uning ifoda vositalari, ritmik tuzilishlariga qarab chapak chalish va kuylashga o'rgatish.

4. Musiqa ijodkorlari, ijrochilar, cholg'u asboblari turlari bilan tanishtirish.

Shuningdek:

1. Musiqa janrlarini bilish (raqs, balet, opera va boshqalar)

2. Asarning tuzilishini bilish (bandli, 2 qismli yoki 3 qismli)

3. Kompozitorlarning hayoti va ijodini bilish.

4. Musiqiy nutq elementlarini bilish (xarakteri, tempi, dinamikasi, musiqiy ifoda vositalari va boshqalar).

5. Musiqiy estetik ma'lumotlarni bilish (tinglash madaniyati).

O'quvchilar 1-sinfdanoq musiqada mazmun borligini, u kishilarning hayotini aks ettirishini bilishlari lozim. Shuningek, musiqada shakl borligini tasavvur etishlari kerak, (mazmun - bu ifoda etish yoki tasvirlash, shakl - bu kompozitorning asar mazmunini ifoda etishiga bog'liq).

O'quvchilarning musiqiy didini tarbiyalashda o'qituvchining mahorati muhim rol o'ynaydi.

Musiqa tinglash 4 bosqichda olib boriladi.

1. Asarni tushunish uchun bolalar diqqatini jamlash va asar xaqida o'qituvchining kirish so'zi.

2. O'qituvchi ijrosida yoki audio yozuvida musiqiy asarni tinglash.



3. Asarni suhbat yo'li bilan musiqiy badiiy jihatdan oddiy tahlil etish va chorak mavzusini yoritish.

4. Asarni to'liq qayta tinglash, so'ng asar haqida bolalarning umumiy taasurotlari yuzasidan yakuniy suhbat o'tkazish.

O'quvchilarning musiqa madaniyati darsiga bo'lgan qiziqishlarini o'stirish uchun dars samaradorligini oshirish, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini xisobga olgan holda darslarni to'g'ri tashkil etish davr talabi. Musiqa ta'limi jarayonini nazariy jihatdan tahlil qilish, ilg'or o'qituvchilar tajribalarini o'rganish, darsni turli bosqichlarga bo'lib o'tish o'zining ijobiy natijalarini beradi.

1. O'quvchilarni darsga moslashtirishdan iborat bo'lib, o'quvchilarda hayrixoxlik munosabatlarini hosil qilishni, bajariladigan ishlar bilan tanishtirishni, yakka tartibdagi va jamoa vazifalarini belgilashni ta'minlaydi.

2. O'quvchilarning bilim va malakalarni mustahkamlash.

Bunda o'quvchilarning mustaqil fikrlay olishlari uchun bilimlari doirasini kengaytirishga, mavzuga ijodiy yondoshish ko'nikmalarini o'stirishga, fikrlash qobiliyati faolligini takomillashtirishga erishiladi.

3. Eshitish, idrok etishi orqali bilimlar darajasi aniqlanadi. Shu jarayonda o'quvchilarning idrok etish qobiliyatlari tekshirib ko'riladi.

O'quvchilarni musiqa darsiga tezda jalb etib, shu darsga moslashish alomatlarini shakllantirib borishga ham e'tiborni qaratmoq lozim.

Buning uchun: darsning boshlanish qismida quvnoq, sho'x, jozibali biror musiqa asari tinglash tavsiya etiladi. Bu tinglangan musiqa dars jarayonida o'quvchilarda ko'tarinkilik kayfiyati hosil qiladi. Eng muhimi darsning sifatli, qiziqarli o'tishiga yordam beradi.

O'qituvchi tomonidan o'quvchilarda hosil bo'lgan bilim darajasini o'rganish hamda oldingilari bilan taqqoslab borish muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodni boshlanishi yorqin namoyon bo'ladi. Yosh o'quvchilar judayam kashfiyotchi bo'ladilar: talaffuzni taqlid qilish, obrazli ertak mazmunlarini yengil qabul etish, tarixiy qo'shiqlar, musiqiy asarlarni tabiatan faol qabul qiladilar. Bu o'quvchilarda tabiatan faollik berilgan bo'lib, ularda ijodiy qobiliyatlariga ishonch bo'ladi. Mana shular kichik yoshdagi o'quvchilar ijodini shakllanishi, rivojlanishidir. Ijod o'quvchilarning xotirasini faollashtiradi, fikrlashni, kuzatuvchanlikni, maqsadga intilishni rivojlantiradi.

Musiqiy ijodkorlik - fikrlash bilan birga emotsional aktivlikni hamda tez bir qarorga kelish qobiliyatlarini shakllantiradi. O'quvchilar ijodi bu mustaqil faoliyat bilan bog'liqdir. Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilar ijodida asosan musiqiy amaliyotni o'rganish va qiziqtirishda namoyon bo'ladi.

Ijodiy faoliyatga tayyorlash uch yo'nalishda kuzatiladi:

1. Hayotiy musiqiy taassurotlar bilan boyitishda. Masalan: ertaklar, she'rlar, miliy an'analar, kitobdagi asar qahramonlari va musiqiy o'yinlarni o'tkazishda asosiy negizni yaratadilar.

2. O'quvchilarning ijodiy harakat usullari bilan tanishtiradi. Bu maqsadda ularga sodda asarlar, qo'shiqlar, ritmik usullar bilan ohang talaffuzlari beriladi. Musiqiy ijod namunalaridan: Masalan, asarga ritmik kirish qismini yaratish (o'rganiladigan qo'shiq asarlariga kirish qismi berilishi mumkin, bu ijodiy harakat qobiliyatini rivojlantirishga qaratiladi.

3. Bunda avval o'qituvchi ko'rsatadi, keyin hamkorlikda qo'shiq tahlili va maqsadga yo'naltirilgan ijro rejasi aytiladi. Bu yaxshi tanish qo'shiqlar orqali tushuntiriladi. Bir xil va har xil ohang, har xil musiqiy obraz va musiqiy xarakterlarning ifodasiga bog'liq bo'lgan asarlar orqali o'quvchilarni ijodiy faoliyatga tayyorlash katta ahamiyatga egadir. Masalan: ohang kuylarining variantlarini yaratish uchun, o'quvchi talaffuzi, ritmik tajriba va ohanglarni mavjudligini tushunishi lozim (she'r matni, musiqaning ritmik tuzilishi, ohang tuzilishi).

4. O'quvchilarda ijodiy faoliyatlarini shakllantirishda ijodiy topshiriqlar katta rol o'ynaydi. Buni bajarish ko'proq o'qituvchiga bog'liqdir. O'qituvchi ijodiy topshiriqlarni taklif etishda o'yin formasini qo'llaydi. Topshiriqni bajarishda o'yin qoidalari va mazmun aytib turiladi. O'yin darsda emotsional hozirjavoblikni tashkil etishi kerak. Bu juda muhim bo'lib, o'quvchilarda ijodiy yo'nalishlarini shakllantiradi. O'qituvchi o'quvchini ijodiy rivojlanishiga katta ahamiyat berishi kerak. Musiqa tinglashda, qo'shiq ijro etishda, bolalar cholg'u asbobida jo'r bo'lishda va shuningdek, musiqiy ritmik harakatlarda.

### **Nazorat uchun savollar.**

1. Musiqa madaniyati o'qituvchisining pedagogik maxorati nimada?

2. Musiqa ta'limining mazmunini qanday tashkil etiladi?
  3. Pedagogik mahorat komponentlari qanday?
  4. Musiqa tinglash bosqichlarini sanang.
  5. Musiqa madaniyati predmeti yangi avlodni tarbiyalab barkamol bo'lib etishidagi ahamiyatini ayting.
  6. Mahoratli musiqa o'qituvchisi qanday bo'lishi kerak?
  7. O'quvchi musiqa tinglash jarayonida nimalarga e'tibor berish kerak?
  8. O'quvchilarni darsda ijodiy yondashuvlari uchun nimalarga ahamiyat berish kerak?
- Ijodiy topshiriqlar:
- Oddiy o'qituvchilarning faoliyatlarini tahlil qiling.
- Mahoratli musiqa madaniyati o'qituvchisining musiqa darsini kuzating va tahlil qiling.
- Musiqada pedagogik texnologiyalarning ahamiyati qanday, dars ishlanmalaridan misol keltiring.

## **II BO`LIM. MUSIQA MADANIYATI DARSLARINI O`TKAZISHGA TAYYORGARLIK KO`RISH MUAMMOLARI VA DARSDA MULOQOTNI TASHKIL ETISH**

### **II.1. Musiqiy pedagogika metod va prinsiplari.**

Innovatsiya (inglizcha innovation) - yangilik kiritish, yangilikdir.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar bu - jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullarini o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchi -talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- o'quvchi - talabaning dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;

- o'quvchi - talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlashi;

- o'quvchi - talabaning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirishi;

- pedagog va o'quvchi - talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillashtirishi va ta'minlashi.

Pedagogik texnologiya masalalari, muammolarini o'rganayotgan o'qituvchilar, ilmiy - tadqiqotchilar, amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya - bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan TSO (TVF), kompyuter, masofali o'qish yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb belgilanadi.

O'qituvchi va o'quvchi-talabaning maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi - aniq natijaga erishishga qaratilgan, bunda o'quvchi-talabalarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi. Masalan, natijaga erishish uchun balki film, tarqatma material, chizma va plakatlarni, turli adabiyotlar,

axborot texnologiyasi kerak bo'ladi, bular o'qituvchi va o'quvchi - talabaga bog'liq.

O'qituvchi dars ishlanmasini yozish bilan bir qatorda, o'qitish jarayonini oldindan loyihalashtirishi zarur, bu jarayonda o'qituvchi o'quv predmetining o'ziga xos tomonini, joy va sharoitini, TSO ni, eng asosiysi, o'quvchining imkoniyati, ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishini nazarda tutishi kerak, shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin bo'ladi. Qisqa qilib aytganda, o'qituvchi - talabani ta'limning markaziga olib chiqishi kerak.

O'qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit holatda ko'ra bilish va uni tasavvur etish uchun bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib olishi lozim. Bunda o'qituvchi tomonidan bo'lajak darsni texnologik xaritasini tuzib olishi katta ahamiyatga egadir, chunki darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir dars uchun o'qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, o'quvchi - talabalarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi. Bunday texnologik xaritani tuzish oson emas, chunki buning uchun o'qituvchi pedagogika, psixologiya, xususiy metodika, pedagogika va axborot texnologiyalaridan xabardor bo'lishi, shuningdek, juda ko'p metodlar, usullarni bilishi kerak bo'ladi. Har bir darsni rang-barang, qiziqarli bo'lishi avvaldan puxta o'ylab tuzilgan darsning loyihalashtirilgan texnologik xaritasiga bog'liq.

Darsning texnologik xaritasini qay ko'rinishda yoki shaklda tuzish, bu o'qituvchining tajribasi, qo'ygan maqsadi, fantaziyasi va ixtiyoriga bog'liq. Texnologik harita qanday tuzilgan bo'lmasin, unda dars jarayoni yaxlit holda aks etgan bo'lishi, aniq belgilangan maqsad, vazifa va kafotlangan natija, dars jarayonini tashkil etishning texnologiyasi to'liq o'z ifodasini topgan bo'lishi kerak. Texnologik xaritaning tuzilishi o'qituvchi tomonidan darsni kengaytirilgan konspektini yozishdan xalos etadi, chunki bunday xaritada dars jarayonining barcha qirralari o'z aksini topadi.

O'qituvchi tomonidan o'zi o'qitayotgan fanning har bir mavzusi, har bir dars mashg'uloti bo'yicha tuzilgan yuqoridagi kabi texnologik harita unga fan, predmetini yaxlit holda tasavvur etib yondoshishga, tushunishiga (bir semestr, bir o'quv yili bo'yicha), yaxlit o'quv jarayonining boshlanishi, maqsadidan tortib, erishiladigan natijasini ko'ra olishiga yordam beradi.

## **"Musiqqa madaniyati" darslarini tizimlilikka asoslangan holda tashkil etish.**

Musiqiy bilimlarni o'zlashtirish va ko'nikma-malakalarni shakllantirish jarayonida bolalarda o'zlariga ishonch paydo qiladi, ruhlarini ko'taradi va musiqqa mashg'ulotlarlariga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi. Tizimlilik buzilsa, bolalar tez charchaydilar, mashg'ulotlarga nisbatan diqqat va qiziqishlari bo'shashib boradi, mashg'ulotlar materialini o'zlashtirish pasayib ketadi.

Ta'limda izchillikka rioya qilish lozim, toki bugun olingan bilimlar kechagisini mustahkamlasin, ertaga o'rganiladiganiga zamin yaratsin. Shu ma'noda barcha guruhlarda musiqiy bilimlarni berish tizimi (mazmuni)ning tahlil qilish hamda uni tartibga solish katta ahamiyatga ega.

**2. Mashg'ulot (dars)larda bolalarni onglilik va faolligi prinsipi.** Mazkur prinsip didaktikaning yetakchi prinsiplaridandir. Chunki, bilimni o'zlashtirish bolaning aqliy faoliyatiga asos bo'lgan bilish jarayoniga bog'liqdir. Musiqqa idroki kishining hayotiy tajribasini boyitadi, real voqealarni badiiy his etib, bilish, fikrlash qobiliyatini o'stiradi. Mazkur malaka va ko'nikmaning shakllanishi bola ongining uzoq rivojlanish jarayonini talab etadi. Buning uchun, bolaning o'quv materiallarini ongli ravishda bilib o'zlashtirish bilim jarayonlarini faolligini vujudga keltirishi lozim.

1 *National Music Participation Director report, October 2010.*  
<http://www.thefms.org/wpcontent/uploads/2010/12/nmpd-music-data-report-october-2010-final.pdf>

Ma'lum musiqqa asarini kuylab yoki tinglab o'zlashtirish va undan badiiy-estetik, zavqlanib, **idrok etishda**, bolaning eng avvalo, diqqat e'tiborini jalb eta bilish unda qiziqish uyg'ota bilish, onglilik va faollikni vujudga keltiradi.

Musiqani **ongli idrok etish** va o'z navbatida badiiy ohang va mantiqiy jihatdan xotirada turg'un saqlanishni talab etadi.

Musiqqa mashg'ulotlarida onglilik va faollik ayniqsa, vokal-xor malakalarini shakllantirilishi uchun zarurdir. Xor bo'lib qo'shiq kuylash, musiqqa tinglash, musiqqa savodi, faoliyatlarida ham onglilik va faollik musiqani nazariy va amaliy jihatlarini to'g'ri bilish va o'zlashtirishni osonlashtiradi.

## **3. Musiqqa mashg'ulot (dars)larida ko'rgazmalilik prinsipi.**

Musiqqa ta'limida ko'rgazmali idrok etish katta imkoniyatlarga egadir. Eslab qolishda ko'rgazmalilikning o'zi emas, balki uning nutq va amaliy faoliyat bilan birlashtirilishi muhimdir. Shuning uchun ham boshlang'ich guruh bolalari shaxsini shakllantirishda qo'llaniladigan musiqiy bilimlar qo'lami, mazmunini tanlashda mazkur prinsipga mosligiga alohida e'tibor qaratiladi.

Ko'pincha ko'rgazmalilik prinsipini o'quv-bilish faoliyatidagi jonli mushohada va tafakkurning uzviy bog'liqligini ta'kidlab, aniq va mavzuning birligi sifatida, ya'ni xususiydan-umumiyga, aniqdan mavhumba o'tish; boshqa hollarda esa mavhumdan muayyan tushuncha va faktlarga o'tish tarzida talqin qilinadi.

K.D.Ushinskiy ko'rgazmalilik prinsipining pedagogik samarasi haqida shunday degan: «...bu shunday ta'limki, u mavhum tasavvur va so'zlarga emas, balki bolalar bevosita idrok qiladigan ma'lum obrazlarga asoslanadi...». Mazkur prinsip ko'rgazmali metodni tanlashda uning ilmiy-didaktik vazifalarini nazarda tutib, e'tiborni maqsadga muvofiqligiga qaratadi.

Musiqqa tarbiyasida musiqaning o'zi ko'rgazmali vositadir. Chunki, u ko'z bilan emas, balki quloq bilan idrok etiladi. Musiqqa tinglashda ham, asar tahlilida ham, ohang ko'rgazma sifatida chalib ko'rsatiladi. Musiqqa rahbarining o'zi, nutqi, ijrosi ham asosiy ko'rgazma bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, turli tajriba-sinov materiallarini: metodik tavsiyalar, mashg'ulotlar ishlanmalari, sxema, jadvallar, boshqotirmalar, texnik vositalar, ko'rgazmali kartochkalar, grafik yozuvlar, rasmlar, nota ezuvlari, nazorat va boshqa didaktik materiallar va qo'llanmalarni tayyorlashda ham ushbu prinsipga suyaniladi.

#### **4. O'quv materiallarining bolalar bilim va malakalariga mosligi prinsipi**

Mazkur prinsip, dasturdan tanlab olingan o'quv materiallari va mazkur metodik materiallar asosida mashg'ulotlar mazmunini tuzish jarayonida qo'llaniladi. Bunda har bir guruhning umumiy bilim va malaka darajasi hisobiga olinishi shart. Dastur asosida har bir guruhning bilim va malakalari hisobiga olingan holda, musiqqa mashg'ulotlarining yillik kalendar-mavzuli rejasi tuziladi. Kalendar-mavzuli ish rejasining tuzganda, uning mazmunida bolalarning yosh xususiyati, musiqiy o'quvi, yangi qo'shiqlar, musiqqa tinglash uchun

asarlari, musiqa savodidagi o'quv materiallari, mashg'ulotlar faoliyatlari hisobga olinadi.

### **5. Musiqa mashg'ulot (dars)larida bilim va malakalarining mustahkamligi prinsipi**

Mazkur prinsipni amalga oshirishning eng asosiy sharti, yuqorida bayon etilgan to'rtta prinsipga jiddiy amal qilishdan iboratdir. Birinchidan bilim va malakalarning chuqurligi, mustahkamligi va hayotiylikini ta'minlash lozim, ya'ni mazkur asarni va uning ijro uslubini, madaniy hayotimiz uchun zarur ekanligi haqida bolalarda ishonch hosil kilinishi lozim.

Ikkinchidan asarlarni tanlashda quyidagilarga amal qilish kerak:

#### **Asarlarni tanlashda-**

- a) Asarning bolalarni badiiy va axloqiy tarbiyasi uchun mosligi.
- b) Musiqa ta'limining xususiyati.
- s) Guruhdagi barcha bolalarni mazkur asarga qiziqтира olish va to'la o'zlashtirishga erishish.

Uchinchidan mashg'ulotlarda olinadigan bilimlar doirasi va malakalarini amaliyotda takrorlash va mustahkamlash. Masalan: Qo'shiqlarni jummalarga bo'lib o'rgatish va keyingi mashg'ulotlarda mustahkamlab takrorlash.

To'rtinchidan musiqa mashg'ulot (dars)larida har bir yangi bilim elementi mashg'ulotlar faoliyatida to'liq o'zlashtiriladi va keyingi mashg'ulot (dars)larda keng qo'llanilib, doimiy bilimga aylantiriladi.

**6. Ta'lim va tarbiyaning birligi prinsipi.** Maktab bolalariga ta'lim berish bilan birga tarbiyalash, ya'ni ularning aqliy va axloqiy shakllanishlarini bir butunlikda amalga oshirish zarur. Musiqa mashg'ulotlari bolalarga musiqiy bilimlarni berish bilan birga ularning axloqiy sifatlarini ham shakllantirib boradi. Qanday faoliyat turi bo'lmasin, hoh musiqa tinglash, xoh qo'shiq kuylash, xoh musiqa savodi, xoh musiqa ostida ritmik harakatlar bajarish va musiqiy asboblarda jo'r bo'lish - bularning barchasi bolalarning axloqiy fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, musiqiy did, musiqiy qobiliyat, musiqiy tafakkur, musiqiy idrok, musiqiy dunyoqarash va musiqa madaniyatini shakllantiradi.

Bolalarni musiqiy-estetik tarbiyalashning qulay shart-sharoitlari sifatida quyidagilarni tavsiya etadi:



- darslarning maqsadga yo'naltirilganligi (estetik tarbiya borasida);
- musiqa darslarining aniq tuzilishi va o'tilayotgan materialga muvofiqligi;
- o'rgatiladigan materialni to'g'ri tanlash (katta bo'lmagan, lekin yorqin asarlar) va ta'limga mos usul va uslublarni tanlash;
- musiqa o'qituvchisining har bir sinf (guruh) va har bir bolaning o'ziga xos xususiyatlarini bilishi;
- musiqa o'qituvchisining maxsus yo'naltirilgan ishi bolalarning musiqiy-estetik tarbiyasining asosi sifatida bo'lishi;
- musiqa o'qituvchisining bolalarga musiqiy-estetik tarbiya berishida uzviylik va tizimlilikka erishish;
- butun dars (mashg'ulot)lar davomida musiqa o'qituvchisi tomonidan ma'lum bir psixologik muhitning yaratilishi;
- estetik xarakterdagi kechinmalarni hosil qilishi;
- musiqa o'qituvchisining estetik, metodik, psixologik va pedagogik jihatdan tayyor bo'lishi;
- ota-onalarning bolalari estetik didi, qiziqishi va hissiyotlariga e'tibor berishi.

## **7. Musiqa ta'limiga tabaqalashtirilgan tarzda yondashish prinsipi.**

Bolalarning qobiliyati, imkoniyatlariga muvofiq ravishda musiqaga qiziqishlarini oshirish va musiqa bilan shug'ullanishning o'ziga xos yo'llarini tanlash, ularning musiqiy didi, musiqiy idroki, musiqiy dunyoqarashi va musiqiy madaniyatlari shakllanishini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Bolalarning bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini yanada to'laroq qondirishga yo'naltirilgan didaktik choralardan yana biri musiqa ta'limi mazmunini tabaqalashtirishdir. Tabaqalashtirilgan yondashuv asosida bolalar musiqiy bilimlarning uzviyligini ta'minlash uchun bosqichlararo bog'lanishga oid amaliy topshiriqlarni bajarishda turli tayyorgarlikka ega bo'lgan bolalarning har birida mavjud bo'lgan o'quv imkoniyatlarini hisobga olgan holda o'z bilimlarini qo'llashlari va individual yutuqlarga erishishlarini ta'minlash ko'zda tutilishi lozim.

Bu sohada musiqiy bilimlarni o'zlashtirishda guruhdan tashqari olib boriladigan ko'rinishlari ham o'qishni tabaqalashtirish uchun katta imkoniyatlarni ochib beradi. Musiqa ta'limini tabaqalashtirish

uchun bolalarning bilim darajalarini tekshirib chiqib, ularni uch guruhga ajratish:2

***2 Music Education in England: A review by Darren Henley for the Department for Education and Department for Culture, Media and Sport, 7 February 2011.***

1-guruhga - musiqani sevadigan, musiqashunos bo'lish istagidagi, mashg'ulotlarda o'ta faolligi bilan ajralib turuvchi bolalar.

2-guruhga - Musiqiy rahbarning barcha talablarini o'z vaqtida bajaruvchi, lekin musiqiy to'garaklarga qatnashmaydigan, o'zlari mustaqil vazifa bajarmaydigan, biroq mashg'ulotlar vazifalarini o'z vaqtida bajaradigan bolalar.

3-guruhga - uyida musiqaga kam e'tibor beriladigan, berilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarmaydigan, past o'zlashtiruvchi bolalar.

Bolalarni yana ovoz diapazoniga qarab ham tabaqalashtirish mumkinligini ko'rsatib bersh. Ovozga qarab tabaqalashtirishda faqat ovozni hisobga olmasdan, bolalar musiqiy bilimlarini qay darajada o'zlashtirganliklarini ham hisobga olishni ta'kidlab o'tgan.

Musiqiy bilimlarni o'zlashtirishni ham bolalarning shaxsiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshirish maqsadga muvofiq. Musiqiy bilimlar majmuasi (mazmuni) va metodikasini belgilashda shaxsiy xususiyatlarini inobatga olish ham muhim ta'limiy-tarbiyaviy shart hisoblanadi.

**8. Ta'lim jarayonida bolalarning yoshi va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish prinsipi.** Ushbu prinsip o'quv materialining mazmuni, uning hajmi, harakteri u yoki bu guruh bolalarining jismoniy rivoji, umumiy tayyorgarlik saviyasi va imkoniyatlariga mos bo'lishini taqozo etadi.

Ushbu prinsip musiqiy ta'lim ning ikki tomonini nazarda tutadi:

1) Musiqqa ta'limida ma'lum guruh uchun belgilangan o'quv materiallarining xarakteri, mazmuni va hajmi shu guruh bolalarining yosh xususiyatlariga mos bo'lmog'i lozim;

2) Har bir guruh uchun belgilangan musiqiy bilim hajmi shu guruh bolalarining saviyasiga mos bo'lishi kerak.

Bu prinsip musiqiy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki musiqiy bilimlarni bolalarga sodda, lo'nda qilib tushuntirilmasa, ularni o'zlashtirish yaxshi natija bermaydi. Ko'pincha o'zlashtirilgan bilimlar sodda, o'zlashtirilmagan

mavzular murakkabdek ko‘rinadi. Ta‘limning sodda bo‘lishi u yoki bu o‘quv materialini ortiqcha urinmay tushunib olinishidir. Bolalar yaxshi tushungan, o‘zlashtirgan bilimlarini yangi (murakkab) tushunchalar bilan aniq va ravshan bog‘lash natijasida sodda vazifalarni bajarib, murakkab vazifalarni o‘zlashtirishga hozirlanib boradilar. Musiqiy bilimlar tizimini shakllantirishda aynan shu prinsipga amal qilinadi.

**9. Bilim beruvchi, tarbiyalovchi, rivojlantiruvchi ta‘lim prinsipi.** Musiqiy bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida bola shaxsini shakllantirishda bu prinsipdan maqsadga muvofiq, muntazam foydalanish lozim. U o‘qitishning bilim beruvchi, tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi vazifalarini chambarchas bog‘liq holda olib borishga xizmat qiladi. O‘qitishning bilim beruvchi vazifalari bolalarning fakt, hodisa, tushuncha va xulosalarni o‘zlashtirishlari zarurligini belgilasa, tarbiyalovchi vazifalari bola shaxsining ma‘lum e‘tiqod hamda axloqiy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan. Rivojlantiruvchi ta‘lim esa musiqiy materialni o‘rganish bolalarda qanday ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga umumiy va musiqiy tafakkurning qaysi jihatlarini rivojlantirish lozimligiga e‘tibor beradi. Shuningdek, bilim berish va bolalarni har tomonlama kamol toptirish jarayonlari orasida uzluksiz aloqa o‘rnatilishini talab qiladi.

O‘zlashtiriladigan bilimlar hosil qilinadigan ko‘nikma va malakalar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Yuqorida qayd qilingan mashg‘ulot(dars)lar bolalarda mustaqil fikr yuritish, musiqiy materialni zamon va makonda tahlil qilish, musiqa asarlarini o‘xshashlik va farq qiluvchi xususiyatlariga qarab taqqoslash, musiqiy faktlar o‘rtasida mavjud bo‘lgan sabab - oqibatli aloqani aniqlash kabi ko‘nikma va malakalarni hosil qilishga ko‘maklashadi.

Musiqiy bilimlarni o‘zlashtirish jaraènida o‘quvchi shaxsini shakllantirishning mazmuni va metodikasi, shakl va usullari, bir so‘z bilan aytganda uning pedagogik tizimini yaratish - musiqiy pedagogikaning hozirgi davrdagi eng dolzarb muammolaridan biri. Bu tizim musiqa san‘atining vositalari orqali shaxsni shakllantirishning umumiy pedagogik prinsiplaridan iborat bo‘lmog‘i lozim. Shuningdek, u ma‘lum usullar va shakllarni hamda ilmiy-metodik tavsiyalarni o‘zida mujassam etishi kerak.

E.B.Abdullin: - «...Musiqiy ta'limning mohiyati, maqsad va vazifalari, yo'nalishi, mazmun va jarayonining harakterini ochib berishda prinsiplar asosiy o'rin egallaydi», deydi. U musiqiy ta'limdagi bir nechta prinsiplarni yo'nalishlarga ajratadi:

1. Falsafiy-estetik yo'nalish (... Musiqiy ta'lim da insonparvarlik qarashi; bola shaxsini san'at bilan muloqotda o'z-o'zini baholashi...).

2. Musiqashunoslik yo'nalishi (... xalq, milliy va zamonaviy musiqa birligiga tayanish; musiqa janrlari va ularning hayot bilan bog'liqligiga tayanish; tinglash, ijro etish, ijod etish faoliyat asosi sifatida...).

3. Badiiy-psixologik yo'nalish (... Musiqiy ta'limda ong va tafakkur birligiga tayanish...).

4. Badiiy-didaktik yo'nalish (... Musiqiy ta'lim -tarbiya birligi, izchillik va tizimlilik, ilmiylik, musiqiy ta'lim natijalari mustahkamligi...).

5. Musiqiy pedagogik yo'nalish (... obrazlilik va butunlik, musiqiy-pedagogik maqsad va vositalar aloqadorligi, badiiylik va texnologiya

## **II.2. Muloqot jarayonini tashkil etish. Musiqiy muloqotni tashkil etish shakllari.**

Pedagogik texnologiyalarning turlari ko'p bo'lib, yo'nalish va maqsadlarga asosiy e'tibor qaratilgani bilan farq qiladi.

Pedagogik texnologiya jarayonlarini o'rganishning soddalashtirilgan tartibini quyidagicha tushunish mumkin:

**Tushuntirish** – axborotning ma'no – mazmunini, undan foydalanish tartibini turli vosita va usullarni qo'llab, tushuntiruvchining o'zi tushungan darajada boshqalarga yetkazish faoliyatidan iborat jarayon.

**Tushunish** - axborotning ma'no-mazmunini idrok qilish, undan ko'rsatilgan tartibda mustaqil foydalana olish.

**O'rgatish** - axborotdan foydalanish va turli harakatlarni bajarish ko'nikmalarini o'rgatuvchining o'zi o'rgangan darajada boshqalarni takrorlay olishini, turli vosita va usullarni qo'llab amalga oshirish faoliyatidan iborat jarayon.

**O'rganish** – axborotdan foydalanish va turli harakatlarni ko'rsatilgan tartibda mustaqil bajarish ko'nikmalarini egallash.


**O`zlashtirish** – tushunish, o`rganish orqali axborotning ma`no-mazmuni, undan foydalanish yoki harakatlarni bajarish tartibi to`g`risida bilim va ko`nikmalar hosil qilish.

O`zlashtirish shartli ravishda quyidagi uchta darajaga ajratiladi.

- 1) O`rgatilgan bilim, ko`nikmalarni to`g`ri takrorlash;
- 2) Ularni amalda, faoliyatda qo`llash, ulardan tegishli maqsadlarda foydalanish imkoniyatiga ega bo`lish;
- 3) Ularni ijodiy tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish, xulosalar chiqarish asosida takomillashtirish faoliyatini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo`lish.

Shu bilan birga, pedagogik texnologiyalarning hammasida ham birdek qo`llaniladigan va ta`lim-tarbiya jarayonining tarixiy tarkib topishida va rivojlanib borishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo`lgan asosiy tarkibiy elementlar, so`zlash, ko`rsatish va mashqlar bajarishdan iborat bo`lib, ular o`zaro quyidagicha ketma-ketlikda va bog`liqlikda amal qiladi:

### **Pedagogik texnologiyalardagi asosiy tarkibiy elementlar**



## **Musiqqa darsi ishlanmasini tuzish texnikasi**

### **Darsning borishi.**

1. Tashkiliy qism (3 daqiqa), o`quvchilar davomatini aniqlash, tashqi ko`rinishlarini, ish qurollari borligini tekshirish.
2. O`tgan dars mavzusini va yangi mavzu uchun zaruriy materiallarni takrorlash, (10 daqiqa).
3. O`tgan dars yuzasidan savol-javob o`tkazish, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo`llagan holda o`quvchilar bilimini nazorat qilish.
4. Yangi mavzu yuzasidan yo`l-yo`riqlar (50 daqiqa) ko`rsatish.

### **REJA:**

### **Yakkanovozlik, jo`rnovozlik va jo`rsozlik. (2-sinfda musiqqa darslari.) Tinglash madaniyati.**

O`quvchilarga yangi mavzularni tushuntirishdan avval o`tilgan mavzular ustahkamlanadi va yangi mavzuga bog`langan holda dars olib boriladi. Ushbu darsda «Bumerang texnologiyasi» qo`llaniladi.

Sinf o`quvchilariga savol beriladi.

Musiqachilar kimlar?

Sinf o`quvchilarining javobidan so`ng quyidagicha to`ldiriladi:

Bizni juda ko`p tovushlar qamrab olgan: uyda, ko`chada, bog`da, dalada. (Aslida haqiqiy atrof olamidagi musiqqa narsa-hodisalarda mujassamlangan. Ijodkor ularni cholg`ular yordamida ifodalab o`rgatadi).

Xaqiqiy musiqiy tovushlar musiqiy cholg`ularda ifodalanadi. (Ilovalar).

Shuningdek, xonandalar tovushlarida, xorda. Sozandalar, xonandalar ijro etganidagina tovushlar jaranglaydi. Endi shundan kelib chiqib bu jarayon xarakter xususiyatiga qarab yakkanovozlik, jo`rnovozlik va jo`rsozlikka bo`linadi. Qo`shiqlar bir ovozda ijro etilsa yakkanovozlik deyiladi. Hamma birga ijro etsa «Jamoaga bo`lib kuylash», (ya`ni xor) deyiladi.

Tarqatma materiallar yordamida dars mavzusi tushuntiriladi, (o`quvchilar 3 ta guruhchalarga bo`linadilar.)

1. Guruhchalarga materiallar tarqatiladi.

1-topshiriq. Ushbu rasmda berilgan - Yakkanovozni, jo`rnovozni va jo`rsozni toping.

	Yakkanavoz
	Jo`nnavoz

Tanlangan javobni kartochkalarda tasvirlangan rasm yonidagi bo`sh katakchaga joylashtiring.

To`ldirilgan kartochkalar doskaga ilinib qo`yiladi. (Har bir guruh kartochkalari alohida skoch yordamida ilinadi.)

Har bir guruhdan vakil chiqib mavzuni tushuntirib beradi.

Har bir kartochkaldagi guruh javoblari tahlil qilinadi va xulosa chiqariladi.

### **Tinglash madaniyati:**

Siz hayotda juda ko`p musiqa tinglaysiz:

Radio-televideniya orqali, teatr va konsertlarda, kino lavhalarida, maktabda va uyda musiqa yangraydi. Xalq o`z hayotini qo`shiqda, musiqiy ohangda, raqsda ifoda etadi. Ko`p musiqalarni kompozitorlar yaratadilar.

Ular qo`shiqlar, kuylar, opera, baletlar, xor va orkestr uchun asarlardir.

### **I. Tashkiliy qism. (3 daqiqa)**

1. O`quvchilar davomatini aniqlash, tashqi ko`rinishlarini, ish qurollarini tashkil etishni tekshirish.
2. O`tgan dars mavzusini va yangi mavzu uchun zaruriy materiallarni takrorlash (10 daqiqa)
3. O`tgan dars yuzasidan savol-javob o`tkazish, yangi pedagogik texnologiyalarini qo`llagan holda o`quvchilar bilimini nazorat qilish.

### **II. Yangi mavzu yuzasidan yo`l-yo`riqlar (50 daqiqa) ko`rsatish.**

#### **REJA;**

**1. Musiqaning ifoda vositalari.** (3-sinfda musiqa darslari).

**2. Musiqadagi dinamik belgilar.**

#### **Darsning borishi**

O`quvchilarda yangi mavzularni tushuntirishdan avval o`tilgan mavzular mustahkamlanadi va darsda yangi mavzu oldingi mavzularga bog`lab o`tiladi, ushbu darsda «Skarabey» texnologiyasi qo`llaniladi.

## Musiqaning ifoda vositalari

Musiqaning mazmunini yoritishda turli ifoda vositalaridan foydalaniladi. Ifoda vositalariga sur`at, usul, tovush kabilar kiradi. Quyidagi uch misolda musiqaning ifoda vositalaridan biri bo`lgan sur`atning kuy kayfiyatiga qanday ta`sir etishini kuzating.

Quvnoq, o`rtacha va og`ir sur`atdagi asar parchalaridan o`quvchilarga tinglash uchun berilib o`qituvchi tomonidan tushuntiriladi.

## Musiqaning dinamik belgilari.

Kompozitorlar biron – bir musiqa asarini yaratganlarida ularning ma`lum qismlarini kuchli yoki kuchsiz ijro qilinishini mahsus belgilar bilan ko`rsatadilar. Bu belgilar asarni yoqimli, jiloli eshutilishiga yordam beradi. Musiqada bu belgilar «Dinamik belgilar», deb ataladi.

**f** - (forte) – kuchli

**mf** – (messo forte) – kuchliroq

**p** – (piano) - kuchsiz

**mp** – (messo piano) – kuchsizroq

So`ngra tarqatma materiallar orqali yangi mavzu mustahkamlanadi. Sinf o`quvchilari 3 ta guruhga bo`linadilar. Guruhlarga kartochkalar aralashtirilib tarqatiladi va topshiriq tushuntiriladi.

Guruhdagi o`quvchilarning vazifasi: 1) Sur`ati, tovush jo`shqinligi, tovush jarangdorliklarini quyidagi rasmda ko`rsatilgandek mustaqil joylashtirish.

2) O`quvchilarga o`qituvchi tomonidan musiqiy asarlar (quvnoq, nafis, kuychang) tinglash uchun beriladi (audio yozuvda yoki ijro etiladi). Guruhlar shu musiqa mazmuniga mos ertak so`zlab berishlari kerak.

Sur`ati

Tez	<b>O'rtacha</b>	<b>Og'ir</b>
-----	-----------------	--------------

Tovush Jo`shqin.

<b>Quvnoq</b>	<b>yengil yorqin nafis</b>	<b>Kuychang</b>
---------------	--------------------------------	-----------------



## Tovush jarangdorligi

**f**

**mp**

**p**

Har bir guruhning joylashtirgan kartochkalari doskaga skoch yordamida ilinib qo`yiladi. Har bir guruhdan vakil chiqib mavzuni va guruhlarning musiqaga mos ertak mazmunini tushuntirib beradilar. Guruh javoblari tahlil qilinib hulosa keltiriladi.

Darsni yakunlash uchun savollar:

1. Musiqa tinglashning ahamiyati nimada?
2. Darsda musiqa tinglash maqsadini aytib bering?
3. Musiqa tinglash bosqichlarini ayting?
4. O`quvchilarda tinglash madaniyatini qanday tushunish mumkin?
5. Asarning badiiy- g`oyaviy mazmuni orqali o`quvchilarga axloqiy -estetik tarbiya berishda o`qituvchi oldiga qanday vazifalar qo`yiladi?
6. Qaysi taniqli klassik musiqalar insonning his tuyg`ularini mujassamlantiradi.

### **Savol va topshiriqlar.**

1. O`quvchilarni musiqa darsiga bo`lgan qiziqishlarini qanday bosqichlarda amalga oshirish mumkin?
2. Boshlang`ich sinflarda o`quvchilar ijodini qanday shakllantirish mumkin?
3. O`quvchilarni ijodiy faoliyatiga tayyorlash bosqichlarini ayting.
4. Musiqa darslarida olib boriladigan ijodiy topshiriqlarga misollar keltiring.
5. O`quvchilar xotirasini aktivlashtirish uchun qanday metodlardan foydalanish mumkin?
6. O`quvchilarga yangi texnologiyalar bo`yicha topshiriqlar berilganda o`yin qoidalarini eslatish shartmi, uning ahamiyati nimada?

### **Ijodiy topshiriqlar**

Umumiy o`rta ta`lim maktabining 1-4 sinflar dasturidagi ijodiy jarayonni tashkil etuvchi fikrlarni ijroda ko`rsating.

Interfaol uslublar va pedagogic texnologiyalarni qollab 1-7 sinf musiqa madaniyati darslarida ijodiy jarayonni tashkil etish uchun ayrim mavzularga dars ishlanmalar tuzing.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Innovatsiya nima?
2. Texnologiya nima?
3. Pedagogik texnologiya tushunchasi qachon paydo bo`ldi va uni rivojlanish bosqichlarini ayting.
4. Pedagogik texnologiya ta`riflarini ayting.
5. Musiqa madaniyati predmeti, uning ahamiyati va yangi avlodni tarbiyalab barkamollikka yetishtirishdagi o`rni.
6. O`zlashtirish shartlarini sanang.

### **III BO`LIM. INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO`LLARI.**

#### **III.1. Innovatsion ta'limning nazariy ahamiyati**

Umumta'lim maktablarida musiqa darslari jarayonida yangi innovatsion texnologiyaning bir qator tamoyillari mavjud bo'lib, darsning umumiy maqsadidan kelib chiqqan holda qiziqarli dars tashkil etish, test savollari asosida o'quvchining bilimini sinab ko'rish, muammolari vaziyatlar asosida savol-javoblar tariqasida innovatsion dars o'tish va boshqalardan iboratdir. Bunday usullarni aralash-quralash qilib, bolani zo'riqtirmaslik, uning uning yoshni hisobga olgan holda usullardan foydalanish o'qituvchi –pedagogning bilishi zarur bo'lgan xususiyatdir.

TA'LIM -bilim berish, malaka va ko'nikma hosil qilish jarayoni, kishini hayotga mehnatga tayyorlashning asosiy vositasidir. Ta'lim jarayonida bilim o'zlashtiriladi va tarbiya amalga oshiriladi.

Ta'lim tor ma'noda o'qitish tushunchasini anglatadi. Lekin u faqat turli o'quv yurtlarida o'qitish jarayoni emas, balki oila, ishlab chiqarish va shu kabi sohalarda ham ma'lumot o'zlashtirish jarayonidir

TA'LIM TEXNOLOGIYASI - butun o'qitish va o'qish jarayonini ishlab chiqish, amalga oshirish va baholashning tizimi usuli bo'lib, u maqsadga erishishga yo'naltirilgan holda insonlarning o'rganish qobiliyati va ular o'rtasida muloqot to'g'risidagi tadqiqotlar natijasiga hamda ta'lim jarayonini yanada samarali tashkillashtirishning jonli, jonsiz vositalari bilan shug'ullanishga asoslanadi.

INNOVATSION – grekcha didaskien so'zidan olingan bo'lib, o'qitaman, o'qishni o'rgataman ma'nolarini anglatadi. Shunga ko'ra innovatsiona – bu o'qitish nazariyasidir. Innovatsiona o'qitish jarayonining shakllari, metodlari, tamoyillari, mazmuni, vazifasi va maksadlarini ishlab chikadi.

METODIKA– Innovatsion aning o'qitish, qonuniyatlari, qoidalari, tashkil etish shakllari, amalga oshirish va natijalari nazorat qilib baholash metod hamda vositalarini o'zida mujassamlashtiruvchi fan tarmog'idir. Har bir o'quv fani o'qitish sohasi o'rgatishning

vazifalari, mazmuni, metodlari va tashkiliy ko‘rinishi haqidagi metodika asosida quriladi

**O‘QITISH METODIKASI** - bu turli usullar tizimi bo‘lib, o‘quv-innovatsion materiallardan foydalanish orqali belgilangan maqsadga erishish uchun nazariy dars va amaliy mash\ulotlar paytida qo‘llaniladigan usullar majmuasidir.

**METOD**– iborasi (yunoncha-methodas-tadqiqot yoki bilish yo‘li, nazariya, ta’limot ma’nosini anglatib) voqelikni bilish, o‘zlashtirish, o‘zgartirish usullari majmuasidir. Metod aslida insonning amaliy faoliyati negizida vujudga kelgan. Metod – innovatsion jarayon elementi sifatida mazmun maqsadlarga maksimal mos kelishi kerak, ana shunda – tarbiya, o‘qish, o‘rganish amalga oshadi. Metodning asosiy vazifasi – qobiliyatni rivojlantirish. Kasbiy faoliyatda metodning asosiy ko‘rsatkichi – uning kasbiy faoliyat vositalariga mosligidadir.

**METODOLOGIYA**– metod va logiya iboralarining birligida bilish faoliyati usuli, tuzilishi vositalari va mantiqiy tartibi maqsadidagi ta’limot ma’nosini anglatadi. Demak, metodologiya har qanday faoliyatning zaruriy tashkiliy komponentidir.

Metodologik bilimlar, eng avvalo, muayyan faoliyat turlarining mazmuni va izchilligini o‘ziga qamrab olib, odat hamda me’yorlar shaklida, ikkinchidan, amalda bajariladigan faoliyatning ta’siri sifatida yuzaga chiqadi. Har ikkala holda ham bilimning asosiy vazifasi bilish jarayonini tartibli ravishda amalga oshirish yoki biror ob’ektni amaliy o‘zgartirishdan iborat.

**BILIM**- bir butunlikni tashkil qiluvchi qismlar orasidagi ularning ichki zaruriyatidan kelib chiqqan bog‘liqlikdir. Uni qonuniyat deb ham yuritiladi. Chunki bu zaruriy bog‘liqlik narsa va hodisalarning tabiatidan kelib chiqib, bizning ixtiyorimizdan tashqari o‘zi mavjud. Uni o‘zgartirib bo‘lmaydi. Bilim kishidan kishiga ma’lumot (axborot) orqali o‘tadi.

**KO‘NIKMA VA MALAKALAR.** Ko‘nikma va malakalar deganda biror shaxsning muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishi uchun shart-sharoitlar yaratib beruvchi, tashqaridan kuzatish mumkin bo‘lgan harakatlari va reaksiyalari tushuniladi. Malakalar ongli ravishda amalga oshirilgan faoliyatning tarkibiy qismiga kiruvchi avtomatik tarzda yuz beradigan harakatlardir.

MALAKA- kishi egallagan bilimlari ko'nikma bosqichidan o'tib, doimiy harakat turiga aylanishi, mahorati hosil qilishi.

MAHORAT- O'zlashtirilgan bilimlar va hayotiy tajribalar asosida barcha amaliy harakatlarni (shu jumladan dars berishni) kam kuch va kam vaqt sarflab bajarish.

BAXOLASH- ta'lim jarayonining ma'lum bosqichida o'quv maqsadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o'lchash, natijalarni aniqlash va tahlil qilishdan iborat jarayondir.

KASB- muayyan bilim va mahorat talab etadigan mehnat faoliyati turi. Kasb-hunar sirlarini egallashga umumiy hamda maxsus ma'lumot hamda amaliy ish-harakat usullarini o'zlashtirish orqali erishiladi.

Ta'lim berish metodlari deganda pedagogning ish usullarini tushunmoq kerak.

1. O'qitishda talabaning harakatlari xarakteristikasiga ko'ra:

a) Faol metodlar

b) Passiv metodlar

2. O'quv ishining turlariga qarab:

a) bilimlarni o'zlashtirishning dastlabki metodi;

b) bilimlarni takomillashtirish metodi;

v) Bilimlarni tekshirib ko'rish va baholash metodi;

3. Bilim manbalariga qarab:

a) Og'zaki metodlar;

b) Ko'rgazmali metodlar;

v) Amaliy metodlar.

Innovatsion nazariyani o'rgatish asosida quyidagi maqsadlarga erishiladi:

1. o'quvchining psixologik- funksional faollikni boshqaradi;

2. Rivojlanishning eng yangi boshqaruvlarini tashkil etiladi;

3. Musiqani differensial idrok etishga, she'rdagi ifodalarni, she'r mazmunini, xususiyatini tezroq anglanishini idrok etadi;

4. Irodani rivojlantiradi ( o'yin qoidalariga to'g'ri amal qilishning mo'tadilligini ta'minlash) ;

5. Intellektual imkoniyatlarni, innovatsion masalalarni hal etish jarayonida musiqaning obrazli – mazmuni xususiyatlarini tahlil qila olish o'quvini rivojlantirish;

Yuqoridagi ko‘zlangan maqsadga erishish orqali shaxsning diqqati, xotirasi, idroki, qiziqishi, qobiliyati, irodasi (his- hayajoni)ga ta’limning ta’sir etishini ta’minlaydi.

Ta’limda onglilik va faollik prinsipining uchta asosiy tamoyillari bor:

- o‘quv dasturlarining o‘quvchilar tomonidan ongli idrok etilishi;

- o‘quv mashg‘ulotlariga ongli munosabatda bo‘lish;

- tafakkurning faolligini shakllantirish.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, o‘quvchilarga innovatsion dars o‘tish jarayonida yangi innovatsion texnologiya usullaridan foydalanishda diqqatimizni bugungi o‘tilajak dars mavzusiga qaratishimiz lozim. Biroq, ba’zan san’atga qiziqadigan o‘quvchilarni kuzatsangiz, partani chertib, sizga jo‘r bo‘layotganini ko‘rasiz. Shuni o‘zi u sizni qabul qilayotganini, qo‘shiq bilan yashayotganligini, ohangni chin dilidan his etayotganini bildiradi. Musiqa madaniyati darslarida chalishni o‘rgatish, musiqa asboblari bilan tanishtirish chog‘ida qaysi o‘quvchining qay darajada layoqati borligini ham anglashimiz lozim. O‘quvchining qanday asbob ushlayotgandayoq, unga bir mehr bilan qarayotganidayoq ana shunday layoqat seziladi. Shunda sizda shunday o‘quvchi bilan ishlash, qo‘shimcha innovatsion mashg‘ulot o‘tish ishtiyoqi namoyon bo‘ladi, natijada u sizdan cholg‘u asbobini o‘rganadi. Shuning o‘zi ham dars jarayonida musiqa asbobidan foydalanishning ko‘rgazmali hamda natijani asosidir. Aynan cholg‘u asboblari bilan ishlashni ham yangi texnologiyaga asoslanib o‘rgatsak o‘quvchi uchun qiziqarli bo‘ladi.

Innovatsion mashg‘ulotni o‘quvchilar tomonidan to‘la o‘zlashtirilishini ta’minlash maqsadida o‘qituvchi innovatsion - texnologiya o‘yinlaridan foydalanish lozim. Ulardan “Miyaga hujum” (Breynistorming) yoki fikrlar jangi maydoni biror muammoni yechimini guruh sharoitida topish usulidir.

Miyaga xujumni tashkil etish qoidalari:

Guruhga muhokama uchun muammo tavsiya etiladi.

Miyaga kelgan har qanday g‘oyalar qabul qilinadi.

Barcha taklif qilingan g‘oyalar muhokama qilinadi.

Fikrlar umumiyashtiriladi, tahlil qilinadi, ahamiyatga ko‘ra tartibga solinadi.

Imkoniyatga ko‘ra yagona fikrga kelinadi, taqdim etuvchi vakil tayyorlanadi.

O‘yinlar: guruh a‘zolarini birlashtirish, ham fikr qilish, bir-birini qo‘llab-quvvatlashga o‘rgatish maqsadida tashkil qilinadi.

O‘yinlar:

Innovatsion mashg‘ulot mavzusiga mos bo‘lishi.

Guruh a‘zolarining yoshi, bir-birini bilish darajasi interfaol metodlar asosida o‘qitish tajribasini e‘tiborga olinishi.

His-tuyg‘ular, tafakkur va psixomotor xususiyatlarini faollashtirishga xizmat qilishi kerak.

Musiqqa madaniyati darslarida o‘yin darslarni yangi innovatsion texnologiyaga oid o‘tishning qoidalari quyidagicha: O‘yinlar 10 minutdan oshmasligi kerak. O‘yinda guruhning barcha a‘zolari ishtirok etishi lozim.

“Rolli o‘yinlar” ko‘p hollarda u yoki bu vaziyatda o‘zini qanday tutishni bilmay qiynalishadi. Rolli o‘yinlar ana shu vaziyatda o‘ynash, eng yechim topish imkonini beradi. Shuningdek, o‘yin jarayoni ko‘plab ma‘lumotlarni o‘zlashtirishni engillashtiradi. Eng muhimi, rolli o‘yinlarda barcha ishtirok etadi; hech kim chetda qolmaydi.

“Juft-juft bo‘lib ishlash” bu o‘yinda o‘quvchilarga juft-juft bo‘lib ishlash uchun imkoniyat beriladi. Ayniqsa, bu o‘yin o‘quvchilarni vokal ansambl, vokal qo‘shiqchilik, xor bo‘lib kuylashda ko‘pchilik birgalikda ijro etishlarida hamkorlikda ishlashga tavsiya berish, izohlash, eng yaxshi echimlarni tavsiya etishlari mumkin.

“O‘zaro ta‘lim” o‘quvchilarga o‘zini o‘qituvchi yoki ekspert o‘rniga qo‘yish imkoniyati beriladi. U matn, qo‘shiq ustida mustaqil ishlash va boshqalarga tushintirib berish kerak.

“O‘zaro savol-javob” o‘quvchilar o‘zining mavzu bo‘yicha bir-birlariga savol beradilar. Savollar o‘qituvchilarga ham berilishi mumkin yoki aksincha.

“Muhokama bildirish” Guruh a‘zolari muhokama qilinayotgan muammoga o‘z munosabatlarini bildiradilar va shunga ko‘ra ikki yoki uch guruhga bo‘linadilar. Guruhlar munozaraga kirishib ketadilar. Kim o‘z fikrini o‘zgartirsa, boshqa guruhga o‘tishi mumkin. Bu o‘yinlardan musiqqa darslarida foydalanilsa, o‘quvchilarning darsga qiziqishi, ishtiyoqi, badiiy ijodkorligi kuchayadi. Darsning samaradorligi oshadi.

Shuningdek, aqliy xujum, klaster, insert, kichik guruhlar, jimjimador aralash, sinkveyn, hamkorlikda o'qish, ta'lim jarayonida o'qituvchining savollari, esse kabi interaktiv usullardan foydalanish ham yuqori samara beradi.

Demak o'quvchi musiqa darslarida o'quvchilarga vokal-xor malakalarini uyg'unlashtirib o'qitishda innovatsion texnologiyaning barcha turlaridan oqilona va mavzuga moslab foydalanish mumkin. Bu esa o'quvchida nafaqat mustahkam bilim olish, balki aniq va ravshan darslarni qabul qilishlari va xor-vokal qo'shiqlarini buzmasdan to'g'ri ijro etishlari va yodda saqlab qolishni ta'minlaydi. Uning shaxs sifatida o'qitish tizimini tashkil etadi.

Musiqa darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanishda quyidagi muammolarni hal etish lozim:

O'quvchilarni mustaqil ta'lim olishlari uchun alohida sharoitlar yaratish.

Darslarda o'quvchilarning faolligini orttirish, buning uchun ko'proq interaktiv usullardan foydalanish.

Ta'lim jarayonida har bir o'quvchiga musiqa ta'limining aniq maqsadlarini tushintirib berish va shu yo'l bilan ularning shu maqsadga ongli ravishda intilishlarini ta'minlash.

Innovatsion jarayonni an'anaviy reprodaktiv yondashuvdan farq qiluvchi hamkorlik innovatsion asi talablarida tashkil etish.

Bilim olishda faqat darslargagina tayanmasdan, boshka manbalardan xam unumli foidalanishga erishish.

O'quvchilar bilimi, malaka va ko'nimalarini aniqlashda ularning muloqot qobiliyatlarini hisobga olish.

Ta'lim berish jarayoni boshida o'quvchilarni dastlabki darajasini aniklash hamda har bir o'quvchiga shaxsi nuqtai nazaridan yondoshish, uning rivojlanish dinamikasini qayd qilib, tahlil etib borish.

Ta'lim jarayonida noan'anaviy dars shakllaridan musobaqa, konkurs, amaliy o'yinlar va hokozolardan samarali foydalanish.

Dars jarayonida o'quvchini o'qitish emas, ko'proq ijodiy yondashishga o'rgatish.

Ilg'or innovatsion texnologiyalar xuddi ishlab chiqarishda qo'llanilayotgan texnologiyalar kabi, barcha mutaxassislar tomonidan takrorlanuvchan va pirovardida bir-xil natijaga erishishni kafolatlaydigan uslub bo'lmog'i kerak.



O‘quv-tarbiyaviy jarayoni ilg‘or innovatsion texnologiyalar bilan ta‘minlash vazifasi ham o‘quvchilardan chinakam ijodkorlikni talab qiladi. O‘qituvchi an‘anaviy dars usularidan chekinib, yangi-yangi usullardan foydalansa maqsadga muvofiqdir, o‘qitishning yangi usullaridan foydalanish o‘qituvchiga

- o‘quvchilar tafakkurini faollashtirish;
- ta‘lim maqsadini belgilash;
- munozara tashkil etish;
- ta‘lim motivatsiyasini orttirish;
- o‘zgarishlarni rag‘batlantirish;
- turli qarashlar bilan tanishish;
- o‘quvchilarni savol berishga o‘rgatish;
- o‘z fikrlarini ifodalay olishga o‘rgatish;
- butun e‘tiborni badiiy ijodkorlikni rivojlantirish imkonini beradi

Bu usullar o‘qituvchidan katta mahorat va ishtiyoq talab etadi. Sir emaski bizning darslarimiz ko‘pchilik hollarda “Bir aktyor teatri”ga aylanib qolgan. O‘qituvchi dars davomida mavzuni tinimsiz tushuntiradi. O‘quvchi esa tomoshabin bo‘lib o‘tiraveradi, darsda o‘quvchi ishtiroki sust bo‘ladi. Haqiqiy dars bu – o‘qituvchi va o‘quvchi hamkorligidagi, o‘zaro fikr almashuvi bo‘lmog‘i kerak. Ba‘zan o‘quvchilar darsga nomigagina kirishadi. Qotib qolgan eski qolipdagi dars uslubi o‘quvchilarning o‘z imkoniyatlarini ijodiy fikrlashning namoyon etishga xalaqit bermoqda, mana shu muammolarni hal qilishda o‘qituvchi zamon bilan hamnafas bo‘lmog‘i va o‘qitishning zamonaviy metodlari haqida tushunchaga ega bo‘lmog‘i kerak.

### **Musiqiy ta‘limda innovatsion talablar**

Mamlakatimiz keyingi yo‘llarda ta‘lim-tarbiya sohasini zamonaviy talablar darajasida ko‘tarish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Zero, ta‘limni isloh qilish davlatimiz siyosatining ustivor sohasi deb e‘lon qilingan. Bu avvalo, tayyorlanayotgan innovatsion kadrlarning bilim va malakasiga, dunyoqarashi va yuksak ma‘naviyatiga ham bog‘liqdir. Bu bilan ularning musiqa darslarini sifatli tarzda o‘tishlariga omil bo‘ladi.

Musiqa darsining sermazmun va qiziqarli tashkil etish o‘qituvchidan innovatsion mahorat, ijodiy faollik hamda

professionallik talab etadi. O'qituvchilar musiqa darsida hamda sinfdan tashqari tadbirlarda musiqiy saboqning berishda yangi innovatsion texnologiyaning sirlarini qo'llashlari va tarbiyaviy ishlarni ham olib borishlari lozim.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilariga qo'yilgan talablardan eng muhimi mustaqil tarzda bajariladigan topshiriqlarni innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish ham o'qituvchiga ham o'quvchiga qiziqarli tarzda kechadi, chunki, bunday darslarda o'qituvchi bemalol DVD, DSD va kompyuterda foydalangan holda darsni olib boradi. O'quvchi esa bundan zavq olgan holda darsga ishtirok etadi. Bundan tashqari o'qituvchi ba'zi musiqiy elementlarni kompyuterda o'zlashtirishni o'quvchiga topshiriq sifatida berganda bola jonu-dili bilan ushbu vazifani amalga oshiradi.

Ushbu holatda ikita jarayon, ya'ni, talabaning kompyuterni to'la-to'kis o'zlashtirishi hamda darsga texnik holatda yondoshishi kuzatiladi.

Innovatsion texnologiya- bu ta'lim shakllarini optimallashtiri maqsadida texnik vositalar inson salohiyati hamda ularning o'zaro ta'sirini inobatga olib o'qitish va bilim o'zlashtirishning barcha jarayonlarini aniqlash, yaratish va qo'llashni tuzilish metodidir. Innovatsion texnologiya bir necha turlarga bo'linishi mumkin:

- umuminnovatsion texnologiya;
- Xususiy predmetli texnologiya(masalan, musiqa o'qitish texnologiyasi);
- mahalliy innovatsion texnologiya;

Innovatsion texnologiya- bu jarayonlar, vositalar, uslublar majmuasida iborat bo'lib, u yoshlarda avvaldan belgilangan shaxs sifatlarini shakllantirish uchun innovatsion ta'sir etishning maqsadga muvofiq tarzda amalga oshiriladi.

Musiqa darsi o'qitishning zamonaviy innovatsion usullariga doir ko'plab qo'llanmalar ham mavjud, bunday uslublarning ilg'or musiqa muallimlarining o'zlari kashf qilganlar va ular yaxshi samara bermoqda.

Inson hayotiga va faoliyatiga musiqa va estetik madaniyatni olib kirish, uning ruhini tetiklashtirish, yuksaltirish, ijodkorlikka ilhomlantirish- mustaqil ta'lim jarayonini amalga oshirishda estetik tarbiyani kuchaytiradi.

Musiqqa va estetik madaniyat negiz tushuncha ekanini bir necha marotaba takrorlab oʻtdik, bunday holatni tushuntirish, shakllantirish va hal etish insonning chaqaloqlik davridan boshlanadi, umrining oxirigacha davom etadigan tarbiya jarayonidir.

Oʻzbek tiliga Davlat maqomi berilishining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy- maʼrifiy xalqlarimizning milliy ongi, milliy gʻururining oʻsishida maʼnaviy qadriyatlar va milliy oʻzlikni anglashni tilashida ijobiy taʼsir koʻrsatmoqda. Mustaqil taʼlimda ham milliy qadriyatlarga tayangan holda musiqqa ifodalarini va ijrochilik mahoratlarini oʻrgatish juda muhimdir. Musiqqa oʻqituvchisi har bir darsida milliy tarbiya tizimini yoshlar ongiga singdirib, ularda axloqiy sifatlarni ham tarkib toptirishi zarur.

Tarbiya topgan bolagina oʻqituvchining bergan topshirigʻini oʻz oʻrnida bajaradi. Oʻquvchilar bilan mustaqil ishlashda ularning musiqiy ijrosini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Musiqiy ijrosi barcha faoliyatlar amaliyotida etakchi hususiyatga ega ekanligini davlat taʼlimi standartida ham alohida koʻrsatib oʻtilgan. Shu jihatdan olib qaralganda taʼlim jarayonini musiqiy idrok etishda yangi innovatsion texnologiyalarga tayanish, yoshlarning musiqiy qobiliyatlarini shakllanishiga taʼsir etuvchi bir qancha omillarni kelib chiqqan holda tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Innovatsion taʼlimda oʻquvchiga beriladigan mustaqil topshiriq orqali musiqali harakatlar, cholgʻuchilik ijodlarning faoliyatini amalga oshirishda oʻyin metodlaridan keng foydalanish tavsiya etiladi.

Musiqqa shunday ajoyib sanʼatki, uning uchun hech qanday til toʻsigʻi yoʻq , tarjimonga muhtoj emas. Musiqqa shunday ajoyib shifobaxsh fazilatlariga egaki, buni oʻz navbatida Abu Nasr Muxammad al – Farobiy, Abu Ali ibn Sino kabi ulugʻ daholar oʻz asarlarida taʼriflab berganlar.

Demak musiqqa shunday qudratga ega ekanki, insonni hatto sehrlab qoʻyar ekan. Xoʻsh ana shunday sehrlu kuylar, navolar taralayotgan sozlar qayerdan paydo boʻldi, ularning ustalari kimlar? Bizlar oʻshalar haqida oʻylashimiz lozim, ularning mehnatlarini qadrlashimiz kerak.

Bu omillarning innovatsion ahamiyati uning oʻziga xos xususiyatlari va holatlarini hisobga olish milliy qadriyatlarimizni orttiradi, anʼanalarni tizimini oʻrganishda yoshlar oʻrtasida muhim ahamiyat kasb etadi. Oʻzbeklar bolajon xalq boʻlganligi bois ham u

kimning farzandi bo'lishidan qat'iy nazar hamisha tartibga chaqiradi hamda nasihat qiladi.

Jannatmakon yurtimizda yashab faoliyat ko'rsatayotgan mehnatkash, halol, iymon-insofli, diyonatli kishilarimiz qalbida yosh avlodga bo'lgan mehr-muhabbat bisyordir. Har bir insonning yuragida o'z mehnatiga yarasha qadr topish shu bilan birga istiqomat qilayotgan yurt ravnaqining natijalarini ko'rish yotadi. Buning uchun esa milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, keyingi avlodga yetkazish hamda mustaqil Vatanimizni sevib qadrlashi lozim.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy- ahloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxs - fuqaroni shakllantirishni nazarda tutadi.

“Kadrlar tayyorlash milliy modeli”ni ro'yobga chiqarishni, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta'lim va kasb hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va puxta o'zlashtirish uchun ijtimoiy, huquqiy, siyosiy, psixologik, innovatsion va boshlovchi tarzdagi sharoitlarni yaratishni jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his eta oladigan yoshlarni tarbiyalashni nazarda tutadi.

Aytish mumkinki, o'sayotgan yosh avlodning tarbiyasi jamiyatimizning ravnaqi uchun o'ta muhim masaladir, tom ma'noda aytganda bizning shogirdlarimiz oynadagi aksimizdir. Biz hozirgi yoshlarga qanday ta'lim va tarbiya bersak ular shundayligicha qabul qiladilar. Hozirda texnika asrida yashayotganimiz bois yoshlarimiz qobiliyatli bo'lib, ularga mustaqil fikrlashni majburiy holda berish kerak emas, aksincha qiziqarli, mantiqiy savollar, intellektual o'yinlar, qiziqarli Shoular, bahs-munozarali o'yin darslarini ko'proq o'tkazish lozim.

Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, “Agarda kimda-kim bizning mustaqil taraqqiyot yo'limizni, orzu-maqсадlarimizga erishish yo'lini, yangi jamiyat qurish yo'lini to'smoqchi bo'lsa, avvalo hali suyagi qotmagan, mustaqil dunyoqarashi shakllanib ulgurmagani yoshlarimizning qalbi va ongining mo'rtligidan foydalanib, ularning ma'naviyatini buzib, bizning azaliy tabiatimiz va muqaddas odatlarimizga mutlaqo zid g'oyalar bilan chalg'itib, o'zining g'arazli va jirkanch niyatlarini amalga oshirish yo'lida qurol qilib olishga urinadi”.

Umumta'lim maktablarida o'quvchi yoshlarning bilim va ko'nikmalarini shakllantirishda, ularning barkamolligiga erishishda kasb-hunar rivojiga erishishda o'qituvchi-pedagoglar yuqoridagi fikrlardan xulosa chiqarganlari holda ta'limga zamonaviy dasturlarni olib kirishlari lozim. O'quvchini qay darajada ko'proq bilim olishga, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga jalb etilsa, dars samaradorligiga, yoshlar tarbiyasini yo'lga qo'yilishiga erishiladi. Buning uchun darsdan tashqari mashg'ulotlarni, to'garaklar faoliyatini chuqur o'zlashtirib, o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini ko'ngilli tashkil etishga erishish lozim.

Musiqqa madaniyati darslarida xalqimizning mumtoz va zamonaviy qadriyatlaridan bahramand bo'lish darslarning samarali bo'lishida o'rinlidir. Dars davomida o'qituvchi o'quvchilarga faqatgina musiqqa tinglash va qo'shiq kuylash bilan chegaralanmay "Odob - inson ziynati" mavzuda qiziqarli ochiq muloqotlar o'tkazishi, buyuk ajdodlarimiz qoldirgan o'gitlardan foydalanishi mumkin.

## **Musiqqa o'qitishning innovatsion texnologiyalariga doir 1 soatlik dars ishlanma**

### **Mavzu: Musiqqa darsida o'quvchilarning musiqiy savodxonligining tarkib toptirishi**

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarni musiqiy bilimga ega qilish, musiqqa savodi qismini qo'shiq kuylash musiqqa tinglash bilan.

**Kutilayotgan natijalar:** o'quvchilarni dars davomida musiqqa savodini quyi sinflardan boshlab o'rgatib borsa, yuqori sinflarda qo'shiqni uning mazmuniga tushunib qaerni kuchli, qaerni mayin ijro etish, nafas olishni va temani o'quvchi o'zi bajara oladi va qo'shiq o'rgatish o'qituvchiga oson bo'ladi.

**Ko'rgazmali qurollar:** notalar asosida tayyorlangan ko'rgazmalar

REJA:

1. Musiqani paydo bo'lishi
2. Musiqaning inson kamoliga ta'siri
3. Musiqqa darslarida musiqqa savodini o'rganish
4. Musiqqa savodi o'rganishning uslublari

## YANGI MAVZU BAYONI

Musiqqa insonning soʻz bilan ifodalab boʻlmaydigan yozib isxor etilmaydigan xis tuygʻulari vujudga keladi,

Ulugʻ rus kampazitori R Glier shunday degan edi: «Musiqqa- bu hayot taassurotlari orqali ifodalangan fikr va his tuygʻularidir».

Umuman, musiqaning yaralishi haqida gap borsa, uning Olloh, bilan bogʻliqligi aytiladi. Emishki, Olloh insonni yaratdi. Hamma narsa Ollohning xoxishi bilan boʻladi. Lekin shu yaratilgan insonning joni yoʻq ediyu. Shunda olloh unga jon ato qilmoqchi boʻldi. Ollohning amri bilan musiqqa sadolari yangradi. Shundan keyin insonga jon kirdi va u oʻz qalbiga ham ega boʻldi.

Boshqa bir rivoyatda aytiladi: Shuni bilgil va voqif boʻlginki, bu mehtarlik sanʼati hazrati Jabroildan qolgan. Muqaddas olloh odam Atoga jon qilajagini aytganda jon qismga kirishga ikkilanib turadi. Shundan keyin Olloh taolo mehtar Jabroil jannatdan qoʻshnay olib chiqishni va chalishni buyuradi.

Jabroil qoʻshnayni chalishga kirishadi.

Qoʻshnayning orombaxsh dilrabo ohanglari Odam atoga jon ato qiladi. SHuning uchun ham musiqqa eshitgan har bir insonning qalbi taskin topadi uning xursandligi va muhabbati ham oshadi. Tarixdan bizga maʼlumki barcha buyuk allomalarimiz musiqqaga oʻzgacha mexr bilan qaragan. Musiqqani juda puxta oʻzlashtirgan va bu haqda juda koʻp risolalar bitganlar.

Masalan, Farobiy Fargʻoniy, Abu Ali ibn Sino, Safliddin al-Urmaniy, Abduqodir Marogʻiy, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zaynobiddin al-Xusayniy, Najmiddin Kavkabiy Buxoriy, Darvishali CHangiy, Zaxiriddin Muxammad Bobur va xokazolar.

Qadimgi Yunon olimi Aflotun oʻzining «Davlat haqida» asarida jamiyatni jismoniy maʼnaviy jihatlardan rivojlantirishda sport va musiqqa mashgʻulotlari kata ahamiyatga ega ekanligini taʼkidlangan edi.

«Agar gimnastika gavdani mustahkamlash uchun zarur boʻlsa, musiqqa esa gimnastikasidir» - degan edi. Pifagor maktabi tomonidan musiqaning kishilarga poklovchi taʼsiri xususan axloqiy yoʻl-yoʻriqlar sistemasini ishlab chiqilgan.

Aflotun, Arastu, Plutarxlar har qanday ijtimoiy tarbiya, xox pedagogik, xox estetik, xox intellektual boʻlsin, asosan musiqaviy tarbiyaga asoslanishi haqida fikrga keladilar.

Biz mashhur tabib deb bilgan Abu Ali ibn Sino san'atning ikki turi – she'riyat bilan musiqani sintez qilishga, ma'naviy tarbiyada ular o'ynaydigan rolga, ularning o'zaro aloqadorligiga kata ahamiyat bergan. Ibn Sino o'zining musiqaga doir risolalarida «Latif musiqa yoqimli kayfiyat yaratadi hamda ko'ngilni ochadi, yomon musiqa esa zardani qaynatadi» - deb uqtiradi. Musiqaning ta'siri g'oyat keng miqiyosli bo'lib, uning samarasi yo'dir.

Hozirgi zamon musiqa ta'limi haqida gapirsak umumiy dunyoqarash insonning voqealigini bilishga asoslanadi. Ta'lim jarayonida bilish jarayonining turi bo'lib, o'quv materialini o'zlashtirish bilishning maqsadi hisoblanadi.

Musiqa san'ati vositalari yordamida badiiy obrazni bilishda umuman hosil qilingan bilimlarning miqdoriy olami ham katta rol o'ynaydi. SHunday qilib, musiqa darslarida o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish ularning bilish faoliyatini faollashtirish uchun quyidagi jihatlarni ta'minlash zarur.

1. Maqsad mavjudligi hamda shaxsning yuksak ma'naviy xislatlarini rivojlantirish.

2. Musiqaning o'quvchilar ma'naviy olamiga emotsional ta'siri.

3. O'quvchilarning bilish faoliyatida Amaliy jihatlar birligi.

4. Voqealik va san'atning ijtimoiy roli ahamiyatini ko'rsatish va musiqa qonuniyatlarini anglash.

5. O'z bilganlarini amalda qo'llay bilish mahoratini hosil qilish.

6. Musiqa asarlarini axloqiy, falsafiy, ijtimoiy - siyosiy pozitsiyadan turib baholay bilish.

Musiqa darslarida bilish faolligining ushbu jihatlari o'quvchilar dunyoqarashlarini shakllantirish muammolarini ochib berishni boyitadi. SHuning uchun ham biz maktabda musiqadan yuksak darajada amaliy va nazariy bilim bermog'imiz kerak.

Musiqa va qo'shiqni sevgan unga ixlos quygan kishidan hech qachon berahm, qotil kishilar chiqmaydi. CHunki musiqaning ta'sir kuchi bor. Musiqa insonning ruhiga ta'sir etadi ruh bu jon demakdir.

Endi bevosita maktabda musika darslarini olib borishga kelsak bunda o'quvchilarning musiqa va ashulani tushunib, mukammal ijro etishlari uchun musika savodini yaxshi bilib olishlari kerak bo'ladi.

Bunda saoddadan murakkabga qarab o'rgatib borish talab etiladi. Musiqa savodi ashula darsining bo'limlaridan biri bo'lib xor bilan qo'shiq aytishga nisbatan ikkinchi darajali o'rinni tutadi. SHunga

qaramasdan musiqa savodi o'quvchining musiqa ta'limida katta rol o'ynaydi. Musiqa nazariyasi va tarixidan boshlang'ich bilim beradi. Ularning saviyasini oshiradi. Musiqa savodi musiqasiga, uning ifoda vositalariga ongli munosabatda tarbiyalaydi, musiqaning mazmunini bilib olishga erdam beradi.

Eng muhimi notaga qarab kuylashga va qo'shiq aytish malakalarini hosil qilish garmonik eshitish qobiliyatining o'stirishga xor ovozlarni aniq talaffuz etishga xor bilan ijro etish sifatini oshirishga o'rgatish bilan sinfda qo'shiq o'rgatish osonlashtiradi.

Maktabda musiqa savodi o'rgatishda qo'yidagi uslubiy ta'lim olingan musiqaviy bilimni bevosita amalda qo'llash va savod o'rgatish bilan birgalashib qo'shiq aytishni bir – biriga chambarchas bog'lashdan iboratdir.

Musiqa savodini o'rganish birinchi sinfdanoq boshlanadi. Ko'pgina bolalar maktabgacha tarbiya davrida bog'chaga qatnab, bog'chagacha musiqa mashg'ulotlarida bir qancha musiqiy malakalar hosil qilgan bo'ladilar. Radio va televideniya orqali eshittiriladigan bir qancha musiqa asarlari bilan tanishgan bo'ladilar. Garchi ana shu bilimlar tasodifiy bo'lsada, ashula o'qituvchisi musiqadan nazariy tushunchalar hosil qilishda o'sha bilimlarga ma'lum darajada ish ko'rishi mumkin. Birinchi sinfda o'quvchilarning butun musiqa ta'limiga asosan olinadi, shuning o'qituvchi birinchi sinfdan o'qitish metodikasi ayniqsa yaxshi bilish, maktab yoshidagi kichik bolalarning yosh va individual xususiyatlarini, ularning musiqa va vokal-qo'shiqchilik imkoniyatlarini chuqur bilishi zarur. Bolalarning musiqa tovushlarini baland – pastligi va cho'zimi kabi o'ziga xos chuqur bo'lishi zarur.

Musiqa tovushlarining baland – pastligi tushunchasini o'rganib bolalardagi mavjud tasavvurlarni aniqlashdan iboratdir. Ular ko'pincha baland tovushlar “ingichka” tovush deb, past tovushlarni yog'on tovush deb ataladi. SHuning uchun bolalar bir yo'la to'g'ri terminlardan foydalanishga o'rgatish, baland va past tovushlarni eshitib farqlay bilishga va to'g'ri atashga odatlantirish kerak. Tovushlarning baland – pastligi tushunchasini egallash jarayonida ularning cho'zilishi tushunchasi ham aytiladi. Musiqa asarlaridagi tovushlar faqat balandlikka emas, balki muayyan cho'zimga ham ega ekanligi tushuntiriladi. Undan so'ng nota yozuvini bevosita yozishga kirishiladi. Turli cho'zimlarni cho'zma usulda ifodalanishi o'rgatiladi.



Butun nota va uning qancha muddat davom etishi, yarim, chorak, nimchorak, o'n oltitalik va xokazo notalar cho'zimi aytib, amaliy ko'rsatiladi. Nota yo'li haqida tushuncha beradi. Nota yo'li – notalar cho'ziladigan o'rindir. Yonma – yon cho'zilgan 5 ta parallel chiziqlar nota yo'li deyiladi. Nota chiziq ustiga va chiziq oralig'iga yoziladi. Asosiy nota yo'li va yordamchi nota yo'li mavjudligi. Bu pastki va yuqorigi yordamchi nota yo'li ekanligini tushuntiriladi. SHundan keyin o'qituvchi nota yo'li boshida maxsus belgi kamiy bo'lmaguncha nota yo'lidagi notalarni bila olmasligimiz aytiladi. Kamiy deb nota yo'liga notalarning joylashuvini ko'rsatib beradigan belgiga aytiladi. Eng ko'p qo'llaniladigan skripka yoki sol kaliti deyiladi. Sol kaliti bilan o'quvchilar tanishtirilib, qanday tartibda yozilishi, qaysi chiziqda kesishishi, ikkinchi chiziqni o'rab olishi, shuning uchun ikkinchi chiziqqa sol notasi joylashishi aytiladi. Sol notasi qaerga joylashganini bilib olgan o'quvchi qolgan notalarni bilib olaveradi. CHunki notalar nomi tartib bilan DO, RE, MI, FA, SOL, LYA, SI deb o'qiladi. Buni o'quvchilar o'rgangan bo'ladi. Shubhasiz o'qituvchi barcha notalarni bir darsning o'zida tushuntirib berolmaydi, bolalarning o'zlashtirishga qarab har bir darsda yangi – yangi notalarni o'rganib boradi. O'quvchi uni biror cholg'u asbobida chalib ko'rsatgani ma'lum.

Ikkinchi sinfdan DO major tovushi qatorini o'rganish davom ettiriladi. SHu yoshdagi qo'shiqchilik imkoniyatlari gammani bemalol do 1 dan do 2 gacha to'liq ravishda kuylashga imkon beradi. Gammani yuqoridan pastga qo'llash tavsiya etiladi. Bu holda past notalarga o'tishda tovushning yuqori holati saqlanadi.

Lekin gammani pastdan yuqoriga qarab kuylash ham zarur, chunki bunday kuylash tufayli bosqichlarning izchilligi haqida to'g'ri tasavvur hosil qilinadi. SHunday qilib musiqa savodi bosqichma – bosqich har bir sinfga ashulaga mos ravishda asta – sekin sabot bilan o'rganib boriladi.

Musiqa darslarida o'quvchilarning musiqiy savodxonligini tarkib toptirish shunga olib keladiki, o'quvchi biror qo'shiqni kuylaganda uning mazmuniga tushunib, qayerni kuchli, qayerni mayin ijro etishni, qayerda nafas olishni, qayerni 2 marta takrorlashni ritmini, tempini va hokazo boshqa ifoda vositalarini tushungan holda vositakor talabiga mos ravishda kuylay oladi.

1. O'quvchilarda musiqa san'atiga bo'lgan qiziqish va mehr – muhabbatini oshirish.
2. Musiqiy faoliyatlar jarayonida badiiy ijodkorlik va his – tuyg'ularni rivojlantirish.
3. Asarlarning badiiy – g'oyaviy mazmuni vositasida o'quvchilarni axloqiy – estetik tarbiyalash.
4. Musiqa darslarida kasb – hunar va mehnatga nisbatan o'quvchilarda ishtiyoq uyg'otish kabi ishlarni amalga oshirish kerak.

### **Musiqa tarbiyasida DTS va pedagogik texnologiya talablari**

Bizga ma'lumki, Davlat ta'lim standartlari umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-xunar va oliy ta'lim mazmuniga hamda sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi. SHunday ekan, musiqa ta'limida Davlat ta'lim standartlari ommaviy xalq musiqa pedagogikasi professional musiqa ijodkorlari, musiqa ijrochilari, katta ashulachilar, maqomchilar, dostonchilik asarlarining elementar asoslarini me'yorlashtiradi.

Musiqa ta'limidan davlat ta'limi standartlari asosida yangi ta'lim mazmuni o'quvchilarning musiqiy bilim va malakalari bilan birga ularda asosan tarbiyani birga olib borish lozimligi ta'kidlanadi. SHu bois, musiqa madaniyati ta'limning yangi mazmuni, yosh avlodni milliy musiqiy merosimizga vorislik qila oladigan, umumbashariy musiqa boyligini idrok eta oladigan madaniyatli inson darajasida voyaga etkazishni nazarda tutadi. Bunda o'quvchilar musiqa san'atini butun nafosati bilan o'rganishlari, ommaviy musiqa faoliyatlari: musiqani badiiy idrok etish, yakka va jamoa bo'lib qo'shiq kuylash, raqsga tushish va ijodkorlik malakalarini shakllantirish asosiy maqsad hisoblanadi.

Yangi pedagogik texnologiyalarga asoslangan ta'lim-tarbiya jarayoni nima, u an'anaviy dars turlaridan nimasi bilan farqlanadi degan masalaga e'tiborni qaratamiz. Ma'lumki, an'anaviy dars turlarida ta'lim-tarbiya jarayonida markazda o'qituvchi turadi. U o'quv materialini tushuntiradi, so'raydi va baholaydi.

O'quvchilar esa o'qitish jarayonining sust ishtirokchisi bo'lib, ular o'qituvchi tushuntirishini eshitadilar va uning savollariga javob berish bilan kifoyalanadilar. Pedagogik texnologiyaga asoslangan o'qitishda esa o'quvchi mustaqil ravishda bilim ko'nikma malaka

egallash bilan birga o'z faoliyatlarini baholash darajasiga ko'taradilar. Bunday o'qitishning esa ijrochisi o'quvchidir.

O'qituvchi bunda ta'lim olishning tashkilotchisi, o'quvchining yordamchisi sifatida qatnashadi.

Ta'limning zamonaviy sharoitlarida an'anaviy metodlarni takomillashtirishga va yangi metodlarni izlab topishga tobora jiddiy talablar qo'yilayotir. Hozirgi kunda o'quv jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalar, dars o'tishning noan'anaviy usullari, xususan , interfaol usul keng joriy etilyapti.

Pedagogik texnologiya – bu ta'lim shakllarini optimallashtirish maqsadida texnik vositalar inson salohiyati hamda ularning o'zaro ta'sirini inobatga olib o'qitish va bilim o'zlashtirishning barcha jarayonlarini aniqlash, yaratish va qo'llashning tuzilish metodidir .

Musiqqa darsi o'tishning zamonaviy pedagogik usullariga doir ko'plab qo'llanmalar mavjud, bunday uslublarni ilg'or musiqqa muallimlarining o'zlari kashf qilganlar va ular yaxshi samara bermoqda. Xususan, "mavzu qanday bayon qilganda uning necha foizi o'quvchi yodida saqlanadi, u tomonidan o'zlashtiriladi?" degan tabiiy savolga javob topish maqsadida o'tkazilgan ma'ruzalarning dialog shaklida olib borilishi tajriba yakunida bugungi talabalarning mustaqil fikrlashlari o'sib borayotganini ko'rsatmoqda. Musiqqa ta'limi yo'nalishi talabalariga "Musiqqa o'qitishning innovatsion texnologiyalari" fanini o'qitishda "Aqliy xujum", "Juftlikda ishlaymiz", "Musiqani top", "Raqamlarni tanla", "Xotira charxi" va boshqa usullarni qo'llash jarayonida yuqori natijalarga erishmoqdamiz.

Talabalarga dars yakunida kelgusi darsgacha intellektual savollarni tuzib, unga nom qo'yish topshirig'iga javob olinishi ham samarali kechmoqda. Talaba mavzu yuzasidan o'rtoqlari, ustoz bilan o'zi muloqotga kirishishi, amaliy mashg'ulotlarda qatnashishi, darsdan olgan bilimlarini gapirib bera olishi, ayniqsa vaqtning qadriga etishi, ya'ni berilgan imkoniyatida ko'proq manbalar haqida fikr yuritishi va nihoyat baholash hamda rag'batlantirish jarayonlarida ham faol bo'lishi kerak. Ana shunda olingan bilim mustahkam bo'ladi . Turli uslublarni o'rganib, taqqoslab, hamkasblar bilan fikrlashib , xar bir ustoz o'z uslubini yarata oladi .

Respublikamizda "Ta'lim to'g'risidagi qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi hamda DTS talablari asosida ish olib borish kasb

ta'limini rivojlantirishda asos bo'ladi. To'qqiz yillik umumiy o'rta ta'lim joriy etilgach, barcha o'quv fanlar qatori musiqa madaniyati fanidan milliy ijro ustuvorligida va hozirgi zamon talabi asosida yangi dastur yaratildi.

Dastur asosida darsliklar, uslubiy qo'llanmalar, tavsiyanomalar, taxminiy mavzuli ish rejalari yaratilmoqda, chunki, musiqa tabiatiga ko'ra inson hissiyotiga kuchli ta'sir eta olish hususiyati bilan birga o'quvchilarni nafosat olamiga olib kirish, musiqa idrokini shakllantirish, musiqa savodxonligini oshirish va axloqiy-g'oyaviy tarbiyalashning muhim vositasidir.

Qo'shiq kuylash, musiqiy idrokini kuchaytirish o'quvchining psixologik va fiziologik tuyg'ulariga ta'sir etadi, ijobiy faolligini ta'minlaydi, tovush xosil qilish, artikulyatsiya va nafas organlarini faollashtiradi. Xotirasi, nutqi, diqqatini mustahkamlash bilan birga dunyoqarashini kengaytiradi.

Musiqa idrokini shakllantirishda ifoda vositalarining muhimligi qo'shiqni sof ohangda kuylash bilan xarakterlidir. Qo'shiqdagi unli tovushlarni cho'zibroq, undosh tovushli bo'g'inlarni esa tez va burro talaffuz etish tavsiya etiladi. Bunday ifoda vositalari boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan dars va qo'shimcha mashg'ulotlar o'tkazish jarayonida qo'llanilsa dars samaradorligiga erishiladi.

Dars jarayonida o'qituvchi musiqa tinglashda jonli ijrodan foydalansa o'quvchiga yanada qiziqarliroq bo'ladi. Musiqa tinglash faoliyatini texnik vositalar orqali amalga oshirish bilan o'quvchining musiqiy dunyoqarashi kengayadi.

Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilar musiqa tinglash, qo'shiq kuylash, cholg'u asboblariga jo'r bo'lish kabi harakatlarni bajarish bilan birga albatta ritmik harakatlarni to'laqonli ravishda bajarishlari shart. Bu bilan o'quvchining tinglash, diqqatni bir joyga to'plash, musiqa ohangiga mos harakatlar bajarish, chapaklar asosida ritmga jo'r bo'lish orqali qobiliyatlari rivojlanadi.

Darsning samaradorligiga erishish, kasb mahoratini to'liq bajarishda o'qituvchi-pedagoglar DTS talablari hamda yangi pedagogik texnologiya asosida istagan faoliyatlar orqali ko'zlagan maqsadiga erishishi mumkin. Bizga ma'lumki, musiqa tarbiyasi jamiyatimiz taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Unda o'zbek musiqa madaniyati va xalq musiqasining nodir namunalari orqali yosh avlodni tarbiyalashdek mas'uliyatli vazifa amalga oshiriladi. Bugun

shunday darslar tashkil etilsinki, pedagog faol va tashabbuskor bo'lsin, uning shogirdlari esa mustaqil va erkin fikrlay oladigan yoshlar bo'lib etsinlar.

Tarbiya juda nozik masala. Bolaga, ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilariga faqat to'g'ri, zamonamizga, jamiyatimizga mos keluvchi misollar bilan, ko'rgazmalar bilan milliy ta'lim- tarbiya tizimini yuzaga keltirishi kerak. Agarda biror marta anglashilmovchilik bo'lsa, albatta kelgusidagi dar yoki mashg'ulotda tuzatish kiritish lozim.

“Biz sog'lom kishi deganda, - degan edi muhtaram yurtboshimiz, faqat sog'lomgina emas, balki sharqona axloq-odob va umumbashariy g'oyalar ruhida kamol topgan kishilarni tushunamiz”.

Interfaol usulini qo'llashdan maqsad-o'quvchilar tomonidan tadbirni puxta o'zlashtirishga erishish bilan birga ularni faollikka undash, ularda hamkorlikda ishlash, ma'lum vaziyatlarni boshqarish hamda mantiqiy tafakkur yuritish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

“Interaktiv” so'zi inglizcha “Interak” so'zidan olingan bo'lib, “Inter” – birgalikda, o'zaro, “akt” esa harakat ma'nosini bildiradi.

Musiqqa darsi dastur asosida rejalashtirilib, ko'rgazmali qurollar bilan musiqa o'qitishning og'zaki, amaliy, taqqoslash metodlaridan foydalangan holda, darsda o'quvchilarni e'tiborini o'ziga jalb qilib, raqs elementlari, musiqali bolalar o'ynab, musiqaga mos qadam tashlash, chapak chalishni mayin ifodali qilib kuylash bilan metodik talablar asosida olib boriladi.

Xulosa o'rnida, Davlat ta'lim standartlarida belgilanganidek, musiqa idrokini shakllantirishda ijrochilik uslublarining dolzarbligi mahalliy-uslubiy qo'shiqlaridan foydalanish, mahalliy bastakorlarning asarlarini o'rganish musiqa madaniyati darslarida qo'l keladi. Har bir qo'shiqni o'rganilar ekan qo'shiq xarakteridan kelib chiqib uning ifoda vositalari ham shunga mos bo'ladi. SHu bilan birga o'quvchi qo'shiqdagi alterasiya va dinamik belgilarini o'rganib, shular asosida qo'shiqning mazmunini ochib berishi va sof kuylashi lozim.

### **Innovatsion texnologiyalardan foydalanishda o'quvchining ijodkorligiga erishish**

Umumta'lim maktablari o'quvchilarida mustaqil fikrlash qoidalarini rivojlantirar ekanmiz, ayniqsa boshlang'ich sinf

o'quvchilarining o'z mustaqil fikrlarini bayon etishlari, qo'shiqlarni jonli tarzda to'liq kuylay olishlari, mustaqil fikrlay olishlari, eng muhimi milliy musiqani ongli ravishda idrok etib, qo'shiqni kuylashlari ahamiyatlidir.

2005 yillarda Xalq ta'limi tizimida yanada chuqur o'zgarishlar ro'y berdi. Pedagog o'qituvchilarning ilmiy va kasbiyay salohiyatlarini kuchaytirish, dars sifat va samaradorligini oshirishlarida ta'limga yangiliklar olib kirilishi talab darajasiga ko'tarildi. Ya'ni ta'limga innovatsion usuldagi texnologiyalarni qo'llash va ularni joriy etishga e'tibor kuchaytirildi.

Innovatsion texnologiyalarni qo'llashda musiqa o'qituvchisi har taraflama talab darajasidagi zamonaviy darslarni tashkil etilshi rejalashtirildi. Xatto o'tkaziladigan Respublika anjumanlari va tadbirlarida innovatsion texnologiyalardan oqilona foydalanish yo'llari belgilab berildi.

Innovatsion texnologiyalarni qo'llash - o'quv jarayoniga tadbiiq etish orqali pedagoglar juda ko'p yangiliklarga ega bo'ladi, ayniqsa jamiyatning rivojlanish darajasini o'rganadi, dunyoviy bilimlari pedagogda oshadi, o'quvchilarda shakllanadi, aynan musiqa olamidagi rivojlanish yangiliklarga erishish malakalari takomillashadi, bir so'z bilan aytganda yangiliklar yaratish hisobiga ta'lim jarayonining mezoni kuchaytiriladi, o'zaro fikr almashuv hamda tajribaviy bilimlar saviyasining kengayishiga erishiladi.

Ma'lumki, XXI asr texnika asridir, shunday ekan bugun har bir pedagog va o'quvchi- yoshlar ongi rivojlanib, texnologiyaning barcha usullarini teran anglay oladi. Ayniqsa, internet tizimini keng yo'lga qo'yilishi lozimligi yurtboshimiz tomonidan ham ilgari surildi. Hozirgi zamon bolasi internet tizimidan mustaqil foydalanishi, ular erkin ravishda dunyo yangiliklaridan voqif bo'lishlari ta'kidlandi.

Innovatsion texnologiyaning zamirida ham dunyodagi mavjud ta'lim maskanlari, ularning ish faoliyatlari va dars o'tilishi samaradorligini o'rganib, darslarda joriy etilishi ko'zda tutiladi. Jahon yangiliklari, ularning rivojlanish jarayoni, darsdagi rejalarning keltirilishi, eng muhimi darsda vaqtdan unumli foydalanish darajasini joriy etish ham ushbu texnologiyani qo'llanilishida nazarda tutiladi. Yaponiya davlatida "ishga kech qolish" iborasi tushunchasi qo'llanilmas ekan, bu bilan ko'rinib turibdiki, hech kim ishga kech qolmay, vaqtni tejar ekanlar. Ana shunday vaqtning qadriga

yetadigan kishilarning ish faoliyatida hech qanday muammolar duch kelmaydi.

Evropa davlatlarida tahsil oladigan barcha o'quvchi- yoshlar o'z mustaqil fikriga ega shaxs hisoblanadi, ular dars jarayonida o'qituvchi bergan bilim va malakalarni bemalol ravishda anglaydilar hamda muhokama va munozaraga erkin holda qo'yadilar. Ya'ni ularning mustaqil fikrlashlariga asos mavjud bo'ladi, bunday fikrlaydigan o'quvchilarning ustozlari ham albatta, o'z o'quvchilaridan ming chandon bilim va kasbiy mahorat egasi bo'la oladi.

Bizda ham mustaqil fikrlaydigan o'quvchilar mavjud bo'lib, ular ham darsda faollikni qo'lga oladilar va darsni munozara va qiziqarli tusga aylantira oladilar. Yurtboshimizning aynan bugungi kun bolasini o'z mustaqil fikriga ega bo'lishini shunday izohlashlari ham pedagoglarni yangilikka va texnologik yutuqlarga intilishga undaydi:

“Mustaqil fikrlay olish, musiqani idrok etishni kuchaytirish bilan birga so'zlash qobiliyatini ham kuchaytiradi. Ayniqsa, odob-ahloq me'yorlarini o'rganish bilan bolada mukammallikka intilish, bilim doirasini kengaytirish, yashash hissi kuchayadi.”

Mustaqil fikrlashda shuni alohida ta'kidlab o'tmoqchimanki, bugungi kunda ta'lim muassasalarida muhim sanalib kelayotgan mustaqil ta'limni o'quvchi- yoshlar orasida ham shakllantirish lozimligi to'g'risida to'xtalib o'taman. Boisi, bir soatlik dars yoki qo'shimcha mashg'ulotlar orqali o'qituvchilar o'z maqsadiga erishi olmasligi mumkin, ularni yanada erkinroq mashq qilib, mustaqil ravishda fikrlay olishlariga erishish uchun ularga mustaqil ravishda mashg'ulotlar berish lozimdir.

Darsda innovatsion texnologiyalarni qo'llashda dars mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilar o'zlashtirgan bilimlarni mustahkamlash, kengaytirish va boyitish, ta'lim olish va bo'lg'usi faoliyat uchun zurrur bo'lgan ko'nikmalar, malakalar va fazilatlarini hosil qilish hamda rivojlantirish shaklidir.

Bu jarayon o'quvchilarning bo'sh vaqti, texnologik ta'lim olishga bo'lgan qiziqishi, o'z-o'zini tarbiyalashga qaratilgan hatti-harakati, xarakteri, temperamenti bilan bog'liq bo'lgan bir qancha omillarni hisobga olishni taqazo etadi.

O'quvchilar o'rtasida innovatsion texnologik ta'limni keng joriy etishda yuqori sinf o'quvchilariga turli topshiriqlar berish orqali mustaqil fikrlashni boyitishga erishish mumkin. Bunday jarayonni

tashkil etishdan maqsad- ularni yangi bilimlarni o'zlashtirish, takrorlash asosida mustahkamlab borishga odatlantirish, o'quv fanlaridan berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida tayyorlash, kerakli adabiyotlarni topish, bo'sh vaqtni oqilona tashkil etishga, jamiyatda bo'layotgan voqealarni to'g'ri baholashga o'rgatish, ularning musiqaga doir turli fanlarni o'rganishga bo'lga qiziqishlarini rivojlantirish, ilmiy dunyoqarashni tarkib toptirish, musiqiy-estetik didini o'stirish, o'z ustida muntazam, qunt bilan ishlash qobiliyatini o'stirishdir.

Shuni alohida e'tiborga olmoq zarurki umumta'lim maktablarida bilim va ko'nikma olayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida olib boriladigan sinfdan tashqari ishlarning tashkil etilishida axborot texnologiyalariga tayangan holda mazmunli va maqsadga aniq yo'naltirilgan amaliy mashg'ulotlarda musiqa idrokini va musiqa savodi faoliyati o'zaro uzviy bog'lanish bilan qolgan barcha faoliyatlar amaliyotiga yetakchilik qiladi.

O'sib kelayotgan yosh avlodning tarbiyasi jamiyatimizning ravnaqi uchun o'ta muhim masaladir, tom ma'noda aytganda bizning shogirdlarimiz oynadagi aksimizdir. Biz hozirgi yoshlarga qanday ta'lim va tarbiya bersak ular shundayligicha qabul qiladilar. Hozirda texnika asrida yashayotganimiz bois yoshlarimiz qobiliyatli bo'lib, ayniqsa musiqa darslarida yoki bo'lg'usi rassomning ijodiy faoliyatida ularga mustaqil fikrlashni majburiy holda berish kerak emas, aksincha qiziqarli, mantiqiy savollar, intellektual o'yinlar, qiziqarli Shoular, bahs-munozarali o'yin darslarini ko'proq o'tkazish lozim. O'z-o'zidan ma'lumki, musiqa darslarida biz rasmlardan foydalanamiz, rassomlar esa musiqa tinglab rasm chizishlari mumkin, shunda pedagog ko'rgazmalilikka erishgan bo'ladi.

Umumta'lim maktablarida o'quvchi yoshlarning bilim va ko'nikmalarini shakllantirishda, ularning barkamolligiga erishishda kasb-hunar rivojiga erishishda o'qituvchi-pedagoglar yuqoridagi fikrlardan xulosa chiqarganlari holda ta'limga zamonaviy dasturlarni olib kirishlari lozim. O'quvchini qay darajada ko'proq bilim olishga, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga jalb etilsa, dars samaradorligiga, yoshlar tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yilishiga erishiladi. Buning uchun darsdan tashqari mashg'ulotlarni, to'garaklar faoliyatlarini chuqur o'zlashtirib, o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini ko'ngilli tashkil etishga erishish lozim.



Musiqqa madaniyati darslarida xalqimizning mumtoz va zamonaviy qadriyatlaridan bahramand bo'lish darslarning samarali bo'lishida o'rinlidir, xuddi shuningdek tasviriy san'atda ham. Dars davomida o'qituvchi o'quvchilarga faqatgina musiqqa tinglash va qo'shiq kuylash yoki rasm chizish bilan chegaralanmay, "Odob - inson ziynati" mavzusida qiziqarli ochiq muloqotlar o'tkazishi, buyuk ajdodlarimiz qoldirgan o'gitlardan foydalanishi mumkin.

Masalan, boshlang'ich sinflarda o'tiladigan musiqqa darslarida musiqqa ohangi ostida qo'shiq o'rganish va Vatanimizni sevish, o'zaro hurmat hamda axloq-odob qoidalari borasidagi bahs-munozara orqali o'quvchilarni mustaqil fikrlay olish mumkin, shu vaqtning o'zida qo'shiq mazmunidan kelib chiqib, bolalarga rasm chizishni ham aytish mumkin shunda ular chizgan bayroq, gerbimizdagi xumo qushning tasvirlari jonli chiqadi.

Tabiiyki musiqqa ham aynan insonning ichki va tashqi dunyosini ohanglar orqali go'zallik va yaxshilikka yo'naltiradi. Ya'ni, kishilarda bo'lishi zarur bo'lgan xislatlar, aynan musiqqada ham bo'ladi, jumladan, milliy qo'shiq chiroyli harakat, hushmuomalalik-xushohanglik bilan uyg'unlashadi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, odobli bola bosiq, muloyim, kamtar ota-onasiga mehribon bo'ladi. Qo'pol, manmansiragan, hudbin bolalar esa elga yoqmaydi. Xuddi shuningdek yoqimsiz qo'shiq yoki beo'xshov rasmlar ham insonning g'ashini keltiradi.

Dars davomida tarbiyaviy qo'shiqlarni o'rganish orqali o'quvchilarning ijodkorlik idroki kuchayadi, mustaqil fikrlaydi hamda tasvirlarda taqqoslash qobiliyatlari rivojlanadi. Mustaqil fikrlay olgan o'quvchi o'qituvchi o'rgatgan qo'shiqni to'g'ri o'rganadi, uning mazmuniga e'tibor berib kuylaydi hamda ta'sirli chiqadi.

Musiqqa o'qituvchisi mavzudan kelib chiqib, o'quvchiga shunday savol berishi lozimki, savolning o'ta sodda va qiziqarliligi bahs-munozaraga aylanib ketsin. O'qituvchi-pedagog 45 daqiqa mobaynida salomlashuv odobi, nutq madaniyati, badiiy-obrazlilik, yuksak pedagogik mahorat, ijodkorlik qobiliyati orqali o'zini o'quvchilarga namoyon etishi lozim. O'qituvchi darsni tashkil etayotganda albatta o'quvchining yoshi va qiziqishini inobatga olishi shart, shundagina uning shogirdlari mustaqil fikrlagan holda o'z ustozidan andoza olaveradi.

Innovatsion texnologiyani joriy etishda o'quvchilarning o'zlarini erkin tutishlariga erishish lozim bo'ladi. Bunda aynan yangiliklar o'ylab topish, o'quvchilarga mutloq yangilik tariqasidagi musiqiy "rolklar" taqdim etish, milliy musiqalarni o'rgatishda ham zamona ruhini qo'shgan holda texnologiyaga erishish kerak.

O'quvchilarga innovatsion tizimni joriy etishda fikrlash qobiliyatlarini o'ta zo'riqtirmaslik uchun sodda va qiziqarli "metod"lardan foydalanish lozim. Dars jarayonida, ayniqsa manzaralarni tabiat qo'ynida chizilsa o'quvchi uchun qiziqarli bo'ladi, u erkin holda ijod qiladi. Ma'naviyatini boyitish orqali, eng avvalo o'sib kelayotgan yosh avlod, ajdodlari, boyliklari, hususan an'ana va urf-odatlarimiz haqida mustaqil fikrlashga ega bo'lmoqlari lozim. O'quvchilarda mustaqil fikrlash qoidalarini rivojlantirar ekanmiz, ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilarining burro-burro qilib gapirishlari, mustaqil fikrlay olishlari, eng muhimi milliy musiqani ongli ravishda idrok etib, rasmni jonli tarzda chizishlari ahamiyatlidir.

Musiqada innovatsion texnologiyani joriy etishda boshqa davlatlar yangiliklarini olib kirishda albatta tarbiya ko'nikmalariga e'tibor qaratish lozim. Chunki boshqa bir davlat musiqasi san'ati mutloq bizning azaliy musiqamizga to'g'ri kelmasligi yoki bizning urf-odatlarimizni yorita olmasligi mumkin. Shunda ularning kuchli taraflarini, masalan, xatto boshlang'ich sinflarning o'quvchilari ham bemalol notaga qarab kuylashlari, sur'at va tempni ajrata olishlari, turli musiqiy tovushlarni tezda ilg'ashlari, ikki ovozda jamoa bo'lib kuylashlari kabi jihatlarni misol qila olishimiz mumkin.

Innovatsion texnologiyaning yana bir jihati boshqa millatga mansub bo'lgan turli qarashlarni yangi ko'rinishlarini, ya'ni tabiiy ko'nikmalari, ijodiy izlanish samarasi, texnikani chuqur bilish kabi malakalarni o'zaro bog'lash, o'rganish, joriy etishdan iborat musiqani va tasviriy san'atni kuchaytirish bilan birga so'zlash va tasavvur etishni ham kuchaytiradi. Ayniqsa, odob-axloq me'yorlarini o'rganish bilan bolada mukammalikka intilish, bilim doirasini kengaytirish, yashash uchun kurashish hissi kuchayadi.

Kasb ta'limini rivojlantirishda o'qituvchi pedagoglar o'quvchi-yoshlarni barkamollikka erishishlarida o'z ijodiy qobiliyatlarini sarflab, ularni bilimli-uquvli etib tarbiyalashlari lozim. Buning uchun hech nima to'siq bo'la olmaydi. Bugungi kunda o'quvchilarga ta'lim

va tarbiya berishda yangi innovatsion texnologiyalarga asoslangan zamonaviy darslarni tashkil etish davr talabidir.

“Internetni o‘rganadigan, yangilikka intiladigan yoshlar eng avvalo, mustaqil fikrlay olish, musiqani idrok etishni kuchaytirish bilan birga madaniyatli so‘zlash qobiliyatiga ham ega bo‘lishi zarur. Odobli va madaniyatli shaxsgina internetdan nimani qidirish va o‘rganishni ham uddalaydi. Ayniqsa, odob-ahloq me‘yorlarini o‘rganish bilan bolada mukammalikka intilish, bilim doirasini kengaytirish, yashash tarzini o‘rganib borish lozim”.

Respublikamizda “Ta‘lim to‘g‘risi”dagi Qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi hamda DTS talablari asosida ish olib borish kasb ta‘limini rivojlantirishda asos bo‘ladi. To‘qqiz yillik umumiy o‘rta ta‘lim joriy etilgach, barcha o‘quv fanlar qatori musiqa madaniyati fanidan milliy ijro ustivorligida va hozirgi zamon talabi asosida yangi dastur yaratildi.

Dastur asosida darsliklar, uslubiy qo‘llanmalar, tavsiyanomalar, taxminiy mavzuli ish rejaları yaratilmoqda, chunki, musiqa tabiatiga ko‘ra inson hissiyotiga kuchli ta‘sir eta olish hususiyati bilan birga o‘quvchilarni nafosat olamiga olib kirish, musiqa idrokini shakllantirish, musiqa savodxonligini oshirish va axloqiy-g‘oyaviy tarbiyalashning muhim vositasidir.

Davlat ta‘lim standartlarida belgilanganidek, mahaliy-uslubiy qo‘shiqlardan foydalanish, mahaliy bastakorlarning asarlarini o‘rganish musiqa madaniyati darslarida qo‘l keladi. O‘quvchi bunday usuldagi qo‘shiqlarni tez o‘zlashtiradi. Ular ohanglarning yoqimlilikini qalban his etadilar, biroq yettinchi sinflarda berilgan xalq qo‘shiqchiligiga oid qo‘shiqlar hamda maqomlar umumta‘lim maktablarida tahsil oluvchi o‘quvchilarga o‘rganishlarida murakkabdir. Bunday qo‘shiqlarni kasbga yo‘naltirilgan o‘quv muassasalariga berish o‘rinlidir.

Tarbiya topgan bolagina o‘qituvchining bergan topshirig‘ini o‘z o‘rnida bajaradi. O‘quvchilar bilan mustaqil ishlashda ularning musiqiy ijrosini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Musiqiy ijrosi barcha faoliyatlar amaliyotida yetakchi xususiyatga ega ekanligini davlat ta‘limi standartida ham alohida ko‘rsatib o‘tilgan.

Shu jihatdan olib qaralganda ta‘lim jarayonini musiqiy idrok etishda yangi innovatsion texnologiyalarga tayanish, innovatsion texnologiyalardan foydalanish yoshlarning musiqiy qobiliyatlarini

shakllanishiga ta'sir etuvchi bir qancha omillarni kelib chiqqan holda tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

O'quvchiga beriladigan mustaqil topshiriqda musiqali harakatlar, cholg'uchilik ijodlarning faoliyatini amalga oshirishda o'yin metodlaridan keng foydalanish tavsiya etiladi.

### III. 2. Musiqa o'qitish texnologiyalari va loyihalash.

Quyida o'qitish jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan ba'zi bir treninglar (texnologiyalar)ga tavsifnomalar: **«TARMOQLAR» metodi** – o'quvchi – talabani mantiqiy fikrlash, umumiy fikr doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o'rgatishga qaratilgan.

**«3x4» metodi** - o'quvchi – talabalarni erkin fikrlash, keng doirada turli g'oyalarni bera olish, ta'lim jarayonida yakka, kichik guruh holda tahlil etib, xulosa chiqara olish, ta'rif bera olishiga qaratilgan.

**«Blits o'yin» metodi** - harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o'rganayotgan predmeti asosida ko'p, xilma-xil fikrlardan, ma'lumotlardan kerakligini tanlab olishni o'rgatishga qaratilgan.

**«Intervyu» texnikasi o'quvchi** - talaba savol berish, eshita olish, to'g'ri javob berish, savolni to'g'ri tuzishni o'rgatishga qaratilgan.

**«Ierarxiya» texnikasi** – oddiydan murakkabga, murakkabdan oddiyga o'tish usullarini qo'llash orqali ularni mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlashga o'rgatishga qaratilgan.

**«Bumerang» texnikasi** - o'quvchi –talabalarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o'rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so'zlab bera olish, fikrni erkin holda bayon eta olish hamda bir dars davomida barcha o'quvchi – talabalarni baholay olishga qaratilgan.

**«Talaba» treningi** – o'quvchi – talabalar bilan individual holda ishlash o'qituvchi va talaba o'rtasidagi to'siqni yo'q qilish, hamkorlikda ishlash yo'llarini o'rgatishga qaratilgan.

**«O'qituvchi shaxsi» treningi** - o'qituvchining innovatsion faoliyatini ochib beruvchi «o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar» mavzusidagi mustaqil fikrlashga, ijodiy insho orqali fikrlarni bayon qilishga qaratilgan.

«**Muloqot**» **texnikasi** o`qituvchilarni auditoriya diqqatini o`ziga jalb etish, dars jarayonida hamkorlikda faoliyat ko`rsatishga, uni tashkil etishni o`rgatishga qaratilgan.

«**BOSHQARUV**» **texnikasi** o`qituvchilarni auditoriyani boshqarishdagi usullari hamda o`quvchi – talabalarni ish jarayonida usullar bilan tanishtiruvchi va shunga o`rgatishga qaratilgan.

### **Blits – o`yin texnologiyasi.**

Ushbu texnologiya o`quvchi o`quvchilarni harakatlar ketma-ketligini to`g`ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o`rganayotgan predmeti asosila ko`p, xilma xil fikrlardan, ma`lumotlardan kerakligini tanlab olishni o`rgatishga qaratilgan. Ushbu texnologiya davomida o`quvchi o`quvchilar o`zlarining mustaqil fikrlarini boshqalarga o`tkaza oladilar, chunki bu texnologiya shunga to`liq sharoit yaratib beradi.

### **Maqsad:**

Ushbu texnologiya tinglovchilarga tarqatilgan qog`ozlarda ko`rsatilgan harakatlar ketma-ketligini avval yakka holda mustaqil ravishda belgilab, so`ngra o`z fikrini boshqalarga o`tkaza olish yoki o`z fikrida qolish, boshqalar bilan hamfikir bo`la olishga yordam beradi.

**Texnologiyasi:** ushbu texnologiya bir necha bosqichda o`tkaziladi.

### **1- bosqich.**

-Trener ushbu trening bir necha bosqichda o`tkazilishi haqida tinglovchilarga (o`quvchi o`quvchilarga) tushuncha beradi. Har bosqichdagi vazifani bajarishga aniq vaqt berilishi, tinglovchilar esa shu vaqtdan unumli foydalanishlari kerakligi haqida ularni ogohlantiradi;

-Trener hamma tinglovchilarga alohida alohida tarqatma material beradi va tinglovchilardan ushbu materialni sinchiklab o`rganishlarini so`raydi;

-Trener tarqatma material mazmuni va bajariladigan vazifani tushuntiradi, ya`ni tarqatma materialda berilgan 13 ta harakatni ketma ketligini to`g`ri belgilash kerakligi, beligini esa qog`ozdagi alohida ajratilgan bo`limga raqamlar bilan belgilash kerakligini tushuntiradi;

-Qo`yilgan vazifa avval yakka tartibda bajarilishini aytadi.

## **2- bosqich.**

Trener birinchi berilgan vazifani har bir tinglovchi tomonidan yakka tartibda bajarilishini kuzatadi, qiynalganlarga yordam beradi, yoki qaytadan tushuntiradi:

Har bir tinglovchi tarqatma materialdagi —YAKKA BAHO bo'limiga shu yerda berilgan harakatlardan o'zining shaxsiy fikri asosida mantiqiy ketma ketligini raqamlar Bilan belgilab chiqadi, ya'ni berilgan 13 harakatdan, uning fikricha qaysi biri, birinchi bo'lishi, qaysi biri esa ikkinchi bo'lishini va hokazo. Bu vazifani bajarish uchun trener tinglovchilarga 10 daqiqa vaqt beradi.

## **3 -bosqich**

-trener tinglovchilardan 3 kishidan iborat kichik guruhlar tashkil etishlarini so'raydi. 3 kishilik guruhlar tinglovchilarning xoxishlariga qarab yoki raqamlar bo'yicha tashkil etilishi mumkin:

-kichik guruhlardagi tinglovchilarning har biri o'z qog'ozidagi yakka baho bo'limida belgilangan harakatlar ketma ketligi bilan bir birini tanishtiradilar, keyin 3 kishidan uch xil bo'lgan ketma ketlikni birlashib, bir birlari bilan tortishib, bahslashib, bir birlariga ta'sir o'tkazib, o'z fikrlariga ishonirib kelishgan holda bir muqimga kelib ularga tarqatilgan qog'ozdagi —GURUH BAHOSI bo'limiga raqamlar bilan belgilab chiqadilar.

-Trener kichik guruhdagi tortishuvlarda ishtirok etmaydi, faqat kichik guruhlar va har bir tinglovchi faoliyatini kuzatadi. Bu vazifani bajarish uchun 20 daqiqa vaqt beriladi.

## **4 -bosqich.**

-Barcha kichik guruhlar o'z ishlarini tugatgach, trener harakatlar ketma ketligi bo'yicha to'g'ri javobni beradi, ya'ni tinglovchilardan ularga tarqatilgan qog'ozlardan —TO'G'RI JAVOB bo'limini topishni va unga trener tomonidan aytilgan harakatlar ketma-ketligining raqamlarini yozishini so'raydi.

## **5-bosqich.**

-Trener —TO'G'RI JAVOB bo'limida berilgan raqamlardan —YAKKA BAHO bo'limida berilgan baholarni (yoki aksincha), ya'ni kattadan-kichikni ayirgan holda —YaKKA HATO bo'limiga chiqqan farqli yozishni so'raydi. —YaKKA BAHO bo'limidagi sonlani yuqoridan pastga qarab qishib chiqib umumiyisini hisoblashlari kerakligini uqtiradi.

## **6- bosqich.**

-Xuddi shu tartibda —TO'G'RI JAVOB va —GURUH BAHOSI o'rtasidagi farq kattadan-kichikni ayirish orqali bajariladi, chiqarilgan farqlar soni —GURUH XATOSI bo'limiga yozilib, yuqoridan pastga qarab qo'shiladi va umumiy son keltirib chiqariladi.

## **7-bosqich.**

-Trener yakka va guruh hatolarining soni bo'yicha tushuncha beradi, ularni alohida alohida sharhlab beradi.

-yakka hato bo'limidagi umumiy sonlarning sharhi:

Agar yakka xatolar soni 30 gacha bo'lsa, bunday tinglovchilardan tashkilotchilik, konstruktivlik qobiliyati yetarli, ular mustaqil ravishda har bir ishni eta oladilar, turli sharoitlardagi harakatlar vaqtda mantiqan ularning ketma-ketlini tashkil eta oladilar.

Agar yakka xatolar soni 30 dan 40 gacha bo'lsa, bunday tinglovchilarda tashkilotchilik qobiliyati yetarli emas, biron bir ishni yoki faoliyatini tashkil etishlarida qiynaladilar yoki pala partishlikka yo'l qo'yadilar. Shuning uchun ular alohida kurslarda o'qishlar yoki mantiqan fikrlashga o'rganishlari kerak bo'ladi.

Agar xatolar soni 40 dan yuqori bo'lsa, bunday tinglovchilar tashkilotchilik, mantiqiy fikrlash qobiliyati yetarli emas, ular o'z ustilarida ishlashlari kerak bo'ladi yoki maxsus treninglar, kurslarda o'qishlariga to'g'ri keladi.

-guruh xatosi bo'limidagi umumiy sonlarning sharhi:

Agar hatolar soni 30 gacha bo'lsa, bu guruhlarda tinglovchilar bir birlarini tushunishga harakat qilganlar, bir birlarini ishontira olganlar va natijada bir xil natijaga erishganlar. Demak, guruhda samimiy munosabat o'rnatilgan, fikrlar bir joydan chiqqan.

Agar guruhning hatolar soni 30 dan 40 gacha bo'lsa, bu guruhda tinglovchilarning bir muqimga kelishlari qiyin bo'lgan, tortishuvlar yuzaki yoki ishonarsiz bo'lgan yoki guruh a'zolari bir birlarini tushunishga sust holda intilganlar, yoki vazifaga beparvoroq bo'lganlar, yoki bir birlarini hafa qilib qo'yishdan cho'chiganlar yoki guruhning barcha a'zolari yuzaki holda kelishgan u, aslida esa har Kim o'z fikrida qolgan bo'lishi mumkin. Samimiy munosabat bu guruhda o'z aksini topmagan.

Agar guruh xatosining soni 40 dan ortiq bo'lsa, bu guruh ahzolari umuman bir birlari Bilan kelisha olmaganlar, o'zaro ishontirish

bo'lmagan. Har kim o'z fikrida qolgan. Samimiy munosabat o'rnatilgan.

**Izoh:** Bajarilgan vazifani baholashning Yana bir turi, quyidagicha: tinglovchilarning javoblari trener tomonidan berilgan —TO'G'RI JAVOBning yarmida ko'piga to'g'ri kelgan bo'lsa, demak, —qoniqarli, 75% to'g'ri kelgan bo'lsa —yaxshi, 100% to'g'ri kelgan bo'lsa —a'lo deb belgilash mumkin.

«blits»<sup>1</sup>o'yin texnologiyasini — bolalar uchun operalarda qo'llaymiz.

Avaz Mansurovning B.Isroil va F.Safarov librettosiga yozilgan – «Hayvonlar sultoni» operasining mazmunini bilan tanishtiriladi o'qib beriladi. O'quvchilarga tarqatma materiallar tarqatiladi.

Ushbu texnologiya o'quvchi – talabalarni ketma – ketligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o'rganayotgan predmeti asosida ko'p, xilma – xil fikrlardan, ma'lumotlardan kerakligini tanlab olishni o'rgatishga qaratilgan. Ushbu texnologiya davomida o'quvchi – talabalar o'zlarining mustaqil fikrlarini boshqalarga o'tkaza oladilar, chunki bu texnologiya shunga to'liq sharoit yaratib beradi.

Ushbu texnologiya tinglovchilarga tarqatilgan qog'ozlarda ko'rsatilgan harakatlar ketma – ketligini avval yakka holda mustaqil ravishda belgilab, so'ngra o'z fikrini boshqalarga o'tkaza olish yoki fikrida qolish, boshqalar bilan hamfikir bo'la olishga yordam beradi.

### **III.3. Musiqiy ta'lim jarayonida zamonaviy interfaol metodlardan foydalanish.**

Musiqqa darsining uchta faoliyat turlari bo'lsa , uchala faoliyat turini qiziqarli va unumli o'tishi uchun interfaol metodlar qo'llab dars samaradorligini oshirish mumkin. Masalan qo'shiq kuylash, musiqqa savodi, musiqqa tinglash jarayonlarida yoki yangi mavzu bayonida tarmoqlar metodini qo'llab ko'ramiz.

#### **«Tarmoqlar» metodi (Klaster)**

Fikrlarning tarmoqlanishi – bu pedagogik strategiya (o'yinning umumiy rejasi) bo'lib, u o'quvchilarni biron bir mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam berib, o'quvchilarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma- ketlik bilan uzviy bog'langan holda tarmoqlashlariga o'rgatadi.



Bu metod biron bir mavzuni chuqur o`rganishdan avval o`quvchilarning fikrlash faoliyatini jaddalashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek o`tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o`zlashtirish, umumlashtirish hamda o`quvchilarni shu mavzu bo`yicha tasavvurlarni chizma shaklida ifodalashga undaydi.

### «Bumerang»

Mazkur texnologiya bir mashg`ulot davomida o`quv materialini chuqur va yaxlit holatda o`rganish, ijodiy tushunib etish va mavzuni erkin egallashga yo`naltirilgan. U turli mazmun va xarakterga (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega bo`lgan mavzularni o`rganishga yaroqli bo`lib, o`z ichiga og`zaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi hamda bir mashg`ulot davomida har bir ishtirokchilarning turli topshiriqlarini bajarishi, navbat bilan o`quvchi yoki o`qituvchi rovida bo`lishi, kerakli ballni to`plashga imkoniyat yaratadi.

«Bumerang» texnologiyasi tanqidiy fikrlash, mantiqiy shakllantirishga imkoniyat yaratadi; g`oyalarni, fikrlarni, dalillarni yozma va og`zaki shakllarda bayon qilish ko`nikmalarini rivojlantiradi.

Ta`lim bilan bir qatorda mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

- jamoalar bilan ishlash mahorati;
- muomalalik;
- xushfe`llik;
- ko`nikuvchanlik;
- o`zgalar fikriga hurmat;
- faollik;
- rahbarlik sifatlarini shakllantirish;
- ishga ijodiy yondashish;
- o`z faoliyatini samarali bo`lishiga qiziqish; -o`zini xolis baholash. (misol)

**Texnologiyaning tavsifi.** Ushbu texnologiya talaba (yoki o`quvchi) larni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o`rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so`zlab berish, fikrini erkin xolda bayon eta olish, qisqa vaqt ichida ko`p ma`lumotga ega bo`lish hamda dars mobaynida o`qituvchi

tomonidan barcha talaba (yoki o'quvchi)larni baholay olishga qaratilgan.

**Texnologiyaning maqsadi.** O'quv jarayoni mobaynida tarqatilgan materiallarni talaba (yoki o'quvchi)lar tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtirib olishlari hamda suhbat munozara va turli savollar orqali tarqatma materiallardagi matnlar qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish va baholash. O'quv jarayoni mobaynida har bir talaba (yoki o'quvchi) tomonidan o'z baho (yoki ball)larini egallashga imkoniyat yaratish.

**Texnologiyaning qo'llanishi.** Amaliy mashg'ulotlar, seminar yoki laboratoriya mashg'ulotlari hamda suhbat munozara shaklidagi darslarda yakka tartibda, kichik guruh va jamoa shaklida foydalanilishi mumkin.

**Mashg'ulotda foydalaniladigan vositalar.** Talaba (yoki o'quvchi) dars jarayonida mustaqil o'qishlari, o'rganishlari va o'zlashtirib olishlari uchun mo'ljallangan tarqatma materiallar (o'tilgan mavzu yoki yangi mavzu bo'yicha qisqa matnlar, suratlar, ma'lumotlar).

**Mashg'ulotni o'tkazish tartibi.**

Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o'tkaziladi:

- Talaba (yoki o'quvchi)lar kichik guruhlarga ajratiladi;
- Talaba (yoki o'quvchi)lar mashg'ulotning maqsadi va tartibi bilan tanishtiradi;
- Talaba (yoki o'quvchi)larga mustaqil o'rganishlari uchun mavzu bo'yicha material tarqatiladi;
- Berilgan matnlarni o'quvchilar tomonidan mustaqil o'rganiladi;
- Har bir guruh a'zolaridan yangi guruh tashkil etiladi;
- Yangi guruh a'zolarining har biri guruh ichida navbati bilan mustaqil o'rgangan matnlari bilan axborot almashadalar, ya'ni bir-birlariga so'zlab beradilar;
- Bilimlarni anialash uchun guruh ichida ichki nazorat o'tkaziladi, savol javob o'tkazadilar;
- Yangi guruh a'zolari dastlabki holatdagi guruhga qaytadilar;
- Darsning qolgan jarayonida o'quvchilar bilimlarini baholash yoki to'plagan ballarini hisoblab boorish uchun har bir guruhda hisobchi tayinlanadi;

- Guruh a`zolari tomonidan to`plangan umumiy ballar yig`indisi aniqlanadi;
- Guruhlar to`plangan umumiy ballar guruh a`zolari o`rtasida teng taqsimlanadi;

### **«Skarabey» texnologiyasi**

«Skarabey» interaktiv texnologiya bo`lib, o`quvchilarda fikriy bog`liqlik, mantiq, xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, qandaydir muammoni hal qilishda o`z fikrini ochish va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Mazkur texnologiya o`quvchilarga mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini xolis baholash, o`rgatilayotgan mavzu haqidagi tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi. U, ayni paytda, turli g`oyalarni ifodalash hamda ular orasidagi bog`liqlarni aniqlashga imkon yaratadi.

«Skarabey» texnologiyasi o`quvchilar tomonidan oson qabul qilinadi, chunki u faoliyatning fikrlash, bilish xususiyatlarini inobatga olingan holda ishlab chiqilgan. U o`quvchilar tajribasidan foydalanishni ko`zda tutadi, reflektiv kuzatishlarni amalga oshiradi, faol ijodiy izlash va fikriy tajriba o`tkazish imkoniyatlariga ega.

### **«VEER» texnologiyasi**

Bu texnologiya murakkab, ko`ptarmoqli, mumkin qadar, muammo xarakteriadgi mavzularni o`rganishga qaratilgan.

Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo`yicha biryo`la axborot beriladi. Ayni paytda ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bedgilanadi.

Bu interaktiv texnologiya tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o`z g`oyalari, fikrlarini yozma va og`zaki shaklda ixcham bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi.

«VEER» texnologiyasi umumiy mavzuning ayrim tarmoqlarini muhokama qiluvchi, kichik guruhlarining, har bir qatnashuvchining, guruhning faol ishlashiga qaratilgan.

«VEER» texnologiyasi mavzuni o`rganishning turli bosqichlarida qo`llanilishi mumkin.

### **FSMU texnologiyasi haqida tushuncha**

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni xal etishda, baxs – munozaralar o`tkazishda yoki o`quv–seminar yakunida (tinglovchilarning o`quv–seminar haqidagi fikrlarini bilish maqsadida), yoki o`quv rejasi asosida biron bo`lim o`rganib bo`lingach qo`llanilishi mumkin, chunki bu texnologiya tinglovchilarni o`z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o`z fikrini boshqalarga o`tkazishga, ochiq holda baxslashishga, shu bilan bir qatorda o`quvchi – talabalarni, o`quv jarayonida egallangan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatida o`rgatadi.

Ushbu texnologiyaning maqsadi tinglovchilarga tarqatilgan qog`ozlarda ko`rsatilgan harakatlar ketma- ketligini avval yakka holda mustaqil ravishda belgilab, so`ngra o`z fikrini boshqalarga o`tkaza olish yoki o`z fikrida qolish, boshqalar bilan hamfikir bo`la olishga yordam beradi.

### **Trening “Muloqot” haqida tushuncha**

Ushbu trening o`quvchi – talabalarda dars jarayonida mustaqil fikrlashga, o`z fikrlarini erkin xolda bayon eta olishga hamda ularda bahslashish madaniyatini tarbiyalashga qaratilgan bo`lib, odatda bunday mashg`ulot tinglovchilarni kichik guruhlarga bo`lgan holda o`tkaziladi.

Maqsadi,tanlangan mavzu, muammo asosida tinglovchilarning fikrlarini hamda ushbu mavzuga bo`lgan munosabatlarini aniqlash, mustaqil holda umumiy bir fikrga kelishlariga va to`g`ri xulosa chiqarishlariga yordam berish, erkin holda bahslashishlariga sharoit yaratish.

### **FIKRLAR HUJUMI**

Bevosita jamoa bo`lib «Fikrlar hujumi» («Mozgovaya ataka») olib borish. Bu metoddan maqsad mumkin qadar katta miqdordagi g`oyalarni yaratish, talabalarni ayni bir xil fikrlash inertsiyasidan holi qilish, ijodiy vazifalarni echish jarayonida dastlab paydo bo`lgan fikrlarni yengishdir. Bu metod A.F. Osborn tomonidan tavsiya etilgan. Bu metodning asosiy tamoyili va qoidasi baxs ishtirokchilari ishlab chiqqan g`oyalar tanqidini mutloq taqiqlash, har qanday luqma va hazil – mutoyibani rag`batlantirishdir. Bu metoddan foydalanishning muvaffaqiyatli ko`p jihatdan o`qituvchi – mashg`ulot

rahbariga bog`liq. «Fikrlar hujumi» ishtirokchilari miqdori 15 kishidan oshmasligi kerak. Mashg`ulotning davomiyligi bir soatgacha.

Yalpi «Fikrlar hujumi». Bu metod J.Donald Filips tomonidan ishlab chiqilgan. U katta guruhlarda (20 dan 30 tagacha bo`lgan) yangi g`oyalar ishlab chiqish samardorligini sezilarli darajada oshirishni ta`minlaydi. Barcha ishtirokchilar kichik-kichik 5-6 kishidan iborat guruhlarga bo`linadi va har bir kichik guruh hal qilinadigan ijodiy vazifa va muammo bo`yicha 15 daqiqa davomida mustaqil ravishda o`zaro «Fikrlar hujumi» o`tkazadi. Shundan so`ng har bir kichik guruh vakili o`z guruhlarida ishlab chiqilgan g`oya haqida axborot beradilar va o`qituvchi rahbarligida jamoa bo`lib unga baho beradilar va ularning eng yaxshilari, betakrorlari tanlab olinadi.

«Fikrlarning shiddatli hujumi»- destruktiv berilgan baho bilan dialog. Bu metod E.A.Aleksandrov tomonidan taklif qilingan. G.Ya.Bush tomonidan o`zgartirilib yo`lga qo`yilgan dialogning mohiyati shundaki, jamoa bo`lib g`oyalar ishlab chiqishda ishtirokchilarning ijodiy imkoniyatlari faollashtiriladi va unga zid g`oyalar qo`yiladi.

Mashg`ulot bosqichma – bosqich quyidagi tarzda o`tkaziladi:

**1 –bosqich.** Miqdor va psixologik muloqati jihatidan ma`qul kichik guruhlarni shakllantirish;

**2 – bosqich.** Vazifa, muammodan kelib chiqadigan maqsadlarni ifodalash;

**3 – bosqich.** To`g`ridan –to`g`ri «Fikrlar hujumi» qoidasiga asosan har bir guruhda g`oyalar ishlab chiqish;

**4-bosqich.** G`oyalarni tartibga solish va tasniflash;

**5-bosqich.** G`oyalarni destruktivlash, ya`ni amalga oshish imkoniyatiga qarab baholash;

**6-bosqich.** Avvalgi bosqichlarda bildirilgan tanqidiy mulohazalarga baho berish. Yuqoridagi pedagogik texnologiyalardan foydalanish jarayonida (fanga asosan) turli muammolarni hal etishga, ularning kelib chiqish sabablari, tuzatish yo`llarini topishga, o`quvchilarni esa mustaqil izlanishga, fikrlashga, o`z fikrlarini isbotlash va turli vaziyatlardan chiqishga o`rgatishda «Muammoli vaziyat» shaklini qo`llash mumkin. Masalan: «Men yangi mavzuni bayon qilishdagi tajribangizni yoki baholashingizni, mavzuni mustahkamlashingizni, to`liq dars jarayonini tashkil etishingizni,

o`quvchi talabalar bilan muloqotingizni o`rganmoqchi (kuzatmoqchi, ommalastirmoqchi) edim». Shunga qarab, dars tahlili o`tkaziladi. Quyida berilgan tavsiyalar ko`p yillik tajribalar va kuzatishlar natijasida hamda hozirgi kun talabi asosida tuzilgan.

### **“Charxpalak” texnologiyalari**

**Texnologiyaning tasnifi.** Ushbu texnologiya talaba (yoki o`quvchi)larni o`tilgan mavzularni yodga olishga, mantiqan fikrlab. Berilgan savollarga mustaqil ravishda to`g`ri javob berishga va o`z-o`zini baholashga, o`rgatishga hamda qisqa vaqt ichida o`qituvchi tomonidan barcha talaba (yoki o`quvchi)larning egallagan bilimlarin baholashga qaratilgan.

**Texnologiyaning maqsadi:** talaba (yoki o`quvchi)larni dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o`z fikrlarini mustaqil avishda erkin bayon eta olish, o`zlarin baholash, yakka va guruhlarda ishlashga, boshqalar fikriga hurmat bilan qarashga, ko`p fikrlardan keraklisini tanlab olishga o`rgatish.

**Texnologiyaning qo`llanilishi:** texnologiya o`quv mashg`ulotlarining barcha turlarida dars boshlanishi yoki dars oxirida yoki o`quv predmetining biron bir tugallanida, o`tilgan mavzularni talaba (yoki o`quvchi)lar tomonidan o`zgakrtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash yoki oraliq va yakuniy nazorat o`tkazish uchun mo`ljallangan. Ushbu texnologiyani mashg`ulot jarayonida yoki uning bir qismida yakka, kichik guruh va jamoa shaklida tashkil etish mumkin.

**Mashg`ulotda foydalaniladigan vositalar:** tarqatma materiallar, rangli qalam (yoki flamaster)lar.

**Izoh:** reja bo`yicha belgilangan mavzu asosida hamda o`qituvchining qo`ygan maqsadi (tekshirish, mustahkamlash, baholash)ga mos tayyorlangan tarqatmaa materiallar (agar yakka tartibda o`tkazish mo`ljallangan bo`lsa, guruh o`quvchilari soniga, agar kichik guruhlarga o`tkazish belgilangan bo`lsa, u holda guruhlar soniga qarab tarqatma materiallar tayyorlanadi).

#### **Mashg`ulotni o`tkazish tartibi:**

- talaba (yoki o`quvchi)larni (sharoitga qarab) guruhlarga ajratish;
- talaba (yoki o`quvchi) mashg`ulotni o`tkazishga qo`yilgan talablar va qoyidalar bilan tanishtirish;

- tarqatma materiallarni guruh a'zolariga tarqatish;
- guruh a'zolari tomonidan yakka holda mustaqil ravishda tarqatma materiallardagi vazifalar bajariladi;
- har bir guruh a'zosi o'zi ishlagan tarqatma materialining ung burchagiga guruh raqamini yozadi, chap burchagiga esa o'zinig biron- bir belgisini chizib qo'yadi;
- vazifa bajarilgan tarqatma materiallar boshqa guruhlariga - Charxpalak aylanmasi yo'nalishida almashtiriladi;
- yangi guruh a'zolari tomonidan berilgan materiallar o'rganiladi va o'zgartirishlar kiritiladi;
- jamoalar tomonidan o'rganilgan va o'zgartirishlar kiritilgan materiallar yana yuqorida eslatilgan yo'nalish bo'yicha guruhlararo almashtiriladi (ushbu jarayon guruhlar soniga qarab davom ettiriladi);
- materiallarni oxirgi almashishdan so'ng har bir guruh va har bir guruh a'zosi o'zlari ilk bor to'ldirgan materiallarini (guruh raqami va o'zlar i qo'ygan belgilari asosida) tanlab oladilar;
- har bir guruh a'zosining o'zlari belgilangan javoblariga boshqa guruh a'zolarining tuzatishlarini taqqoslaydilar va taxlil qiladilar;
- o'quvchining tarqatma materialida berilgan vazifalarini o'qiydi va jamoa bilan birgalikda to'g'ri javoblarni belgilaydi;
- har bir talaba (yoki o'quvchi) to'g'ri javob bilan belgilangan javoblar farqlarini aniqlaydilar, kerakli balni to'playdilar va o'z o'zini baholaydilar.

**Izoh:** tarqatma materialda talaba (yoki o'quvchi)lar belgilagan to'g'ri javoblar bilan o'qituvchi hamkroligida aniqlangan to'g'ri javoblarning farqi 0.55 % dan yuqori bo'lsa, talaba (yoki o'quvchi) ushbu o'quv materialini o'zlashtirgan, undan kam bo'lsa o'zlashtira olmaganligini bildiradi. Masalan, vazifalar soni 30 ta bo'lib, javoblarning 17-20 **tasi to'g'ri belgilangan bo'lsa**, talaba (yoki o'quvchi) ushbu vazifani bajargan va o'quv materialini o'zlashtira olgan, agar undan kam bo'lsa o'zlashtira olmagan hisoblanadi. SHu bilan birga, javoblarning 21, 24 tasi to'g'ri belgilangan bo'lsa talaba (yoki o'quvchi) materiallarni o'zlashtirgan darajasi —yaxshi bahoga, 25 30 tasi to'g'ri bo'lsa —a'lo bahoga o'zlashtirgan deb hisoblanadi.

- talaba (yoki o'quvchi)lar o'z baholar yoki ballarini belgilab olishgach, o'qituvchi vazifa bajarilgan qog'ozlarni yig'ib oladi (ballar)ni guruh jurnaliga ko'chirib qo'yadi.

### SINKVEYN

—Sinkveyn so'zi fransuzchadan olingan bo'lib, —besh qadam so'ziga to'g'ri keladi. Sinkveynnda narsa yoki xodisa haqidagi fikr qisqa ko'rinishda ifodolanadi. Sinkveynnda she'rdagi o'xshagan 5 qatorga ma'lumotlar yoziladi.

1. Birinchi qatorda mavzu bir so'z bilan (odatda ot bilan) ifodalanadi.
2. Ikkinchi qatorda mavzuga juda mos keladigan ikkita sifat beriladi
3. Uchinchi qatorda mavzu 3 ta harakatni bildiruvchi fe'l bilan ifoydalanadi.
4. To'rtinchi qatorda temaga doir muhokama etuvchilarning hissiyotini ifodalovchi jumla tuziladi. U to'rt so'zdan iborat bo'ladi.
5. Beshinchi qatorda mavzu mohiyatini ifodalovchi bitta so'z beriladi. U mavzuning sinonimi bo'ladi.

Buni sxematik ravishda quyidagicha ko'rsatish mumkin:

Muammo nomi \_\_\_\_\_

Sifat \_\_\_\_\_

Hissiyotni ifodalovchi jumla \_\_\_\_\_

Mohiyatning yangicha ifodasi \_\_\_\_\_

O'qitish, Og'ir, qiyin, Harakat, chidash, intilish, Yangi bilim avvalgisiga bog'lanadi, O'rgatish, O'qish, Faol, chidam, Harakat qilish, tushunish, o'ylash, Bilimni egallashga intilish kerak, Ma'naviy boyish.

Sinkveyn ma'lum mavzu o'rganilgandan so'ng tuzilsa, uning asosiy xususiyatlari, mohiyatlari tushunilib, yakunlanadi. Sinkveyn materiallar ustida o'ylashga, murakkab axborotni sintezlashga va uni uzoq xotirada saqlashga yordam beradi. Ijodiy ishlash imkoniyati kelib chiqadi.

### INSERT USULIDAN FOYDALANIB O'QISH

Materiallarni ayrim yoki guruhlar tomonidan o'qib, muhokamaga tayyorlanishga ham to'g'ri keladi. Bunda mutolaa etuvchi shaxs o'rganilayotgan matndagi axborotlarga o'z munosabatini bildirib borishi foydalidir. Matndagi axborot ahamiyatli bo'lsa, uni maxsus belgi —V bilan, avval tanish bo'lgan material uchrasa, —q bilan, tushunishda qiyinchilik uchrasa —? bilan va material mazmunidagi



axborot o`quvchiga yoqmasa yoki qarshi bo`lsa «-» belgilarini qo`yish mumkin. Bunday o`qishda material ustida o`quvchining faol ishlagini ko`riladi.

### **HAMKORLIKDA O`QISH**

O`qish kichik guruhlarda olib borilganda samarali bo`lishi keyingi vaqtlarda ko`pchilik tomonidan tan olinmoqda. Kichik guruhlarda ishlashni tashkil etishning turli ko`rinishlari mavjud.

O`qituvchi materialni o`rganishni juftliklarda tashkil etishi mumkin. Bunda material 2 o`quvchi tomonidan o`rganiladi, muhokama etiladi va natija bayon qilinadi.

Bunday ishlarni kichik guruhlarda tashkil etish ham mumkin. Guruhda 4-7 kishilik kichik guruhlar tashkil etiladi va natija bayon qilinadi hamda har bir guruhga ma`lum topshiriq beriladi. Topshiriqni birgalikda guruhdagilar o`rganib muhokama etishadi. So`ngra natijani guruhning bir a`zosi umumiy guruhga etkazadi. Guruhdagilar uning ma`lumotini to`ldirishi, qo`shimcha qilishi, izoh berishi ham mumkin.

Kichik guruhlar bilan alohida mavzularni o`rganishda yoki bir mavzuning turli qismlarini o`rganishda ham foydalaniladi.

## **IV BO'LIM. MUSIQADA IJODIY JARAYONNI TASHKIL ETISH MUAMMOLARI.**

### **IV.1. O'quvchilarning musiqiy qobiliyatini rivojlantirishda tayyorgarliksiz she'r, kuy, musiqali ohang ijod etish.**

Pedagogikada rivojlanish va tarbiyaning o'zaro bog'likligi muhim muammolardan bo'lib, u ko'p munozaralarga sabab bo'ladi. Shaxsning rivojlanishi qiyin, murakkab jarayon, u ko'plab ichki va tashqi ta'sirlar va omillar orqali ro'yobga chiqadi. Inson hayot ekan, butun umri davomida o'sib, rivojlanib o'zgarib boradi. Bolalik, o'smirlik yillarida shaxsning kamol topishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Rivojlanish deganda biz shaxsning ham jismoniy, ham aqliy va ma'naviy kamol topishi jarayonini tushunamiz. «Shaxs» tushunchasi psixologiyada eng ko'p qo'llaniladigan tushunchalar sirasiga kiradi. Psixologiya o'rganadigan barcha fenomenlar aynan shu tushuncha atrofida qayd etilgan. Inson ruhiy olami qonuniyatlari bilan qiziqqan har qanday olim yoki tadqiqotchi ham shaxsni chetlab o'tolmagan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki. «Homo sapiens» - «aqli zot» tushunchasini o'zida ifoda etuvchi jonzotning paydo bo'lganiga taxminan 40 ming yildan oshibdi. Bu davrda olimlarning e'tirof etishlaricha, 16 ming avlod almashgan emish. Darvin ta'biri bilan aytganda, tabiiy tanlanish jarayonida yer yuzida saqlanib qolgan minglab millat va ellatlarning keyingi davrdagi taraqqiyoti ko'proq biologik omillardan ko'ra, ijtimoiy-sotsial omillar ta'sirida ro'y bermoqda. Shuning uchun ham har bir individni yoki shaxsni o'rganish masalasi uning bevosita ijtimoiy muhiti va uning ijtimoiy normalari doirasida o'rganishni taqozo etadi.

Sotsial yoki ijtimoiy muhit – bu insonning aniq maqsadlar va rejalar asosida faoliyat ko'rsatadigan dunyosidir. Mazmunan har bir insonning shu ijtimoiy olam bilan aloqasi uning insoniyat tajribasi, madaniyati va qabul qilingan, tan olingan ijtimoiy xulq normalari doirasidagi harakatlarida namoyon bo'ladi. Psixologiya ilmining namoyondalari bo'lmish olimlarning butun bir avlodi ana shu shaxs va jamiyat aloqalari tizimida insonning tub mohiyatini anglash, uning rivojlanishi va kamol topishi qonuniyatlarini izlaganlar. Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, A.Navoiy kabi yuzlab Sharq allomalari

ham bu o`zaro bog`liqlikning falsafiy va ijtimoiy sirlarini ochishga o`zlarining eng durdona asarlarini bag`ishlaganlar. Barcha qarashlarga umumiy bo`lgan narsa shu bo`lganki, odamni, uning mohiyatini anglash uchun avvalo uning shu jamiyatda tutgan o`rni va mavqeyini bilish zarur. Shaxsni o`rganishning birlamchi mezoni ham shundan kelib chiqqan holda, uning ijtimoiy mavqei, ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o`rni bilan belgilanishi kerak.

Lekin, shaxs bilan jamiyat o`rtasidagi o`zaro aloqalar masalasi, birdaniga, bir xil yechimga kelinmagan. Bu o`zaro munosabatlar, asosan ikki polyar nuqtai nazardan kelib chiqadi.

**Nativizm** yo`nalishining tarafdorlari insonlardagi barcha xususiyatlarni tug`ma xarakterga ega, deb e`tirof etadilar.

**Empirizm** tarafdorlarining fikricha, yangi tug`ilgan bola go`yoki «top-toza paxta» (tabula rasa), unga hayot va undagi talablar o`zining qonuniyatlarini yozadi va bola ularga so`zsiz bo`ysunishga majbur. Bu yo`nalishning asoschilaridan biri Dj. Lokk bo`lib (1632-1704) uning fikricha, tug`ma fikrlar yoki g`oyalar bo`lishi mumkin emas, ular xohish-tilak va og`riq kabi elementlar sezgilarining qayta ishlanishi natijalaridir. Xayotda ana shunga o`xshash turli xil sezgilar va g`oyalarning asotsiatsiyasi ro`y beradi.

**G.Leybnits** (1646-1716) Lokka e`tiroz bildirib, hayotda umuman toza, sof doskaning o`zi bo`lmaydi, hattoki, eng yaxshi silliqlang marmar yuzasida ham sezilarli teshiklar, do`ngliklar yoki tug`ma asoratlar bo`ladiki, ular layoqatlardek, inson taqdirida ma`lum rol o`ynaydi. Bu ikkala yirik yo`nalish o`rtasidagi tortishuvlarga chek qo`yish maqsadida **F. Galton** qator eksperimental tadqiqotlar o`tkazib, har bir individga xos differentsial xususiyatlar mavjudligini «egizaklar metodi» yordamida asoslashga harakat qildi. 2-jadvalda Galton tomonidan irsiy va orttirilgan sifatlar munosabati yuzasidan aniqlangan natijalardan keltirilgan.

### Musiqiy qobiliyatlardagi irsiy xususiyatlar.

Ota-onalar Bolalar	Musiqaga moyil	Musiqaga moyil emas
Musiqaga moyil	85%	7%
Musiqaga moyil emas	25%	58%

Egizaklardagi musisaga moyillikning korrelyatsion ko`rsatgichi ham yuqori bo`lib ( $r = 0,7$ ), egizak bo`lmaganlardan ancha farq qiladi ( $r = 0,3-0,4$ ).

Galtondan keyingi tadqiqotlarda musiqaga bo`lgan qobiliyatga ona tilining xususiyati ta`sir qilishi aniqlandi: yumshoq-tonal yoki keskin (so`pol) – tonal bo`lmagan tillar. Masalan, keskinroq hisoblangan rus tilida gapiruvchi bolalardagi musiqani idrok qilish yumshoq, tonal tillarda so`zlashuvchi vetnamliklarning idrokidan ancha past chiqqan. Lekin, yuqoridagi fikrlar va tortishuvlarning kelib chiqish sababi tushunarli bo`lishi kerak: ular insonning asl mohiyatini tushunish va uning xulqini boshqarish ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Demak, inson jamiyat a`zosi sifatida uning normalariga bo`ysunadi, uning kutishlariga javob berishga harakat qiladi va o`z xulqini uning talablariga monand qilishga intiladi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib shaxs fenomeniga ta`rif berish mumkin.

**Sh a x s** - ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarning mahsuli, ongli faoliyatning sub`yektiv bo`lmish individdir. Shaxsga taalluqli bo`lgan eng muhim tasnif ham uning jamiyatdagi murakkab ijtimoiy munosabatlarga bevosita aloqadorlik, ijtimoiy faoliyatga nisbatan ham ob`ekt, ham sub`ekt bo`lishlikdir.

Shaxsga taalluqli bo`lgan fazilatlardan eng muhimi shuki, shu tashqi, ijtimoiy ta`sirlarni o`z ongi va idroki bilan qabul qilib (ob`ektini), so`ngra shu ta`sirlarning sub`ekti sifatida faoliyat ko`rsatadi. Oddiy qilib aytganda, inson bolalik, yoshlikdanoq «mening hayotim», «bizning dunyo», degan ijtimoiy muhitga tushadi. Bu muhit o`sha biz bilgan va har kuni his qiladigan siyosat, xuquq, ahloq olamidir. Bu muhit – kelishuvlar, tortishuvlar, hamkorliklar, an`analar, udumlar, turli xil tillar olami bo`lib, undagi ko`plab qoidalarga ko`pchilik mutloq qo`shiladi, ba`zilar qisman qo`shiladi. Bu shunday qoidalar va normalar olamiki, ularga bo`ysunmaslik jamiyat tomonidan qoralanadi, ta`kidlanadi. Shulardan kelib chiqadigan xulosa shuki, shaxs jamiyatga nisbatan barcha tartib - qoidalarni qabul qiluvchi sub`ekt bo`lsa, jamiyat-ijtimoiy intizom va tartibning, madaniyatning mufassal ko`rinishidir.

Shaxs ijtimoiy xulqiga turli tashqi kuchlar ta`sir qiladi: siyosiy, mafkuraviy, iqtisodiy, ma`naviy, ahloqiy va boshqalar. Bu ta`sirotlar mohiyatan, aslida jamiyat a`zolari bo`lmish shaxslar o`rtasidagi o`zaro munosabatlarning ayrim, alohida yo`nalishlarini belgilab beradi.

Shunday qilib, shaxs turli ijtimoiy munosabatlar tizimi ta`sirida bo`ladi va ko`plab ijtimoiy institutlar (oila, mahalla, o`quv maskanlari, mehnat va boshqa) bilan bog`liq bo`ladi. Masalan, shaxsdagi turli g`oyalar, fikrlar va mafkura mafkuraviy munosabatlar tizimi ta`sirida shakllanib, ular bevosita oila, bog`cha, maktab va boshqa o`quv va tarbiya muassasalari orqali ongga singdiriladi. Agar bu ta`sir uning e`tiqodi darajasiga ko`tarilsa va unda yana yangidan-yangi fikrlar va g`oyalarning paydo bo`lishi hamda o`shishiga olib kelsa, shaxs taraqqiyoti jarayonida shunday faoliyat sohasini tanlaydiki, u o`z qobiliyatlari, malaka va ko`nikmalarini rivojlantira borib, ziyoli sifatida, yo o`qituvchi, yoki vrach, yoki olim, kashfiyotchi, muxandis bo`lib, elu-yurtiga xizmat qiladi.

Iqtisodiy munosabatlar ham shaxs ongi va uning insoniy xususiyatlari shakllanishida katta ro`l o`ynaydi. Masalan, bosqichma-bosqich bozor munosabatlariga o`tayotgan O`zbekiston sharoitini oladigan bo`lsak, yangicha iqtisodiy o`zgarishlar, bozor, raqobat, erkinlashtirish va shunga o`xshash yangiliklar har bir shaxsning moddiy boyliklar va ularga bo`lgan shaxsiy munosabatlarida aks etib, uning iqtisodiy ongi, tafakkuri xulqi normalarini belgilaydi.

**Ijtimoiy normalar, sanksiyalar va shaxs.** Ijtimoiy norma – shaxs hayotida shunday kategoriyaki, u jamiyatning o`z a`zolari xulq-atvoriga nisbatan ishlab chiqqan va ko`pchilik tomonidan e`tirof etilgan harakatlar talablaridir. Masalan, o`zbeklar uchun biror xonaga kirib kelgan insonning kim bo`lishidan qat`iy nazar, «Assalomu alaykum», deb kelishi – norma; o`quvchining o`qituvchi bergan topshiriqlarini bajarishi lozimligi – norma; avtobusda yoki boshqa jamoat transportida kichikning kattalarga, nogironlarga o`rin bo`shatishi – norma va hokazo. Bu normalarni ayrim-alohida odam ishlab chiqmaydi, ular bir kun yoki bir vaziyatda ham ishlab chiqilmaydi. Ularning paydo bo`lishi ijtimoiy tajriba, hayotiy vaziyatlarda ko`pchilik tomonidan e`tirof etilganligi fakti bilan xarakterlanadi, har bir jamiyat, davr, millat va ijtimoiy guruh psixologiyasida muhrlanadi.

Ijtimoiy normalarni u yoki bu davrda, u yoki bu toifa vakili bo`lmish shaxs tomonidan qay darajada bajarilishi yoki unga amal qilinayotganligi ijtimoiy sanksiyalar orqali nazorat qilinadi. Ijtimoiy sanksiyalar - normalarning shaxs xulqida namoyon bo`lishini nazorat qiluvchi jazo va rag`batlantirish mexanizmlari bo`lib, ularning borligi

tufayli biz har bir alohida vaziyatlarda ijtimoiy xulq normalarini buzmaslikka, jamoatchilikning salbiy fikri ob`ekttiga aylanib qolmaslikka harakat qilamiz. Masalan, yuqoridagi misolda agar jamoat transportida katta mo`ysafid kishiga o`rin bo`shatishni norma deb qabul qilmagan o`smirga nisbatan ko`pchilikning ayblov ko`zi bilan qarashi, yoki og`zaki tanbeh berishi, juda kam hollarda o`zini bebosh tutayotgan o`smirning qo`lidan tutib, nima qilish kerakligini o`rgatib, «ko`zini moshday qilib ochib qo`yish» ijtimoiy sanksiyaning hayotdagi bir ko`rinishidir.

Har bir alohida shaxs jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan va qabul qilingan ijtimoiy normalar va sanksiyalarni u yoki bu ijtimoiy rollarni bajarishi mobaynida xulqida namoyon etadi. Rol – shaxsga nisbatan shunday tushunchaki, uning konkret hayotiy vaziyatlardagi xuquq va burchlaridan iborat harakatlari majmuini bildiradi. Masalan, talaba rolini oladigan bo`lsak, uni bajarish – u yoki bu oliy o`quv yurtida taxsil olish, uning moddiy bazasidan foydalanish, kutubxonasiga a`zo bo`lish, stipendiya olib, ma`muriyatning ijtimoiy ximoyasida kabi qator xuquqlar bilan birgalikda, o`sha oliygoh ichki tartib – intizomi normalariga so`zsiz bo`ysunish, darslarga o`z vaqtida kelish, reyting baholov talablari doirasida kundalik o`zlashtirish normalarini bajarish, amaliyotda bo`lish, dekanatning bergan jamoatchilik topshiriqlarini ham bajarish kabi qator burchlarini o`z ichiga oladi. Bu rol uning uyiga borgach bajaradigan «farzandlik» roli (ota va ona, yaqin qarindoshlar oldida) talab va imtiyozlaridan farq qiladi. Ya`ni, konkret shaxsning o`ziga xosligi va qaytarilmasligi u bajaradigan turli-tuman ijtimoiy rollarning xarakteridan kelib chiqadi. Shunga ko`ra, kimdir «tartibli, ba`mani, fozil ahloqli va odobli» deyilsa, kimdir – be`mani, bebosh, o`zgaruvchan, ikkiyuzlamachi (ya`ni, bir sharoitda juda qobil, boshqa yerda - betartib) degan, hayotiy mavqega ega bo`lib qoladi.

Hayotda shaxs bajaradigan ijtimoiy rollar ko`pligi sababli ham, turli vaziyatlardagi uning mavqei – statusi ham turlicha bo`lib qoladi. Agar biror rol shaxs ijtimoiy tasavvurlari tizimida uning o`zi uchun o`ta ahamiyatli bo`lsa (masalan, talaba roli), u boshqa rollarni unchalik qadrlamasligi va oqibatda, o`sha vaziyatda boshqacharoq, noqulay va noboproq mavqeni egallab qolishi mumkin. Qolaversa ko`pligi, ba`zan rollar ziddiyatini ham keltirib chikarishi mumkinki – shaxs ichki ruxiy qiyinchiliklarini ham boshdan kechirishi mumkin.

Masalan, sirdan taxsil olayotgan talaba sessiya paytida ishlab turgan korxonasiga komissiya kelishi va uning faoliyatini tekshirayotganliklarini bilib ruxiy azobga tushadi: bir tomondan, talabalik va uning talablari, ikkinchi tomondan – kasbdoshlar oldida uyalib kolmaslik uchun xar kuni ishxonaga borib kelish.

Shaxs uning dunyoni bilish, o`zini va atrofidagi insoniy munosabatlarni anglash, tushunishi va o`zaro munosabatlar jarayonida o`zidagi takrorlanmas individuallilikni namayon qilishi namda ushbu jarayonlarning yoshga va jinsga bog`lik ayrim jixatlarini taxlil qilish, bizga umumiy ravishda shaxs jamiyatda yashaydigan ijtimoiy mavjudoddir, degan xulosani qaytarishga imkon beradi. Ya`ni u tug`ilgan ondan boshlab o`ziga o`xshash insonlar qurshovida bo`ladi va uning butun ruxiy potentsiali ana shu muxitda namayon bo`ladi. Chunki, agar insonning untogenetik taraqqiyoti tarixiga e`tibor beradigan bo`lsak, xali gapirmay turib odam bolasi o`ziga o`xshash mavjudodlar davrasiga tushadi va keyingina ijtimoiy muloqatning barcha ko`rinishlarining faol ob`ekti va sub`ektiga aylanadi. Shu nuqtai nazardan har birimizning jamiyatdagi o`rnimiz, uning qachon va qanday sharoitlarda paydo bo`lgani, jamiyatga qo`shilib yashashimizning psixologik mexanizmlari fanning muxim vazifalaridan biridir. Bu jarayon, psixologiyada ijtimoiylashuv yoki sotsializatsiya, deb yuritiladi.

Mehnatsevarlik ruxida tarbiyalash. Jismoniy va aqliy mehnatga birday hurmatda bo`lish kabi hislatlarni shakllantirish o`sib kelayotgan yosh avlodning tarbiyasidagi eng muhim vazifalardan biridir.

Respublikamizda bozor iqtisodiyoti sharoiti shakllanilayotgan bir kezda o`quvchilarda turmushga va mehnatga yangicha munosabatni, layoqatni shakllantirish-mexnat tarbiyasining maqsadlaridan biridir. Bunda, albatta ishlab chikarishning asosiy shakllarini, ayniqsa iqtisodiy munosabatlarning yangi-yangi omillarini, ularga tanish hizmat turlarini belgilab olish darkor. Bolalarda hunar va kasbga bo`lgan muhabbatni uyg`otish jarayonida ularning ijodiy nisbatlarini shakllantirishga ham e`tibor qaratish lozim. O`quvchilarni kasbga yonaltirib, akademik litsey yoki kasb hunar kollejlarga yollanma berish maqsadga muvofiqdir.

O`quvchilarni bozor sharoitiga o`rgatishning o`zi ularning halol va fidokorona mehnatlari tufayli foyda olish haqidagi amaliy

bilimlarini boyitadi. Bolalarni jamoa bo`lib, hamkorlikdagi mehnati natijasida mahsulot soni va xizmat turlarini oshirish mumkinligiga o`rgatish lozim, bolalarni qurilish maydonchalari, yordamchi yig`im-terim jamaolarida mehnat qilishi, hunarmandchilik bilan shugullanishlari ustoz- shogird maktablariga qatnashish, bemorlarni parvarishlash va xovlilarni, ko`cha ko`ylarni tartibga keltirishdagi maktabgacha ta`lim muassasalaridagi ishlarni qo`llab-quvvatlash lozim. Ular, bu ishlarning barchasidan, foyda topish malakasini oshirib borishlari kerak.

Bozor munosabatlari bugungi kunda jahonda tan olingan moddiy barqarorlik va odamlarning iqtisodiy faoliyatini rag`batlantirib turadigan birdan-bir vosita ekanligini anglamoq zarur. Bu munosabatlarda yuqori ko`rsatkichlarga erishish uchun qat`iy intizomga, texnik va iqtisodiy bilimga, malakaviy mutaxasislarga ishni to`g`ri rivojlantirishga asoslanadi. O`quvchi bozor qarama-qarshiliklari va ularni bartaraf etish yo`llarini ham topa bilishi kerak.

Bugungi kunda mukammal iqtisodiy tarbiyani takomillashtirimasdan ish qilib bo`lmaydi. Shu bois, o`qituvchi sinf rahbari, maktabdan tashkari ta`lim muasasa xodimlari nafakat bilim berishlari, balki o`quvchilarda iqtisodiy faoliyat malakasini hosil etish, bozor munosabatlari sharoitida mustaqil fikrlashga o`rgatish lozim bo`ladi.

Unga ijodiy yondashuvning rivoji topqirlik, ixtirochilik, ishbilarmonlik, faollik va tashabbus tufayliligina yuqori samara beruvchi foyda yuzaga kelishi mumkinligi tushuntirilsa, o`quvchilar iqtisodiy faoliyatda muvaffaqiyat qozonadi.

Maktabda o`quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash, ularda birbirini qo`llab-quvvatlash, mexribonlik, hushmuomalalik fazilatlarini shakllantirib boriladi. Bolalarning mehnat tarbiyasida tizimiy iqtisodiy bilimlar bilan qurollantirish, qonunlar va qarama-qarshiliklardan oqilona foydalana oladigan qilib tarbiyalash juda muhim. Oltinchi sinfda musiqa darslarining maqsad va vazifalari, o`quvchilarning psixologik - fiziologik xususiyatlari va musiqiy uquvi, oldingi sinflarda olgan bilim va malakalari darajasiga asoslanib belgilanadi. Bu sinfda amalga oshirilishi lozim bo`lgan maqsadlar, musiqa tarbiyasining bosh mezoni - o`quvchilarning ma`naviy boyligining tarkibiy qismi bo`lgan, musiqaviy madaniyatni shakllantirishga



qaratiladi. Mazkur maqsadlarni quyidagicha amalga oshirish belgilanadi:

1. Darsning barcha faoliyatlari vositasida doimiy ravishda o`quvchilarning musiqaviy iqtidorini rivojlantirib borish.

2. Vokal – xor malakalarini rivojlantirib, yakka, jamoa bo`lib kuylash, ikki ovozli kuylashga o`rgatish.

3. Musiqiy idrokini rivojlantirish va asarlar tuzilishi, shakli, ladi, mualliflari, tempi, haqida fikr yuritishga o`rgatish va estetik zavqlanish vositasi orqali xotira, nutq, dunyoqarashni o`stirish. Musiqa savodidan, oddiy musiqa terminlari va atamaları mohiyatini musiqa amaliyotida bilish va har bir musiqa asosida kuylab borish.

Ovoz diapazoniga (Do - Re) qarab, ikki ovozlik qilib o`rgatiladi. 6-sinf o`quvchilarida o`spirinlik davri boshlanadi. Buning natijasida organizmda aktiv o`zgarishlar ro`y beradi. Fiziologik–psixologik jixatdan o`quvchilar ovozinı o`rganish, bo`yning o`sishi, fanlarga qiziqishi, mustaqil fikr yurita olish qobiliyatlari rivojlana boshlaydi. Natijada bosh miya, etarli darajada ozuqa ololmay, xorg`inlik holatlari ro`y beradi. Ya`ni, dars davomida o`quvchilarning diqqat e`tibori tarqaladi. Ularni jalb etish qiyinlashadi. Bu davrda ularga jiddiy, mehribonona munosabatda bo`lish, do`stona suxbatlashishni talab etiladi. Shuning uchun, o`qituvchi har bir o`quvchini yaxshi o`rganishi lozim. Chunki, o`quvchilar kattalar munosabatiga jiddiy e`tibor beradilar, ular ko`proq kattalar bilan muomalada bo`lishni istaydilar. Bolalarning intizomida ayrim o`zgarishlar paydo bo`ladi, bolaning istagi va qobiliyati orasida tafovutlar sodir bo`lib turadi. Bularning hammasi o`qituvchidan yuqori malaka va tarbiyachilikni talab etadi. Bunday holatda o`qituvchi o`quvchilarning quyi sinflarda olgan bilim, malakalarga va hayotiy dalillarga suyanib ish tutishi yaxshi natija beradi. Buning uchun dars mazmunini hayot bilan bog`lab olib borish zarur. Qo`shiq o`rgatish va musiqa tinglash jarayonida asarlardan parchalar kuylab ovozlarini sozlash bolalarda qiziqish uyg`otadi. Bunda, ijro uslublarini batafsil tushuntirish lozim. Asarlarni tahlil etishda bolalarni faol qatnashtirish maqsadga muvofiqdir. Hamma xalqlarning o`z milliy musiqa san`ati mavjudligi, musiqa har bir tarixiy davrning badiiy aksi ekanligi haqida bolalarga aniq tushuncha hosil qilishi muhim. Shu asosda o`zbek musiqasining qisqa tarixi, cholg`ulari va o`zbek xalq musiqa janrlari, maqomlari mumtoz qo`shiqlari, zamonaviy qo`shiqlarini taqqoslab ko`rsatish mumkin.

Masalan: «Shashmaqom», tojik va o`zbek xalqlarining azaliy birodarlik ramzi ekanligi, ularning ko`p cholg`ulari bir xilda ekanligi va boshqa xalqlar foydalanishi mumkinligi haqida, xalq musiqasi asosida yaratilgan asarlar va zamonaviy musiqalar bilan tanishtirib taqqoslash foyalidir.

Musiqalar savodidan o`lchovlar, ladlar, ton va yarim ton, alteratsiya belgilari, dinamik belgilari, intervallar, reprizalar bilan tanishtirib, musiqiy asarlarni taxlil etish yaxshi natija beradi. Oltinchi sinfda o`quvchilar ovoz diapazoni 1–ovozlar uchun (Do1-Mi2). II–ovozlar uchun (Si kichik oktava - Re2), bu davrda o`quvchilarga qo`shislarni ikki ovozlik qilib o`rgatish maqsadga muvofiqdir. Chunki bu paytda mutatsiya boshlanadi. Mutatsiya davridan oldin o`g`il va qiz bolalar ovozi o`rtasidagi farq uncha sezilmaydi. Mutatsiya paytida qo`shiq o`rgatish o`qituvchidan katta ma`suliyatni talab etadi. Qo`shiqlarni bolalarning ovoz imkoniyatlariga mos tushishi va dars davomida ularning ovozlari asrab avaylash ishlariga ahamiyat berish zarur. Darsning asosiy qismini ashula aytishga sarf etib, ovozlarni charchatmaslik lozim. O`quvchilarni ikki ovozga ajratib, qo`shislarni ikki ovozlik qilib, ularning ovozlari moslash ovoz tarbiyasining muhim vositasidir. Xor bo`lib kuylash, musiqalar savodi, musiqalar tinglash faoliyatlari, asarlarni tahlil qilishda mavzular asosida mantiqan bog`lanadi. Yangi dastur asosida yil mavzusi, chorak mavzusi va dars mavzusi bir - biri bilan bog`lanadi.

#### **IV.2. Ta`lim -tarbiya jarayonida foydalaniladigan o`qitish metodlari - pedagogik texnologiyalar.**

##### **Interfaol uslublarni amaliy darslarida q`ollanilishi**

Amaliy mashg`ulotlar uchun namunalar.

5-sinf musiqalar darslari mavzularida interfaol uslublardan foydalanish.

##### **Boshlang`ich sinf musiqalar darslari mavzularida interfaol uslublardan foydalanish (namuna)**

Bilimdon o`qituvchi:

1-komanda

2-komanda

Pedagoglar

Mahoratchilar

4 ta qo`shiq matni bo`laklarga qirqib aralashtirilib talabalarga tarqatiladi.

**Talabalar vazifasi:** Q o`shiq matnini yig`ib kleylash, qo`shiq kompozitori, asar haqida ma`lumot berish va komanda bilan qo`shiq ijro etish. Komanda sardori vazifasi:

1. Musiqa o`qituvchisi vazifasini bajarish.
2. Qo`shiq mazmuni va kompozitori haqida gapirib berish, ko`rgazmali qurollardan foydalanish.
3. Qo`shiqni ijro etish va foydalangan metodini aytib o`tish.

**Hisobchi vazifasi:** To`g`ri javob bergan talabalarni g`olibni aniqlash.

### Qo`shiqlar matni

Ohanglarda – ertaklar  
Ezgulikga etaklar  
Madx etib chin do`stlikni  
Dillarni shod etarlar-

Mehrimiz yuzimizda  
Chaqnagan ko`zimizda  
Ohanglarla bog`langa  
Totli hur so`zimizda

Ertaklar, ertaklar  
Ohanglarga etaklar  
Menga tengsiz mehri bor  
So`zlarida sehri bor  
Ertak aytib tolmaydi  
Erkalatib hormaydi  
Naqorat  
Buvijonim buvijon  
Mehribonim buvijon  
Onaginam onasi  
Sho`x zabonim buvijon  
O`g`il bola qiz bola  
Qirdan terdi gul lola  
Qarasangiz ularga  
Ular o`xshar gullarga  
Naqorat  
Gul terdi , gul terdi  
Gul terdi gullar  
Eh qarang rang-barang  
Gul terdi gullar

Ertaklar, ertaklar  
Ohanglarga etaklar  
ko`rolmasam bir kuni  
uxlay olmaydi tuni  
ko`ngli sog`inchga to`lib  
izlar parvona bo`lib  
Naqorat  
Buvijonim buvijon  
Mehribonim buvijon  
Onaginam onasi  
Sho`x zabonim buvijon  
Gullar terib oz muncha  
O`ynadilar to`yguncha  
Har tomonga choptilar  
Yangilarin topdilar  
Naqorat  
Gul terdi , gul terdi  
Gul terdi gullar  
Eh qarang rang-barang  
Gul terdi gullar

To`yda bayramda	Buncha ham shirin
Ro`za ayyomda	Kim bilar sirin
Tansiq nisholda	Ox, ox nisholda
Tortiq nisholda	Qaymoq nisholda
Muzqaymoqdan zo`r	Mehmonga yuzim
Mana yalab ko`r	Xizmatda o`zim
Oh oh nisholda	Tayyor nisholda
Oppoq nisholda	Mador nisholda

### Nazorat uchun savollar.

1. Musiqa o`qituvchisining xususiyati nimada?
2. Pedagogik texnologiya jarayonlarini o`rganishning soddalashtirilgan tartibini ayting.
3. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat nimalarga ega bo`lishni ta`minlaydi.
4. Yangilik kiritishda qanday metodlardan foydalaniladi?
5. Texnologik xarita va uning ahamiyatini ifodalang.
6. Kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradigan texnologiyalarga tavsif bering.

### Ijodiy topshiriqlar

Blits o`yin uslubini qo`llab Umumiy o`rta ta`lim maktabining 5-sinf musiqa madaniyati darslarining 4- chorak 7-dars, Bolalar uchun operalar mavzusi bo`yicha dars ishlanmasini tuzing

Yuqorida keltirilgan interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo`llab, 1-7 sinf musiqa madaniyati darslarining ayrimlariga dars ishlanmalari tuzing.

№	O`QITISH METODLARI GURUHI	№	MAZKUR GURUHGA MANSUB METODLAR
Reproduktiv metodlar			
		1.	Ma`ruza metodi

	2.	Hikoya metodi
	3.	Suhbat metodi
2.Ko`rgazmali metod	4.	Ko`rgazmali –tushuntirish metodi
	5.	Ko`rgazmali –izlanish metodi
3.Amalijiy metod	6.	Amaliy xarakterdagi laboratoriya metodi
	7.	Izlanish xarakteridagi amaliy metod
	8.	Muammoli amaliy metod
Produktiv metodlar		
4.Muammoli metodlar	9.	Muammoli ma`ruza metodi
	10.	Muammoli hikoya metodi
	11.	Muammoli suhbat metodi
	12.	Qisman-izlanishli muammoli metod
	13.	Ijodiy xarakterdagi muammoli metod
	14.	Aqliy hujum
	15.	Fikrlar to`qnashuvi

5.Munozara metodi	16.	O`quv bahsi metodi
	17.	O`quv munozoralari metodi
	18.	Davra suhbatlari
6.Mustaqil ishlash metodi	19.	Darslik ustida mustaqil ishlash metodi
	20.	Matn ustida mustaqil ishlash metodi
	21.	Qo`shimcha adabiyotlar ustida mustaqil ishlash metodi
	22.	Ko`rgazma vositalari yordamida ustida mustaqil ishlash metodi
7.Mantiqiy metodlar	23.	Tahlil metodi
	24.	Qiyoslash metodi
	25.	Sintezlash metodi
	26.	Umumlashtirish metodi
	27.	Induktsiya metodi
	28.	Deduktsiya metodi
	29.	Umumlashtirish metodi
	30.	Xulosalash metodi

8.Nazorat metodlari	31.	O`z-o`zini nazorat qilish metodi
	32.	Testlar vositasida nazorat qilish metodi
	33.	Atamalar varag`i vositasida nazorat qilish metodi
	34.	Kompyuterning nazorat dasturlari vositasida nazorat metodi

№	LOKAL DARAJADA TANILAYOTGAN PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR	№	XUSUSIY METODIK DARAJADA TANILAYOTGAN PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR
1	—Agar men ... bo`lsam	DIDAKTIK O`YIN TEXNOLOGIYASI	
2	—Aylanma xat	1	Syujetli rolli o`yinlar
3	—Anjuman	2	Ijodiy o`yin
4	—Burchaklar strategiyasi	3	Konferentsiya
5	—Ijodiy loyiha	4	Matbuot konferentsiyasi
6	—Pinbord	5	Ishbilarmonlar o`yini
7	—3x4	6	O`yin mashqlar
8	—6x6	HAMKORLIKDA O`QITISH	

		TEXNOLOGIYASI	
9	Insert	7	Komandada 'o`qitish
10	Klaster	8	Kichik guruhlarda o`qitish
11	—Imitatsion o`yinlar	9	—Zig-zag yoki —arra
12	—Akvarium	10	—Arra-2
13	—Aqliy hujum	11	Kichik guruhlarda ijodiy izlanishlarni tashkil etish
14	—БББ	MODULLI TA'LIM TEXNOLOGIYASI	
15	—Bumerang	12	Talabalarning individual ishlashiga mo`ljallangan 1 dasturi
16	—Bir nuqta	13	Ikki talaba hamkorlikda ishlashiga mo`ljallangan moduli
17	—Birgalikda o`ynaymiz	14	Talabalarning kichik guruhlarda ishlashiga allangan modul dasturi
18	—Blits o`yini	LOYIHALASH TEXNOLOGIYASI	
19	—Venn diagrammasi	15	Tadqiqot xarakteridagi loyihalar
20	—Galeriya	16	Ijodiy xarakterdagi loyihalar
21	—Debatlar	17	Syujetli-rolli loyihalar



22	—Delfin	18	Amaliy xarakterdagi loyihalar
23	—Elpig`ich	19	Izlanish xarakteridagi loyihalar
24	—Zanjir	20	Mo`ljal olishni tarkib toptiradigan loyihalar
25	—Atamalar zanjiri	21	MUAMMOLI TA`LIM TEXNOLOGIYASI
26	—Kontseptual xarita		Muammoli ma`ruza
27	—Mozaika	22	Muammoli konferentsiya
28	—Munozara	23	Muammoli davra suhbat
29	—Rezyume	24	Erkin fikrlash

30	—Skarabey	25	—Fikrlar to`qnashuvi
31	—Tarmoqlar		
32	—Taqqimot		
33	—FSMU		
34	—Chorraha		
35	—Fikrga qarshi-fikr		

## V BOB. DARSDAN TASHQARI MUSIQIY MASHG`ULOTLAR VA SSENARIYLAR

### V.1. Umumta`lim maktablarida darsdan tashqari musiqiy mashg`ulotlar. “Stsenariy” texnologiyasi

**Texnologiyaning maqsadi:** talaba (yoki o`quvchi)larda yakka va jamoaviy ijodiy faoliyat ko`nikmalarini, shuningdek, ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish, turli shakldagi yakka va jamoaviy ijodiy faoliyatni egallash. O`tkaziladigan tadbirlarni oldindan rejalashtirish, stsenariysini tuzish, tashkil etish va o`tkazish bo`yicha ko`nikma, malaka hosil qilish.

#### **Mashg`ulotni o`tkazish tartibi:**

Mashg`ulotning har bir qatnashchisi yakka holda ishlash uchun tayyorlab kelgan tarqatma material (kartochka)lardan bittasini tanlab oladi. Kartochkalarda talaba (yoki o`quvchi)lar uchun turli xil tadbirlarning mavzusi berilgan bo`lib, ular shu mavzuda o`tkazilishi mumkin bo`lgan tadbir haqida yakka holda bosh qotirishlari, uning mazmuni, o`tkazilish tartibining turli shakllarini aniqlashlari hamda shu tadbirning reja stsenariysini ishlab chiqishlari kerak.

Mashg`ulotning keyingi bosqichida talaba (yoki o`quvchi)lar o`zlari yakka xolda tuzgan reja stsenariylari bilan kichik guruxlarga ajraladilar.

Ular o`z ishlarining natijasi bilan gurux a`zolarini birma bir tanishtiradilar, ishlab chiqilgan reja stsenariylarga baxo beradilar, berilgan reja stsenariylarni to`ldirib, to`g`rilab, ular ichidan bitta variantni tanlab oladilar. Keyin kichik guruxlar birgalikda tanlangan tadbirning reja stsenariysini ishlab chiqadilar.

Vazifalarni bajarish mobaynida gurux a`zolari, yakka tartibda ijodiy yondashib, tayyorlangan reja stsenariylarni e`tiborga olgan xolda xamda ular ichidan tanlab olingan senariy bo`yicha taqdimotga tayyorlanadilar.

Xar bir gurux birgalikda tayyorlangan stsenariylarini ximoya qiladi. Ximoya vaqtida gurux a`zolari (yoki gurux vakili) talaba (yoki o`quvchi)lar auditoriyasining savollariga javob berishi yoki o`z variantlarida qolishlari mumkin. Reja stsenariy loyihasining namoyishi sxema (yoki tomosha) shaklida bo`lishi mumkin.

Taqdimot tugagach, talaba (yoki o'quvchi)lar ximoya qilingan loyixalarni birgalikda muxokama qiladilar va yakunlaydilar. O'qituvchi xar tomonlama yaxshi, qiziqarli tuzilgan stsenariylarni keyinchalik amalga oshirish uchun tashkilotchilarga tavsiya etadi. O'qituvchi bajarilgan ishlar uchun minnatdorchilik bildiradi. Misol:

Hozirgi davrda fan va madaniyatning eng so'nggi yutuqlari asosida kelajdagimiz bo'lgan yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va uslublarini izlash nixoyatda zarurdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma'naviyat vama'rifat»jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'grisida»gi farmonda ko'rsatilgandek, jamiyatda yuksak ma'naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yeshlarni boy madaniy merosimiz, tarixiy an'analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga, vatanga muhabbat, istiqlol g'oyalariiga sadoqat ruxida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir. Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish avvalo komil insonni shakllantirishning eng zamonaviy va qulay yonalishlarini topib, joriy etishga bog'liq.

Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi bo'lgan barcha g'oyalar qaytadan ko'rib chiqilishi, asosiy e'tibor bola shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to'plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqozo etadi. Estetik tarbiya - xissiyotining shakllanishi va rivoji, go'zallikni tushunish va unga tashnalik, shuningdek shaxs tarbiyasining ajralmas qismi bo'lgan go'zallik qonunlari asosida yashash va yaratishga intilishdir. Yillar davomida va turli bosqichlarda olib boriladigan o'quvchilarning estetik tarbiyasi turlicha tuzilishi zarur. Mashg'ulot shakli, maqsadi, mazmuni, pedagogik jixatdan o'ziga xosligi, shuningdek ish rejalari fan mantiqini hisobga olgan holda, bolalar yoshi va imkoniyatiga ko'ra farqlanishi lozim. O'quvchilarni serqirra, atroflicha ta'sir etuvchi estetik qadriyatlarga yonaltirish lozim. Birinchi navbatda, milliy qadriyatlar, ona zamin tabiati, milliy xalq san'ati, Sharkning, O'zbekistonning badiiy madaniyati, tarixiga muxabbat tuyg'usini uyg'otish va rivojlantirish. Bu borada asosiy manbaa sifatida badiiy estetik qadriyatlarni, qadimiy san'at turlarini tanlash zarur. Milliy an'analariga boy adabiyot, tasviriy san'at, ayniksa sharq miniatyura sa'nati, xaykaltaroshlik, musiqa va san'atning

boshqa turlari (teatr, tsirk v.k.) xalqning o`tmishidagi va zamonaviy turmush tarzi, yashash joyi, kiyinishi, mehnat qurollari va xokazo. Milliy san`at tarixiga etnografiyasiga, me`morchiligiga va an`anaviy san`at turlariga alohida e`tibor zarur. O`quvchilarni tarbiyalash jarayonida xalq pedagogikasi asoslariga tayanish, Sharq mutaffakkirlarining dono fikr-mulohazalaridan, shuningdek jaxon umuminsoniy qadriyatlaridan foydalanish lozim.

Maktab va maktabdan tashqari ta`lim muassasalari oldida turgan vazifa yagona ichki estetik tarbiyaning tizimlarini yaratishdir. Bu tizimlar shaxsning har tomonlama yaxshi rivojlanish yaxlitligini belgilaydi. Bu aniqlangan bilimlar tizimi, ya`ni estetik tuyg`ularga qiziqtirishni singdirish, o`rganish, fikrlash, mulohaza etish, munosabat, baholar, goyalar, mukammal bilimni oshirish va o`z-o`zini tarbiyalashdir. Darsdan tashqari ishlarda estetik tarbiya mazmunini birinchi navbatda majmuyi, tizimli tatbik etishga ko`ra uch vazifa birligi - ilmiy, rivojlanib borish, psixologik va pedagogik jarayonlar mushtarakligiga, ta`lim jarayonida va jamiyat talablarini e`tiborga olishga, yangicha bilimlarga amal kilish va xakozo, q`oidalar asosida tarkib topmog`i kerak. Ular asosida o`quvchi shaxsiyatiga nisbatan yonalish belgilaniladi. Bu maqsadlarga erishish uchun o`quvchilar bilan to`g`arak, san`atning ayrim turlarini, jaxon va milliy madaniyatni o`rganish va boshqa tarbiya shakllaridan foydalanish mumkin. Darsdan tashqari ishlarning barcha turlarida amalga oshirilayotgan va yana qayta tiklanayotgan turli dasturlarda shaxs shakllanishiga, ma`naviy mas`uliyat bilan yashashga orgatishga e`tibor qaratilishi lozim. Ayniqsa o`rta va katta yoshdagi o`quvchilarni o`z bilim va malakalarini mustaqil oshirishlariga o`rgatish kerak. Bu borada estetik tarbiyaning yangi shakllari va mazmunini topish zarur. Jumladan: folklor, milliy ansambllar, milliy raqs va qo`shiqlar san`atining milliy –an`anaviy turlari nazariyasi va tarixini o`rganish, qadimiy estetik tarbiya vosita uslublarini tiklash lozim.

Qobiliyatli va iste`dodli tarbiyalanuvchiga alohida munosabatda bo`lish kerak. Ommaviy tadbirlardan keng foydalanish, suhbatlar, madaniyat, san`at namoyondalari bilan uchrashuv, konferentsiyalar, hisobot chiqishlar, «Navro`z»,

«Qo`shiq bayrami», «Raqs bayrami», «Bolalar bastakorlari bilan uchrashuv», «Qo`shiq olamiga sayohat», «Bir qo`shiq tarixi», «Yalla va laparlar kechasi», Xalq qo`shiqlari bayrami», «Maqom

kechasi»,Sahna ustalari bilan uchrashuv» kabi tadbirlari va xokazolar). O`quvchilarni muzey, Ko`rgazma, teatr, konsert kabi ma`naviyat o`choklariga, madaniyat va me`morchilik obidalariga, tabiatning go`zal maskanlariga borishni tashkil etish, ulardan olgan taassurotlarini o`rtoqlashishga o`rgatish ijobiy natija bersdi.

Estetik tarbiyaning asosiy mazmuni istalgan sohadagi darsdan va maktabdan tashkari mashg`ulotlar tarbiyaning yagona qoida va uslublarini tashkil etadi. Ya`ni san`atning aniq turlari va ifoda vositalarining o`ziga xosligi (so`zdagi, tasvirdagi, musiqa va xokaza) zahirida, ifodaning badiiy vositalarini amaliy o`zlashtirish natijasidir. Bu borda asosiy vazifa to`laqonli badiiy va ijodiy asarni chuqur his etish, shuningdek milliy va tarixiy san`at shakllari bilan tanishtirish. O`qituvchining o`quvchilar va tarbiyachilar bilan o`zaro suhbatlarida olamni estetik va badiiy xis etish faoliyatiga, o`quvchilarning mustaqil ijodkorligini rivojlantirish uchun turli o`yinlar, didaktik sahna o`yinlarini bolalar orasida, ularning bilim va qobiliyatiga qarab ish shakllarini tuzish kerak. Inson shaxsning shakllanishi - nihoyatda tinimsiz va murakkab jarayon bo`lib, unda ko`plab faktorlarining ta`siri bor, bularning ayrimlari tarqoq, ayrimlari maqsadga yonaltirilgandir.

Inson atrofni qurshab turgan vositalar tarbiyalaydi: oilasi, otanasi, maktab, do`stlar, atrof-muhit, ommaviy axborot vositalari, san`at, adabiyot, tabiat va x.k. Bolaning rivojlanish jarayonini boshqarib borish kerak, insonni biologik ijtimoiy asosini tashkil qiluvchi, o`zini tarbiyalash va tarbiyaning birligini ta`minlagan holda, uni shaxs sifatida shakllanishiga salbiy ta`sir ko`rsatadigan muxitdan himoya qilish lozim.

Tarbiyaning yetakchi maqsadi sifatida, asrlar davomida shaxsning har tomonlama kamolotga erishuvi g`oyasi asos bo`lib keladi. Shaxsning har tomonlama kaomlotga erishuvi, bu uning ayrim qirralari yoki hislatlarining to`laqonligini, jismoniy, axlosiy, siyosiy, estetik qarashlarining yig`indisini o`z ichiga oladi:

- yoshlarni falsafiy dunyoqarashga tayyorlash, hayot mazmunini tushunib olishda ko`maklashish, o`zligini, o`zi idora va nazorat qila bilishini shakllantirish, o`z shaxsiy turmushiga maqsadli yondoshuv, ularda reja va amal zaruratini uyg`otish;

- o`quvchilarni umuminsoniy va milliy qadriyatlari, boy madaniyati bilan oshno qilish, madaniy va diniy bilimlarni egallashga

bo`lgan talablarini qondirish, bu borada uinarning malakalarini tobora oshiris, boyitish, estetik tushunchalarini shakllantirish;

- har bir o`smirning, yigit va qizlarning tabiiy bilimdonliklarini va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab, rivojlantirish. Ularni inson faoliyatining turli sohalarida joriy qilish. Bolalar ijodkorligi, iqtidorini yuzaga chiqarish va yanada rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratish;

Umuminsoniy insonparvarlik axloqiy me`yorini shakllantirish, mehribonlik, bir-birlarini tushunadigan, shafqatlilik, irsiy va milliy kamsitishlariga, yolg`onchilik, tuxmat, chaqimchilikka toqatsizlik, muomala odobi, ziyolilik madaniyati kabi tarbiya sohalarida pokisalikka o`rgatish keng qo`llanishi lozim;

- qonuniy jamoa axloqi va turmushi qoidalariga hurmat bilan qarashni tarbiyalash, shaxsning noyob qirralarini belgilab beradigan fuqarolik va ijtimoiy ma`lumot xissini rivojlantirish, o`zi yashayotgan mamlakatning ravnaqi yo`lidagi insoniyat taraqqiyotini barqaror saqlanib qolishiga gamxo`rlik, ekologik tarbiyalash;

- vatanparvarlik, dunyoviy fikrlash, tilga, madaniyat a`zolariga e`tiborlilik va uni o`rganish, o`z xalqiga, davlatiga uning himoyasi uchun hamisha shay bo`lib turish, O`zbekiston Respublikasi ramzlari, boshqa davlatlarning razmlariga hurmat bilan qarash;

- turmushda eng oliy qadriyat hisoblangan mehnatga bo`lgan ijodiy munosabatrni tarbiyalash, mehnatga ijodiy yondoshish tadbirlarini kuchaytirish, ijtimoiy maqsadlariga intilish kabi hislatlarini tarbiyalash, amaliy munosabatlarda tadbirkorlik, to`grisozlik va mas`uliyat hissini tarbiyalash;

-sog`lom turmush tarizida yashashga bo`lgan intilishni tarbiyalash va rivojlantirish, munosib oila xomiysi bo`lishga intilish. O`zining har bir xatti-harakatiga va ularning oqibatlariga mas`uliyat bilan qarash hislatlarini tarbiyalash uchun sharoit hozirlash va ularni joriy etish. Insonni atrof-muxitga ta`siri, odamlar va o`zaro munosabatlarida yuqoridagilarga amal qilish;

-mustaqil davlat bo`lgan O`zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatiga to`gri va holisona baho berishni tushuntirish. Uning tinchliksevarlik, demokratiya va boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, betaraflik oshkora, ochiq tashqi siesiy va o`z xalqining turmush darajasini oshirishga yo`naltirilgan, uni ijtimoiy himoya qiladigan ichki siyosatini to`gri tushunmog`i va tushuntirmoq.

### **Tarbiyaning asosiy tizimi kuyidagilar bo`lishi lozim:**

-tarbiyaga shaxsiy munosabat, rivojlanayotgan inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bola, o`smir va yosh yig`ning betakror va o`ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy xuquqiy va erkinligini tan olish;

- tarbiya - fikrlash, hissiyot va xatti-harakatlarni shakllantirishdagi butun jarayon bo`lib, maqsadga muvofiq tarzda boshqarib turiladi;

-milliy o`ziga xoslik, xalq madaniyati, milliy etnik urf-odat kabi an`analari vositalariga tayanish. Lekin, tarbiyaning milliy «Bunyodkorligi» yosh avlod yashashi

lozim bo`lgan ko`p millatli va jaxon madaniyati boyliklariga qiziqish, intilishlarini inkor qilmaslik lozim;

-o`quvchilarning hayotiy faoliyatini tashkil etish tarbiyaviy jarayonning asosini tashkil qiladi. Bola, o`smir, yigit va qizlar bilim yurtidagi paytida nafaqat bo`lg`usi katta hayotga tayyorgarlik koradilar, balki ana shu xaqiqat bilan yashaydilar. O`quv jarayonida zarur, qiziqarli, to`laqonli, bolalar va qislarga mos hayot iqlimini yaratish, mehnat, hayriya, ijtimoiy-foydali, ijodiy ko`ngilochar va` shunga o`xshash, o`quvchilar xususiyatiga mos, hayotiy bo`lishi kerak. Ular shunday tashkil etilishi lozimki, natijada o`quvchilar o`zlarini ko`ngillari tusagan ishga qo`l ursinlar, muvaffaqiyat hissini tuyib, o`zlariga ishonchlari ortsin, axloqan barqaror bo`lsin;

-shaxslararo munosabatlarda insonparvarlik, pedagoglar va o`quvchilar ortasidagi bir-biriga hurmat bilan qarash munosabatlari, bolalar fikriga e`tibor qilish, ularga mehribonlarcha munosabatda bo`lish.

Bu masallalarning bari birlamchi sharoitlari yuzaga keltirilib, ta`lim va tarbiya jarayoni qo`shib olib borilgan taqdirdagina amalga oshirish mumkin, uni qo`llashda o`z taktika va strategiyasiga tayanishga imkoniyat berilsa, bu soxada ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Shunga ahamiyat berish lozimki, amalda tarbiyaviy jaraen umum ishi uzluksiz bo`lsin, barcha bolalarni qamrab olsin, majmuyi inson xayotiy faoliyatining barcha jixatlarini aks ettiruvchi turli uslublarni o`zaro bog`lab turuvchi, unga ta`sir o`tkazuvchi va uni rivojlantiruvchi, yullovchi vositalar, tarbiyaning barcha tomonlari - garmonik uyg`unlik tarzda bo`lsin: turli ijtimoiy, jamoat va davlat

institutlari hamda muassasalarining shaxs kamolotini shakllantirish borasidagi harakatlarini birlashtirsin.

Maktabdan va darsdan tashqari tarbiyaviy ishlar o`quvchilar qiziqishiga suyanilgan holatda, ularning darsdan bo`sh vaqtlarida o`quv jaraenini to`ldiradi va kengaytiradi. U o`quvchilarning mustaqil bilim olishlari uslubini o`zlashtirishlariga, ijodiy qobiliyatlarini, tashabbuskorliklarini oshirishga imkoniyat yaratadi. Darsdan tashkari ishlarining o`ziga xosligi shundaki, u o`quvchilarning bo`sh vaqtlarini munosib uslublar vositasida jamoat foydasi uchun ommaviy gurux, alohida ishlash orqali - tarbiyaviy ish tashkil etiladi. To`garak dasturlarining rang-barangligi, ular mazmunidagi yangiliklar o`smir, yigit va qizlarning shaxs sifatida shakllanishlari uchun yangi imkoniyat yaratadi.

### **YURTIM JAMOLI ssenariysi**

O`quvchi-yoshlarda ona yurtimiz, uning shaharlariga nisbatan mehr-muhabbat tuyg`ularini tarkib toptirishda, undan faxrlanish va g`ururlanish hissini tarbiyalashda respublikamiz shaharlariga bag`ishlangan musiqiy tadbirlar muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Zero, ona diyorumizning har bir shahri o`ziga xos qo`shiqdir. Quyida amalda sinab ko`rilgan va yaxshi samara bergan musiqiy tadbirlardan birining stsenariysini e`tiboringizga havola etamiz.

Ushbu tadbir sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda, shuningdek, yozgi dam olish oromgohlarida o`tkazilishi uchun tavsiya etiladi.

Ishtirokchilar: Sayyoh, kechani olib boruvchi, hunarmandlar, o`quvchilar, qo`shiq ijrochilari va boshqalar.

Tayyorgarlik: qo`shiqlarning nota yozuvlari, shaharlarning umumiy ko`rinishi tasvirlang`an suratlar, ishtirokchilar kiyimlari.

Tadbirning borishi: quvnoq qo`shiq yangraydi va saxnaga sayyoh chiqib keladi.

Sayyoh: Salom aziz do`stlar! Salom ey yaxshi insonlar! Men sayyohman. o`z sayohatim davomida juda ko`p o`lkalarda bo`ldim. Ko`plab shaharlarga bordim. Bilasizmi, nega sayohat qilamano. Men qo`shiq yig`aman. Safar xaltachamda turli millat va elatlarning qo`shiqlari bor.

Mana, nihoyat O`zbekiston degan yurtga etib keldim. Bu o`lka haqida sizlardan eshitmoschiman, shaharlaringizni borib ko`rmoschiman. Umid qilamanki, sizning yurtingizdan ham ajoyib kuy va qo`shiqlar olib ketaman.



Sahnaga qizaloq chisib keladi.

Qizaloq: Salom sizga, ey jahongashta sayyoh. O'lkamizga hush kelibsiz. Sizni mehmondo'st diyorimizda ko'rib turganimizdan juda hursandmiz. Siz uchun eng birinchi yurtimizni madx etuvchi qo'shiqni taqdim etamiz.

M.Otajonov musiqasi, Qambar Ota she'riga yozilgan "O'zbekiston — onajon" qo'shig'i yangraydi (qo'shiq notasi "O'zbekiston — Vatanim manim" qo'shiqlar to'plamining 2-kitobidan olinadi).

Sayyoh: Rahmat senga, ey qizaloq. Endi men yurtingiz shaharlarini borib ko'rmoqchiman. Shuning uchun yo'limni davom ettiraman.

Sahnaga Buxoro arkining umumiy ko'rinishi tasvirlangan surat olib chisiladi va sayyoh suratga tikilib turadi. Shu vaqt bir guruh bolalar o'tib qoladilar.

Sayyoh: Salom bolalar, aytingchi men qaysi shaharga kelib qoldim.

Bolalar: Bu ko'hna Buxoro shahri.

Sayyoh: Buxoro shahri tarixi haqida nimalar bilasiz.

Bolalar: Buxoro haqida so'zlab beradilar.

Buxoro—asrlar mobaynida Sharqning ma'rifat va diniy markazi sifatida dunyoga mashhur bo'lgan qadimiy shahardir. O'tmishda savdo va madaniyat jihatidan u Turon — Turkistoning Balh, Xiro, Marv (Mari), Samarqand, Termiz, Nasaf (Qarshi), Choch —Shosh (Toshkent) va Xorazm (Xiva) singari mashhur shaharlari orasida munosib o'rin egallagan.

O'rta asrlarda Buxoro Movarounnahrning yirik savdo, hunarmandchilik va ma'muriy markazi bo'lgan. O'rta va Yasin Sharq mamlakatlarini Hindiston va Xitoy bilan bog'lovchi qadimiy xalqaro savdo yo'li aynan shu shahar orqali o'tgan.

Buxoro asrlar davomida nafasqt fan, ma'rifat, madaniyat va savdo munosabatlarining rivojlanganligi bilan, balki Turkistonning yirik ma'muriy markazi sifatida ham mashhur bo'lib keldi.

Buxoro o'z ip-gazlama ishlab chisarishi, zardo'zlik, yog'och o'ymakorligi, naqsh va miniatyuralari bilan dunyoga mashhurdir.

Sayyoh: Raxmat sizlarga. Shahringiz hasida juda ko`p narsalar bilar ekansiz. Men dun`yo kezib ko`p yurtlar va shaharlarning kuy va qo`shiqlarini to`plab yuribman. Shu payt bir qizcha o`tib qoladi.

Sayyox: Ey dilbar qiz. Siz bilan tanishsam bo`ladimi.

Zardo`zchi qiz: Salom sizga, ey aziz mehmon. Men zardo`zchi qizman, qadimiy va azim Buxoro shahriga xush kelibsiz. Sizga o`z shahrim haqida qo`shiq kuylab beraman.

(Xabibulla Rahimovning Safar Barnoev she`riga yozilgan "Buxoro" qo`shig`i ijro etiladi).

Sayyoh bolalarga rahmat aytib Xorazmga keladi. Uning qarshisidan yigit va qizlar chiqadilar.

Sahnaga Xivaning umumiy ko`rinishi tasvirlangan surat olib chisiladi.

Sayyoh: Salom sizga, aziz insonlar. Men dunyoda sayohat qilib qo`shiq va kuylar yig`ib yuribman. Mening safar xaltamga qanday kuy qo`shiq taqdim eta olasizlar.

Yigit-qizlar juft-juft bo`lib Xorazm lazgisiga raqs tushadilar va Xorazm haqida gapirib beradilar.

Xorazm noyob madaniyat, nafis san`at, yuksak ma`rifat, dono falsafa, insonparvarlik, adabiyot va she`riyat maskani, dunyoviy ilm o`choqlaridan biridir (So`ngra M.Otajonovning Zafariy she`riga bostalangan Xiva haqida qo`shiq ijro etiladi. Qo`shiq notasi jurnal muqovasining 4 sahifasida berilmoqda).

Sayyoh yana yo`lida davom etadi va Qarshi shahriga etib keladi. Sahnaga Qashqadaryoning umumiy ko`rinishi tasvirlangan surat chiqariladi.

Sayyoh: O, bu sanday go`zal shahar bo`ldi.

Qizlar: Bu gullar shahri Qarshi. Ona shahrimizda sizni xush ko`rdik, aziz mehmon.

Sayyoh: Ey, dilbar qizlar, meni qo`shiqlar orasiga elta olasizlarmi.

Qizlar: M.Otajonov musiqasi, N.Narzullaev she`riga yozilgan "Qashqadaryo" qo`shig`ini kuylashadi.

Sayyoh ularga rahmat aytib yo`lida davom etadi. U hunarmand yigitlar oldidan chiqadi.

Sayyoh: Sizga ham salomlar bo`lsin, aziz yigitlar!

Yigitlar: Sizga ham salom, ey aziz mehmon. Ne maqsadlarda bizning Navoiy shaxriga tashrif buyurdingiz.

Sahnaga Navoiy shahri tasvirlangan surat chiqariladi.

Sayyoh: Men turli-tuman kuy va qo`shiq to`playman. Shu sabab ko`p yurt kezdim. Sizning shaxringizdan ham ajoyib kuy qo`shiq olib ketmoschiman. Menga yordam bera olasizlarmi.

Yigitlar: qani yigitlar, boshladik.

M.Otajonov musiqasi, N.Narzullaev she`riga yozilgan Navoiy haqidagi qo`shiq ijro etiladi.

Sayyoh: Rahmat sizga o`z yurtining zabardast va mehnatkash tanti va mard o`g`lonlari. Endi men boray, safarimni davom ettiray.

Yigitlar: Xayr, yulingiz bexatar bo`lsin.

Musiqqa yangrab sahnaga Toshkent shahrining umumiy ko`rinishi tasvirlangan surat chiqariladi. Saiyoh yo`lida davom etib suv bo`yida qo`shiq aytayotgan qizlarni uchratadi. Ular Xurshida Hasanova musiqasi, Dilshod Rajabov she`riga yozilgan "O`zbekiston jannat" qo`shig`ini kuylaydilar.

Sayoh: juda ham ajoyib qo`shiq ekan.

Qizlar: As-salomu alaykum, aziz mehmon. Tinchlik va do`stlik shahri bo`lmish, hamisha navqiron Toshkentimizga xush kelibsiz. Tashrifingiz boyisi ne.

Sayyoh: Men jahon kezib turli yurt va shaharlarda qo`shiq to`plab yuraman. Siz aytgan qo`shiq ham safar xaltachadan joy oldi. O`z yurtingizni juda ham sevar ekansiz.

Qizlar: Albatta, barchamiz Ona yurtimiz, O`zbekistonni judayam sevamiz. Barcha ishtirokchilar sahnaga chiqib keladilar va G`.

Qo`chsorov musiqasi,

D.A`zamova she`riga yozilgan "O`zbekimdan aylanay" qo`shig`ini kuylashadi va barchaga egilib salom beradilar.

Kechani olib boruvchi: Shuning bilan bayramimiz yakunlandi. Yana uchrashguncha xayr.

### «SHIMOLIY SEHRGAR» ssenariysi

Boshlovchi va qatnashuvchilar:

Boshlovchi qiz va yigit, Troll, Goblin, Solveyg, «Uycha» («Izbushka») qo`shig`ining ijrochilari, «Grig va qizcha» sahnasining qatnashuvchilari va xoreografik ko`rinish.

Jihozlar:

E.Grig surati, shimol tabiatini aks etgan tasvirlar vositasi, fonoyozuv, qatnashuvchilarning liboslari.

Bayram oldi tayyorgarlik:

Ijro etadigan vokalistlar bilan E.Grigning «Uycha» («Izbushka») qo`shig`ini o`rganish. Ochiq darsdan oldin bolalar bilan «Norvegiya ertagi»ni o`qib o`zlashtiriladi va uyga vazifa: Ertakdagi–oliy-janob sehrigar - mamlakatini chizib kelish beriladi.

Bolalar chizgan rasmlarni – stendda bezatiladi.

Ochiq dars o`tadigan xona E.Grigning rasmi va shimolning tabiatini aks etadigan rasmlar bilan bezatiladi.

Boshlovchi yigit:

Dunyoda juda ko`p mamlakatlar bor va har biri o`z xususiyatiga ega. Bugun musiqa yordamida biz sizlar bilan shimoliy mamlakatga sayohat qilamiz, uning nomi Norvegiya.

E.Grigning «Sayohatchi» («Strannik») pessasi yangraydi. Keyin, uning ohangi sal pasaytiriladi.

Boshlovchi qiz: (pauzadan so`ng, yangrayotgan musiqa yordamida).

Norvegiyaning savlatli, bahaybat qoyalari, o`noq sharsharalarini tasavvur qiling. Ular butun yoz davomida shovqin bilan oldinga intilib oqadilar, qishda bo`lsa ajoyib, tiniq bezakli qoyalarga aylanib, muzlab qoladilar. Ko`ldagi qalin muz shunchalik tiniqki, uning tubidagi cho`chib suzadigan baliqlar ko`rinadi. Yangrayotgan musiqani diqqat bilan tinglang. Uning nomi «Sayohatchi» («Strannik»). Inson Norvegiyaning tog`li mamlakatida sayohat qilib, atrof – olamni ko`rib, hayratlanayotgandek ,o` Shunday emasmi?

Shu paytda musiqa tugaydi.

Mana shu quvnoq qishloq bayramlari ham etib keldi, yoshlar ajoyib ko`klamlarda xorovod o`yinini olib borib, xushchaqchaq xalq raqsi «Xalling» ga raqsga tushishayapti.

«Xalling» musiqasi yangraydi.

B.Y.: Qaysi g`aroyib bastakor musisada bunday ajoyib sur`atlarni tasvir etgan ekan-a. Uning ismi – Edvard Grig (bastakor sur`atining yoniga keladi) Norvegiyalik bastakor, Grigning ijodi Vatanining kuylari bilan bog`liq. Grigning zavqlangan muhlislaridan biri, rus yozuvchisi Lev Kassil shunday degan: «Uning kuylari billur misoli to`kiladi».

B.Q.: Xaqiqatdan ham, Grigning musiqasi juda ham kuychang. Uning kuylarini bir marta tinglagan bo`lsangda albatta taniysan.

Masalan: Norvegiyalik shoir Genrix Ibsenning «Per Gyunt» dramasi va mashhur «Salveyg qo`shig`i» musiqasi.

Y: Balkim bu pessaning mazmunini hech kim bilmas?

Unda tinglang. Per Gyunt allaqachon olam sayohatiga ketgan edi.

Lekin uning qishlog`ida vafodor sevgilisi Salveyg uni kutar edi. O`zining qo`shig`ida Salveyg o`z yorini sog`inib, uni tezroq qaytishi haqida kuylaydi.

Qish ketar, bahor qaytar,

Gullar so`lir, qor bosib

Lekin sen yonimga qaytarsan,

Yuragim aytar, senga vafoligimni,

Q: Keyin Salveyg quvnoq kunlarini, baxtli onlarini eslaydi. Va shu paytda kuy jonlanadi, engil tus oladi, xuddi xalq raqsiga o`xshab.

«Salveyg qo`shig`i» jonli ijro yoki yozuvda yangraydi. Agar fonogramma yangrasa, unda musiqa raqs bilan bezaladi. Musiqa boshida qiz chiqadi – Solveyg, U romantik ko`ylakda to`nkachaga o`tiradi. Kuyni ohista qismida u g`amgin o`tiradi. Kuy tezlasha boshlaganida u bir necha raqs harakatlarini bajaradi, so`ng esa yana o`tirib g`amgin bo`lib qoladi. Kuy tugagach qiz turib ketadi.

Y: Per Gyunt juda ko`p g`aroyib hodisalarni boshidan o`tkazadi. Mana u tog`li shohning g`origa tushib qoldi. E.Grig «Tog`li shohning g`ori» ni musiqada tasvirlaganini tinglaylik. Bu yerda u «yaqinlashuv va uzoqlashuv» ta`svirini ko`rsatadi. Avval biz uzoqdan yaqinlashayotgan ovos qadamlarini eshitamiz.....

### **Boshlovchilar yoniga Troll va Goblen keladi.**

Q: Bu qanday g`aroyiblik?

Troll: Biz - sehrlil mavjudotlarmiz, sehrlil Norvegiya tog`larida yashaymiz.

Goblin: E.Grig «Tog`li shoxning g`orida» pesasini yozganda aynan biz xaqimizda o`ylagan edi.

Troll: Bizning raqsimiz astagina boshlanadi. Ammo birdaniga yovuzlik ruhi kirgani singari raqsimiz tezlashib, keskin tus oladi.

Goblin: Oxirida esa butun orkestrning baland zarbasi eshitiladi: bayram tugaydi va hamma sehrlil ertak mavjudotlari g`oyib bo`ladi.

E.Grigning «Tog`li shoh g`orida» pesasi yangraydi.

Y: Troll va goblinlarni nima qo`rqitdi ekan?

Troll: Biz - qora tun mavjudotlari va faqat bir narsa – porloq quyoshdan qo`rqamiz.

Q: Demak, Grigning «Tong» pessasini tinglash vaqti keldi. Bu pessa osmonda quyosh chiqishini tasvirleydi.

Goblin: Qani? Bolalar musiqa tinglashni bilishadimi, yo`qmi, tekshiraylikchi?



## SOLVEYG QO`SHIG`I

E. Grig

Q; Demak, Grigning —Tong p`yessasini tinglash vaqti keldi. Bu p`yessa osmondagi quyosh chiqishini tasvirlaydi.

Goblin; Qani? Bolalar musiqa tinglashni bilishadimi, yo`qmi, tekshiraylikchi?

Y: Buni qanday tekshiramiz?

Troll` : Bolalar boshlarini engashtirib, orkestr ohanglarini diqqat bilan tinglashsin.

Goblin: Boshida bizga musiqa er uyg`onishini, shamol jonlanishini, dalalarda gullar ochilishini tasvirlaydi.

Troll` : Quyosh erga birinchi nurlarini sochadi. Lekin orkestr nurlarni o`sib, kuchayib, hamma yoq yorug` bo`lishini tasvirlaydi. Va nihoyat tog`lar ortidan quyoshning iliq nurlari taraladi.

Y: Tushunarli. Musiqa ohangi quyosh chiqishini tasvirlaganda, bolalar shu payt boshlarini ko`tarishlari kerak. Shundaymi?

Goblin To`g`ri!

Q. Biz ham sizlar bilan birgalikda tinglaymiz.

E. Grigning «Tong» («Utro») pessasining fonoyozuvi yangraydi.

Y. Menimcha har birimiz musiqada quyosh chiqishini tasvirlashini tushundik. Q.Troll, Goblin menimcha bolalar adashmaydilar. Chunki shu payt orkestr tantanavor chala boshlaydi, tong otdi.

Y.E.Grigning musiqalarida Norvegiyaning sehrli mavjudodlari yna aks ettiriladi. Shuning uchun biz sizlar bilan xayrlashmaymiz va yna musiqa kechasida uchrashguncha deymiz.

Troll` va Goblin bolalar bilan xayrlashib ketishadi.

Grigning kuylarini bekorga billurga o`xshatishmaydi. Hozir siz uning «Uycha» («Izbushka») qo`shig`ini tinglaysiz. Diqqat bilan tinglang - bu musiqa sovuq shimol mamlakatini, qishda hamma yoq muzlar bilan qoplanganligini tasvirlaydi. Grig muqisasida asosiy fazilat – bu ezgulik, yaxshilikdir. Va bu qo`shiqda sizlar quyidagi so`zlarni eshitasizlar.

«Sovuq mamlakatda ham insonlar baxtli bo`lishlari mumkin, agarda ular bir – biriga mehr – muhabbat ko`rsatishsa».





Троль ва Гоблин

Alla marcia e molto marcato

First system of musical notation. It consists of two staves: a treble clef staff on top and a bass clef staff on the bottom. The treble staff begins with a key signature of two sharps (F# and C#) and a 2/4 time signature. The music is marked *pp* (pianissimo) and *sempre staccato*. The bass staff provides a steady accompaniment. A circled 'D' is written above the treble staff at the beginning. A circled '8' is written below the bass staff at the start of the first measure.

Second system of musical notation, continuing the piece with two staves. The treble staff features more complex rhythmic patterns, including eighth and sixteenth notes. The bass staff continues with a steady accompaniment. A circled '8' is written below the bass staff at the start of the first measure.

Third system of musical notation, continuing the piece with two staves. The treble staff has a more active melodic line. The bass staff continues with a steady accompaniment. A circled '8' is written below the bass staff at the start of the first measure.

Fourth system of musical notation, continuing the piece with two staves. The treble staff has a more active melodic line. The bass staff continues with a steady accompaniment. A circled '8' is written below the bass staff at the start of the first measure.

Fifth system of musical notation, continuing the piece with two staves. The treble staff has a more active melodic line. The bass staff continues with a steady accompaniment. A circled '8' is written below the bass staff at the start of the first measure.

## Tog` qiroli g`orida

—Sovuq mamlakatda ham insonlar baxtli bo`lishlari mumkin, agarda ular bir-biriga mehr-muhabbat ko`rsatishsa.

E.Grigning «Uycha» («Izbushka») qo`shig`ining ijrochilari chiqishadi.

Q: Grig o`zining iqtidorligi bilan odamlarni baxtli qila olardi. Bir kuni Grig va Norvegiyalik qiz Dagni Pederson o`rtasida mana shunday uchrashuv bo`lib o`tdi.

Boshlovchilar 2 chetga ketishadi.

Q: Pautovskiyning «Korzina s elovo`mi shishkami» motivi asosida «Grig va

qizcha» sahnasi boshlanadi. Sahnani ko`rsatish jarayonida boshlovchi yigit E.Grig nomidan matn o`qiydi. Boshlovchi qiz esa – Dagni ismli qiz nomidan matn o`qiydi. Bunda boshlovchi yigit «ielyana» ni peshonasiga tushurib, sal egilib turadi. Qiz esa qushga to`qilgan savatni oladi. Sahna o`yini davomida boshlovchilar yozuvlar bilan foydalanishlari mumkin. Sahnada boshqa bolalar ham qatnashishi mumkin. Dagni rolini 2 ta qiz o`ynashi mumkin (yoshligini va o`smirligini.).

Y: Bastakor E.Grig kuzni Byorgen atrofidagi o`rmonlarda o`tkazar edi.

Q: Kunlardan bir kun Grig o`rmonda sochi 2 ta o`ralgan qizchani uchratadi – u o`rmonchining qizi edi. U savatiga archa bujurini yig`ayotgan edi.

Y: «Isming nima – qizcha?» - deb so`radi Grig.

Q: «Dagni Pederson» - sekin aytdi qiz.

Y: «Afsus meni senga sovg`am yo`q» Mening cho`ntagimda na qo`g`irchoq, na yumshoq quyunchalarim bor. Hech nima yo`q. Men o`ylab topdim. Men senga ajoyib narsani sovg`a etaman. Lekin hozir emas, 10 yildan keyin:

Q: Dagni afsuslanib «Shuncha kutish kerak – mi?» deb aytdi.

Y: Tushunasani, men hali uni ehtiro etishim kerak.

Q: U o`zi nima?

Y: Keyin bilasan.

Q: «Nahotki umringiz davomida siz 5 yoki 6 dona o`yinchoq yasay ololmasangiz?» - deb so`radi qiz.

Y: Grig hayajonlanib: «Yo`q, unday emas, - ikkilanib etiroz birldirdi u. Men uni bir necha kunda tayyorlashim mumkin, lekin uni yosh qizlarga sovg`a etishmaydi. Ular kattalar uchun».

Q: «Men uni sindirmayman» - deb zorlandi qiz.

Y: «Sen hali yoshsan va ko`p narsalarni tushunmaysan. Chidashga harakat qilgin. Endi esa savatingni ber. Sen uni bazur ko`taryapsan. Men seni kuzataman va biz yana boshqa narsalar haqida gaplashamiz».

Q: Dagni uh tortib Grigga savatini uzatdi. U haqiqatdan ham og`ir edi.

Y: Daraxtlar orasida o`rmonchining uyi ko`rinib qolgach Grig qizga aytdi:

«Dagni Pederson endi o`zing yetib olasan. Bilasanmi Norvegiyada bunday ism va familiyali qizlar ko`p. Otangni ismi nima?»

Q: «Xalerup! Qiz biznikiga kirmaysizmi?»

Y: «Rahmat. Hozir vaqtim yo`q. Hayr Dagni!» Grig qizning sochidan silab dengiz tomonga yurdi. «Men musiqa yozaman», deb qaror qildi Grig.– «Dagni Pederson - o`rmonchi Xarupen Pederson qiziga, 18 yoshga to`lganida bag`ishlansin» deb, bosmadan chiqarishga buyruq beraman.

Grig Dagni uchun musiqani bir oydan ziyod yozdi. U musiqani yozganda quvonchligidan yugurib kelayotgan yashil ko`zli qizcha ko`z oldiga kelar edi.

Grigning fortepiano va orkestr uchun yozilgan konserti yangraydi. Vaqt o`tgach musiqa pasaytiriladi.

Grig unga – «Sen quyosh misoli, mayin shamol, tong misolisan. Sening yuragingda oq gul gullab uning hidi sening butun vujudingni bahor hidi bilan qamraydi. Men hayotni ko`rdim. Senga u haqida nima deyishmasa ham u ajoyib va go`zalligini bilgin. Sen – o`s tunning sirli nuri misoli. Sen – baxtsan. Sen - tongsan».

**Musiqa tugaydi.**



Григ ва кизча

**E. GRIG**  
**“PER GYUNT”**  
**TONG**

Allegretto pastorale

*p dolce*

The musical score is presented in five systems, each consisting of a treble and bass staff. The key signature is three sharps (F#, C#, G#) and the time signature is 2/4. The tempo is marked 'Allegretto pastorale'. The first system includes the instruction 'p dolce'. The score features a variety of musical notations, including eighth and sixteenth notes, rests, and dynamic markings such as hairpins and accents. The piece concludes with a final cadence in the fifth system.

First system of musical notation. The right hand features a melodic line with slurs and ties, while the left hand provides harmonic support with chords and some moving lines. A dynamic marking of *f* (forte) is present in the left hand.

Second system of musical notation. The right hand continues with a melodic line. The left hand has a dynamic marking of *piu f* (pianissimo forte) in the later part of the system.

Third system of musical notation. The right hand has a melodic line with slurs. The left hand features a dynamic marking of *ff* (fortissimo) and includes some moving lines.

Fourth system of musical notation. The right hand has a melodic line with slurs. The left hand has dynamic markings of *p* (piano), *ff* (fortissimo), and *p* (piano) alternating across the system.

Fifth system of musical notation. The right hand has a melodic line with slurs. The left hand has dynamic markings of *p* (piano) and *ff* (fortissimo).

First system of musical notation. The right hand features a melodic line with eighth-note patterns and slurs. The left hand provides a harmonic accompaniment with chords and moving lines. Dynamic markings include *p* and *ff*.

Second system of musical notation. The right hand continues with intricate melodic patterns. The left hand features a prominent bass line with slurs. Dynamic markings include *ff* and *p*.

Third system of musical notation. The right hand has a steady eighth-note melody. The left hand has a more active bass line. Dynamic markings include *ff* and *p*.

Fourth system of musical notation. The right hand continues with eighth-note patterns. The left hand has a melodic bass line. Dynamic marking includes *pp*.

Fifth system of musical notation. The right hand has a consistent eighth-note melody. The left hand has a supporting bass line. Dynamic marking includes *pp*.

Sixth system of musical notation. The right hand continues with eighth-note patterns. The left hand has a melodic bass line. Dynamic marking includes *pp*.



First system of a musical score in G major, 3/4 time. The right hand features a continuous eighth-note melody with slurs, while the left hand plays a steady eighth-note accompaniment.

Second system of the musical score. The right hand continues its eighth-note melody. The left hand has a long rest in the first measure, followed by a bass line starting with a *pp* dynamic marking.

Third system of the musical score. The right hand melody includes trills marked with *tr*. The left hand features a series of chords with a *p* dynamic marking.

Fourth system of the musical score. The right hand continues with trills marked *tr*. The left hand maintains a chordal accompaniment.

Fifth system of the musical score. The right hand has a melodic line with a slur and a *p* dynamic marking. The left hand has a bass line with a slur. The instruction *più tranquillo* is written above the staff.

Sixth system of the musical score. The right hand has a melodic line with a slur and a *pp* dynamic marking. The left hand has a bass line with a slur. The instruction *poco rit.* is written above the staff.

Q: 18 yoshda Dagni maktabni tugatdi. Shuning uchun uni otasi Magda ammasinikiga dam olgani yuboradi. Qizcham borib (otasi uni qizcham derdi) dunyoni, odamlarni ko`rib quvonib kelsin. Kim bilsin, uni kelajakda nima kutayapti?

Y: Magni ammasi va Nils tog`asi unga konsertga borishlarini taklif etishdi. Dagni bu munosabat bilan o`zining yangi chiroyli qora ko`ylagini kiydi.

Q: Dagni birinchi marta simfonik kuyni tinglayotgan edi. Bu ohanglar unga o`zgacha ta`sir qildi. Ohanglar Dagnida tushidagi suratlarni eslatardi. So`ng u cho`chiganidan ko`zlarini yumardi. Unga dasturni e`lon qilgan qora frakdagi erkak uning ismini aytgandek tuyuldi. «Qiz meni chaqirdingizmi Nils tog`a» - deb, Nils tog`asidan so`radi Dagni.

Y: Nils tog`asi quvonch va hayronlik bilan Dagniga qarab dedi, Magni ammasi ham xuddi shunday qarorda edi.

Q: «Nima bo`ldi?» - deb so`radi Dagni.

Y: Va u qora frakdagi erkakning gapini eshitdi. «Orqa qatordagi tinglovchilarimiz yana bir marta qaytarishimni so`rayaptilar.

- Hozir E.Grigning mashhur musiqali pessasi yangraydi, bu kuy o`rmonchi Xalerup Pedersonning qizi Dagni Pedersonga bag`ishlanadi, U 18 yoshga to`lganligi munosabati bilan».

### **Musiqqa yana yangraydi, keyinchalik pasaytiriladi.**

Q: Dagni engayib yuzini qo`li bilan berkitadi. Demak, bu o`sha edi, unga savatini uygacha ko`tarishib yuborgan oq sochli odam. Bu Edvard Grig edi, sehrGAR va buyuk bastakor. 10 yildan so`ng sovg`a etaman degan sovg`asi mana shu ekan. Dagni minnatdorchilik ko`z yoshlarini bekitmasdi.

Y: Ohanglar og`ushida tanish ovoz eshitildi. «Sen – baxtsan, sen – tong nuri» - der edi u.

Q: «Agar uni ko`ra olsam edi» - o`ylar edi Dagni – «Agar u shu yerda paydo bo`lsa!» Men uning yoniga yugurib borib, o`zimning minnatdorchiligimni izhor etar edim.

«Nima uchun» - deb so`rasa u «Men bilmayman» – der edi Dagni, «Meni unutmaganingiz uchun. Sahiylicingiz uchun. Inson qanday va nima uchun yashash kerakligini ko`rsatganingiz uchun».

### **Musiqqa yana bir oz yangrab, so`ng tugaydi.**

Y: Mana Norvegiyaga sayyohatimiz ham tugadi. U yerda bizlar E.Grigning musiqasi bilan tanishdik.

Q: Endi esa «Norvegiyali ertak» ga bag`ishlab bolalar chizgan rasmlarni ko`rishga ham navbat keldi.

Bolalar o`zlarining rasmlarini bezatilgan taxtaga ilib, har biri nima tasvir etganini tushuntirib berishadi.

So`ng Troll paydo bo`ladi.

Troll: Rahmat bolalar! Meni unutmaganingiz uchun. Endi men ham o`zimning mamlakatimga boraman. U yerda meni hech kim hafa qilmaydi.

Troll tanlovda qatnashgan bolalarga o`zining sovg`alarini beradi.

Y: Endi bolalar E.Grigning musiqasini boshqa musiqa bilan adashtirmaydilar, deb o`ylayman.

S: Bolalar bilan hayrlashishdan oldin bir kichik o`yinni o`tkazaylik. Bu o`yin «o`ylab – top?», deyiladi.

(Hirgoya, cholg`u asbobida yoki magnetofonda eshittiriladi) quyidagi pessalarni «Tong», «Solveyg qo`shig`i», «Tog`li shoh g`orida». Bolalar nomlarni aytishga qiynalsalar boshlovchilar yordam berishadi.

Sahnaga Troll, Solveyg va Goblin chisadilar.

Y: Mana sizlar bilan ertak shaxslari hayrlashgani kelishdi. Ularning kuchli musiqasini abadiy etgan Shimoliy buyuk sehrgarimiz.....

Hamma birgalikda

Bastakor Edvard Grig!

Edvard Grig

15 iyun. 1843 – 4 sentyabr 1907 y.

Edvard Grig – Norvegiyaning mashhur bastakori. E.Grigning 1843 yilning 15 iyunida Byorgenda tug`ilgan. Uning otasi konsul lavozimida, onasi esa pianinachi edi. Grig 6 yoshida Leyptsigning Konservatoriyasiga o`qishga kirdi, va 4 yildan so`ng 2 ta sinfni – kompozitsiya va royal bo`yicha bitirdi.

Grig Evropaning ko`p shaharlarida pianist bo`lib ishtirok etdi, va fortepiano uchun ko`p asarlar yozdi.

Bulardan: fortepiano sonatalari, fortepiano uchun pessalar «Shestvie gnomov», «Vesnoy», Norvegiyaning raqslari.

Grigni konsertlar bilan juda ko`p shaharlarga taklif etishardi. Lekin u Vatanidan uzosda bo`lolmas edi va hamisha uyiga intilar edi.

Grigning asarlarida biz Norvegiyaning milliy ohanglarini his etishimiz mumkin. Uning musisasida afsona va ertaklar jonlanadi, oddiy halqning hayoti, Norvegiyaning tabiati, shimol dengizining ohanglari o`z aksini topgan.

Uning kamer – instrumental, vokal va simfonik asarlarida mamlakatning hayoti, uning tabiati o`z aksini topgan. Grig rus bastakori Pyotr Ilich Chaykovskiy bilan do`stona munosabatda edi.

Mashhur Chaykovskiy «Gamlet» simfonik uvertyurasini unga bag`ishlagan edi.

Grig o`z xatida unga: «Aziz do`stim va ustozim!» uvertyura «Gamlet» ga yosh boladek quvonayapman. Menga bahshida etganing uchun benihoyat minnatdorman!

Grigning musiqasi dramaturg G.Ibsenning «Per Gyunt» pegasiga yaralib, uni butun dunyo tan oldi. Grigga Oksford universitetining doktorlik darajasi berildi. Ana shundan so`ng uning «Solveyg qo`shig`i» va yorqin «Anitra raqsi» kuylari yangray boshladi.

Grig olamdan ko`z yumgan kuni Norvegiyada umumhalq motam kuni e`lon qilingan.

### **Nazorat uchun savollar**

- 1.Darsdan tashqari musiqa tarbiyasining maqsadi nimada?
- 2.Nima uchun shahs shakllanishiga e`tibor qaratilishi lozim?
- 3.Estetik tarbiyaning yangi shakl va mazmunini ayting.
- 4.Maktabdan va darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarning ahamiyati nimada?
- 5.«Yurtim jamoli», «Shimoliy sehrigar» stsenariyalari bilan tanishing va uning ahamiyatini ayting.
- 6.Darsdan tashqari o`tkaziladigan tadbirlar uchun mustaqil stsenariy tuzing!

### **Qo`shimcha materiallar**

1. J.Fozilov, R.Sultonov, Q.Saidov o`quvchi ma`naviyatini shakllantirish. T.2000 yil.
- 2.M A.Davidova, I.A.Agapova. Muzqkalnqe vechera v shkole. M.2001g. Z.R.J.Ishmu?ammedov Innovatsion tehnologiyalar yordamida ta`lim samaradorligini oshirish yullari.

## NAVOIY

M.Otajonov musiqasi

### Navoiy” N.Narzullayev

Allegro

Voice

*f* u-lug' bo-bom no - mi-da sha-har Na-vo - iy deb a-tal - gan di-

Ulug` bobom nomida shahar,  
Navoiy deb atalgan diyor.  
Humo qushi keltirar xabar,  
Jamolini sog`inar nahor.

#### NAQORAT

Oltin shahrim, xazina shahrim,  
Qallda so`nmas tinchlik bahori.  
Jon Navoiy, yuragim, faxrim,  
Bor bo`l, yashna, do`stlik diyori!  
Salom senga, ko`hna karmana`  
So`yla bizga moziydan ertak.  
Kamolingga dillar parvona,  
Qo`shig`ingga jo`r bo`lsin yurak.

#### NAQORAT

Oltin shahrim, xazina shahrim,  
Qallda so`nmas tinchlik bahori.  
Jon Navoiy, yuragim, faxrim,  
Bor bo`l, yashna, do`stlik diyori!  
Farzandlaring chehrasi gulgun,  
Ko`zlarida quyosh charaqlar.  
Baxshidadir joni el uchun,  
Kelajagin yurti ardoqlar!

#### NAQORAT

Oltin shahrim, xazina shahrim,  
Qallda so`nmas tinchlik bahori.  
Jon Navoiy, yuragim, faxrim,  
Bor bo`l, yashna, do`stlik diyori!

## QASHQADARYO

M.Otajonov musiqas



N.Narzullayev

Mustaqillik shamoli esar,  
Jarchi bo`lib bu olam aro.  
Yulduzlari osmonni bezar,  
Quyosh va oy taratar ziyo.

### NAQORAT

Qashqadaryo, jon Qashqadaryo,  
Qalbi qaynoq mehri daryosan.  
Kamolingga deymiz tasanno,  
Benazir yurt noyob dunyosan.

Amudaryo, Sirdaryo qutlar,  
Mehmon bugun surhon, zarafshon.  
Quchoq, quchoq guldasta tutar,  
Qashqadaryo senga sharafshon.

### NAQORAT

Amir Temur tuq`ilgan diyor,  
Bobom ruhin biz aylaymiz shod.  
Hur o`lkamda manguilik bahor,  
Vatan gulgun elimiz ozod.

### NAQORAT

Qirda yongan lolalaringmiz,  
Jahon bizga qiladi havas.  
Bizlar baxtli bolalaringmiz,  
Mehring bilan olamiz nafas.

## X I V A

M.Otajonov musiqasi  
Zafariy



Qadimiy gumbazi ko`kka qadalgan,  
Xivani ziyorat etgim keladi.

Ul aziz pahlavon hoki - poyoni,  
Qoshimga ko`zimga surgim keladi,  
Qoshimga ko`zimga surtgim keladi  
Yigirma besh asr poyida turib,  
Dilni sadoqatdan surgim keladi.  
Buyuk allomalar yurti ey, Xivam,  
Seni mangulikda ko`rgim keladi.  
Seni mangulikda ko`rgim keladi.

### NAQORAT

Vatanimda to`y bugun,  
Kuylang do`stlarim, kuylang.  
Xorazmda to`y bugun,  
O`ynang, kuylang.  
Qalbingdagi iftixor,  
Ajoyib gulshan diyor.  
Go`zallikda betakror,  
Dillarda g`azal Xiva  
Polvon Mahmud gumbazi,  
Gumbazdan mashhur o`zi.  
Ko`rib hayron yer yuzi,  
Dillarda g`azal Xivam.  
Baxshilarning sozida,  
Bulbulday ovozida.  
Qishu - baqor, yozida,  
Mashhursan azal Xivam.

# XORAZM MARSHI

The first system of the score consists of two staves. The upper staff is in treble clef with a key signature of one sharp (F#) and a 2/4 time signature. It features a melodic line with eighth-note patterns and slurs. The lower staff is in bass clef with the same key signature and time signature, providing a simple harmonic accompaniment.

The second system continues the piece. The upper staff has a dynamic marking of *mf* (mezzo-forte). The lower staff includes rhythmic notation consisting of vertical lines with flags and asterisks, likely representing a specific rhythmic pattern or ornamentation. The melodic line in the upper staff continues with similar eighth-note motifs.

The third system shows the continuation of the melodic and harmonic themes. The upper staff maintains the eighth-note melodic pattern, while the lower staff provides accompaniment with rhythmic markings.

The fourth system continues the musical development. The upper staff features a melodic line with slurs, and the lower staff includes rhythmic notation and asterisks.

The fifth system concludes the piece. The upper staff shows the final melodic phrases, and the lower staff includes rhythmic notation and asterisks.



Askar-askar o`ynaymiz,  
 Tinchlik kuyin kuylaymiz.  
 Urushqoqlarni aslo  
 Safimizga qo`ymaymiz.

Toblansak bir, ikki, uch,  
 Tanimizda toshar kuch.  
 Yovuzlarning har doim  
 Hayollari bo`lar puch.

## O`ZBEKISTON - ONAJON

Qambar - Ota

Yer - osmoning orasi,  
Olamning eng sarasi,  
Avlod meros Vatanim,  
Qadri baland bo`stonim.

Oy qushda yetolmas,  
Quyosh shaydo, ketolmas.  
Ko`k toq`ingda yulduzlar,  
Baxt taratar kunduzlar.

Sahovatli, fidokor,  
Dunyoda eng baxtiyor.  
Sodiqlikda bolanga,  
Tanilgansan olamga.


Bir yoningda Jayxundir,  
Bir yoningda Sayhundir.  
Mehringdir nur tarami,  
Bag`ring dillar oromi.

Qimmatini hayotga teng,  
Insonparvar bag`ri keng.  
Onajon O`zbekiston,  
Jonajon O`zbekist

# O'zbekiston-onajon

M.Otajonov mus.  
Qambar ota she'ri.

**Allegro**

Voice   
Yer, os - mon-ning-o-ra-si O-lam-ning eng sa-ra - si av-lod me-ros Va-ta - nim

7   
Qad-ri ba-lang bo's - to - nim. O - na - jon O'z - be - kis - ton

13   
jo - na - jon O'z-be - kis - ton O - na - jon o'z - be - kis - ton

21   
jo - na - jon O'z-be - kis - ton Sa-xo-vat - li fi - do - kor du-nyo da eng

28   
bah-ti-yor so-diq-lik-da bo-lang-ga ta-nil-gan san o - lam - ga

35   
O - na - jon O'z - be - kis - ton

39   
jo - na - jon O'z - be - kis - ton

## A N J I R

D. Omonullayeva musiqasi

Po`lat Mo`min she`ri

Musical score for the first system of the song 'Anjir'. It consists of three staves: a vocal line in treble clef, a piano accompaniment in treble clef, and a piano accompaniment in bass clef. The lyrics are: Ay-ta- qo-lay ol-din- dan ran-gi qol-mas.

Musical score for the second system of the song 'Anjir'. It consists of three staves: a vocal line in treble clef, a piano accompaniment in treble clef, and a piano accompaniment in bass clef. The lyrics are: ol-tir- dan. ran-gi qol-mas ol-tin- dan.

I

Anjir qiziqdir o'zi,  
Lekin bittadji ko'zi.  
Aytaqolay oldindan,  
Rangi qolmas oltindan.

II

Pishsa o'zi-o'zidan,  
Asal tomar ko'zidan.  
Maza qilamiz axir,  
Kuzda yeganda anjir.

# ALIFBO BAYRAMI

D. Omonullayeva musiqasi  
Po`lat Mo`min she`ri

# Ng ng



*Allegro moderato*

A-lif- bo-dan xarf- larni biz o`r-gan-dik oz -oz-dan.

The musical score is written for piano and voice. It consists of three systems. The first two systems are instrumental, with a treble and bass clef. The third system includes a vocal line with lyrics. The tempo is marked 'Allegro moderato'. The key signature has two sharps (F# and C#), and the time signature is 2/4. The lyrics are: 'A-lif- bo-dan xarf- larni biz o`r-gan-dik oz -oz-dan.'

Min-nat-dor-miz o'r-ga-tuv-chi mu-al-lin-dan - us -toz-dan.

NAQAROT

Ti-li-miz-ni say-ra-ta-di

a-lif-bo-miz bay-ra-mi.

Di-li-miz-ni yay-ra-ta-di



Tarqoqlash uchun.



Alifbodan  
Harflarni  
Biz o'rgandik öz-ozdan.  
Minnatdormiz  
O'rgatuvchi  
Muallimdan-ustozdan.

Oldimizda  
Saf tortishdi  
Askarlarday harflar.  
Barchasiga  
Qo'shiqlarda  
Berib o'tdik ta'riflar.

Har bir harf  
Daftarlarda  
Gijinglaydi toy bo'lib.  
Yozganimiz  
Ko'rinadi  
Yulduz bo'lib, oy bo'lib.

Tilimizni  
Sayratadi  
Alifbomiz bayrami,  
Dilimizni  
Yayratadi  
Bayramlarning xurrani.

## V.2. Milliy musiqa (to'garak) ansamblini tashkil etish usullari

Milliy xalq cholg'u asboblari ansambli to'garagining rahbari oldida turgan muhim vazifalardan biri ishtirokchilarni tanlash va dastlabki ishlarni amalga oshirishdir. Yoshi, musiqiy bilimi hamda biror cholg'u asbobini chala olishi, qo'shiq kuylay olishi, raqsga tusha olishi yoki shu soha bo'yicha tayyorgarligi bor-yo'qligidan qat'iy nazar barcha xohlovchi o'quvchilar musiqa to'garagiga qabul qilinadi. Ular bilan bir necha marotaba mashg'ulotlar o'tkazish orqali har birining musiqiy qobiliyati darajasi aniqlanadi va bir necha guruhga ajratiladi.

Birinchi guruhga musiqa qobiliyati yaxshi va biror cholgʻu asbobini chalib bilishi yoki qoʻshiq kuylay olishi hamda raqsga tushish boʻyicha mashgʻulotlarni oson va tez oʻzlashtirayotgan havaskor oʻquvchilar kiritiladi.

Ikkinchi guruhga esa qobiliyati boʻsh va musiqiy sohalarni past oʻzlashtirayotgan oʻquvchilar qabul qilinadi. Albatta, bunda xoxlovchilar orasidan maxsus musiqa bilimiga ega boʻlgan (musiqa maktabida oʻqiyotgan) va qobiliyati yaxshi (musiqa darslarida yaxshi koʻrsatkichlarga ega boʻlgan) oʻquvchi havaskorlar tanlab olinib alohida belgilangan reja asosida ishlashlariga ham eʼtibor berilmogʻi lozim.

Ansambl (toʻgarak)ning ilk mashgʻulotlarini boshlashdan oldin maktab maʼmuriyati ishtirokida umumiy tashkiliy yigʻilish oʻtkazilib, guruhning faollari saylanadi. Mashgʻulotlarni oʻz vaqtida oʻtkazish, tartib va intizom saqlash, davomatni hisobga olib borish, cholgʻu asboblarni saranjom qilish, kiyim-kechaklarni esa ozoda va toza saqlash shu faollarga topshiriladi.

Ansambl mashgʻulotlarini oʻtkazish kuni, vaqti va joyi aniqlanadi. Agar zaruriyat taqazo etsa, guruhlarning alohida – alohida mashq oʻtkazish vaqti kelishib olinadi.

Ansambl ishtirokchilarining musiqiy qobiliyati, qiziqishi va xohishi inobatga olingan holda guruhlarga ajratish oʻta muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda cholgʻu asboblarni chalishga moyillik bildirgan oʻquvchilarni bir guruhga, qoʻshiq kuylaydigan yoki raqsni ijro etishga xohishi bor havaskor oʻquvchilar esa alohida–alohida guruhlarga ajratiladi. Laparlarni kuylay oladigan, shuningdek, yakkanavoz yaʼni cholgʻu asbobini chalib qoʻshiq ayta oladigan oʻquvchilar ham inobatga olinadi.

Ansambl faoliyatining asosiy yoʻnalishlarini belgilab beruvchi istiqbol rejasini tuzishda quyidagilar nazarda tutilmogʻi lozim:

- ansambl (dasta) qatnashchilari yigʻinini tayyorlash va oʻtkazish (bu yigʻinda ansambl faollarini saylash va ishga taalluqli umumiy qoidalarni kelishib olish, shuningdek, yillik rejani muhokama qilish);

- ansambl qatnashchilari sonini toʻldirib borish (yaʼni eʼlonlar va turli suhbatlar orqali xohlovchilarni mashgʻulotlarga jalb qilish);

- musiqa asboblari, kiyim-kechaklar va boshqa zarur oʻquv qurollarini olish;



- ishtirokchi-o'quvchilarning musiqiy ijrochilik mahoratlarini muntazam oshirib borish, texnik malakalarini esa takomillashtirish;

- umumiy guruhlarga va yakka (individual) ijrochilar bilan alohida mashg'ulotlarni o'z vaqtida o'tkazish va musiqa ijrochiligi (sozda chalish, qo'shiq kuylash, raqsga tushish) sifatini muntazam yaxshilash;

- ansambl dasturi uchun tanlangan musiqa asarlari o'z mazmuni va tuzilishi jihatidan a'zolariga tushunarli va yoshlarga mos bo'lishini inobatga olish.

Tanlangan musiqa asarlari ijrochisi orqali o'quvchilarni ijodiy mehnat qilishga o'rgatish, ma'naviy dunyosini boyitish, badiiy kamolotga erishuviga hamda nafosat didini o'stirishga xizmat qilmog'ligini e'tiborga olish lozim. Buning uchun quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- maktabda ansamblning doimiy konsertlarini o'kazib turish;

- bayram va ko'riklarda konsert dasturi bilan muntazam qatnashish;

- yillik hisobot konsertini keng jamoaga namoyish etish.

Ansamblning yillik ish rejasi, asosan, istiqbol reja negizida tuziladi va bajarilib boriladi. Ba'zan bunday reja ko'pgina masalalarni o'z ichiga qamrab ololmagan bo'lishi ham mumkin, shuning uchun ansambl rahbari reja tuzganda o'z jamoasining imkoniyati va mahalliy sharoitini hisobga olgan holda qo'shimcha ishlarni rejalashtirishi maqsadga muvofiqdir. Istiqbol hamda yillik ish rejasining muvaffaqiyatli amalga oshishi, asosan, oylik ish rejaning nechog'lik puxta tuzilishi va bajarilishiga bog'liq bo'ladi.

**Oylik ish rejasi:** Bu reja ansamblning barcha imkoniyatlarini inobatga olgan holda tuzilgan bo'lib, tanlangan har bir musiqa asari ustida ishlash, uning g'oyaviy – badiiy mazmuni va xarakteri o'quvchilar ijrosida mukammal qilib tayyorlanishi singari ishlarni o'z ichiga oladi.

Ma'lumki, jamoalarning musiqa ijrochilik imkoniyatlari turlicha, shu sababli ushbu rejani tuzishda ansamblning ijrochilik mahorati va boshqa o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish zarur. Aytaylik, agar dastaning ijrochilik imkoniyati yuksak bo'lsa, bunday hollarda uning ijrosini yanada takomillashtirish uchun esa murakkabroq musiqa asarlarini tanlash maqsadga muvofiqdir. Mabodo ansambl yangi tashkil etilgan bo'lsa, uning faoliyatini quydagicha rejalashtirishni

tavsiya etish mumkin. ( Bu ish rejasida ko‘proq asarlar ustida ishlash nazarda tutilgan, boshqa tadbirlar esa rejaga ansambl rahbari tomonidan kiritilgani ma’qul).

---

### **Mashg‘ulotlar !      Bajariladigan ishlar ko‘lami**

---

1. Milliy xalq cholg‘u asboblari ansambli ijrochiligi to‘g‘risida suhbat.

2. O‘quvchilarni guruhlariga ajratish (cholg‘uchilar, ashulachilar, raqsga tushuvchilar).

3. Tanlangan musiqa asarining badiiy ijrochiligi ustida ishlash (guruhlar bilan):

a) cholg‘u musiqa matnini o‘rgatish;

b) qo‘shiq matnini tushuntirish;

v) raqs ijrosini namoyish etish.

4. Mashg‘ulot davomida bajarilgan vazifalarni takrorlash.

5. Guruhlarga oldingi mashg‘ulotda o‘rgatilgan asarlarning badiiy ijrochiligini mustahkamlash.

6. Cholg‘uchi va ashulachilar bilan asar ustida ishlash.

7. Cholg‘u va raqs ijrochilari bilan asar ustida mashq qilish.

8. Barcha guruhlarini birlashtirib asarni birgalikda o‘rganish.

9. Yangi o‘rganiladigan asar va uning tarbiyaviy ahamiyati to‘g‘risida suhbat o‘tkazish.

10. Oldingi mashg‘ulotda o‘tilgan asarlar ijrosini (barcha guruhlarini birlashtirib ) har tomonlama mustahkamlash.

11. Guruhlarga bo‘lingan holda yangi tanlangan musiqa asarining badiiy ijrosi ustida ishlash.

12. Ansamblning umumiy mashg‘ulotini o‘tkazish va o‘rganilgan asarlarning badiiy va texnik ijrochiligini mustahkamlash.

13. Ansambl ijrosida badiiy tomondan mukammal bo‘dgan asarlarni sahnada namoyish etish.

14. Ansambl rahbarining bir oylik ish hisobotini eshitish.

---

**Eslatma:** Yakka ijrochilar uchun mo'ljallangan asarlar ustida ishlash alohida olib boriladi.

Ansambl mashg'ulotlari har haftada ikki marta 2,5 yoki 3 soatdan muntazam ravishda o'tkazilib, 2 va undan ortiq yangi musiqa asarini o'rganib borish ko'zda tutiladi.

Ansambl mashg'ulotlarini olib borish va musiqa asboblari, kiyim-kechaklarini saqlash uchun yorug', estetik did bilan bezatilgan, barcha sharoitlarga ega bo'lgan alohida xona ajratilmog'i, shuningdek, yakka va guruhlar mashg'ulotlar o'tkazilishi uchun yaxshi sharoiti mavjud bo'lgan alohida xona bo'lishi zarur. Xonalarni to'garak ishi uslubiga muvofiq chiroyli bezab, mashg'ulotlarning jadvali, ish tartibi, mashg'ulot kunlari va soatlarining aniq ko'rsatkichlari ko'rinadigan joyda osig'lik turishi lozim. Shuningdek, musiqa asboblarini va ansambl ishtirokchilariga moslab konsertlarga kiyib chiqishga mo'ljallab tikilgan kiyimlarni saqlash uchun maxsus xona ajratib, uning haroratini doimo bir xilda saqlash tavsiya etiladi.

**To'garakda o'quv – ijodiy ishlar.** Ansambl qatnashchilariga musiqa asarlarini o'rgatish juda ham qiyin va katta mehnat talab qiladigan omildir. Agar musiqa maktabi yoki o'quv yurtlarida o'quvchilarga 4-5 yil mobaynida ijrochilik sirlari o'rgatilib borilgan bo'lsa, havaskorlik dastasida bu jarayon 5-6 oy yoxud ko'pi bilan bir yilga to'g'ri keladi, xolos. Shuning uchun ham to'garak rahbarining bu soha bo'yicha puxta bilimli bo'lishi va o'quvchilarga o'rgatish uslubini yaxshi bilishi talab etiladi. Ana shularni inobatga olgan holda mashg'ulotni to'rt xil shaklda olib borish tavsiya qilinadi:

*1. Kichik guruhlariga bo'linib, musiqa asarlarini o'rgatish. Bunda asosan, 5-6 havaskor jalb etilib, ijrochilikning boshlang'ich unsurlari, aytaylik musiqa asboblarida chalish, bir va ko'p ovozli qo'shiq kuylash, raqsga tushish yo'llari o'rgatiladi.*

*2. 10-12 ishtirokchidan iborat guruh, ya'ni mashg'ulotlarini yaxshi o'zlashtirgan o'quvchilar jamoasi bilan mashg'ulot o'tkazish.*

*3. Ansambl jamoasining barcha a'zolari bilan mashg'ulot o'tkazish. Bunda kamchilik va yutuqlar o'zaro hamkorlikda ko'rib chiqiladi va amaliy ishlar olib boriladi.*

*4. Yakka tartibda mashqlarni o'rgatish, bo'sh va yaxshi o'zlashtirayotgan o'quvchilar bilan alohida tartibda olib boriladi. Bu mashg'ulotlar ko'proq bo'sh o'zlashtirayotgan havaskorlarning ijrochiligini yaxshilashga qaratiladi. O'zlashtirishi yaxshi, faol va*

*harakatchan o'quvchilarning ijrochiligi esa takomillashtirilib boriladi.*

Yuqoridagi ishlar, asosan quyidagi yo'nalishlarda olib borilishi kerak:

- a) tayyorgarlik ishlari asosida;
- b) uzluksiz mashg'ulotlar davomida;
- v) musiqiy asarlarni ijro etishning uzluksizligini ta'minlash orqali olib boriladi.

Ma'lumki, tanlangan musiqa asarlari ijrochiligi yaxshi o'zlashtirilib borilsa, ansamblning ijrochilik mahorati oshib boradi. Mazmun va xarakteri jihatidan rang–barang musiqalarni ijro etish usullari takomillashadi.

Maktabda tashkil etilgan milliy xalq cholg'u asboblari ansamblining tarkibi, asosan, uch qismni o'z ichiga oladi:

1. Qo'shiq yoki raqs mazmunini musiqiy tovushlar vositasida ifodalangan badiiy obrazlar orqali ijro etish, ya'ni musiqa cholg'u asboblari musiqiy matnni mohirona ijro qilish.

2. Qo'shiqning badiiy ijrosini puxta o'rganish va musiqa bilan uning jo'rligini ta'minlash.

3. Raqs harakatlarini o'rganish va nafisligiga e'tibor berish. Bu vazifalarni tadrijiy jihatdan to'g'ri bajarib borish musiqa asarlari ijrochiligini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Musiqiy asarlar majmuasi mazmunini musiqa cholg'u asboblari yordamida yoritish uchun:

a) ijrochilik uslubini to'g'ri bajarish, ya'ni, qaysi cholg'u asbobi qanday uslubda to'g'ri va ifodali ijro etilishini o'rgatib borish;

b) chalish sur'ati va ritmik holatini to'g'ri bajarish, bunda asar qanday tezlikda ijro etilishi va tovushlarning bir–biriga bog'liqligi hamda izchilligi to'g'risida tushuncha berish;

v) tovush xarakterini bir maromda bo'lishini ta'minlash; – bunda cholg'u asboblari tovush jarangdorligini yaxshilash uchun olib boriladi hamda cholg'u asboblarning yetakchilari aniqlanadi.

g) dinamik tuslanishlarni to'g'ri bajarish, ya'ni, qaysi holatda tovushlarning ifoda kuchini qanday bajarish kerakligi o'rgatilib boriladi;

d) jo‘r bo‘lishni ta‘minlashda raqsbob qo‘shiqning so‘zi va raqs harakatlari cholg‘u asboblari ijrosi bilan bir-biriga hamohang tushishi o‘rgatiladi.

2. Qo‘shiqning badiiy ijrosi ustida ishlash va mazmunini har tomonlama ochish uchun so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rgatish kerak, bunda so‘zlarni aniq va burro talaffuz qilish, ayniqsa, unli va undosh tovushlarni to‘g‘ri va sof talafuz etish, urg‘ularni aniq qo‘yish o‘rgatiladi. Buning uchun tubandagilarga amal qilish lozim:

a) so‘zlarning kuy bilan hamohangligini ta‘minlash uchun unli va undosh tovush bo‘g‘inlarni cho‘zib yoki qisqa, tez yoki sekin aytish, qachon nafas olish yoki olmaslik o‘rgatiladi, ularning kuy mazmuni bilan bog‘liqligi tushuntiriladi;

b) jarangdorlikka hamda ovoz ravonligiga erishish uchun nafasni to‘g‘ri olish va uni jumlaning oxirigacha bir maromda yetkazish, ayniqsa, yengil va chuqur nafas olish va sekin nafas chiqarish orqali tiniq va jarangdor ovoz hosil qilish o‘rgatiladi;

v) tovush sayqallanishiga (vibratto) erishish uchun nafasni to‘g‘ri boshqarib borish hamda ovoz yo‘llarini to‘g‘ri rivojlantirish natijasida ovozning sayqallanib borishiga erishish;

g) asar avjini aniq va chiroyli ijro etish o‘rgatiladi.

Yuqoridagilarni amalga oshirib borish natijasida asarni sodda, ravon, erkin, tabiiy va ifodali ijro etish mumkin bo‘ladi.

3. Raqs uchun mo‘ljallangan musiqiy asarning badiiy mazmuni va xarakterini ifodali ijro etish uchun:

a) musiqa asarini xakteri va ifoda vositalarini, ayniqsa, badiiy mazmunini anglatuvchi harakat unsurlarini to‘g‘ri o‘rgatish;

b) qo‘l, oyoq va qomat harakatlari asarning ritmik holatiga (uslubiga) mos tushishi va ularning hamohangligini ta‘minlash;

v) qiyofani asar tabiatiga moslash uchun asarning tavsifi va badiiy mazmuniga qarab qiyofadagi o‘zgarishlar – tabassum, kulgi, zavqlanish, shodlik, intilish, seskanish, qo‘rquv, hayajon va boshqalarni o‘rganish;

g) harakatlarni asarning ijro sur‘atiga moslash uchun musiqa asarining harakat tezligini (vazmin, o‘rtacha, tez) ifodalovchi texnik (mahoratli) ijrochilikka erishish kerak. Bular esa raqsning erkin va nazokatli chiqishini ta‘minlaydi. Umuman, bolalarning ijrochilik imkoniyatlarini takomillashtirib borish uchun, eng avvalo, dasturdagi badiiy obrazlarni yorqin tasavvur ettirish va idrok qildirish juda

zarurdir. Buning uchun ijrochilik faoliyatini o‘stirib borishga xos yuqorida bayon etilgan ko‘rsatmalardan foydalanish yaxshi samara berishi mumkin.

## **TO‘GARAK MASHG‘ULOTI HAMDA KONSERTLARGA CHIQUISHNI TASHKIL QILISH VA O‘TKAZISH.**

To‘garakning tashkiliy, tarbiyaviy va o‘quv- ijodiy ishlarini muntazam amalga oshirib borish uchun mashg‘ulotni(tayyorgarlikni) to‘g‘ri tashkil etib, o‘tkazish katta ahamiyat kasb etadi. Reja asosida o‘tkazilib turiladigan tayyorgarlik jamoaning ijodiy faoliyatini, uning ijrochilik imkoniyatini rivojlantiradi va estetik yo‘nalishlarini yaxshilaydi. Shuning uchun ham tayyorgarlik (repetitsiya)ishini to‘g‘ri tashkil qilish va rejali olib borish juda muhimdir.Har bir mashg‘ulotning maqsadi va vazifasi aniq belgilangandagina ko‘zlangan natijalarga erishish mumkin. Quyidagi tartib esa mashg‘ulotning sifatli o‘tishini yaxshi ta’minlaydi.

1.Tayyorgarlik (repetitsiya)ning kundalik vazifasi va unga tayyorlanish (5-10 daqiqa).

2.Havaskorlarni ushbu mashg‘ulotga moslash maqsadida oldindan tayyorlangan va katta qiziqish bilan ijro etiladigan ayrim kuy, qo‘shiq va raqslarni takrorlash (imkoniyati boricha butun jamoa bilan 20-30 daqiqa).

3.Oldingi mashg‘ulotda o‘rganilgan asarlarning badiiy ijrosini takomillashtirish ( 40-50 daqiqa).

4.Tanaffus ( 5-10 daqiqa).

5.Yangi musiqiy asar ustida ishlash ( 50-60 daqiqa).

6.Mashg‘ulot davomida bajarilgan vazifalarni takrorlash ( 10-15 daqiqa).

To‘garak mashg‘ulotini boshlashdan oldin cholg‘u asboblarni tiniq sozlash, qo‘shiq aytuvchilarni esa qayta-qayta mashqlar kuylatish orqali ovozlarini sozlash, raqs ijrochilariga jismoniy mashqlarni bajartirish jumladan; qo‘l, oyoq va qomat harakatlarini ritmik holatga moslashga erishish juda muhimdir.

To‘garakning boshlang‘ich mashg‘ulotlarida uncha murakkab bo‘lmagan va turli xarakterdagi musiqiy asarlarni tanlash maqsadga muvofiqdir.

Mashg‘ulotda amaliy ishni bajarish jarayonini ikki qismga ajratish mumkin: Birinchi qismda o‘rgatilayotgan asarning musiqiy

yoʻnalishini aniqlash va tahlil etish kerak boʻlsa, ikkinchi qismda ijrochilarning texnik jihati va badiiyoti ustida ish olib boriladi.

Tayyorgarlik mashgʻulot davrining eng muhim omillaridan biri mashgʻulotni oʻz vaqtida boshlash va tugatishdir. Chunki vaqtida boshlangan amaliyot koʻzlangan yutuqlarni amalga oshirishni taʼminlaydi va umumiy tartibda ijobiy taʼsir etadi. Buning uchun toʻgarak rahbari har bir havaskorni ana shu tartibda qatʼiy rioya qilishga koʻniktirib bormogʻi kerak.

Mashgʻulotni bir vaqtning oʻzida uzoq davom ettirish havaskorlar ijodiga salbiy taʼsir qiladi. Chunki toʻgarak mashgʻuloti asosan, darslardan soʻng oʻtkaziladi. Bu vaqtda oʻquvchilar bir muncha toliqib qolgan boʻladilar. Binobarin barcha harakatlar shu toliqish ruhini bartaraf etishga qaratilmogʻi lozim.

Toʻgarakning asosiy-soʻnggi mashgʻuloti (boshlanishi yoki yakunlovchi mashgʻulot) juda muhim ahamiyatga ega. Bu mashgʻulot jamoaning badiiy tayyorgarligini aniqlaydi. Uchrashuv va koʻriklarda ijro etilishi koʻzlangan eng yaxshi musiqiy asarlar aynan ana shu mashgʻulot asosida tanlanib, konsertning yaxlit dasturi belgilanadi. Shu sababli ham bu mashgʻulotda musiqa asrining ijrochiligi uchun qoʻyilgan barcha talablar xatosiz bajarilmogʻi kerak.

Shuni alohida taʼkidlab oʻtish joizki, soʻnggi tayyorgarlik, yaʼni yakunlovchi mashgʻulot imkoni boricha sahnada yoki konsert oʻtkaziladigan binoda oʻtkazilgani maʼqul. Bu holat oʻquvchilarning ruhiyatiga, muhit-joyga koʻnikishlariga hamda ijro sifatining taʼsirchan chiqishiga katta yordam beradi.

Milliy xalq cholgʻu asboblari dastasi jamoasining masʼuliyatli ishlarida yana biri tayyorlangan musiqa asarlarini konsertda namoyish etish boʻlib, bu ijrochilar uchun ham, tomoshabinlar uchun ham juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ansamblning oʻquv-ijodiy va tarbiyaviy sohada bajargan ishining sifatini aynan ana shu chiqish koʻrsatadi.

Shuni hisobga olib konsertning muvaffaqiyatli oʻtishi uchun bir qator tashkiliy masalalarni ham koʻrib chiqish kerak. Buning uchun oldindan eʼlonlar (afishalar), dastur (programma) va kiyimlar tayyorlash, sahna ishlari uchun masʼuliyatli shaxslarni tayinlab qoʻyish kerak. Konsert zalida toʻgarak aʼzolaridan navbatchilar tayinlanishini ham esdan chiqarmaslik kerak. Konsertda ijro etilgan repertuar sifatida konsertdan soʻng toʻgarak ijrochilari ishtirokida

muhokama qilinib, uning yutuq va kamchiliklari tahlil qilinmog‘i shart. Bu keyingi konsertlarda uchrashi ehtimoli bo‘lgan har xil kamchiliklarni bartaraf qilishga va navbatdagi konsertlarning yanada yaxshiroq chiqishi uchun tadbirlar belgilashga yordam beradi.

**O‘rganish uchun asarlar tanlash.** To‘g‘arak ijrochilari uchun asar tanlash ancha murakkabdir. Chunki tanlangan asar, eng avvalo, bolalar yoshi, ovozi va ijrochilik imkoniyatlariga mos kelmog‘i zarur.

Qo‘shiq va raqs uchun repertuarlarni tanlashda, uning rang-barangligiga e‘tibor berish ham juda muhimdir. Bastakorlarning bolalarga atab yozgan qo‘shiqlari hamda raqs ijrosiga mo‘ljallab yaratilgan ajoyib musiqiy asarlari, shuningdek, xalq ijodi namunalari har bir jamoa va ijrochi repertuarining o‘zagini tashkil etishi zarurdir. Bu borada tanlangan asarlarning mazmun va xarakteri ijrochilarga ham tinglovchilarga ham manzur bo‘lishini, zamon talabiga javob beradigan darajaga ega bo‘lishi kerakligini sira unutmaslik kerak. Shu nuqtai nazardan kuy, qo‘shiq hamda raqs ijrochiligi uchun repertuar tanlashda quyidagilarni nazarda tutmoqni tavsiya etamiz:

1. G‘oyaviy-badiiy va estetik yo‘nalishini e‘tiborga olib, tanlangan musiqa asarlarining mazmuniga badiiy xususiyatiga, asarning ijrochilarini hamda tinglovchisini estetik jihatdan tarbiyalab ularda go‘zallikni his qilish qobiliyatlarini o‘stira borishdagi ahamiyatiga jiddiy e‘tibor berish juda zarurdir.

2. Texnik va badiiy ijrochilikning ijrochi hamda ansambl jamoasiga mosligini nazarda tutish juda muhim. Bunda tanlangan repertuarni yakka ijrochi yoki jamoaning barcha a‘zolari tomonidan ijro etish imkoniyatlarini, ayniqsa, qo‘shiqdagi tovushlarning past yoki balandligi hamda ovozning boshqa xususiyatlarini hisobga olish, raqs ijrochiligida esa bolalarning fiziologik rivojlanishlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir.

3. Tanlangan asar ijrochilarga hamda butun jamoaning didiga mos tushishini nazarda tutish. Bu jihatdan tanlangan asarlar o‘z mazmuni va xarakteriga ko‘ra ijrochiga hamda butun jamoaga ma‘qul bo‘lishi va shunga binoan ijroning go‘zal va ifodali chiqishini ta‘minlashdan iborat.

Umuman olganda, asarlar tanlashda uning g‘oyaviy-badiiy jihatdan mazmundorligi va ijrochining ijro uslubiga mosligini e‘tiborda tutish tavsiya etiladi.



Asarlar tanlashda ijrochining g'oyaviy va estetik dunyosini har tomonlama takomillashtirishni hamda umumiy musiqaviy tushunchasini rivojlantirib borishni ham nazarda tutishning ahamiyati beqiyos. Shu nuqtai–nazardan tanlangan asarlar o'z xarakteri va mazmuniga binoan quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1. To'garak a'zolarining ijrochilik malakasini va badiiy didini takomillashtirib borish.

2. Tanlangan asarlari o'z mazmuni va xarakteri bilan ijrochilarning ma'naviy dunyoqarashiga xos xususiyatlarini tarbiyalab borishi kerak.

3. Tanlangan asar g'oyaviy-badiiy jihatdan rang-barang bo'lishi, ijrochining kuy, qo'shiq va raqsga oid musiqaviy tushunchasini, go'zallikni his qilish tuyg'usini rivojlantirishi zarurdir.

Ijodkor yoshlarni to'g'ri tarbiyalab borishda musiqa san'atining turli qirralari, jumladan, cholg'unavozlik, qo'shiq va raqs ijrochiligi mahorati muhim rol o'ynaydi. Chunki ijro etilgan har bir musiqa asari, xoh qo'shiq bo'lsin yoki raqs bo'lsin, baribir ijrochilarning badiiy didini o'stiradi va estetik tarbiyasini takomillashtiradi. Ayniqsa, ularda musiqa san'atiga qiziqishni kuchaytiradi. Bu borada qo'shiqning rang-barangligi, kuylarning nafisligi, raqslarning esa nafosatliligi alohida tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa to'garak repertuariga xalq qo'shiqlari, o'zbek xalq raqs hamda kuylarini kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi. Milliy musiqalarni, xalq kuylari namunalarini o'quvchilar tez va oson qabul qiladilar. Shuningdek, asarlar doirasiga zamonaviy yangi-yangi kuy, qo'shiq va raqslar, maqomlardan parchalar, folklor qo'shiqlari, qardosh xalqlarning eng yaxshi musiqiy asarlarini kiritish mumkin.

**To'garak rahbari va uning vazifalari.** To'garakning ijodiy yo'nalishini tashkil etuvchi, boshqaruvchi va tashviqot qiluvchi asosiy kishi uning badiiy rahbaridir. Badiiy rahbarning bilimdonligi va tashkilotchiligi jamoaning ijodiy va ma'naviy tarbiyasi sohasidagi ish sifatini hamda samaradorligini oshiradi.

To'garakning badiiy rahbari, eng avvalo, shu sohaning mutaxassisi bo'lishi, o'z ishini yaxshi tushunadigan va rivojlantira oladigan, havaskorlarga qiziqish va havas uyg'ota oladigan ijodkor va tashabbuskor pedagog bo'lishi kerak. Ana shundagina u ansambl ishini to'g'ri tashkil etib, ijod kurtaklarini ocha boshlaydi.

To‘garak faoliyatini rivojlantirishda badiiy rahbar quyidagi vazifalarni bajarib borishi tavsiya etiladi:

- havaskorlarni to‘garak faoliyatiga jalb etish;
- mashg‘ulotlarning qiziqarli va mazmunli o‘tishini ta‘minlash;
- har bir ijrochining ijodiy faoliyatini muntazam o‘stirib borishga e‘tibor bilan qarash;
- yillik va oylik ish rejasiga to‘la amal qilib, bajarilishini sabot bilan ta‘minlash;
- konsertlarni tadbirkorlik bilan tashkil etish va yuksak saviyada o‘tkazishga erishish;
- to‘garak ishtirokchilarining madaniy dam olishlariga g‘amxo‘rlik qilish va ular bilan turli uchrashuvlarni uyushtirib turish;
- boshqa jamoalar bilan tajriba almashtirish;
- yangi asarlar bilan repertuarni boyitib borish;
- kamchiliklarni o‘z vaqtida bartaraf qilish.

Mashg‘ulotlarning mazmunli o‘tishida, jamoaning ajoyib yutuqlarni qo‘lga kiritishda to‘garak rahbarining har tomonlama tayyorgarligi katta ahamiyatga egadir. Rahbarning mashg‘ulotga tayyorgarlik ko‘rishining birinchi bosqichi to‘garak ijrosi uchun mo‘ljallangan musiqiy asarning har tomonlama puxta o‘ylab tahlil qilishi va uning yaratilish tarixini yaxshi tushuntirishidan boshlanadi. Har bir guruhning bajaradigan vazifalar ko‘lami shu vaqtda aniqlanadi. Rahbarning mashg‘ulotga tayyorgarlik ko‘rishning ikkinchi bosqichida esa musiqa asarini texnik va badiiy jihatdan puxta o‘rgatishni to‘la ta‘minlashga qaratiladi.

Umuman, to‘garak rahbari har bir mashg‘ulotga puxta tayyorlanishi uchun musiqa asarlarning badiiy-tarbiyaviy xususiyatini mukammal o‘rganish, qo‘shiq va kuy ohangini so‘z va musiqiy hamohangligini, raqs xarakterini, harakat turlarini o‘quvchilarga tushuntirish yo‘llarini belgilab olishi kerak.

**Eslatma:** Ko‘pchilik ansambl rahbarlari raqs harakatlarini amaliy jihatdan o‘quvchilarga o‘rgatishda qiynalishi tabiiy. Chunki ular shu soha bo‘yicha maxsus amaliy malaka va bilimni egallamagan bo‘lishlari mumkin. U holda, imkoniyatdan kelib chiqib rahbar raqs harakatlarini nazariy jihatdan tushuntira oladigan saviyaga ega bo‘lmog‘i va shunga harakat qilmog‘i lozim.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarni har tomonlama kamolotga yetkazish jarayonida yoshlarning ma‘naviy jihatdan kamol topishlari

va estetik tarbiyasida ularga beriladigan musiqa ta'limi katta ahamiyatga ega.

To'garak rahbari mashg'ulotlarga tayyorlanar ekan, ijro etiladigan har bir musiqa asarining tarbiyaviy ahamiyatini to'g'ri belgilab olmog'i lozim. Mashg'ulot davomida asarning mazmunini tushuntirar ekan, u albatta, jamoadagi har bir qatnashchining yaxshi ijro etishiga va mustaqil fikr yurita olishiga imkon yaratmog'i darkor.

Sinfdan va maktabdan tashqari mashg'ulotlarning, jumladan, milliy ansambl ijrosi orqali olib boriladigan uchrashuv kechalari, shoir va yozuvchi, bastakor va kompozitor, taniqli musiqa ijrochilarining ko'p qirrali ijodidan keltirilgan namunalar o'quvchilar ongiga juda katta ta'sir ko'rsatadi, ularni mehnatsevarlik, xalqparvarlik g'oyalari hamda milliy iftixor ruhida tarbiyalaydi, yoshlarning tashabbuskorligini, mustaqilligi va ijodkorlik, mas'uliyatini oshiradi, bilimni boyitadi, dunyo qarashini kengaytiradi, musiqiy qobiliyatlarini o'stiradi. Shuningdek, o'quvchilarga musiqa adabiyotiga oid tushunchalarni, o'zbek va boshqa xalqlar musiqasi tarixiga doir bilimlarni o'rgatishni ta'minlaydi.

Demak har bir to'garak rahbari sinfdan tashqari ishlarni qiziqarli va mazmunli tashkil etishga alohida mas'uliyat bilan qaramog'i lozim. Bu ishlarni amalga oshirish uchun yuqori malakaga ega bo'lgan musiqa o'qituvchisi olib borishi maqsadga muvofiqdir.

## **O'RGANISHGA DOIR MUSIQA ASARLARINING TAXMINIY MAJMUASI.**

**Dastaning ijrochilik imkoniyatlari turlicha bo'lganligi sababli repertuarni 3 xil bosqichda tuzish ma'qul topildi.**

### **Birinchi bosqich**

Boshlang'ich faoliyatga ega bo'lgan dastalar uchun mo'ljallangan.

“Bahor keldi”. O'zbek xalq qo'shig'i.

“Bulbulcham”. M.Nasimov musiqasi, Q. Muhammadiy so'zi.

“Bolaligim gulbahor”. J.Najmiddinov musiqasi, O'.Rashid so'zi

“Archa qo'shig'i”. A.Muhammedov musiqasi, A.Bo'riboev so'zi.

“Yomg'ir yog'aloq”. A. Berlin musiqasi, M. Abdushukurov so'zi.

“Paxta qo'shig'i”. I.Akbarov musiqasi, P.Mo'min so'zi.

“Yangi yilim yaxshi yilim”. D.Zokirov musiqasi, P.Mo'min so'zi.

“Bibigul”. Qoraqalpoq xalq kuyi.

“Do‘loncha”. O‘zbek xalq kuyi.

### **Ikkinchi bosqich**

Ijrochilik imkoniyatlari o‘rtacha bo‘lgan dastalar uchun mo‘ljallangan.

“Uchavering turnalar” F. Nazarov musiqasi, T. Ilhomov so‘zi.

“Baxtiyorlar qo‘shig‘i” K. Kenjaev musiqasi, Sh. Dadash so‘zi.

“Orzu” G‘. Qodirov musiqasi, T. Ilhom so‘zi.

“Raqs” X. Izomov musiqasi.

“Suv quygandim gulimga” S. Zunnunova so‘zi, G‘. Qodirov musiqasi.

“Shodlik” F. Nazarov musiqasi, P. Mo‘min so‘zi.

“Vatanim” F. Nazarov musiqasi, O. Rashid so‘zi.

“Ona yurt qo‘shig‘i” G‘. Qodirov musiqasi, P. Mo‘min so‘zi.

“Kuylang bolalar” Ye. Shvars musiqasi, Q. Muhammadiy so‘zi.

“Hakkalar” N. Norxo‘jaev musiqasi, N. Orifjonov so‘zi

“Aman, amen” Turkman xalq qo‘shig‘i

“Asl oilaman” O‘zbek xalq kuyi

“Nizomgul” Xorazm xalq kuyi

“Olma atirjon” O‘zbek xalq kuyi

### **Uchinchi bosqich**

Ijrochilik imkoniyatlari rivojlangan dastalar uchun mo‘ljallangan.

“G‘unchalar” I. Hamroev musiqasi, Yo. Mirzo so‘zi

“Mirzo davlat” O‘zbek xalq kuyi

“Sevimli diyor” X. Izomov musiqasi

“Terimchilar qo‘shig‘i” S. Yudakov musiqasi, G‘. G‘ulom so‘zi

“O‘zbekistonim” Sh. Ramazonov musiqasi, F. Shousmonov so‘zi

“Muallim” Sh. Yormatov musiqasi, Sh. Sattor so‘zi

“Gullar manim kulganim” N. Norxo‘jaev musiqasi, P. Mo‘min so‘zi

“Gul tutaman, onajon”. Ye. Shvars musiqasi. X. Qayumov so‘zi.

“Yaxshi bola”. N. Norxo‘jaev musiqasi, P. Mo‘min so‘zi

“Guldek yashnar bolalar”. Sh. Yormatov musiqasi, I. Muslim so‘zi.

“Qarinavo” o‘zbek xalq kuyi.

“Jonon” M. Mirzaev musiqasi

“Yetti qiz” A. Muxamedov musiqasi, P. Mo‘min so‘zi

“Gulrux” M. Mirzaev musiqasi

“Ufor” O‘zbek xalq kuyi

“Usmoniya” O‘zbek xalq kuyi






“Gulbahor” O‘zbek xalq kuyi

- “Olmani otdim” O‘zbek xalq kuyi
- “Qashqarcha” O‘zbek xalq kuyi
- “Ganji qorabog‘” O‘zbek xalq kuyi
- “Qaylarga boray” O‘zbek xalq kuyi.


### **Havaskorlik rubobchilar ansambli to‘garagini tashkil etish**

Qashqar rubobi professional musiqa jamoalari va badiiy havaskorlik to‘garagida keng tarqalgan cholg‘u asbobidir. Qashqar rubobida chalishni o‘rganish qiyin emas, notaga qarab chalishni o‘rganib olgach, musiqani tinglab tushunadigan bo‘lish, turli xalqlarning qo‘shiqlari bilan tanishish mumkin. Hozir respublikamizdagi hamma musiqa maktablarida, musiqa va san‘at kollejlarda, OTM ning musiqa ta‘limi kafedralarida, madaniyat va san‘at institutlarida, konservatoriyaning o‘zbek xalq cholg‘u asboblari fakultetida hamda badiiy havaskorlik to‘garaklarida o‘zbek xalq cholg‘u asboblarida chalishni o‘rgatish darslari olib borilmoqda. Qashqar rubobini o‘rganishdan musiqa savodi haqida ma‘lumot beriladi.


### **Musiqa savodi haqida ma‘lumot**

Musiqa tovushlari nota deb ataladigan maxsus belgilar yordami bilan yoziladi. Nota belgilari o‘rtasi bo‘sh  yoki bo‘yalgan  doirachalardan iborat bo‘ladi. Tovushlarning xilma-xil cho‘zimini ko‘rsatish uchun bu doirachalarga vertikal tayoqchalar  yoki  dumchalar  qo‘shib yoziladi.

Tovushlarning balandligini aniqlash uchun notalar beshta parallel chiziqdan iborat nota yo‘liga yoziladi. Chiziqlar pastdan yuqoriga qarab sanaladi. Nota yo‘lining boshlang‘ich qismida beshta chiziqni birlashtiruvchi vertikal chiziq qo‘yiladi. (Misol № 1)




Notalar nota yo‘liga undagi chiziqlar ustiga, chiziqlar oralig‘iga hamda beshta parallel chiziqning ustiga yoziladi. (Misol № 2)



Nota yo‘lidagi asosiy chiziqlardan tashqari qo‘shimcha chiziqlar ham

ishlatiladi. Beshta parallel chiziqning yuqorisida joylashgan qo‘shimcha chiziqlar birinchi chiziqdan boshlab yuqoriga tomojn, beshta chiziqning pastiga joylashgan qo‘shimcha chiziqlar birinchi chiziqdan boshlab pastga tomon sanaladi.

(Misol № 3)




3.

Musiqa yozuvida quyidagi: do, re, mi, fa, sol, lya, si nomli notalar qo‘llaniladi.

Rubobda ijro etiladigan notalar sol kalitida yoziladi. Tovushlarning ma‘lum bir balandligi nota yo‘lidagi chiziqlar ustiga va oralig‘iga qo‘yiladigan maxsus belgi bilan ifodalanadi. Bunga kalit belgisi deyiladi.

Kalit belgisi nota yo‘lining boshida asosiy chiziqlarning biriga qo‘yiladi va u nota yo‘lidagi biron bir chiziq markazini kesib o‘tgan bo‘ladi. Kalit belgisi biron ta chiziqda turgan notaning ma‘lum balandlikdagi tovush ekanligini (nomini) belgilaydi. Nota yo‘lidagi qolgan tovushlar balandligi mana shu asosiy notaga moslanadi.

Kalitlar xilma-xil bo‘ladi, ular orasida eng ko‘p qo‘llaniladigan skripka kalitidir. Skripka(sol) kaliti ikkinchi chiziq ustiga joylashgan bo‘lib, birinchi oktavaning sol tovushi balandligini ifodalaydi. (Misol № 4)




4.

Bu kalit orqali boshqa notalarning o‘rnini aniqlash mumkin. (Misol № 5)




Musiqa tovushlari o‘zining baland-pastligiga ko‘ra oktavalarga bo‘linadi. Bir xil nomdagi tovushlar oralig‘idagi eng yaqin masofaga

oktava deyiladi. Sol kalitida rubob uchun yoziladigan notalarning oktavalariga bo‘linishi quyidagicha: (Misol № 6)



Yuqorida ko‘rsatilgan notalar rubobda ijro etilganda yozilishidan bir oktava past eshitiladi, chunki rubob transponirovka<sup>1</sup> etilgan asboblarga kiradi.

Notalar turli xil cho‘zimdan iborat bo‘lib, ular bir- biridan shakliga ko‘ra farq qiladi:



## ALTERATSIYA BELGILARI<sup>2</sup>

Nota yozuvida tovushlarni yuqori yoki pastga o‘zgartiruvchi belgilar aliteratsiya belgilari deyiladi.

Ular quyidagilar:

# — diez — tovushni yarim ton ko‘taradi (rubobda ikki parda orasidagi tovush yarim ton hisoblanadi).

♭ — bemol — tovushni yarim ton pasaytiradi.

× — dubl diez — tovushni bir ton ko‘taradi.

♭♭ — dubl bemol — tovushni bir ton pasaytiradi.

♮ — bekar — ko‘tarilgan va pasaytirilgan tovushlarni avvalgi holiga qaytaradi.

<sup>1</sup> Ижро қилган пайтда товушлари нота ёзувидагига нисбатан паст ёки баланд эшитиладиган чолғу асбоб–транспонировка қилувчи асбоб дейлади.

<sup>2</sup> Альтерация – лотнча сўз бўлиб, ўзгариш демакдир

Yuqorida aytib o‘tilgan musiqa asboblari bilan tanishtirilgandan so‘ng, orkestr rahbari joylarda tuzilgan orkesr yoki ansambllar to‘g‘risida gapirib berishi, shu kollektivlar ijrosida magnitofonga yoki plastinkaga yozib olingan musiqa asarlaridan eshittirishi to‘garak qatnashuvchilarini ancha qiziqtiradi. Bundan tashqari, mamlakatimizdagi mashhur rubobchi sozandalar M. Mirzaev, S. Taxalov, A. Boboxonovlarning ish faoliyati to‘g‘risida, ular ham oldin to‘garakka qatnashib, keyin musiqa sohasida o‘qishlarini davom ettirganliklari gapirib berilsa, bu har bir qatnashuvchida qiziqish uyg‘otadi.

Madaniyat uylarida orkestr yoki ansambllar ishini tashkil etib, ularning ish faoliyatini yaxshilash va uning samaradorliini oshirishga alohida e‘tibor berish lozim. Bunda madaniyat uylari rahbarining jonkuyarligi, musiqa o‘qituvchisining tashabbuskorligi va fidoiyligi muhim ahamiyatga ega. Chunki orkestr va ansamblni tuzish, ishini rejalashtirish musiqa o‘qituvchisi tashabbusiga bog‘liq bo‘lsa-da, imkoniyatlar madaniyat uylari ma‘muriyati tomonidan yaratiladi, shundagina tashabbus reallikga aylanishi mumkin.

Madaniyat uylarida tashkil etiladigan orkestr va ansamblning muvafaqqiyatli ishlashida ularning muayyan maqsadni ko‘zlab, muntazam reja asosida mashg‘ulot o‘tkazishlari shartdir. Ikkinchidan, ularning ish tartibini to‘g‘ri uyushtirish lozim.

Uchinchidan, orkestr repertuari uchun tanlanadigan musiqa asarlari o‘z mazmuni jihatidan o‘quvchilarga tushinarli bo‘lishiga erishmoq kerak. Buning uchun musiqa rahbari havaskor-ijrochilarni musiqaga qiziqtirishi, orkestrni har bir konsertda yoki ko‘rikda muvafaqqiyatli chiqishi uchun repertuarni xilma-xil xarakterdagi musiqa asarlari bilan muttasil boyitib borish shart.

Shunisi muhimki, tanlangan asarlar orkestr ishtirokchilarini Vatanga, va xalqiga muhabbat, vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydigan bo‘lishi kerak. Har bir asar mazmuni, musiqiyliigi va xarakterining xilma-xilligi bilan o‘quvchilarni o‘ziga jalb etadigan jozibigi ega bo‘lmog‘i lozim.

Orkestr mashg‘ulotlari har haftada ikki marta 2,5 yoki 3 soatdan muntazam ravishda olib borilishi zarur. Mashg‘ulot uchun alohida yorug‘, estetik jihatdan did bilan bezatilgan xona ajratilmog‘i va mashg‘ulot kunlari va soatlari aniq ko‘rsatilmog‘i lozim.



Musiqaxbari mashg'ulotning birinchi kunlaridan e'tiborat xar bir orkestr qatnashchisining o'rnini ko'rsati, ularga cholg'u asboblari ushlar qoidalarini va orkestrning tuzilish tartibini o'rgatishi kerak. Chunki xar bir ijrochi o'z joyini yaxshi bilishi va atrofda cholg'u asboblari tovushiga moslanishi zarur. Cholg'u asboblari sozlarining baland – pastligiga qarab joylashtirishi orkestr yoki ansambl sadosi uchun katta ahamiyatga ega.

Mashg'ulotning dastlabki kunlaridan boshlab musiqaxbari orkestr a'zolariga uncha murakkab bo'lmagan, ya'ni nimchorak notalarida yozilgan musiqaxbarlarini o'rgatishi kerak, chunki bunday notalarni rubobda ijro etish ancha oson. Ijrochilarning chalish texnikasini rivojlantirishi, tovush chiqarish usullarini yaxshi o'zlashtirishi, asarlarni bir me'yorda chalishi uchun ularga musiqaxbari ustida ishlashdan oldin har xil templardagi mashqlar, gammalar chaldirib turish lozim. Orkestrda o'rgatiladigan asarlar sekin temp bilan, gruppalariga bo'lingan holda ijro etilishi kerak, chunki har bir o'quvchi asarni yaxshi o'zlashtirib, to'g'ri chalmaguncha, ularni birlashtirib ijro etish qiyin. Ba'zi havaskorlar orkestrda ijro etiladigan asarlarni tez tushinib, o'zlashtirib oladilar, bundaylarni yaxshi o'zlashtirmaydigan havaskorlarga berkitib qo'yilsa, orkestr bilan ishlash samaradorligi yanada oshadi.

Musiqaxbari (dirijor) kuyni gruppalar to'liq o'rganib olganlaridan keyin orkestr ishtirokchilariga asarning tempi, xarakteri, ijrochilik usullari haqida so'zlab, orkestrning umumiy repetitsiyasini tashkil qiladi. Bunda har bir sozandaning asarni yuqorida aytilgan detallar bo'yicha tushinishga erishmoq lozim, aks holda ko'zlangan maqsadga yetib bo'lmaydi.

Orkestrda ishlashning yanada samaradorligini oshirish uchun orkestrga havaskorlardan talantlirog'ini boshliq (konsertmeyster) saylab qo'yish, har mashg'ulot uchun navbatchi tayinlash va mashg'ulotga qatnashuvchilarning hisobini olib borish kabi ishlar yaxshi natija beradi. Musiqaxbari orkestrda o'z-o'zini boshqarish prinsipini yo'lga qo'yishi, aktiv ishtirok etib, yaxshi o'zlashtiruvchilarni doimo rag'batlantirib turishi foydalidir. Agarda orkestr ijrochilarining ayrimlarida musiqaxbari bilim yurti yoki pedagogika institutlarining musiqaxbari-pedagogika fakul'tetiga hamda madaniyat institutlariga kirish ishtiyoqi tug'ilsa, ularga alohida e'tibor berish, yo'l-yo'riqlar ko'rsatish, kerakli adabiyotlarni tavsiya etish, ularda

ijrochi-musiqachi yoki musiqa o'qituvchisi bo'lish to'g'risida tushunchalar hosil qilishga erishish lozim.

Orkestr ishining eng qiziqarli va mas'uliyatli bosqichi orkestrlar tomonidan tayyorlangan musiqa asarlarini konsertda namoyish etish bo'lib, bu ijrochilar uchun ham, tomoshabinlar uchun ham juda katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Agar orkestr a'zolarida ijodiy ishga mehr-muhabbat bo'lsa, aniqrog'i, har bir ijrochi hamma qatnashuvchilar uchun qayg'ursab g'avaskorlar mashg'ulot davomida tayyorlagan konsert nomerlarini zo'r ko'tarinki ruh bilan namoyish qiladilar. Tayyorlangan konsert nomerlarini namoyish etishni tashkil qilishga alohida etibor berish lozim. Buning uchun oldindan elonlar (afishalar), programmalar va kiyimlar tayyorlash, sahna ishlari uchun mas'uliyatli shaxslarni tayinlab qo'yish kerak. Orkestr a'zolaridn konsert zalida navbatchi qo'yish kerak. Konsertda ijro etilgan nomerlar sifat va saviyasi konsertdan so'ng orkestr ijrochilari bilan birgalikda muhokama qilinib, uning yutuq va kamchiliklari tahlil qilinmog'i lozim. Bu keyingi konsertlarda uchrash ehtimoli bo'lgan kamchiliklarni bartaraf qilishga va yanada yaxshiroq chiqish tadbirlarini belgilashga yordam beradi.

Orkestr a'zolarining musiqiy bilim va malakalarini kengaytirish uchun musiqa savodiga oid materiallar bilan birga chet el va rus hamda o'zbek kompozitorlari ijodlariga oid suhbatlar o'tkazib turish, shuningdek, hozirgi san'atimiz ravnaqi, uning olamshumul tarixiy ahamiyati haqida ma'lumotlar berib borish zarur. Bundan tashqari, musiqa maktablarida va bilim yurtlarida tuzilgan orkestrlarni borib ko'rish, ular ijrosida musiqa asarlarini eshitish kabi tadbirlarni uyushtirish ham katta natija beradi.

Musiqa rahbarining orkestr uchun tuzgan ish plani klub mudirining ish plani bilan bog'langan holda bo'lishi, unda klubda qilinadigan ishlar, hamma bayramlarga bag'ishlangan kechalar, taniqli musiqashunos va kompozitorlar bilan uchrashuvlar, respublika va butun respublika miqiyosida nishonlanadigan tarixiy sanalar, sanat bayramlari va musobaqalar hisobga olinishi kerak.

Rejaning mazmuni, asosan, ish sharoitiga, orkestr a'zolarining yosh xususiyatlariga muvofiq bo'lishi lozim. Orkestr ish rejasini tuzishda quyidagilarni hisobga olish zarur:

- Orkestr repertuarini tuzish uchun musiqa asarlari tanlash va shu asarlar ustida mashg'ulotlar o'tkazish ;

- Tanlangan asarlarni ijro etishda orkestrning umumiy soziga e'tibor berish ;

- Musiqa asarlarining mazmunli chiqishi uchun undagi dinamik belgilarga e'tibor berib, tanlagan asarlarni tayyorlab, konsertlarda namoyish qilish yoki konkurslarda qatnashish va qilingan ishlarni muhokama qilish;

- Orkestr a'zolarining umumiy madaniyat oshirish, fikr doiralarini kengaytirish uchun har xil mavzularda suhbatlar o'tkazish;

- Orkestr a'zolarining ota-onalarining ota-onlari bilan aloqada bo'lish va hokazolar.

Musiqa rahbari orkestr mashg'ulot o'tkazadigan xonada cholg'u asboblari, nota yo'llari chizilgan doska, nota qo'yib chalish pulti, har xil ko'rgazmali qurollar, magnitofon, plastinka va proigrivatellarni ham muhayyo qilishi shart.

Yuqorida bayon qilingan fikrlardan shu ma'lum bo'ldiki, yosh avlodni har tomonlama kamolotga yetkazish protsessida, o'quvchilarning ma'naviy jihatdan kamol topishlari va estetik tarbiyasida ularga beriladigan musiqa bilimlari katta ahamiyatga ega.

Bu murakkab ishlarni hal etishda har bir musiqa o'qituvchisidan yetarli musiqiy qobiliyat va yuksak pedagogik mahorat talab etadi.

Musiqa rahbari har bir mashg'ulotga tayyorlanar ekan, o'rgatishi kerak bo'lgan musiqa asarining tarbiyaviy maqsadlarini va vazifalarini aniq belgilab olmog'i zarur. Mashg'ulot davomida asarning mazmunini tushuntirar ekan, u, albatta, ishtirokchilarning yaxshi ishtirok etishlariga va mustaqil fikr yuritishlariga imkoniyat yaratishi kerak.

Mashg'ulot davomida o'rgatilayotgan asarlar, olib borilayotgan suhbatlar ishtirokchilarning yoshlariga, bilim va saviyalariga mos bo'lishi, axloqiy-estetik tushunchalarni o'zlashtirib olishlariga yordam berishi lozim.

Musiqa rahbari mashg'ulot davomida o'rgatilayotgan asarning mazmuniga bog'liq holda orkestrlarning shaxsiy hayotidan jonli misollar keltirish orqali mashg'ulot saviyasini ko'tarishi va asarning g'oyaviy tomonlarini alohida qayd qilib o'rganishi lozim.

Shuning uchun hozirgi kundagi asosiy vazifa o‘zbek xalq cholg‘u asboblari rubobchilar ansambli yoki orkestri tuzish uchun har tomonlama kamolotga yetgan yuqori malakali musiqa o‘qituvchilarini tayyorlashdan iboratdir.

### **Havaskor rubobchilar ansambli yoki orkestri repertuariga ilova:**

- “Do‘loncha”, A.Liviev qayta ishlagan o‘zbek xalq kuyi.
- “Yallama-yorim”, F.Vasilev qayta ishlagan o‘zbek xalq kuyi.
- A.Petrosyans instrumentovkasi.
- “Mirzadavlat”, A.Liviev qayta ishlagan o‘zbek xalq kuyi.
- “Qarinavo ”,R.Glier qayta ishlagan o‘zbek xalq kuyi.
- A.Liviev instrumentovkasi.
- “Baxor keldi”,S.Habibulin qayta ishlagan o‘zbek xalq kuyi.
- “Qo‘shiq va raqs”, A.Liviev musiqasi va instrumentovkasi.
- “Maktabim”,F.Nazarov musiqasi,A.Yurgaev instrumentovkasi.
- “Lenin bobomlar-mening bobomlar”, A.Muxammedov musiqasi, F.Jo‘raev instrumentovkasi.
- “Buxorocho raqs”, A.Petrosyans qayta ishlagan o‘zbek xalq kuyi.
- “Hoy ishchilar”,H,H,Niyoziy musaqisi, F.Jo‘raev instrumentovkasi.
- “Andijon polkasi”,A.Tarlev qayta ishlagan o‘zbek xalq kuyi.
- “Sharq kuyi” A.Liviev musiqasi va instrumentovkasi.
- “Bibigul”,G.Sobitov qayta ishlagan qoraqalpoq xalq kushig‘i.
- “Vo pole beryoza stoyala”, A.Petrosyans instrumentovkasi,rus xalq qo‘shig‘i.
- “Reve ta stogne Dnepr shirokiy”, ukrain xalq kuyi. A.Petrosyans instrumentovkasi.
- “Nichto v polyushke ne sheloxnetsya”, A.Liviev instrumentovkasi, rus xalq qo‘shig‘i.

### **Havaskorlik xor to‘garagi**

Xor shunday bir san’atki, unda adabiy va musiqiy ijodiyot bir–biri bilan uyg‘unlashib, yaxlit badiiy obraz yaratiladi. Bu san’at doimo xalq qo‘shiqchilik ijodiyoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, o‘zbek va boshqa qardosh xalqlar milliy musiqa madaniyatining shakllanish va rivojlanishida ham muhim rol o‘ynab kelgan xor to‘garagi musiqa san’atining ommabop turi sifatida xalqimizning ma’naviyatini, madaniyatini o‘stirishda katta hissa qo‘shib kelmoqda. Bu san’at turi

o'zining katta tarbiyaviy ahamiyatiga ega, chunki havaskorlik xorining ijodiy faoliyati tarbiyaviy jarayonlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Xor to'garagining asosiy qonuniyati – o'quvchilarning ixtiyoriy ravishda qatnashishidir. Bu ixtiyoriylik har bir o'quvchi zimmasiga ma'naviy mas'uliyat yuklaydi. Havaskorlik xor to'garagiga o'quvchilar faqat o'qishdan keyin bo'sh vaqtlaridagina ishtirok etadilar. To'garakning asosiy vazifasi o'quvchilarni g'oyaviy – estetik tarbiyalash, ularning musiqiy qobiliyatini rivojlantirish, xorda kuylash malakalarini to'g'ri yo'lga qo'yish, ijro etilishi kerak bo'lgan musiqa asarlarining sur'ati (tempi), harakat turlari (dinamikasi), tovush turlari (tembrlari)ning moslashgan hamohangligiga ya'ni ansambliga erishishdir. Shuningdek, vokal – xor malakalarini vujudga keltirish, jumladan, nafasni to'g'ri olish va chiqarish, ovoz hosil qilish, so'zlar talaffuzi (diksiya) ni to'g'ri aytish, kuylash holatiga rioya qilish hamda o'quvchilarni o'z ovozigacha ehtiyot bo'lishiga o'rgatish. Albatta, yuqorida aytilgan bu vazifalarni amalga oshirish ancha murakkab. Buning uchun birinchi navbatda xor to'garagining rahbaridan bilimdonlikni, qat'iyatlikni, o'z-o'ziga talabchanlikni, ijodiy izlanuvchanlikni va sitqi – dildan ish olib borishi talab qilinadi. Chunki u bilimdan mutaxassis bo'lish bilan birga, mahoratli pedagog – tarbiyachi hamdir. Uning jonkuyarlik bilan to'garakda psixologik va ijodiy muhitni to'g'ri tashkil qilishi–ish jarayonining samaradorligiga olib keladi. Shuningdek, uning asosiy vazifalaridan yana biri – o'quvchilarda yaxshi musiqiy did va ijodiy qiziqishni shakllantirish, ijrochilik mahoratiga ega bo'lgan xor to'garagini tuzish, to'garakda o'quv–tarbiyaviy ishlarni olib borish hamda konsert dasturlarini tayyorlash va uni ommaga namoyish qilish va boshqalar.

**Xor to'garagini tashkil etish.** Umumta'lim maktablarida xor to'garagini tashkil etish uchun, eng avvalo, maktab ma'muriyati ya'ni maktab direktori va uning ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari bilan maslahatlashib kelishib olinadi, kerakli imkoniyatlar yaratiladi, xona ajratiladi. Shundan so'ng e'lon orqali xor to'garagiga o'quvchilar qabul qilinadi. Qabul qilingan o'quvchilar bilan suhbat o'tkazilib, ularga xor san'atining qisqacha tarixi, xor to'garagining ahamiyati va kelajakdagi rejalari haqida o'quvchilarga qiziqarli qilib gapirib beriladi.

To‘garak mashg‘uloti o‘tiladigan xona esa estetik did bilan jihozlangan bo‘lib, unda royal yoki pianino, nota chiziqlari chizilgan doska, yetarlicha stol va stullar, xona devorlarida musiqaga oid tasviriy sur‘atlar, bastakor va kompazitorlarning rasmlari tartib bilan osig‘liq bo‘lishi kerak.

Xor to‘garagiga qabul qilingan o‘quvchilar ovozi dastlabki dars davomida birma-bir eshitilib ko‘riladi va ularning musiqaviy qobiliyati aniqlanib o‘rganish uchun xor asarlari tanlanadi.

Xor to‘garagidagi o‘quvchilar yoshiga qarab bir necha guruhga bo‘linadi va ular uchun alohida xor asarlari tanlanadi, ya‘ni kichik guruhlar uchun osonroq katta guruhlar uchun esa murakkabroq asarlar tinglanib o‘rgatilib boriladi.

Asarlarni o‘rgatishdan oldin 10-15-minut o‘quvchilarning ovoz yo‘llarini qizitish, eshitish qobiliyatini tiklash, ular ovozini to‘g‘ri rivojlantirish uchun har xil mashqlar, gammalar, arpedjiolar, tanish qo‘shiqlardan parchalar kuylatish maqsadga muvofiqdir. Bu ish har bir mashg‘ulot kuni bajariladi. Shuningdek, kuylash jarayonida tovush talaffuzlariga e‘tibor berish qoidalarini ham esdan chiqarmaslik kerak. Shu bilan bir qatorda yangi musiqa asarini o‘rgatish jarayonida musiqa savodiga oid ma‘lumotlar, jumladan, notalar va ularning bo‘linishi, nota chiziqlari, ularda notalarning joylashish tartibi, nomi, kalit belgilari va ularning vazifalari, alteratsiya belgilari, pauzalar, o‘lchovlar kabi bilimlar muntazam ravishda o‘rgatilib boriladi. Bundan musiqa adabiyotiga oid bilimlar berib borish ham mustasno emas.

Mashg‘ulot davomida to‘garak a‘zolarining turib yoki o‘tirib qo‘shiqni kuylaganda gavdani to‘g‘ri tutishlari, yelkalarini erkin, oyoqlarini esa yerga mustahkam bosib turishlari ovozni to‘g‘ri chiqarishda hamda xor asarining mukammal ijrosi uchun zamin yaratiladi.

To‘garak a‘zolariga xor asarlarini o‘rgatish uchun tanlanadigan mashqlarni to‘garak rahbarining o‘zi tuzishi mumkin yoki tadrijiy qo‘llanmalarda berilgan mashqlardan hamda xor uchun yozilgan asarlardan parchalar olib foydalanishi ham mumkin. Tayyorgarlik ishlaridan so‘ng qo‘shiqlar o‘rgatishga kirishiladi. To‘garak rahbari o‘rgatilayotgan har bir asar to‘g‘risida batafsil ma‘lumot bermog‘i kerak. Jumladan, asarning mualliflari, mazmuni, ritmik tuzilishi, tempi (sur‘ati), tarbiyaviy va ta‘limiy tomonlari to‘grisida o‘z

fikrlarini sodda, ravon, bolalar tushunadigan soʻzlar bilan tushuntirmogʻi kerak, chunki oʻquvchilarga birinchi mashgʻulotdayoq asarning yoqib tushishi, ularning tez oʻrganishlarini osonlashtiradi va ish samaradorligini oshiradi. Qoʻshiq oʻquvchilarga har tomonlama tushuntirilgandan soʻng qoʻshiqning soʻzlari va ohangi oʻquvchilarga kichik guruhlariga boʻlingan holda oʻrgatila boshlanadi. Agar qoʻshiq ikki ovozli boʻlsa har bir ovozi alohida–alohida guruhlariga boʻlingan holda oʻrgatiladi. Guruhlarda oʻrgatilgan ovozlar partiyasi ikkinchi guruh bilan almashtiriladi. Shu tariqa asar mukammal oʻrganilib, guruhlar birgalikda ijro etilganlarida ovozlar sof ansamblga erishadilar.

**Toʻgarakda tarbiyaviy ishlar.** Toʻgarakning asosiy vazifalaridan biri oʻquvchilarning badiiy didini orttirish, gʻoyaviy-siyosiy ongini oʻstirish, ularni zamonamizning ilgʻor madaniyatli kishilari qilib voyaga yetkazish hamda ona–Vatanni sevadigan vatanparvar qilib tarbiyalashdan iborat.

Toʻgarakda olib boriladigan tarbiyaviy ishlar oʻquvchilarni madaniy, axloqiy va maʼnaviy jihatdan boyitadi va kamol topishi uchun zamin tayyorlaydi. Toʻgarakda olib boriladigan barcha faoliyatlar chunonchi, gʻoyaviy- siyosiy ishlar, badiiy estetik tarbiya bilan birgalikda amalga oshiriladi. Tarbiyaviy ishlar maktabning kundalik madaniy-ijtimoiy hayoti bilan chambarchas bogʻlangan holda olib borilishi kerak. Xor toʻgaragi ishtirokchilarini har tomonlama tarbiyalashda maktabda oʻtkaziladigan qiziqarli suhbatlar, uchrashuvlar, oʻquvchilar hayotiga bagʻishlangan kechalar toʻgarakning tarbiyaviy ishlari rejasidan kelib chiqib oʻtkaziladi va ular oʻquvchilar xotirasida doimiy saqlanib qoladi.

**Toʻgarakda oʻquv – tarbiya ishlari.** Har bir musiqiy asarning mazmuni insonni axloqiy tarbiyalash vositasiga ega, chunki har bir qoʻshiq (asar) oʻz gʻoyasiga ega. Qoʻshiq soʻzini oʻrganishda oʻquvchilar ana shu gʻoyani ochib beradilar.

Oʻquv – tarbiya ishlari oʻquvchilarda vokal – xor hamda ijrochilik malakalarini shakllantiradi, nazariy bilimlarini rivojlantiradi. Buning uchun toʻgarak rahbari oʻquv – tarbiya ishlariga jiddiy eʼtibor berib, turli xil mavzularda kechalar, suhbatlar, uchrashuvlar, maʼruzalar, musiqa asarlarni tinglash uchun suhbatli konsertlar oʻtkazib turishi, hamda teatr va muzeylarda jamoa boʻlib borishi kerakligini eʼtibordan chetga qoldirmasligi kerak. Shuningdek, sanʼat ustalari, xalq artistlari,

atoqli davlat arboblari, zamonamiz qahramonlari hamda badiiy havaskorlik jamoalari bilan ijodiy uchrashuvlar o'tkazib turish to'garak a'zolarini har tomonlama bilim saviyasini oshiradi va ularni ijodiy barkamollik sari yetaklaydi.

To'garak xorida o'quvchilarga musiqa savodi, solfedjio, musiqa tarixi bo'yicha bilim berish bilan birga ularda vokal – xor malakalarini hosil qilish kabi ta'limiy va tarbiyaviy ishlar ham olib boriladi. Musiqa tarbiyasining ajralmas qismi bo'lgan musiqa savodi esa to'garak ishtirokchilarining yuksak ijrochilik mahoratiga erishish uchun zarur bo'lgan omillardan biri hisoblanadi.

Musiqa savodiga oid bilimlar xorda doimiy ravishda olib borilsa, xor ishtirokchilari asta – sekin notaga qarab qo'shiqni kuylashni o'rganadilar. Shu yo'l bilan ish jarayonida musiqa savodining boshqa elementlari ham o'rgatilib boriladi. Demak, shuni ta'kidlab o'tish kerakki, ko'zlangan ijobiy natijalarga erishish uchun o'quv – tarbiya ishlari reja asosida olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

**To'garak xori uchun musiqa asarlarining taxminiy majmuasi.**

“Mash'al o'lkam” U. Yusupov she'ri, J. Najmiddinov musiqasi

“Vatan kutar” I. Muslim she'ri, G'. Qodirov musiqasi.

“Xush keldingiz” (To'yona nomli simfonik poemadan) H. G'ulom she'ri, S. Boboev musiqasi.

“Dadamlarga o'xshasam” P. Mo'min she'ri, Sh. Yormatov musiqasi.

“Qor yog'ar” B. Isroilov she'ri, Sh. Yormatov musiqasi.

“Buvijonim kelyapti” T. Ilhomov she'ri, S. Abramova musiqasi.

“Yaxshi bola” P. Mo'min she'ri, N. Norxo'jaev musiqasi.



## “MUSIQA O’QITISH TEXNOLOGIYALARI VA LOYIHALASH” FANIDAN TEST SAVOLLARI

<p><b>“Dasturlangan o`qitish”ning asoschisi kim?</b>          *B.Skinner          Blum          Martin Buben          D.Klaster</p> <p><b>“Maqsad-mazmun-metodlar-shakllar o`qitish vositalari” tizimidagi rolni aniqlovchidir degan ibora qaysi pedagog olimning qalamiga mansub?</b>          *Podlasiy          Makaren’ko          Djon Raven          Dj.D’yui</p> <p><b>“Pragmatizm falsafasi” versiyasi qaysi pedagog olimga ta`alluqli?</b>          *Dj. D’yui          Podlasiy          Djon Raven          Makaren’ko</p> <p><b>“Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot: yo najot yo halakot: yo saodat yo falokat yo saodat masalasidir” Ushbu fikr qaysi mutafakkir qalamiga mansub?</b>          *A.Avloniy qalamiga          A.Navoiy qalamiga          Z.M.Bobur qalamiga          M.Ulufbek qalamiga</p> <p><b>“Ta`lim to`g`risida”gi yangi Qonun qachon qabul qilingan?</b>          *1997 yil</p>	<p>1992 yil          1994 yil          1996 yil</p> <p><b>«Dasturli o`qitish» rejasiga asos solgan olim?</b>          *B.Skinner          B.Blum          N.Kratval          L.Brig</p> <p><b>«Innavatsion texnologiyalar» tushunchasi qanday ma`noni anglatadi?</b>          *YAngicha usullar          Zamonaviy usullar          Ilg`or tajribalar          Noan`anaviy usullar</p> <p><b>«Insert» usulida o`qish</b>          *Belgi qo`yib o`qish          Turkumlab o`qish          Bob, bo`limlarga bo`lib o`qish          Bosh g`oyani topib o`qish</p> <p><b>«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»(1997) nechta bo`limdan iborat?</b>          *5 bo`lim          4 bo`lim          6 bo`lim          7 bo`lim</p> <p><b>«Klaster» usulining mazmuni</b>          *Tushunchalarni kengaytirish          Tushunchalarni toraytirish          Tushunchalarni izoxlash          Tushunchalarni ifodalash</p>
--	--

**«Pedagogik texnologiya tamoyillari» deganda nimani tushunasiz?**

\*Me`yorlari, qoidalari, talablari  
O`quv maqsadlarini amalga oshirilishi

Shakli, tartibi, qoidasi

Maqsadi, vazifalari, qonuniyatlari

**«Pedagogik texnologiya» tushunchasi fanga birinchi bor kim tomonidan kiritilgan?**

\*D.Finn

B.Blum

B.Skinner

N.Kratval

**«Ta`lim to`g`risida» gi qonun qachon qabul qilingan?**

\*1997 yil 9 sessiyada

1997 yil 11 sessiyada

1996 yil 11 sessiyada

1997 yil 8 sessiyada

**«Ta`lim to`g`risidagi Qonun» (1997) necha bo`lim va moddadan iborat?**

\*7 bo`lim, 40 moddadan

4 bo`lim, 32 moddadan

6 bo`lim, 36 moddadan

5 bulim, 32 moddadan

**«Ta`lim to`g`risidagi qonun» (1997)ning nechanchi bo`limida**

**«Ta`lim turlari» ifodalangan?**

\*2-bo`lim

3-bo`lim

4-bo`lim

5-bo`lim

**«Texnologiya» tushunchasi qaysi tildan olingan va qanday ma`noni bildiradi?**

\*Grekcha, mahorat usullari

Yunoncha, malaka sirlari

Grekcha, ko`nikma shakllari

Yunoncha, ijodkorlik usullari

**«Texnologiya» tushunchasining lug`aviy ma`nosi**

\*San`at yo`nalishi

Madaniyat yo`nalishi

Teatr yo`nalishi

Maorif sohasi

**A.Maslouning ehtiyojlar piramidasi o`z ichiga qanday extiyojlarni oladi?**

\*Fiziologik, havfsizlik, muloqot

Fiziologik ma`naviy iqtisodiy

Hurmat ma`naviy iqtisodiy

Oilaviy ma`naviy filizologik shaxsiy

**Aqliy hujumni vazifasi nima?**

\*Kichik guruhlar yordamida yangi g`oyalarni yaratish

G`oyani tekshirish

Aqliy hujum algoritmini tuzish

Yondashuvlarni muhokama qilish

**Amaliy aspektda Lokal (moduli) texnologiyalar nimani ifoda etadi?**

\*Maxsus bo`limlariga tex. tadbiq qilishni

Fan bo`yicha texnologiyalar tadbiq qilinishi

Yaxlit o`qitish jarayoni bo`yicha tex. joriy etishni

Fanlararo o`qishga tex. joriy etishni

**Amaliy aspektda umumpedagogik texnologiyalar nimani ifoda etadi?**

\*Ta`lim-tarbiya jarayonini

Yaxlit ta`lim jarayonini

O`qitish jarayonini

Rivojlantiruvchi ta`lim jarayonini

**Amaliy aspektda xususiy metodik texnologiyalar nimani ifoda etadi?**

\*Bir fan doirasidagi ta`lim jarayonini

Bir necha fanlar doirasidagi o`qitish jarayonini

Mavzu bo`yicha o`qitish jarayonini

Bir soatlik mashg`ulot bo`yicha o`tkazilgan jarayonni

**An`anaviy ta`lim tizimi deganda nima tushuniladi?**

\*Yuqoridagilarni barchasi to`g`ri O`qituvchini darsni to`laqonli bajarishi

Talaba va o`quvchilar darsda passiv holda qatnashishi

Talaba va o`quvchilarni mustaqil fikrlashga yo`l qo`ymaslik

**An`anaviy usulda o`qitishining eng jiddiy kamchiligi nima?**

\*Mashg`ulotlarda talabalarning passivligi

Mustaqil ta`limda asoslanganligi

Bilimni tekshirish usullarining ozligi

Konspekt yozish amaliyoti qo`llanilmasligi

**An`anaviy usulda o`qitishning mazmuni qanday?**

\*Klassik predmetli

Informatsion bildiruvchi

Mustaqil o`qishga asoslangan

Yangi material berishga qaratilgan

**B.Blum taksonomiyasi quyidagi qaysi javobda ko`rsatilgan?**

\*O`quv maqsadlariga mos keladigan fellar bilan qo`llash

Darsni samarali o`tish

Darsda ko`rgazmali vositalardan foydalanish

Darsni og`zaki bayon usulidan foydalanish

**B.Blumning 1956 yilda chop etilgan «Taksonomiya» kitobida o`qitish maqsadlarining qaysi sohasi ifodalangan?**

\*Kognitiv (bilishga oid) soha

Affektiv (hissiyotli) soha

Psixomotor (harakatli) soha

Rivojlantiruvchi soha

**Barcha darajadagi maktablarga qo`yiladigan ilmiy -texnikaviy va ijtimoiy taraqqiyot sharti**

\*Ijodiy shaxs sifatlarini shakllantirish

Ijodiy faoliyat turlarini kengaytirish

Zarur bilimlarni qidirishni o`rganish

O`quvchining qiziqishini kuchaytirish

**Bilimlarni faollashtirish va rivojlantirish usuli yangi pedagogik texnologiyadagi qaysi usulga to`g`ri keladi?**

\*Semantik usuliga

Aqliy fujum usuliga

Klasterlar tuzish usuliga

Sinkveyn usuliga

**Bilimni og`zaki nazorat qilishni kamchiliklari nimalardan iborat?**

\*Ko`p vaqt sarflanishi, ishonchlilik darajasini pastligi

Pedagogning sub`ektiv

munosabati, ko`p vaqt sarflanishi

Texnik vositalardan

foydalanmaslik

Talabaga o`z bilimni

ko`rsatishga oz vaqt berilishi

**Birgalikda o`qitish qanday natija beradi?**

\*Materialni puxta o`zlashtirish kuchayadi

O`zaro aloqa yuzaga keladi

Kollektiv muloqot va tanqidiy fikrlash rivojlanadi

Tez fikrlash malakasi o`sadi

**Boshlang`ich ta`limda**

«Pedagogik texnologiyalarning tarkibiy tuzilishi» qaysi qatorda to`g`ri ko`rsatilgan?

\*Kontseptual, mazmunli, jarayonli

Tex.jarayonli, ilmiylik, nazariyali

Yaxlit mazmunli, kontseptual, asosli, vositali

Vositali, tex.qurilmali, mazmunli

**Dars - bu:**

\*Aniq maqsadni ko`zlab olib boriladigan mashg`ulot

O`quvchilarga bilim berish

O`quvchilarga tarbiya berish

O`quvchilarni ma`lum kasb-hunarga yo`naltira olish

**Dasturlashtirilgan o`qitish**

**texnologiyasining asosiy**

**tamoillari qaysilar**

\*Kichik qadamlar javobini darrov tasdiqlash, o`qitish

suratini moslashtirish

Materialni soddalashtirish tez-tez takrorlash oldindan tayyorlangan

material bilan ishlash

O`qitiladigan fanlar ro`yxatini tuzish asosida o`quv jarayonini

rejalashtirish

Har bir o`quvchining rivojlanish darajasini reja asosida tashkil

etish

**Dasturli ta`limning**

**komp'yuterli tili (logo) qachon**

**va qaysi mamlakatda ishlab**

**chiqilgan?**

\*1968 yil, AQSH

1961 yil, Angliya

1976 yil, Rossiya

1985 yil, Italiya

**Dialektik jarayon nima?**

\*Sifat o`zgarishlar jarayonidir

Jarayonlarni aynan takrorlanishi

Jamiyatga xos ajralmas xususiyat

Soddadan murakkabga boruvchi

**Didaktogeniya nima?**

\*O`qituvchini o`quvchilarga qo`pol munosabati

O`qituvchining darsdagi roli va dars uslublari

O`qituvchini individual sifatleri

O`quvchilarni darsda passiv pozitsiyasi

**Zamonaviy pedagogik texnologiyalar qaysi fanlar turkumiga kiradi?**

\*Pedagogik fanlar

Psixologik fanlar

Biologik fanlar

Matematik fanlar

**Ijobiy mustahkamlovchi rag`batlash qoidasi nima?**

\*O`quvchining ma`qul hatti harakatlarini rag`batlantirish

O`quvchining yutuqlarini ta`kidlash

O`quvchini faoliyatga chorlash

O`quvchida xatti xarakteratga istak tufdirish

**Insert usuli nima?**

\*O`quv materialning har bir satr boshining mazmuni baholanishi

Materialni eng qiziq joyini ajratib ko`rsatish

Matnga nisbatan o`z fikr va munosabatni bildirish

Yangi ma`lumotni baholash va uni to`plash

**Insert usulida nimaga asosan matn xotirada uzoq mudat saqlanib qoladi?**

\*Matn mazmuni ongda qayta shakllantirish evaziga

Matnni tez- tez takrorlash va o`z ustida ishlash evaziga

Matnni yodlash orkali

Matnni o`zlashtirish orkali

**Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan barcha tadbirlarni amalga oshirishni 1 bosqichi qaysi yillar hisoblanadi?**

\*1997 – 2001 yillar

1997 – 2000 yillar

1998 – 2001 yillar

1995 – 2001 yillar

**Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan tadbirlar necha bosqichda amalga oshiriladi?**

\*3 bosqich

4 bosqich

2 bosqich

5 bosqich

**Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsadi:**

\*Ta`lim sohasini tubdan isloh qilish

Dars jarayonida qattiq qo`llik bilan ish olib borish

O`quv jarayonida avtoritar usulni qo`llash

Talabalarga ilm berishni yaxshilash

**Kadrlar tayyorlash Milliy modelining tarkibi qaysi qatorda to`g`ri ko`rsatilgan?**

\*Fan, jamiyat, shaxs

Shaxs, jamiyat, iqtisodiyot

Uzluksiz ta`lim, shaxs, tarbiya

Ishlab chiqarish, ta`lim, tarbiya

**Matnli orqali o`qitish texnologiyasi nima?**

\*Talaba o`quv matndan borliq va o`tmishni kuzatadi

Amaliyotga mos vazifalarni ishlab chiqish o`qitish

Ma`lum vazifa uchun matn tayyorlash

Talabalarga o`qituvchi matni berishi

**Muqobillik amaliyot qoidasi nima?**

\*To`la mos keluvchi mavzularni tanlash

Pedagogik faoliyatni yo`nalishi

O`quv jarayoniga yo`naltirish

O`quv natijalarini rejalashtirish

**Natijalarni bilish qoidasi nima?**

\*O`quvchining har bir hatti harakatini zudlik bilan baholash

O`quvchining bilimini nazorat qilish

O`quvchining bilimini tekshirib turish

O`quvchini zarur bilimlardan habardor qilish

**Nutq turlari - bu:**

\*Yozma va og`zaki

Ichki va tashqi

Yaxshi va ravon

Ichki va ofzaki

**Pedagogik maqsadlar taksonomiyasining mazmuni**

**O`quv maqsadlarini:**

\*Ketma-ket joylab turkumlash

Soddadan murakkabga qarab turkumlash

Murakkabdan soddaga qarab turkumlash

Aralash xolda turkumlash

**Pedagogik texnika nima?**

\*Guruhga ta`sir uchun kerak bo`lgan o`qituvchi bilimi

O`qituvchining ish tajribasi va ko`nikmasi

O`qituvchining amaliy tayyorgarligi va ta`siri

O`qituvchining o`qitish uslubi

**Pedagogik texnikaning asosiy elementi qaysi qatorda to`g`ri ko`rsatilgan?**

\*Tarbiyachi barchaning e`tiborini boshqarib borishi

Pedagogning o`quv maqsadlarning to`fri tanlashi

O`quvchilarning ehtiyojini to`g`ri tushunishi

O`quvchi va o`qituvchi muloqoti

**Pedagogik texnologiya bo`yicha aniq o`quv mvzusini o`rganish bo`yicha o`quv maqsadini shakllantirishdagi eng muhim narsa?**

\*Ta`lim oluvchining hatti-harakati bilan ifodalanuvchi kutilgan natijalarni tasvirlash

Ushbu dars davomida pedagog faoliyatini aniq belgilash va uni amalga oshirish

O`rganilayotgan mavzu bo`yicha muammoli savol qo`yish va tekshirish

Mavzu bo`yicha o`quv maieriallarni jiddiy tiklash va uni o`quchilarga tadbiq qilish

**Pedagogik texnologiya qanday erishiladi?**

\*Pedagoglarning YAPT yordamida o`qitish orqali erishiladi

Pedagoglarning mustaqil o`qitish hisobiga erishiladi

Pedagoglarning bir biri bilan tajriba almashishi

YAPT erishishning yo`li muammoli savol qo`yish va tekshirish

### **Pedagogik texnologiya nima?**

\*O`quv jarayoni samarasini texnologiyalashtirish

O`qitish usullari samarasini texnologiyalashtirish

O`qitishning maqsad va vazifalari

O`qitish samaradorligini oshirish va uni amalga oshirish

### **Pedagogik texnologiyada o`quv maqsadlari va vazifalarini ishlab chiqish nima bilan samarali?**

\*Nazorat savollarini tuzish bilan Baholash metodlari bilan

Bilimni hajmi va mazmuni bilan Bilimlarni mustahkamlash yo`li bilan

### **Pedagogik texnologiyada eng asosiy narsa...**

\*O`qishning aniqlangan maqsadlarini belgilash

Iqtisodiy rivojlangan ilg`or pedagoglar tajribasini o`rganish

Kompyuter va texnik vositalardan foydalanish

Pedagoglarning shaxsiy mahoratini oshirish uchun qayta malakasini oshirish

### **Pedagogik texnologiyalarning asosiy prinsiplari**

\*Loyihalashlik, kafolatlashlik

Tushunarlilik, ilmiylik

Ko`rgazmalilik, onglilik

Loyihalashlik, o`zlashtirishni

### **Pedagogik texnologiyalarning aspektlari**

\*Ilmiy, amaliy, tavsifiy

Nazariy, uslubiy, tavsifiy

Amaliy, nazariy, tavsifiy

Kontseptual, uslubiy, tavsifiy

### **Pedagogik texnologiyalarning ilmiy maktablarini yaratgan o`zbek olimlari qaysi javobda to`g`ri ko`rsatilgan?**

\*U.Nishonaliev, N.Saidaxmedov

K.Xoshimov, R.Mavlonova

Q.Baratov, e.CHoriev

Dolimov, e.Foziev

### **Pedagogik texnologiyani aniq ifodalovchi belgi**

\*Kutilajak natijali qayta takrorlanuvchi o`quv jarayoni

Eng yaxshi pedagogik uslublarning ommalashtirilishi

Kompyuter va texnik vositalardan samarali foydalanish

Didaktik talablarning to`la bajarilishi

### **Pedagogik texnologiyani ta`lim jarayoniga qo`llashda eng muhim tadbirlar?**

\*Pedagoglar tomonidan  
texnologik yondashuvni  
o`zlashtirish

Ta`lim muassasasini kompyuter  
va texnik vositalar bilan  
ta`minlash

O`quv reja va dasturlarga  
kuzatishlar kiritish

Yangi asosidagi darslik va o`quv  
adabiyotlari bilan ta`minlash

### **Pedagogik texnologiyaning nazariy asoslari**

\*Metodologik, pedagogik,  
psixologik

Ilmiy, amaliy, nazariy

Metodik, didaktik, texnologik

Didaktik, metodik, pedagogik

### **Pedagogik texnologiyaning samarali va istiqbolli ekanligini nima aniqladi?**

\*Pedagogik monitoring

Natijalar

Kuzatish va mustaqil ishlash

Tarbiyaning mazmuni va usullari

### **Pedagogika texnologiyalarning rivojlanish tarixi necha bosqichga bo`lib o`rganiladi?**

\*4 bosqichga

2 bosqichga

3 bosqichga

5 bosqichga

### **Pedagogikada jazolash usuli qanday amalga oshiriladi:**

\*Tushuntirish, tanbeh berish,  
ogohlantirish, qattiq

ogohlantirish, uyaltirish

Kaltaklab urib, haqorat berish,  
omma oldida sharmanda qilish

Jarima solish, darsga kirishga  
yo`l qo`ymaslik

Ogohlantirish, ma`naviy targ`ibot  
ishlarini olib borish

### **Pedagogikada monitoring bu....**

\*O`quv jarayonini uzluksiz, uzoq  
muddatli kuzatish va uni  
boshqarish

Ta`lim tizmini tahlil qilish va uni  
kuzatib borish

Dars o`tish jarayonini nazorat  
qilish va tegishli xulosalar  
chiqarish

O`quv ishlari bo`yicha direktor  
o`rinbosari ishlariga  
ko`maklashish

### **Pedagogik mahoratning asosiy qismini nima tashkil qiladi ?**

\*Pedagogik texnikaga ega  
bo`lish

Amaliy tayergarlik

O`quvchilar bilan muloqatda  
oddiylik va tabiiylik

Pedagog o`quvchi e`tiborini  
boshqarish

### **Praduktiv darajadagi test topshiriqlarning farqlovchi xossasi nima?**

\*Mantiqiy asoslangan o`zaro  
bog`lanagan xulosalar zanjirini  
tuzish

Ilmiy ketma –ketlik va mantiqqa  
ega bo`lishi

Talabani o`ylashga majbur qilishi  
va o`zaro bog`langanligi

O`rganilayotgan materialga  
moslanishi va bog`liq bo`lishi



**Repraduktiv usulda  
o`quvchilarning  
tayyorgarligida qanday  
kamchilik bo`ladi?**

\*Ilmiy bilimdan ishonishdan  
ajrata olmaslik

Bilimlarni chala o`zlashtirish

Nazariy bilimlarni kamligi

Tahlil va gipoteza qilish  
qobiliyati shakllanmasligi

**Selevko G.K «Ta`limning  
zamonaviy texnologiyalari  
(M,1998)» kitobida pedagogik  
texnologiyalarni nechta  
yo`nalishida turkumlashni  
tavsiya etadi?**

\*12 yo`nalishda

10 yo`nalishda

14 yo`nalishda

16 yo`nalishda

**Semantik tahlil qachon yaxshi  
natija beradi?**

\*Matnlarga asoslanmagan  
mashg`ulotlarda qo`llansa

Kalit so`zlar tahlilida va tajriba  
usulida

Namoyish qilish uslubida

Matnlarga asoslangan  
mashfulotlarda qo`llansa

**Semantik tahlil nima?**

\*So`z ma`nolarini tahlil qilish

O`tilayotgan mavzuni tahlil qilish

Talabalar fikrini tahlil qilish

G`oyalarning qiyosiy tahlili

**Snikveyn usulining ma`nosi**

\*Fransuzchadan, 5 qatorli o`qish

Fransuzchadan, 2 qatorli o`qish

Fransuzchadan, 3 qatorli o`qish

Fransuzchadan, 4 qatorli o`qish  
**Talabalar darsda zerikmasligi  
uchun diskussiyani qanday  
tashkil etish kerak?**

\*O`quvchilarni o`zini ko`proq  
savol berishga undash kerak

Talabalar monologini  
ko`paytirish kerak va uni joriy  
etish kerak

Tortishuvga ko`proq vaqt berish  
kerak

Bildirilgan fikrga qarshi fikr  
aytishga o`rgatish kerak

**Talabalarni aytilgan g`oyaning  
 mantiqiy oqibati to`g`risida  
fikrlashga o`rgatish uchun  
nima qilish kerak?**

\*Fikrlarga asoslashni yanada  
aniqroq javob topishga harakat  
qilishi

O`quvchi xatosiga ta`sir  
ko`rsatish zarur va uni tuzatishi  
kerak

Gapirishdan oldin sukut  
saqlashga o`rgatish zarur

Fikrdagi maqsadni tushunishga  
o`rgatish kerak

**Ta`lim amaliyotiga nisbatan  
pedagogik texnologiyalarning 3  
satxi (darajasi)ni belgilang**

\*Umumpedagogik, xususiy  
metodik, lokal (moduli)  
texnologiya

Lokal (moduli), interaktivli,  
rivojlantiruvchi texnologiya

Uslubiy, amaliy, nazariy  
texnologiyalar

Lokal (moduli), axborotli, dasturli texnologiyalar

**Ta`limga texnologik yondashuv qachon paydo bo`lgan?**

\*XX asr 30-yillarida

XX asr boshlarida

XX asr 40-yillarida

XX asr 50-yillarida

**Ta`limda funksional rivojlanish nima?**

\*O`quvchining ijod qilib kasbiy ko`nikma va bilimga ega bo`lishi  
Sohaga tegishli bo`lgan ish bilan band bo`lish

Individual faoliyatga ko`proq e`tibor berish

Aniq oldindan belgilangan vazifalarni bajarish

**Ta`limning reprodüksiya usulining asosiy alomati nima?**

\*O`quvchilar tushunib olgan qayta tiklaydilar

O`qituvchi bilimlarini tayyor holda bayon qilish

Informatsiyani ko`p marta qaytarish

Tayyor bilimlarni o`quvchilarga etkazish

**O`zlashtirishning prouktiv darajasida o`quvchining faoliyati nima bilan tavsiflanadi?**

\*O`zlashtirilgan ma`lumotni amaliy sohada qo`llay

Topshiriqni tez echishni o`rganish bilan

Xulosalar qilish bilan, ma`lumotni olish bilan

Topshiriq mazmunini tahlil qilish bilan

**O`zlashtirishning reproduktiv darajasida test topshiriqlari yechilayotganda o`quvchidan qanday aqliy faoliyat talab qilinadi**

\*Ilgari o`rganilgan algoritmlarni yoddan qo`llash

Nazariy qoidalarni tushinish

Fikrlashni tezkor usulini qo`llash

Nazariy ma`lumotlarni eslash

**O`z-o`zini motivlashtirish strotegiyasi nima?**

\*O`z oldiga maqsad qo`yish va unga erishishga intilish

Oldindan hatti-harakatni maqsadga yo`naltirish

Biron-bir narsaga hohish o`rnatish

Ijodiy yondashuvga ko`proq intilish

**O`qitish jarayonida faoliyatning qanday uslublari mavjud**

\*Avtaritar, demokratik, liberal

An`anaviy ilfor, kontservativ

Noan`anaviy milliy tarbiyaviy

Optimal, rag`batlantiruvchi, jazolovchi

**O`qitishning an`anaviy usuli qanday tavsiyaga ega?**

\*Reprodiktuv

Texnokratik

Izlanuvchan

Real bilimlar berish

**O`qitishning boshqarish qonuniyatiga ko`ra o`qitish maxsuldorligi nimaga bofliq?**

\*O`qitish tizimidagi qaytib boflanishlarga jadalligi Takrorlashga va uni amalga oshirishga

Moddiy va ma`naviy ta`minotga O`qitish vazifalari va ta`minotga

**O`qitishning interaktiv usuli quyidagi qaysi javobda ko`rsatilgan?**

\*Interaktiv usul-munozara “aqliy hujum” kichik guruhlarda ishlash Interaktiv usul An`anaviy ta`lim berish

An`anaviy ta`limda “aqliy hujum” usulidan foydalanish O`qituvchining o`quvchilarga qiziqarli dars o`tishi

**O`qitishning interaktiv usullari nima?**

\*Munozara aqliy xujum kichik guruhlarda o`qitish

O`qituvchi va o`quvchining muloqati

Yangi maxsus adabiyotlarni o`rganish

Materialni to`liq o`zlashtirishga erishish

**O`qituvchi kim?**

\*Yoshlarga ta`lim va tarbiya beruvchi shaxs

O`qituvchi - ustoz.

Ta`lim beruvchi shaxs

O`ta madaniyatli, o`z fanining ustasi, bolalarni sevo oladigan shaxs

**O`qituvchi uchun**

**o`quvchilarni samarali o`qishga o`rgatishning asosiy vazifasi nima?**

\*Fikrlashni rivojlantirishni samarali strategiyalarini o`zlashtirish

O`quvchilar fikrini eshtish

O`z fikrni isbotlashga o`rgatish

Pedagogik texnologiyalarning samaradorligini tekshirib chiqish

**O`quv jarayoni natijasining shakllanishini jamlab**

**aniqlaydigan omillar qaysilar**

\*O`quv material tashkiliy pedagogik ta`sir, o`quvchilarni o`qishga moyilligi

Mablag` pedagogning ishga munosabati

O`quvchilarni darsga tayyorgarligi va o`qituvchidagi pedagogik ko`nikma

O`quvchilarning o`z mhnatidan manfaatdorligi va qiziqishlari

**O`quv maqsadlari taksanomiyasi nima?**

\*Narsalarni tabiiy bofliqligi ko`ra ketma-ket joylashtirish

Sinov va baholash mezonlarini ishlab chiqish

Umumiy tushuncha va pedagogik nazariyalar

Ijodiy fikrlash va materialni o`zlashtirish

**O`quv rejasiga asosan tuziladigan hujjatlarning nomini ko`rsating**

\*Maktabning yillik o`quv rejasi

Sinf rahbarining tarbiyaviy ish rejasi

Dars jadvali

Dars tartibi

**O`quvchi bilimi test sinovi orqali kim tomonidan birinchi marotaba tekshirilgan?**

\*J.Fisher 1864 yil

A.F.Gamelton 1870 yil

B.G.Pestolotsiy 1822 yil

S.CH.Grin 1920 yil

**O`quvchi o`quv faoliyatini boshqarishning uch usuli bu:**

\*Aralash; an`anaviy; avtoritar

Avtoritar; totalitar; liberal

Liberal; an`anaviy; oddiy

Oddiy; murakkab; demokratik

**O`quvchining guruhdagi mavqeyi nima?**

\*O`quvchini faolligi faolligi va erishgan yutuqlari

O`quvchining qiziqishi va faolligi

O`quvchi darsda bajariyotgan roli

O`quvchining individual ruhiy sifatlari

**O`xshash amaliyot nima?**

\*O`rganilayotgan savollar yozishda muntazam shufullanish

Muntazam o`qish va yozib borish

Amaliyotga ko`proq e`tibor berish va ular bilan shufullanish

Muntazam o`z ustida ishlashda uni nazorat qilib borish

**YUNESKO tashkilotining «Pedagogik texnologiyalar» blyuteni nechanchi yildan buyon chiqarilib kelinadi?**

\*1971 yildan

1961 yildan

1981 yildan

1991 yildan

**Yangi pedagogik texnologiyada kashfiyot orqali o`qitish nima?**

\*Talaba shaxsiy kashfiyot qonuniyati orqali borliq haqida bilim olish

Izlanishga e`tibor berish va kuzatib borish

Pedagog va talabaning izlanish asosidagi hamkorligi va samaradorligi

Talabaning yangi bilimlarni o`zlashtirishi va unga yordam berishi

**Yangi pedagogik texnologiyalarda o`qitish usuli (metod) bu-:**

\*Kutilayotgan natijaga erishish

Dars o`tish

Biron bir mavzuni muhokama qilish

O`qituvchining ijodi

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. -Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // "Xalq so'zi" gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.

2. Mirziyoyev Sh.M.- Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017.

3. Mirziyoyev Sh.M.- Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: "O'zbekiston", 2016.

4. Mirziyoyev Sh.M.- Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2016, ... bet.

5. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. 1-ilova: "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi". Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 8 fevral soni va Internet resurs: [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: O'zbekiston, 2014. – 46

7. J.G'.Yo'ldoshev, S.A. Usmonov. - Pedagogik texnologiya asoslari. T. «O'qituvchi». 2004 yil.

8. K.Tolipov, M.Usmonboeva.- Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari.T. «Fan», 2006 yil.

9. V.M.Karimova, F.A.Akramova- Psixologiya. Ma`ruzalar matni. T. FTDK, DITAF 2000 yil.

10. M.Mavlonova, O.To`raeva, K.Xoliqberdiev. - Pedagogika. T. «O'qituvchi».

11. R.J.Ishmuxammedov.- Innovatsion texnologiyalar yordamida ta`lim samaradorligini oshirish yo'llari. T.Nizomiy nomidagi TDPU, 2004 yil.

12.J.Fozilov,R.Sultonov,H.Saidov.-O`quvchima`naviyatini shakllantirish. T. «Sharq», 2000 yil.

13. М.А.Давудова, И.А.Агапова.- Музыкальные вечера в школе. М. 2001г.
14. X.Nurmatov, N.Norxo`jayev. -Musiqa 2- sinf. T. G`.G`ulom, 2003 yil.
15. X.Nurmatov, N.Norxo`jayev, A.Mirraximov. -Musiqa 3-sinf. T. G`.G`ulom, 2003 yil.
16. O.Ibrohimov, J.Ibrohimov. -Musiqa 4-sinf. T. G`.G`ulom, 2003 yil.
17. A.Mansurov, D.Karimova.- Musiqa 5-sinf. T. G`.G`ulom, 2004 yil.
18. S.Begmatov va b. -Musiqa 6-sinf. T. G`.G`ulom 2002 yil.
19. O.Ibrohimov, J.Sadirov.- Musiqa 7- sinf. T. G`.G`ulom 2003 yil.
20. Azizov O.- Solfedjio (ko`p ovozli). Toshkent, «Musiqa», 2007.
21. Jabborov A.- Musiqiy drama va komediya janrlari o`zbek kompozitorlarining ijodiyotida. – Toshkent: «G`.G`ulom», 2000.
22. Jono Kornfeld.- Music Notation and Theory for Intelligent Beginners, 2005.
23. Catherine Schmidt. Understanding Basic Music Theory. – Jones. Rice University, Houston, Texas, 2007,
24. Ibrohimov O., -Yunusov R.- Solfedjio darsligi. Toshkent, «Musiqa», 2004.
25. К вопросу о «восточном симфонизме».- В сб.: Борбад и художественные традиции народов Центральной и Передней Азии, Душанбе, 1990.
26. XX век меняет музыкальную карту мира. -В сб.: Санъатшунослик масалари. - Т., 1995.
27. Matyokubov O.- Maqomot. – Toshkent: “Musiqa”, 2004, ... bet. Mark Feezeel. Music Theory Fundamentals. –Texas University.
28. Музыка Е. Д., - Критская, Г. П., Сергеева, Т. С. Шмагина. – Москва: «Просвещение», 2007.
29. Odilov A. -O`zbek xalq cholg`ularida ijrochilik tarixi. – Toshkent: “O`qituvchi”, 1995.
30. Rahimov Q.- Musiqaning elementar nazariyasi. (Ma`lumotnoma), Toshkent, “Musiqa”, 2007.
31. Rahimov Q. -Musiqaning elementar nazariyasi bo`yicha mashq va vazifalar to`plami. Toshkent, “O`zbekiston”, 2006.

32. Rahimov Q. -Garmoniya bo'yicha mashq va masalalar to'plami. «Aloqachi», 2005.
33. Ройтерштейн М.И. -ОСНОВЫ теоретического музыкознания. М., «Академа», 2003.
34. Sur la structure de la musique contemporaine de l'orient sovietique (d'apres Pexemple de l'Ouzbekistan). Le III-eme symposium international des musicologues. – Samarkand, 1987.
35. «Стоит жить на свете, пока сочиняется такая музыка» (в соавт.- с Ф. Янов-Яновским) «СМ», 1985, №12.
36. Сами Азиз ўғли.- Гармония. Т., «Ўзбекистон», 2002.
37. Trigulova A.X. -Chet el musiqa tarixi. (romantizm davri, Shubert, Shopen, List). – Toshkent: “Nizomiy nomli TDPU”, 2008.
38. Trigulova A.X. Xorijiy musiqa adabiyoti. –Toshkent: «Ilmziyo», 2009.
39. Theory of Music Syllabuses. – University of South Africa, 2011.
40. Urmanova L.A. - Rus musiqasi tarixi. – Toshkent: «Musiqqa», 2011.

### **Internet saytlari**

[www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)

[www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)

[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

[www.edu.uz](http://www.edu.uz)

[tdpu-internet.Ped](http://tdpu-internet.Ped)





**B.X.MADRIMOV**

**MUSIQA O'QITISH TEXNOLOGIYALARI VA  
LOYIHALASH  
(darslik)**

<i>Muharrir:</i>	<i>G`.Murodov</i>
<i>Texnik muharrir:</i>	<i>G.Samiyeva</i>
<i>Musahhih:</i>	<i>A.Qalandarov</i>
<i>Sahifalovchi:</i>	<i>M.Ortiqova</i>

Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi: 29.10.2020. Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli. «Times New Roman» garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma qog`ozi. Bosma tobog`i 11,5. Adadi 100. Buyurtma №181.

Buxoro viloyat Matbuot va axborot boshqarmasi  
“Durdona” nashriyoti: Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko`chasi, 11-uy.  
Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko`chasi, 11-uy. Tel.: 0(365) 221-26-45